



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O'ZBEK TILI KAFEDRASI

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI
FANIDAN O'QUV-USLUBIY MAJMUA

QO'QON - 2020

Ushbu o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017-yil 24.08.dagi 5D 5111200 3-14-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan"Hozirgi o'zbek adabiy tili" fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: I.Madrahimov, Qo'qon DPI o'zbek tili kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Taqrizchi: Sh.Akramov, Qo'qon DPI o'zbek tili kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Ushbu o'quv-uslubiy majmua Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti Kengashining 2020-yil 30-avgustdagi 1-sonli majlis bayonida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

MUNDARIJA:

I. O'QUV MATERIALLAR

1) **Ma'ruza mashg'ulotlari**

2) **Amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari**

II. MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

1) **Mustaqil ta'lim mavzularini o'zlashtirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar**

2) **Kurs ishi yozish bo'yicha tavsiyalar**

III. GLOSSARIY

IV. ILOVALAR

1) **Fan dasturi**

2) **Ishchi fan dastur**

3) **Tarqatma materiallar**

4) **Testlar**

5) **Baholash mezonlari**

6) **Boshqa ma'lumotlar (fan bo'yicha boshqa materiallar mavjud bo'lsa keltiriladi)**

7) **O'UMning elektron variant (CD yoki DVD diskda)**

MA'RUZA MATNLARI

1-MAVZU: LEKSIKOLOGIYANING O'RGANISH OBYEKTI, PREDMETI VA VAZIFALARI

Ma'ruza rejasi.

1.1. Leksikologiyaning obykti, predmeti, maqsadi, vazifalari va turlari .

1. Leksikologiyaning obykti, predmeti, maqsadi, vazifalari.
2. Leksikologiyaning turlari:
 - a) umumiy leksikologiya;
 - b) xususiy leksikologiya (tavsifiv, tarixiy leksikologiyalar);
- 3 Leksikologiyada lug'at boyligining sistema sifatida o'rganilishi;
4. Leksikologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Adabiyotlar: A-2 (137-140-b) A-3(3-6-b.)

Tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha-ruscha lug'ati

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Leksikologiya	Lexicology	Лексикология
Obyekt	Object	Объект
Predmet	Object, thing	Предмет
Maqsad	Aim, purpose	Цель
Vazifalar	Functions	Функции

Obyekti-tilning lug'at boyligi.

Predmeti- lug'at boyligining strukturaviy va sistemaviy xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini, tilning boshqa sathlari (fonetik sath, grammatik sath) bilan aloqasini tadqiq qilish.

Maqsadi –talabalarda leksikologiyaning **obyekti** va **predmeti** haqida mustahkam bilim darajasini shakllantirish

Vazifalari a) muayyan tilning lug'at boyligidagi eskirish va yangilanish jarayonlari, bu jarayonlarda lisoniy va nolisoniy (lingvistik va ekstralingvistik) omillarning ishtirokini o'rganish; b) lug'aviy birliklarning funksional-semantik tavsifini berish, ularning lisoniy va uslubiy vositalar sifatidagi xususiyatlarini yoritish; d) lug'at boyligidagi eskirgan, yangi va zamonaviy qatlamlarni, tematik guruhlar va mikrosistemalarni aniqlash; e) talabalarni leksikaga oid nazariy bilimlar bilan qurollantirish, ularda leksik-semantik tahlil ko'nikmalarini shakllantirish.

1. Umumiy leksikologiyada barcha tillarning lug'at boyliglaridagi umumiy holatlar, bu tizimlarning taraqqiyotini belgilovchi umumiy qonuniyatlar ko'riladi. Masalan:

- barcha tillarning lug'at boyliglarida struktura va sistema munosabatlari bor;
- barcha tillarning lug'at boyliglarida rivojida lisoniy va nolisoniy omillar ishtirok etadi;
- barcha tillarning lug'at boyliglarida taraqqiyotida til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur munosabatlarining ta'siri bor;
- barcha tillarning lug'at boyliglarida tadrijiy ravishda eskirish va yangilanish jarayonlari bo'lib turadi;
- barcha tillarda lug'aviy birliklarning zamoniylig, tarixiylik, emotsional- ekspressivlik va boshqa jihatlardan qatlamlanishi yuz beradi;

-barcha tillarda lug‘aviy birliklar ma‘lum tematik va leksik-semantik guruhlarga uyushadi, bunday guruhlar o‘z navbatida sistema va tagsistena yoki makrosistema va mikrosistema munosabatlarida bo‘ladi.

2. Xususiy leksikologiya muayyan bir tilning lug‘at boyligi o‘rganiladi: o‘zbek tili leksikologiyasi, rus tili leksikologiyasi, ingliz tili leksikologiyasi kabi.

Xususiy leksikologiya muayyan bir tilning lug‘at boyligini tadqiq qilishda umumiy leksikologiyadagi nazariy umumlashmalarga va har bir tilning o‘z materialiga asoslanadi. U o‘z navbatida ikki turga-tavsifiy (sinxron) va tarixiy (diaxron) leksikologiyalarga bo‘linadi.



1. Tavsifiy leksikologiya ayrim olingan bir tilning, masalan, o‘zbek tilining leksikasi statik holatda-shu til leksikasining avvalgi (o‘tmishdagi) taraqqiyot dinamikasiga bog‘lanmay o‘rganiladi, shunga ko‘ra u sinxron leksikologiya sanaladi.

2. Tarixiy leksikologiyada ayrim olingan bir tilning leksikasi dinamik holatda- tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan bog‘lab o‘rganiladi, shunga ko‘ra u diaxron leksikologiya hisoblanadi.

Hozirgi o‘zbek tili leksikologiyasi, asosan, tavsifiy (sinxron) leksikologiyadir, ammo unda tarixiy (diaxron) leksikologiyaga murojaat etish hollari ham bo‘lib turadi: o‘zbek tili lug‘at boyligining tarixiy va zamonaviy qatlamlarini, so‘zlarning hozirgi va eskirgan ma‘nolarini qiyoslash, tavsiflash kerak bo‘lganda shunday qilinadi. Masalan: yog‘och- “daraxt” (eski o‘zbek tilida), “tayoq” (hozirgi o‘zbek tilida); chechak – “gul” (qadimgi va eski turkiy tillarda), “kasallikning bir turi” (hozirgi o‘zbek tilida), g‘am -“sevgi”, “muhabbat” (eski o‘zbek tilida), “tashvish” (hozirgi o‘zbek tilida) kabi.

Leksikologiyada lug‘at boyligining sistema sifatida o‘rganilishi:

Leksikologiyada tilning lug‘at boyligi sistema sifatida o‘rganiladi, chunki bu boylik so‘zlar va iboralarning oddiy, mexanik yig‘indisi emas, balki o‘zaro aloqada bo‘lgan, birining bo‘lishi ikkinchisining bo‘lishini taqozo qiladigan lugaviy birliklar va elementlar tizimidir, bu tizimdagi so‘z va elementlar yaxlit bir “organizm”ning “to‘qimalari” va “hujayralari” munosabatida bo‘ladi.

Tayanch so‘zlarning o‘zbekcha - inglizcha-ruscha lug‘ati

O‘zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Leksikologiya	Lexicology	Лексикология
Obyekt	Object	Объект
Predmet	Object, thing	Предмет
Maqsad	Aim, purpose	Цель
Vazifalar	Functions	Функции

Leksikologiya tilshunoslikning quyidagi bo'limlari bilan aloqada bo'ladi:

fonetika, semasiologiya, onomasiologiya, etimologiya, frazeologiya, til tarixi, dialektologiya, uslubshunoslik, badiiy matnning lisoniy tahlili va boshqalar bilan bog'liq jihatlari.

2-MAVZU: BIR MA'NOLILIK (MONOSEMIYA) VA KO'P MA'NOLILIK (POLISEMIYA).

Reja: Leksik monosemiya va polisemiya. Leksik ma'no tiplari. 1. Bir ma'noli leksemalar. 2. Ko'p ma'noli leksemalar. 3. Polisemem leksemalarning yuzaga kelishi yo'llari. 4. Polisemiya bilan omonimlarning farqli tomonlari.

Tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha-ruscha lug'ati

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Leksema	Lexeme	Лексема
Sema	eme	Сема
Semema	ememe	Семема
Atash semasi	Name seme	Называемая сема
Baho semasi	Appreciate seme	Оценивающая сема
Ma'no	Meaning	Значение
Termin	Termin	Термин
Uzual ma'no	Meaning of usual	Узуальное значение
Okkazional ma'no	Occasional value	Окказиональное значение

Leksik monosemiya (yunoncha: monos – «bir»+semia – «belgi») – leksemaning faqat bitta ma'noga ega bo'lishi. Masalan, o'zbek tilidagi **guruch** leksemasi «sholidan oqlab olinadigan oshlik don» ma'nosini, **abadiy** leksemasi «mangu, doimiy» ma'nosini, **tun** leksemasi «sutkaning kun botishdan kun chiqqungacha, oqshomdan tong otguncha bo'lgan qismi» ma'nosini ifodalaydi. Bu leksemalarning boshqa ma'nolari yo'q.

Monosemiya hodisasi o'zbek tilshunosligida *bir ma'nolilik* deb ham yuritiladi. Bir ma'nolilik ko'proq terminlarga, yangi yaratilgan yoki boshqa tildan yangi o'zlashtirilgan leksemalarning boshlang'ich ishlatilish davriga xosdir: *to'rtburchak* (matem.termin), *gummaxona* (yangi yaratilgan leksema), *supermarket* (yangi o'zlashtirilgan so'z) va b.lar.

Yangi yaratilgan yoki boshqa tildan yangi o'zlashtirilgan leksemalar vaqt o'tishi bilan turli lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida ko'p ma'noli so'zlarga aylanib qolishi mumkin. Atoqli otlar ham shartli ravishda monosemantik leksemalar qatoriga qo'shiladi.

Leksik polisemiya(yunoncha: poli-«ko'p»+semia-«belgi») – leksemaning bir necha ma'noga ega bo'lishi. Masalan, **tuz** leksemasining semantik tarkibida quyidagi leksik ma'nolar bor: 1) «kislota tarkibidagi vodorod o'rnini biror metall egallashi natijasida hosil bo'ladigan kimyoviy birikmalar» (*asosiy tuzlar, sulfat kislota tuzlari*);2) «kimyoviy birikmaning ovqat uchun ishlatiladigan bir turi» (*osh tuzi*); 3) ko'chma: «kimsaning boshqa odamga bergan, yedirgan-ichirgan ovqati» (*tuz bermoq, tuzini yemoq*); 4) ko'chma: mantiq, ma'no, mazmun: «Iyi-iyi, bu oyimchanning gapida tuz bormi o'zi?» (I.Rahim.)

Leksik polisemiya, odatda, bir leksemaning semantik tarkibidagi leksik ma'nolar orasida mazmuniy bog'lanish borligiga tayanadi, shu xususiyati bilan leksik omonimiyadan farq qiladi («Leksik omonimiya» bahsiga qaralsin).

Leksik polisemiyaning yuzaga kelishi ma'no taraqqiyoti qonuniyati bilan belgilanadi.

Leksik ma'no taraqqiyoti haqida umumiy ma'lumot. So'zning leksik ma'nosi qotib qolgan, o'zgarmas hodisa emas, u ancha barqaror bo'lsa-da, ma'lum omillar ta'sirida, uzoq yillar davomida o'zgarishi mumkin. Bunday o'zgarishlarga sabab bo'ladigan omillar ikki xildir: 1) ekstralingvistik (nolisoniy) omillar – ijtimoiy-iqtisodiy hayot, ong, tafakkur rivoji va b.lar. Masalan, **oyog** so'zi dastlab inson a'zolaridan birini nomlagan, keyinchalik u xontaxta, kursi, stol, stul, karavot kabi mebellarning «oyog'i»ni ham atay boshlagan: *xontaxtaning oyog'i, kursining oyog'i, stolning oyog'i, karavotning oyog'i* kabi. Bunga inson yashab turgan muhitda turli-tuman mebel-jihozlarning paydo bo'lganligi, shu bilan bog'liq ravishda inson ongida yangi tasavvurlarning yuzaga kelganligi, nihoyat, til bilan ijtimoiy hayot, ong va tafakkur o'rtasidagi murakkab aloqalar sabab bo'lgan; 2) lingvistik (lisoniy) omillar – til birliklarining til sistemasi ichidagi munosabatlari. Masalan, tilning lug'at boyligidagi **aniq** va **ochiq** leksemalari kontekstual sinonimiya munosabatida bo'lishi mumkin: *aniq gapirmoq* va *ochiq gapirmoq* kabi, ammo «ochiq eshik»ni «aniq eshik» deb bo'lmaydi, bunga **aniq** va **ochiq** leksemalarining ma'no xususiyatlaridagi o'ziga xoslik, ularning valentlik imkoniyatlari yo'l qo'ymaydi. Demak, leksemaning leksik ma'nosi yuqorida keltirilgan omillar ta'sirida o'zgarib turadi, leksik ma'no taraqqiyoti deyilganda shular nazarda tutiladi. Bunday taraqqiyotning yo'llari ham har xildir: ma'noning ko'chishi, kengayishi va torayishi, bundagi miqdor va hajm o'zgarishlari shular jumlasidandir.

Ma'noning ko'chishi – bir predmet (yoki hodisa) nomining keyinchalik boshqa predmet yoki hodisani anglatish xususiyatiga ega bo'lishi. Bunday ko'chish shu nom bilan atalayotgan ikki yoki undan ortiq predmet (hodisa) o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, **nafas** leksemasining bosh (to'g'ri) ma'nosi «o'pkaga olinadigan va undan chiqariladigan havo»dir, ammo *nafasingizni iliq qiling* deganda **nafas** leksemasi «havo»ni emas, «gap»ni va «niyat»ni ifodalamoqda, chunki nafas olish va nafas chiqarishsiz gap shakllanmaydi, gapsiz esa fikr-niyat ifodalanmaydi: nafas, gap, fikr-niyat o'rtasidagi ana shu aloqa va bog'lanish **nafas** leksemasining mazmun mundarijasidagi ma'no ko'chishlariga sabab bo'lgan.

Tilda ma'no ko'chishining quyidagi turlari uchraydi:

1. **Metafora yo'li bilan** ma'no ko'chirilishi:

a) ifodalanayotgan predmetlar (hodisalar) o'rtasidagi shakliy o'xshashlik asosida: *burun* («*odamning burni*»-bosh leksik ma'no) - *burun* («*choynakning burni*»-hosila ma'no);

b) ikkita belgi-xususiyat o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik asosida: **tez** («*oz vaqt ichida, darrov*»)-bosh leksik ma'no: *majlis tez tugadi* – *tez* («*darrov achchig'lanadigan, jizzaki*»- hosila ma'no: *tez odam*); **cho'qqi** («*tik narsalarning eng yuqori nuqtasi*»)- bosh leksik ma'no: *tog' cho'qqisi*- **cho'qqi** («*erishilgan yoki erishilishi mumkin bo'lgan eng yuqori pog'ona, daraja, ko'rsatkich*»)-hosila ma'no: *ilm-fan cho'qqisi; baxt cho'qqisi*);

d) narsa-predmetlarning u yoki bu qismlarini o'rin nuqtai nazaridan o'xshatish asosida: **bosh** («*tananing bo'yindan yuqoridagi qismi*»)- bosh leksik ma'no: *odamning boshi* – **bosh** («*tik narsalarning tepa qismi*»)-hosila ma'no: *shamol bo'lmasa, daraxtning boshi qimirlamaydi*);

e) bajarilgan yoki bajariladigan ish-harakatlar o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik asosida: **urmoq** («*qo'l yoki biror predmet vositasida zarba bermoq*»)-bosh leksik ma'no: *Bektemir miltiq qo'ndog'i bilan uning peshanasiga bir urdi* – **urmoq** («*tanqid qilmoq*»)-hosila ma'no; *Ota-buvamni kavlab, gazetaga urib chiqishdi*).

2. **Vazifadagi o'xshashlik asosida** ma'noning ko'chirilishi (funktional ko'chirish): **tomir** (*anat.* «*qon tomirlari*»-bosh leksik ma'no) – **tomir** (*biol.* «*o'simlik tanasida suyuqlik va undagi erigan moddalar oqadigan to'qima naychalar*»-hosila ma'no). **Tomir** leksemasining semantik tarkibidagi bu ikki ma'no shu leksema bilan atalayotgan «qon tomirlari» va «o'simlik tanasidagi to'qima naychalar» bajarayotgan vazifadagi o'xshashlikka asoslangan: har ikki holatda ham ular (tomir va naychalar) tirik organizm uchun kerakli moddalarning butun tana va to'qimalar bo'ylab tarqalishi uchun xizmat qiladi.

Vazifadoshlik asosida ma'noning ko'chirilishi **o'q** (nayzaning o'qi) - **o'q** (miltiqning o'qi)- **o'q** (zambarakning o'qi) kabi nomlanishlarda ham bor;

Izoh: Ba'zan ma'noning ko'chirilishida metafora va funksiyadoshlik (vazifadoshlik) omillari birga qatnashadi: **tish** («*odamning tishi*») – **tish** («*arraning tishi*») kabi. Bunda odam tishlari va arra tishlari o'rtasidagi shakliy-vazifaviy o'xshashliklar ma'no ko'chirilishiga olib kelgan; **qanot** («*qushning qanoti*») leksemasining ko'chma ma'noga ega bo'lishi (samolyotning qanotini ifodalashi) ham shakliy-vazifaviy o'xshashlikka asoslangan;

3. **Metonimiya y o' l i b i l a n** ma'noning ko'chirilishi (yunoncha: metonimia –«qayta nomlash»). Bunday ko'chirilish predmetlar yoki hodisalarning o'zaro aloqadorligiga asoslanadi. Buning quyidagi ko'rinishlari bor:

a) o'simlikning nomi shu o'simlik mevasidan yoki boshqa biror qismidan tayyorlangan mahsulotga ko'chiriladi: **muskat** (uzumning bir navi) – **muskat** (shu uzum navidan tayyorlangan vino), **choy** (o'simlikning bir turi) – **choy** (shu o'simlikning barglaridan tayyorlangan ichimlik), **qahva** (qahva daraxti) - **qahva** (shu daraxt mevasidan tayyorlangan ichimlik, kofe);

b) zamon va makonda bir-birining bo'lishini taqozo qilgan hamda birga qo'llanadigan ikki (yoki bir necha) predmetdan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi: *bir piyola choy ichmoq* (piyola o'z ma'nosida) – *bir piyola ichmoq* (piyola-ko'chma ma'noda);

d) bir predmetning nomi shu predmetdagi boshqa bir predmet-voqelikka ko'chiriladi: *sinf* («o'quv xonasi») – *sinf* («o'quvchilar guruhi»), *shahar* («yirik aholi punkti») – *shahar* («shahar aholisi») kabi. Masalan: «*Yangi yilni kutish bahonasida tunni bedor o'tkazgan shahar tongni ko'zda uyqu bilan kutib oldi*» (T.M.);

e) narsa nomi shu narsaga asoslangan o'lchov birligiga nom bo'lib ko'chadi: *kun* («quyosh»)- *kun* («sutkaning yorug' qismi»), *oy* («planeta»)-*oy* («yilning o'n ikkidan bir qismi»). Ba'zan buning aksi ham bo'ladi: vaqt o'lchovi nomi vaqtni o'lchaydigan asbobga nom bo'lib ko'chadi: **soat** («sutkaning yigirma to'rt dan biriga teng vaqt»)-**soat** («vaqtni sutka davomida o'lchab boradigan asbob»);

f) belgining nomi shunday belgisi bor bo'lgan narsaga (predmetga) ko'chiriladi: **ko'k** (rang nomi)-**ko'k** («ko'kat») – **ko'k** («osmon»); **yupqa** («qalinning aksi»)- **yupqa** (taom nomi) (27,84-b.) Bunday ko'chirilish leksik-semantik yo'l bilan yangi so'zning yasaliishiga ham olib keladi. Qiyos qiling: **ko'k** (1)-sifat, **ko'k** (2)-ot, **ko'k** (3)-ot; **yupqa** (1)-sifat, **yupqa** (2)-ot kabi. Demak, **ko'k** (1), **yupqa** (1) sifatlaridan **ko'k** (2), **ko'k** (3) va **yupqa** (2) otlari yasalgan. Bunday yasaliish dialektikaning miqdor o'zgarishidan sifat o'zgarishiga o'tish qonuni asosida sodir bo'ladi hamda polisemiya bilan so'z yasaliishi va omonimiya hodisalari o'rtasida o'ta murakkab munosabatlar borligidan dalolat beradi. Ularni maxsus tadqiq qilish o'zbek tilshunosligining navbatdagi vazifalaridan biridir;

g) asar muallifining nomi nutqda «asar» ma'nosida qo'llangan bo'lishi mumkin: *Navoiyni o'qidim*, *Oybekni o'qiyapman* kabi. Bunday paytlarda muallif nomi aytiladi-yu, uning asari (yoki asarlari) nazarda tutiladi. Demak, bunda ham metonimiya bor, ammo u til metonimiyasi emas, nutq metonimiyasidir. (27,84-85)

4. **Sinekdoxa y o' l i b i l a n** ma'noning ko'chirilishi (yunoncha: synekdoche – “birga anglamoq”, “qo'shib anglamoq”). Bunday ko'chirilish nomlanayotgan predmet yoki hodisalarning miqdor belgilariga tayanadi:

a) butunning nomi qismga ko'chiriladi: **qo'l** (butun) - **qo'l** (qism – «barmoq» ma'nosida: *Besh qo'l barobar emas*), **bosh** (butun)- **bosh** (qism-«miya», «aql-xush» ma'nolarida: *Tog'ning ko'rki tosh bilan, odamning ko'rki bosh bilan*);

b) qismning nomi butunga ko'chiriladi: **olma** (qism-«meva»)- **olma** (butun – daraxt: *olma gulladi*), **eshik** (qism – «uyning eshigi», «hovlining eshigi») – **eshik** (butun – «uy», «hovli»: *Eshigimda juda ko'p odamlar ishlagan. O.*), **tirnoq** (qism) – **tirnoq** (butun – «bola», «farzand»: *Sizga og'ir. Peshanangizga tirnoq bitmadi. Ko'nglingiz yarim. R.F.*), **tuyoq** (qism) – **tuyoq** (butun – «uy hayvoni», «mol»: *Nikolay zamonida ostonam tuyoq ko'rmagan. O.*).

Ma'noning kengayishi – leksemaning ma'no hajmida tor ma'nodan keng ma'noga qarab siljishning yuz berishi. Masalan, *yaylov* so'zi dastlab "tog'ning tepasidagi o'tloq"ni ifodalagan: qadimgi turkiy tilda *yay* (*yay*) so'zi "yoz"ni, *yaylag'* so'zi esa "yozlaydigan joy"ni anglatgan (105,226-227). Chorvadorlar yoz payti molni tog'ning tepasidagi o'tloqlarda ("yaylag'"da) boqishgan, qishda esa "yaylag'"dan "qishlag'"ga tushib yashashgan. Hozirgi paytda *yaylov* so'zi faqat tog'ning tepasidagi "mol boqiladigan o'tloq"ni emas, balki umuman "mol boqiladigan maydon"ni anglatadi, bunday maydon tog'ning tepasida ham, dasht-adirlarda va hatto pasttekisliklarda ham bo'lishi mumkin. Bunday ma'no kengayishi *qishloq* so'zining semantikasida ham sodir bo'lgan: u dastlab "qish faslida yashaydigan joyni"ni anglatgan, hozir esa umuman "aholi yashaydigan punktning bir turi" ma'nosini ifodalaydi.

Tilshunoslikda atoqli otning turdosh otga o'tishini ma'no kengayishi deb baholash holatlari ham bor. Masalan: *Rizamat* (atoqli ot) – *rizamat* (mahalliy, xo'raki va mayizbop uzum navi). Bu nav mashhur sohibkor Rizamat ota Musamuhamedov tomonidan yetishtirilgan va shu sohibkor nomi bilan atalgan (demak, so'zning ma'no hajmi kengaygan).

Ma'noning torayishi – leksemaning ma'no hajmida keng ma'nodan tor ma'noga qarab siljishning yuz berishi. Masalan: *vatan* (keng ma'noda: "kishi tug'ilib o'sgan mamlakat, ona-yurt") – *vatan* (tor ma'noda: "kishi tug'ilib o'sgan shahar yoki qishloq").

Turdosh otning atoqli otga o'tishi ham tilshunoslikda ma'no torayishi deb qaraladi. Masalan: *bolta* (turdosh ot) – *Bolta* (atoqli ot), *lola* (turdosh ot) – *Lola* (atoqli ot) kabi.

Leksik ma'no taraqqiyoti natijalari ikki xil bo'ladi: 1) so'zning semantik tarkibidagi ma'nolar miqdori ko'payadi, demak, miqdor o'zgarishi yuz beradi, bu hol polisemiya (ko'p ma'noilikka) va omonimiyaga olib keladi. Xususan, metafora, vazifadoshlik (funksiyadoshlik) va sinekdoxa yo'llari bilan ma'no ko'chirilishida ko'proq polisemiya yuzaga keladi, chunki bir leksemaning semantik tarkibida leksik ma'nolar miqdori ko'payadi: **ko'z** ("ko'rish a'zosi") – **ko'z** ("uzukning ko'zi") – **ko'z** ("taxtaning ko'zi") – metafora; **tish** ("odamning tishi") – **tish** ("arraning tishi")- metafora va funksiyadoshlik; **gilos** ("mevaning bir turi") – **gilos** ("gilos daraxti")-sinekdoxa. Metonimiya yo'li bilan ma'no ko'chishida natija ikki xil bo'ladi: a) polisemiya yuzaga keladi (bunda ma'nolar o'rtasidagi bog'lanish saqlanadi): **til** ("nutq a'zosi") – **til** ("aloqa-aralashuv quroli"); b) omonimiya paydo bo'ladi. Bunda ma'nolardagi bog'lanish kuchsizlanadi, uzoqlashadi, hatto unutiladi, natijada shakli bir xil bo'lgan ikki so'z yuzaga keladi. Masalan, **issiq** (sifat) leksemasi asosida **issiq** (ot) leksemasi yuzaga kelgan. Bunda: "belgi" kategorial semasi "predmet" kategorial semasiga almashgan; sifatdagi semalar tarkibida "norma (o'lchov)", "ortiq" semalari tashlangan; "harorat" semasi yana ham abstraktlashish tomon taraqqiy qilgan, ana shu abstrakt sema ot leksemasining semantik mundarijasini tashkil etib qolgan. Demak, sifatdagi semalar tarkibida "harorat" predmet semasi aktuallashib, qolgan semalar so'ngan, shu bilan ot leksema (semema) yuzaga kelgan (112,11-12). Bu hol **issiq** (sifat) va **issiq** (ot) omonimlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Bunday omonimlashishni bir so'z turkumidagi **kun** (quyosh) va **kun** ("sutkaning ertalabdan kechqurungacha bo'lgan qismi") so'zlarida ham ko'ramiz; 2) so'zning semantik tarkibida ma'no hajmi o'zgaradi. Bunda ma'nolar miqdori ortmaydi, bitta ma'noning hajm ko'lami kengayadi yoki torayadi, xolos.

3-MAVZU: LEKSIK MA'NO TARAQQIYOTI. SINONIMIYA, ANTONIMIYA, OMONIMIYA

Reja:

1. Sinonimlar haqida ma'lumot.
2. Leksemalarning sinonim bo'la olmaydigan holatlari.
3. Antonimlarning asosiy xususiyatlari.
4. Omonim omoleksemalarning turlaninish va tuslanish sistemalariga munosabati
5. Omonimlarning yuzaga kelish sabablari
6. Paronimiya haqida ma'lumot.
7. Paronimlar va kvaziomonimlar; **salloh** (qassob) va **saloh** (to'g'rilik) – **poiy** va **toy** (kvaziomonimlar)
8. Paronimlarning omonim va omoformalardan farqlari.

Adabiyotlar: A-2 (166-170),A-3 (32-36), 7 (107-113),A-5 (73-79), Yana qarang: . M. M. Mirtojiev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2004(174-178).

Tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha-ruscha lug'ati

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Sinonimik qator	Synonym series	Синонимический ряд
Sinonimiya	Synonymy	Синонимия
Sinonimlar	Synonyms	Синонимы
Leksik-semantik guruh	Lexical - semantic group	Лексико - семантическая группа
Leksik sinonimiya	Lexical synonymy	Лексическая синонимия
Sinonimik qator	Synonym series	Синонимический ряд
Dominanta	Dominante	Доминанта
Leksikolizasiya	Lexicalization	Лексикализация

Leksik ma'no	Lexical meaning	Лексическое значение
Leksik birlik	Lexical unit	Лексическая единица
Leksikon	Lexicon	Лексикон
Antonimik	Antonymic	Антонимический
Antonimiya	Antonymy	АНТОНИМИЯ
Antonimlar	Antonyms	АНТОНИМЫ
Leksikolizasiya	Lexicalization	Лексикализация
Leksik ma'no	Lexical meaning	Лексическое значение
Leksik birlik	Lexical unit	Лексическая единица
Leksikon	Lexicon	Лексикон
Omograf	Hertograph	Омограф
Omograflar	Homographs	Омографы
Omomorfemalar	Homomorfemy	Омоморфемы
Omonim, shakldosh so'z	Homonym	ОМОНИМ
Omonimik	Homonymic	ОМОНИМИЧНЫЙ
Omonimiya	Homonymy	ОМОНИМИЯ
Omoformalar	Omoformy	Омоформы
Omofon	Homophon(e)	Омофон
Omofonlar	Homophones	Омофоны
Leksik omonimiya	Lexical omonymy	Лексическая омонимия

1. Leksik sinonimiya leksemalarning bir xil ma'no anglatishiga ko'ra guruhlanishidir: **yelka, kift, o'miz** (birinchi guruh); **in, uya, oshyon** (ikkinchi guruh); **nur, shu'la, yog'du, ziyo** (uchinchi guruh) va b.lar. Bunday guruhlar tilshunoslikda sinonimik qatorlar deb nomlanadi.

2. Sinonimik qator (sinonimik uya) bir ma'no anglatishiga ko'ra gurhlangan sinonim so'zlar yig'indisi(yuqoridagi misollar).

3. Dominanta –sinonimik qatordagi betaraf ma'noli s'oz.

4. Leksik sinonimlarning semantik tarkibi.Har bir sinonimik qatorda:

a) leksemalarning denotativ ma'nosi bir xil, konnotativ semalari (baho semalari) esa har xil bo'ladi. Masalan, **ozod, erkin, hur, sarbast** leksemalari bitta denotatni –“o'z erki, haq-huquqiga egalik” ni ataydi (shuning uchun denotativ sema atash semasi deb ham yuritiladi). Biroq bu leksemalarning mazmunida o'zaro farqlanuvchi konnotativ semalar (ifoda semalari, baho semalari) ham bor. Xususan, **erkin** leksemasi bir qadar betaraf ma'noli bo'lsa, **ozod** leksemasida ko'tarinki ruhni ifodalash, **hur** leksemasida badiiy uslubga xoslik sezilib turadi, **sarbast** leksemasi esa eskirgan, kitobiydir. Qiyos qiling: Erkin nafas olmoq [O'TIL, 2-tom, -451]. Toki bizdan olis avlodlarga ozod va obod vatan qolsin (I. Karimov).

Yashnagan el tillarda doston, Qutlug' nomi hur O'zbekiston (M. Sh.). Podshohning nikohida bo'lgan xotinlari posbonlar bilan uncha hisoblashmay, ko'pincha ularni qo'lga olib, sarbast yashaydilar (O.);

b) ifoda semalari ba'zan darajalanadi: yuz, bet, bashara, turq leksemalarining barchasida (“yuz”dan boshqalarida) salbiy bo'yoqli semalar bor, biroq bu semalarda salbiy bo'yoqning ifodalanish darajasi har xil: u “bet”dan “turq”qa tomon ortib, kuchayib boradi. Qiyos qiling: U betlari yumdalangan, oppoq sochlari yulingan bu telba xotinni o'zining qirq yillik umr yo'ldoshiga o'xshata olmadi. (M. Ism.). Sherbekning ko'ziga Xo'jabekovning aftidan nahs tomayotgandek jirkanch bo'lib ko'rinib ketdi (S. An.). U bir ko'ngli, borib, muttahaq qozining tumshug'iga tushirgisi yo iflos basharasiga tupurgisi keldi. (M.

Ism.).Devor ustida turgan o‘n ikkiyoshlardagi bir qiz devordan kesak ko‘chirib olib, Mulla Norqo‘ziga o‘xtaldi:”Xu o‘l, tuqing qursin!” (A.Q.);

d) ifoda semalari bo‘lmagan, betaraf ma’noli leksemalar sinonimik qatorning dominantasi sanaladi. Chunonchi, yuz, bet, aft, bashara, turq (dominant-yuz); nur, shu’la yog‘du, ziyo (dominant-nur); yolg‘iz, yakka, tanxo (dominant- yolg‘iz) kabi.Bulardan yuz (birinchi qatorda), nur (ikkinchi qatorda) va yolg‘iz (uchinchi qatorda) so‘zlari betaraf ma’nolidir;

e) sinonimik qatordagi barcha leksemalar tilning grammatik sathida bir so‘z turkumiga birlashadi: *bahor* va *ko‘klam* (ot), *chiroyli* va *go‘zal* (sifat), *so‘zlamog* va *gapirmog* (fe‘l) kabi.Demak,sinonimik qatordagi leksemalarning sememasidagi integral semalar tilning leksik va grammatik sathlari o‘rtasidagi aloqa-munosabatlar uchun ma’lum imkoniyat yaratadi.

5. Leksik sinonimlarning turlari:

1) **ma’no sinonimlari (ideografik sinonimlar)**. Bunday sinonimlar ideografik semasining ma’no qirrasini bilan farqlanadi.Masalan, **achchiqlanmoq, g‘azablanmoq, qahrulanmoq** leksemalari “g‘azabi kelmoq” ma’nosi bilan bir sinonimik qatorga birlashadi, ammo ularda shu ma’noning (ideografik semaning) ifodalanish darajasi bir xil emas, bu daraja “achchiqlanmoq”dan “g‘azablanmoq”qa,“g‘azablanmoq”dan esa “qahrulanmoq”qa qarab kuchayib bormoqda;

2) **uslubiy sinonimlar (stilistik sinonimlar, baholovchi sinonimlar)**.Bunday sinonimlarning leksik ma’nolari ijobiy yoki salbiy bo‘yoqlar bilan qoplangan bo‘ladi, ayni shu uslubiy semalar (baho semalari) sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi qiymatini belgilaydi. Masalan, **jilmaymoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq** va **irshaymoq** leksemalarining barchasida bitta leksik ma’no –“ovoz chiqarmay miyig‘ida kulish” hodisasini nomlash bor, ammo shu ma’no **jilmaymoq** leksemasida biroz ijobiy, **iljaymoq** leksemasida esa biroz salbiy bo‘yoq bilan qoplangan, bu salbiy bo‘yoq **irjaymoq,tirjaymoq, ishshaymoq** va **irshaymoq** leksemalarida yana-da ortib boradi. Qiyos qiling:*U hamisha kulib, j i l m a y i b turadigan mehribon chehrani ko‘rmadi* (M. Ism.). *Sho‘xroq qiz, yigitlar i l j a y i b, bir-biriga ko‘z qisib qo‘yishadi* (“Mushtum”). *Fosih afandi bo‘lsa... qora duldul ustida kuydirgan kalladay i r j a y i b o‘tirar edi* (M. Ism.). *Fazliddin t i r j a y i b, egri-bugri tishlarining oqini ko‘rsatdi* (O.). *Lekin Murzin hayrat qolib: “U emas-ku!”-degan edi, kommandant: “Adashmang, aynan o‘zi” – dedi surbetlarcha i s h s h a y i b.* (Sh.). *Yer yutgurlar, nima qilib i r s h a y i b turibsizlar, huv, ko‘zlaring teshilsin! – dedi xotinlardan biri* (M. Os.);

3) **nutqiy sinonimlar**- nutqning u yoki bu turiga xoslanganligi bilan o‘zaro farqlanadigan sinonimlar. Masalan, **ozgina, picha, sal , xiyol, jingay, qittay, jichcha** qatoridagi **ozgina** leksemasi nutqning barcha ko‘rinishlarida (adabiy nutqda ham, so‘lshuv nutqida ham) qo‘llana olgani holda, **picha, xiyol, jingay, qittay, jichcha** leksemalari faqat so‘zlashuv nutqiga xoslangandir.

6. **Kontekstual sinonimiya**- til birligi sifatida o‘zaro sinonim bo‘lmagan leksemalarning ma’lum kontekst doirasida (demak, nutqiy vaziyat taqozosi bilan) sinonimik munosabatga kiritilishi.Masalan, **chinni** va **kosa** leksemalarining ma’nolari bir xil emas: **chinni** “idish-tovoq, izolatsion materiallar yasash uchun ishlatiladigan oq loy”ni, **kosa** esa “piyoladan kattaroq idish”ni ataydi. Demak, biri “material”ni, ikkinchisi esa shu materialdan yasalgan “idish”ni anglatadi, shunga ko‘ra ular sinonimlar sanalmaydi, ammo ayrim shevalarda **chinni** leksemasi “kosa” ma’nosida ham qo‘llanadi, binobarin, shu shevaga xos kontekst ichida u **kosa** leksemasining sinonimiga aylanadi, Masalan, Xoljonbika... xioyi c h i n n i d a moy olib keldi. (J.Sh.).

Kontekst doirasida sinonimlashish hodisasi ayniqsa **muallif** leksemasining nutqdagi qo‘llanishida ko‘p uchraydi. Ma’lumki, **muallif** leksemasining sememasi tarkibida “*yozuvchi*”, “*shoir*”, “*hikoyanavis*”, “*olim*”, “*ixtirochi*”kabi qator semalar mujassamlangan. Demak, bu leksemaning ma’no ko‘lami ancha keng. Kontekst ichida esa **muallif** leksemasining shu semalaridan faqat bittasi aktuallashadi, qolganlari reallashmaydi. Masalalan, roman, hikoya kabi nasriy asarlar haqida gap ketganda **muallif** leksemasi faqat “yozuvchi” ma’nosida qo‘llanadi, demak, **yozuvchi** leksemasining kontekstual sinonimiga aylanadi, kontekstdan tashqarida esa bu ikki leksema sinonim bo‘la olmaydi, chunki ularning ma’no ko‘lami o‘zaro teng emas.

7. **Absolut sinonimlar yoki leksik dubletlar** - leksik ma’nolari o‘zaro teng bo‘lib, farqlovchi semalari bo‘lmagan leksemalar: **so‘roq** va **savol, xabar** va **darak, tema** va **mavzu, nom** va **ot** kabi. Tilshunoslikda bu tipdagi leksemalar leksik dubletlar deb ham ataladi (7, -109).

8. Leksemalar quyidagi holatlarda sinonimik munosabatda bo'la olmaydi:

1. Turli turkum leksemalari: ot bilan sifat, sifat bilan fe'l va b.lar.

2. Bir so'z turkumiga mansub leksemalarda keng tushuncha nomlari bilan tor tushuncha nomlari. Masalan, *uy* va *xona*, *shahar* va *mahalla* kabilar.

3. Ijtimoiy mohiyati teng bo'lmagan hodisa-voqeliklarning nomlari: *qozi* va *sudya*, *mirshab* va *militSIONER* kabilar. Bulardan *qozi* va *mirshab* leksemalari feodal tuzumdagi voqelikni, *sudya* va *militSIONER* leksemalari esa hozirgi demokratik tuzumga xos voqelikni nomlaydi.

E s l a t m a: O'tmish voqeligining nomi bilan hozirgi voqelik nomi o'rtasida sinonimik munosabatning borligi yoki yo'qligini belgilashda shu nomlardan biri o'rnida ikkinchisining qo'llana olish darajasi ham hisobga olinadi. Chunonchi, eski o'zbek tilidagi **zobit** leksemasi hozirgi o'zbek tilida **ofitser** leksemazining sinonimi sifatida qo'llana boshlandi, ammo eski o'zbek tilidagi **cherik** leksemasi bilan hozirgi o'zbek tilidagi **askar** leksemasi o'rtasida esa bunday munosabat yo'q.

9. **Sinonimik qatorlarning leksik tarkibi.** O'zbek tilidagi sinonimik qatorlar tarkibida o'z va o'zlashgan qatlam so'zlari, umumtil va dialektal birliklar borligi ko'zga tashlanadi. Masalan: *anglamoq* (o'zb.) – *tushunmoq* (o'zb.), *go'zal*(umumtil birligi)- *suluv* (leksik dialektizm), *husn* (arab. o'zlashma)- *chiroy* (toj. o'zlashma), *xat* (arab. o'zlashma) – *maktub* (arab. o'zlashma) – *noma* (fors.o'zlashma), *kishi* (o'zb.) – *odam* (arab. o'zlashma), *ko'k* (o'zb.) – *osmon* (toj. o'zlashma)- *falak* (arab. o'zlashma), *analiz* (ruscha-baynalmilal o'zlashma) – *tahlil* (arab. o'zlashma), *tema* (ruscha-baynalmilal o'zlashma) – *mavzu* (arab. o'zlashma) kabi.

10. **Sinonimiya va polisemiya.** Sinonimiya va polisemiya o'rtasida ma'lum bog'lanish bor. Xususan, polisemantik leksema har bir ma'nosi bilan boshqa-boshqa sinonimik qatorlarga kirishi mumkin: **olov** *yoqmoq* va **o't** *qo'yimoq* (sinonimlar: **olov** va **o't**), quyosh **olovi** va quyosh **harorati** (sinonimlar: **olov** va **harorat**), **olov** yigit va **g'ayratli** yigit (sinonimlar: **olov** va **g'ayratli**): bunda **olov** leksemazining "predmet" semasi so'nib, "belgi" semasi faollashgan.

11. **Sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi tavsifi.** Sinonimlar nutqda muhim uslubiy vosita sanaladi: ular nutqning ravon va ta'sirli bo'lishini, fikrning aniq yoki obrazli chiqishini ta'minlaydi.

I z o h: Sinonimiya hodisasi frazemalar va grammatik birliklar (morfemalar, so'z birikmalari va gaplar) doirasida, shuningdek, leksema bilan frazemalar munosabatlarida ham uchraydi. (Bu haqda "Frazeologiya" va "Grammatika" bo'limlariga qarang).

Leksik antonimiya ikki leksema ma'nolaridagi zidlanish munosabatiga asoslangan guruhlanishdir: *oq* va *qora*, *qalin* va *yupqa*, *mehr* va *nafrat* kabi. O'zaro zidlanish munosabatida bo'lgan ikki leksema **antonimik juftlik** deyiladi.

E s l a t m a: Antonimik juftlikni juft so'z ko'rinishidagi yasama leksema bilan qorishtirmaslik kerak. Qiyos qiling: *katta-kichik* (bitta leksema) "“, *katta* va *kichik* (ikkita leksema) kabi. Antonimik juftlik ikki leksema orasida yuz beradi.

Antonimiya hodisasi quyidagi holatlarda kengroq tarqalgan:

1. "Belgi-xususiyat" ma'noli leksemalar doirasida: *katta* va *kichik* (hajm belgisi), *issiq* va *sovuq* (harorat belgisi), *yosh* va *qari* (yosh belgisi), *botir* va *qo'rqqoq* (xarakter-xususiyat belgisi), *to'g'ri* va *egri* (shakl belgisi), *achchiq* va *shirin* (maza-ta'm belgisi) kabi.

2. "Payt", "holat", "miqdor" ma'noli leksemalar doirasida: *kecha* va *ertaga*, *avval* va *keyin* (payt belgisiga ko'ra), *tez* va *sekin*, *arang* va *bemalol* (holat belgisiga ko'ra), *ko'p* va *oz*, *mo'l* va *kam* (miqdor belgisiga ko'ra) kabi.

3. "Predmet" va "belgi" semalari mujassamlashgan leksemalarda: *boylik* va *kambag'allik*, *botirlik* va *qo'rqqoqlik* kabi.

4. "Harakat" ma'noli leksemalarda: *bormoq* va *kelmoq*, *kirmoq* va *chiqqoq*, *kengaymoq* va *toraymoq* kabi.

Kontekstual antonimiya lug'aviy ma'nolarida zidlanish munosabati bo'lmagan leksemalarning ma'lum ko'ntekst ichida nutqiy talab taqozosi bilan "antonimlashuvi". Bunday "antonimlashuv", odatda, so'zlovchi yoki asar muallifi tomonidan uslubiy maqsadlarda "kashf" etiladi. Buni quyidagi she'riy misralar tahlilida ko'rib chiqaylik:

Ushoq **qand** oq **tuzga** monand erur,

Va lekin biri **tuz**, biri **qand** erur. (A.N.)

Aytar so'zni **ayt**,

Aytmas so'zdan **qayt!** (A.N.)

Sichqonlarga nisbatan

Poyloqchiman, **to'g'riman**.
Ko'rsam tekin go'sht ba'zan
Chidolmayman- **o'g'riman**. (O. Q.)

Bu misollarda qo'llangan **qand** va **tuz, ayt** va **qayt** hamda **to'g'ri** va **o'g'ri** leksemalari aslida (lisonda) antonimlar emas, ammo birinchi misolning ikkinchi misrasida **tuz** va **qand** leksemalari muallifning leksik qo'llashi natijasida "achchiq" va "shirin" (demak, "yaxshi" va "yomon") ma'nolarini, ikkinchi misoldagi **ayt** va **qayt** leksemalari "ayt" va "aytma" degan zid ma'nolarni, uchinchi misoldagi **to'g'ri** va **o'g'ri** leksemalari esa "o'g'ri emas" va "o'g'ri" ma'nolarini anglatib, kontekstual antonimiya hosil qilgan (bunda **to'g'ri** leksemasi otlashgan).

Bunday qo'llanish olmoshlarda va sonlarda ham uchraydi: *Bir u deydi, bir bu deydi*, deganda **u** va **bu** olmoshlarida kontekstual zidlanish bor.

Enantiosemiya bitta leksema ma'nosida nutqiy muhit talabiga ko'ra zidlanishning ifodalanishi. Chunonchi, *ofat* leksemasining ma'nosi «falokat», «balo»dir, ammo u Oybekning «Ulug' yo'l» romanidagi bir epizodda shu ma'noga zid ravishda «go'zal», «maftunkor» ma'nolarini anglatgan: «Adibaxon alifday nozik, yuzi tiniq, oq, yirik ko'zlari ustidagi ingichka qoshlari *ofat* ...». Tabiiyki, bunday holatda ham antonimiya yuzaga kelmaydi.

Antonimiya va polisemiya hodisalari o'zaro bog'liqdir: ko'p ma'noli leksema o'zining bosh ma'nosi bilan bitta antonimik juftlikka, hosila ma'nosi bilan esa boshqa antonimik juftlikka kirishi mumkin. Masalan: *achchiq qalampir* va *shirin olma* birikmalarida **achchiq** va **shirin** leksemalari o'zlarining *bosh* ma'nolari orqali antonimik munosabatga kirishgan; *achchiq gap* va *shirin gap* birikmalarida esa *achchiq* va *shirin* leksemalarining hosila (ko'chma) ma'nolari antonimiyaga asos bo'lgan.


Antonimlarni belgilash mezonlari. Tilshunoslikda antonimlarni belgilash mezonlari bo'yicha munozarali qarashlar ham bor. Xususan, ayrim manbalarda *opa* va *singil*, *aka* va *uka tog'a* va *xola* kabi so'zlar antonimlar deb baholanadi. Shu soha bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan B.Isabekov esa ularni antonimlar emas, korrelyativ so'zlar deb baholaydi, buni yuqoridagi leksemalarning ma'nolari qarama-qarshi emas, balki bir-biriga juda yaqindir deb asoslaydi

Fe'ning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari (*bordi* va *bormadi*, *boray* va *bormay*, *ko'rgan* va *ko'rmagan* kabi formalari) ayrim adabiyotlarda «antonimlarning alohida bir tipi...» deb qaraladi, biroq tilshunos Sh.Rahmatullayev bu fikrga qo'shilmaydi. Uningcha, «Oddiy inkorning o'zi hali antonimlik emas. Masalan, *ayt* va *aytma*, *aytar* va *aytmas* kabilar biri ikkinchisining inkori, lekin ularni o'zaro antonimlar deb bo'lmaydi. Asli bular ikki leksema emas, balki bir leksemaning ikki (bo'lishli va bo'lishsiz) shakli. Antonimik munosabat esa ikki leksema orasida voqe boladi, bunda inkor etish yangini nomlash orqali yuz beradi ...». Antonimiyani ayni shunday tushunish ayrim ilmiy manbalarda ham bor. Mazkur darslikda ham antonimiyaga shu pozitsiyadan yondashildi.

Antonimiya mezonini belgilashda Sh. Rahmatullayev, N.Mamatov va R.Shukurovlar tomonidan tavsiya etilgan **mantiqiy markaz** prinsipiga tayanish yaxshi natija beradi. Bu prinsipga ko'ra ikkita ma'no o'rtasidagi oraliq tushuncha (mantiqiy markaz) aniqlanadi va shu markazning ikki tomonidan o'rin olgan tushunchalar o'zaro antonimik munosabatlarda deb qaraladi. Maslan, *kuz* bilan *bahor* orasida *qish* bor, demak, *kuz* va *bahor* leksemalari o'zaro antonimlar deb qaraladi, ammo *kuz* bilan *qish* – antonim leksemalar emas, chunki bu ikki leksema orasida oraliq tushuncha (mantiqiy markaz) yo'q; shuningdek, *qish* bilan *bahor* atnonim emas (oraliq tushuncha yo'q), *qish* bilan *yoz* – antonimlar (oraliq tushuncha – «bahor»); *kecha* bilan *bugun* – antonimlar emas (oraliq tushuncha yo'q), *kecha* va *ertaga* – antonimlar (oraliq tushuncha – «bugun»); *o'tmish* va *hozir* antonimlar emas (oraliq tushuncha yo'q), *o'tmish* va *kelajak*–antonimlar (oraliq tushuncha-«hozir») kabi. Bunday munosabatlarni quyidagi sxema (chizma) tarzida ifodalash mumkin (mantiqiy markaz o'rnida M harfi qo'llangan).

Ba'zan mantiqiy markazning ikki tomonida bir nechtdan antonimik juftliklar bo'ladi: **a'lo** (juda yaxshi)–**yaxshi-o'rta**(M)- **yomon-juda yomon** kabi. Buni sxemada shunday ifodalash mumkin:

2- antonimik juftlik



Bunday hollarda o'z ma'nosiga ko'ra mantiqiy markazdan teng uzoqlikda joylashadigan leksemalar o'zaro antonimik juftlik hosil qiladi.

Antonimik munosabatda bo'lgan ayrim leksemalar orasida mantiqiy markaz bo'ladi-yu, ammo uni nomlovchi so'zning o'zi bo'lmaydi. Masalan, *kulgi* va *yig'i* leksemalari orasidagi mantiqiy markazni bildiruvchi maxsus leksema tilda yo'q, ammo oraliq hodisaning o'zi bor: u kishining kulmasdan, yig'lamasdan turgan normal holatidir, demak, ana shu holat (ekstralingvistik omil) mantiqiy markaz sifatida tasavvur qilinadi.

Tilshunoslikda antonimlarning mantiqiy asosini quyidagicha izohlash holatlari ham bor:¹ "Antonimlarning mantiqiy asosini ikki tur qarama-qarshilik tashkil etadi:

- a)kontrar qarama-qarshilik;
- b)komplementar qarama-qarshilik.

Kontrar qarama-qarshilik –darajalanuvchi leksema qatoridagi tafovutning farqlarga, farqning ziddiyat, ya'ni qarama-qarshilikka o'sib borishi natijasiada birinchi a'zo bilan oxirgi a'zoning antonimlashuvi.Masalan, [kichik]-[o'рта]-[katta], [yosh]-[o'smir]-[o'рта yosh]- [qari] kabi. Bunda [kichik] va [katta], [yosh] va [qari] leksemalari daraja qatorining ikki qarama-qarshi qatori a'zolari o'rtasida ikki antonim a'zo belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bog'lovchi bo'g'in. Yuqoridagi (o'рта) leksemasida [kichik] va [katta] leksemalarining qarama-qarshiligi so'nadi, Demak, leksemalarning kontrar qarama-qarshiligini ularning darajalanish (graduonmik)qatoridan izlash lozim.

Komplementar antonimiyada qarama-qarshilik uchinchi, oraliq bo'g'insiz bo'ladi: [rost] – [yolg'on], [arzon]-[qimmat], [oson]-[qiyin]. Bu leksemalar orasida oraliq uchinchi leksema yoq."

Yuqoridagi har ikki ta'rifning mohiyati aslida birdir. Ular bir-birini ayrim detallar yoki terminlar (*o'рта bo'g'in*, *oraliq bo'g'in*, *kontrar qarama-qarshilik*, *komplementar qarama-qarshilik*, *darajalanish* va b.lar) bilan to'ldirgan, xolos.

Antonimlarning uslubiy vosita sifatidagi tavsifi. Leksik antonimlar muhim uslubiy vositalardir. Ular matnda qarshilantirish (antiteza) vositasi rolini bajaradi, shu orqali hodisa va holatlardagi qarama-qarshiliklarni, ayrim obraz va personajlarning ichki dunyosidagi ziddiyatlarning badiiy talqinini ta'minlaydi.

Tinglar edim betinim
Uzun tunlar yotib jim.
Seza olardim kuchin,
Ko'pi **yolg'on**, ko'pi **chin**.

(H.O.)

Ilmli odamga ulug'lik hamdam,
Ilmsiz qozini eshak deb aytma,
Chunki bu eshakka tuhmatdir beshak.

(H.DeH.).

Jahonning **shodligi** yig'ilsa butun,
Do'stlar diydoridan bo'lolmas ustun.
To'lur g'**am-g'ussaga** dilning kosasi,
Qadrdon do'stlardan judo bo'lgan kun.

¹ Bu haqda qarang: Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- Toshkent -2009.-B.113-114.

(Rud.)

Antonimlar maqol va matal janrlarida ham muhim uslubiy vosita sanaladi - hayotiy tajriba umumlashmalarini maqol va matallar tiliga xos uslubda ta'sirchan ifodalash imkonini yaratadi:

Yozgi mehnat - **qishki** rohat.

Mehnatdan **do'st** ortar, g'iybatdan – **dushman**.

Do'st achitib gapirar, **dushman** – kuldirib.

Yaxshi do'st – jon ozig'i,

Yomon do'st – bosh qozig'i.

Donoga ish – shonu shuhrat,

Nodonga ish – g'amu kulfat.

I z o h: Antonimiya hodisasi frazemalar va morfemalar doirasida, shuningdek leksema va frazemalar munosabatida ham uchraydi (Bu haqda «Frazeologiya» va «Morfemika» bo'limlariga qaralsin.)

Leksik omonimiya leksemalarning ifoda tomonidagi (talaffuzi va yozilishidagi) tenglik hodisasi. Masalan, o't ("olov")- o't ("maysa"), kamar ("qayish, ko'ndan ishlangan belbog'") – kamar ("daryo, tog'larda suv o'yib ketgan chuqur joy") kabi.

Leksik omonimiyada ikki xil hodisa mavjud: **omonimlar** va **omoformalar**.


1. Omonimlar shakli bir xil, ma'nolari har xil (o'zaro bog'lanmagan) leksemalardir. (Yuqoridagi misollar). Ular omonim omoleksemalar deb ham ataladi.

a) Bunday omonimlarning ko'pchiligi bir so'z turkumiga mansubdir, shu sababli ularning nutqdagi grammatik shakllari ham bir xil bo'ladi. Qiyos qiling: ot (1) - "ism" – otim, oting, oti; otni, otning, otga... kabi va ot (2) - "hayvon" – otim, oting, oti; otni, otning, otga... kabi

b) Bu tipdagi omonimlar (omonim omoleksemalar) turli so'z turkumlariga mansub bo'lishi ham mumkin. Bunday paytda omonimik munosabatga kirishayotgan so'zlar shakllanish tizimiga ega bo'lmasliklari kerak. Masalan, tabiiy (1) – sifat va tabiiy (2) - modal so'z: 1) *U tabiiy fanlarga ko'proq qiziqadi* (tabiiy - sifat) - 2) *So'zamol, badavlat qori tog'aning birdan ko'z yumib sukutga botishining sababini, tabiiy, Yo'lchi tushunmadi* (tabiiy – modal so'z).

2. Omoformalar ayrim grammatik shakllaridagina teng keladigan leksemalardir. Ular omoforma omoleksemalar deb ham nomlanadi. Masalan, sur (ot: "qorako'l teri navi") va sur (sifat: "och kulrang") leksemalari aynan shu shaklda lug'atga kiritiladi, biroq ot turkumidagi sur leksemasi turlanganda (surni, surning, surda... kabi) sur (ot) va sur (sifat) o'rtasidagi shakliy tenglik yo'qoladi. Demak, bu ikki leksema o'rtasidagi shakliy tenglik ot turkumidagi sur so'zining bosh kelishikdagi shaklida bo'lgandagina saqlanib, boshqa shakllarida yo'qoladi, shu xususiyati bilan omoforma omoleksemalar omonim omoleksemalardan farq qiladi.

O't ("olov") - o't ("otmoq") fe'lining o'zagi munosabatida boshqacharoq holat kutiladi: o't fe'l shakli lug'atga **otmoq** shaklida kiradi, binobarin, o't (ot turkumi) va otmoq (fe'l turkumi) o'rtasidagi shakliy tenglik yo'qligi ma'lm bo'ladi, shunga qaramay fe'lning ikkinchi shaxs buyruq maylidagi o't shakli bilan otning bosh kelishikdagi o't shakli omoforma omoleksemalar sanaladi. Bu leksemalardagi omoforma munosabati o'ting (*sening o'ting*) va o'tihg (*siz o'tihg*) kabi shakliy tenglikda ham yuzaga keladi, ammo o'tni, o'tning (ot turkumidagi so'zning kelishik shakllari) va o'tgin, o'tsin (fe'lning buyruq mayli shakllari) kabi holatlarda *omoforma paydo bo'lmaydi*. Demak, omoforma bo'lish turli so'z turkumlariga mansub leksemalarning ayrim grammatik shakllarigagina xos. Omoformalarda negizga qo'shilayotgan affikslar ham shaklan teng bo'ladi, shunga ko'ra bunday qo'shimchalar omofaffikslar sanaladi. *Qiyos qiling*: o'ting ("ing"- otning egalik kategoriyasiga mansub affiks) - o'ting ("ing" - fe'lning buyruq mayliga mansub affiks) kabi.



Omonim omoleksemalar nutqda turlanib yoki tuslanib, turli shakllarga kiradi. *Qiyos qiling:* bog‘ - 1 (ot turkumidagi birinchi so‘z: “mevazor”) va bog‘ - 2 (ot turkumidagi ikkinchi so‘z: “beda bog‘lami”) Bu ikki ot nutqda turlanib, o‘zaro teng shakl (grammatik shakllarni) hosil qiladi:

bog‘ - 1: *bog‘ni, bog‘ning, bog‘ga, bog‘lar ...* kabi.

bog‘ - 2: *bog‘ni, bog‘ning, bog‘ga, bog‘lar ...* kabi.

Bunday shakllar *so,z formalari* sanaladi. So‘z formalaridagi tenglik *omoforma omoleksemalarga ham xos* (yuqoridagi misollar). Demak, nutqda omonimlar ham, omoformalar ham *so‘z formalari omonimiyasini* yuzaga keltirish mumkin.

Omonimlarning yuzaga kelish sabablari

Omonimlarning yuzaga kelish sabablari har xildir:

1. Tilda azaldan mavjud bo‘lgan ayrim so‘larning shakllari tasodifan teng bo‘lib chiqadi: **baqa** (“qurbaqa”) va **baqa** (“suv tegirmonining parrakdan harakat olib, tegirmon toshini aylantiruvchi metall qism”).

2. Bir ma‘noli so‘z leksik ma‘noning ko‘chishi oqibatida ko‘p ma‘noli so‘zga aylanadi, keyinroq bosh ma‘no va hosila ma‘no o‘rtasidagi bog‘lanish unutilib, bir so‘z negizida ikkita boshqa-boshqa so‘z (leksema) paydo bo‘ladi: **kun** (“quyosh”) – **kun** (“sutka”) kabi.

3. Boshqa tillardan o‘zlashtirilgan ayrim leksemalar o‘zbek tilidagi u yoki bu leksemada shaklan tehg bo‘lib qoladi: **toy** (o‘zb. “otning ikki yashardan kichik bolasi”) – **toy** (fors-tojikcha: “katta to‘p qilib taxlab yoki bosib bog‘langan mol va shu tarzda mol o‘lchovi”).

4. Boshqa tillardan o‘zlashtirilgan leksemalar orasida shaklan teng bo‘lgan so‘zlarning uchrashi omonimiyaga olib keladi: **rasm** (arabcha: “surat”) – **rasm** (arabcha “urf-odat”).

5. Leksemalar yasalishi ham ba‘zan omonimlarni keltirib chiqaradi: **qo‘noq** (“tariq”) - **qo‘noq** (*qo‘n + oq*: “mehmon”) kabi.

Omonimiya va polisemiya

Omonimiya va polisemiya hodisalari o‘rtasida ma‘lum oxshashlik va tafovutlar bor.

O‘xshashligi: omonimiyada ham, polisemiya ham ifoda tomoni (shakli) bir xil bo‘ladi, har ikki holatda birdan ortiq ma‘no ifodalandi.

Farqlari: omonimiyada shakli bir bo‘lgan **ikki** yoki **undan ortiq so‘z** nazarda tutiladi; polisemiya esa bir necha ma‘nosi bor bo‘lgan **bitta so‘z** (leksema) haqida gap boradi.

Omonim leksemalarning ma‘nolari har xil bo‘ladi, bu ma‘nolar o‘rtasida bog‘lanish yoq. **Ko‘p ma‘noli so‘zlarning ma‘nolari ham har xildir**, ammo ular o‘rtasida bog‘lanish bor: ular ma‘no ko‘chishi asosida yuzaga kelgan bo‘ladi. *Qiyos qiling:* **bo‘z** (1) – “gazlamaning bir turi”. **bo‘z** (2) – “o‘simlikning bir turi”. Bular shakli bir xil, ammo ma‘nolari har xil bo‘lgan ikkita leksema (omoleksemalar) hisoblanadi.

Bel-1) “umurtqa pog‘onasining pastki qismi”; 2) “odam gavdasining o‘rta qismi”; 3) “biror predmetning o‘rta qismi” (*tog‘ning beli*). Bunda bitta **bel** leksemasining uchta ma‘nosi berilgan, bu ma‘nolar o‘rtasida bog‘lanish mavjud.

Leksik omonimiyaga yondosh hodisalar

Omofonlar: to‘rt (son turkunidagi so‘z) – tort (“konditer mahsuloti”), bob (talaffuzda: bop) - bop kabi.

Omograflar: soya (“quyosh nuri tushmagan joy”) – soya (“dukkakli o‘simlikning bir turi”), rom (1) –rom (2) kabi.

Omonimlar va omoformalarning uslubiy vosita sifatida qo‘llanishi

1. Qofiyadoshlikni ta‘minlaydi.(A-2, 180-b.; A-3, 46-b.)
2. Tuyuq janri uchun muhim uslubiy vosita sanaladi. .(A-2, 180-b.; A-3, 46-b.)

Paronimiya

Adabiyotlar: A-2(181-184), A-3 (47-50), A-5(45-46)

1. Paronimiya haqida ma‘lumot. Misollar: arqon va arkon, taqya va takya(A-2, 181-182)
2. Paronimlar va kvaziomonimlar; salloh (qassob) va saloh (to‘g‘rilik) – poy va toy (kvaziomonimlar)
3. Paronimlarning omonim va omoformalardan farqlari. (qarang: A-2, 183-bet).
4. Umuman paronimlarning belgi-xususiyatlari hozircha aniq va izchil ta‘rifga ega emas.
5. Paronimlardan va paronimlarga oxshash hodisalardan paronomaziya uchun qulay leksik material sifatida foydalaniladi (Charxpalak, Chinor ostidagi duel filmlaridan, A. Qahhorning “San‘atkor” hikoyasidan misollar).

Paronimiya (yun. para- “yonida”+ onyma- “nom”)- ikki yoki undan ortiq leksemaning talaffuzda o‘zaro o‘xshash, ohangdosh bo‘lishi. Bunday o‘xshashlik, ohangdoshlik, odatda, har ikki (yoki uch) leksemaning tashqi formasidagi bir-biriga yaqinlikdan kelib chiqadi. Masalan, arqon va arkon. Bu ikki leksema tarkibidagi 5 ta tovushdan 4 tasi ayni bir xil fonemalardir, ularning leksemalar tarkibidagi joylashgan o‘rinlari ham bir xil, ammo ulardan birinchisida “q”, ikkinchisida esa “k” undoshlari qatnashgan. Bu ikki undoshning artikulyatsiya o‘rni, fizik-akustik tabiati ham bir-biriga ancha yaqin (ammo bir xil emas). Ana shu jihatlarda bu ikki leksemaning talaffuzida o‘zaro o‘xshashlik, ohangdoshlik bo‘lishini ta‘minlagan. Taqya (sidirg‘a matodan tayyorlangan do‘ppi) va takya (“odamlar to‘planib ulfatchilik qiladigan joy”), salloh (“qassob”) va saloh (“to‘g‘rilik”, “vijdonlilik”) leksemalarida ham shunday holat kuzatiladi; bayon va boyon leksemalarida esa “a” va “o” unlilarining quyi keng ekanligi, urg‘usiz bo‘g‘inda qo‘llanganligi bu ikki leksemaning bir-biriga o‘xshash talaffuz etilishiga, demak, o‘zaro paronimiya munosabatida bo‘lishlariga sabab bo‘lgan. Ma‘lumki, o‘zaro zidlanish (oppozitsiya) munosabatida bo‘lgan ikki fonema hisobiga farqlangan so‘zlar kvaziomonimlar yoki minimal juftlikdagi so‘zlar sanaladi. Yuqorida keltirilgan paronimlar ham aslida kvaziomonimlardir, ammo kvaziomonimlarning barchasi paronimlar bo‘lavermaydi: paronimlar darajasida bo‘lgan

kvaziomonimlar o'zaro zidlanishda bo'lgan tovushlar bilan birga bir-biriga yaqin, o'xshash talaffuz belgisiga ham ega bo'lishlari shart (yuqoridagi misollar), kvaziomonimlarning aksariyatida esa bunday xususiyat yo'q. Qiyos qiling: shox va shoh (paronimlar, chunki talaffuzda o'xshashlik bor) - tor va dor (paronimlar emas, chunki talaffuzda yaqinlik yo'q), xol va hol (paronimlar: talaffuzda yaqinlik bor) - xor va bor (paronimlar emas: talaffuzda yaqinlik yo'q), bayon va boyon (paronimlar: talaffuzda yaqinlik bor) - tomon va somon (paronimlar emas: talaffuzda yaqinlik yo'q) kabi.

Xulosa: leksemalarning bir tovush (fonema) bilan farqlanishi doimo paronimiyaga olib kelavermaydi. Aks holda tildagi kvaziomonimlarning (minimal juftlikdagi so'zlarning) barchasini paronimlar deb baholashga to'g'ri kelardi.

Paronimiya hodisasi yasama leksemalarda ham uchraydi: *yolqin* va *yorqin* kabi, ammo bu hodisa o'zbek tilida u qadar ko'p emas.

Paronimiyada ba'zan leksemalar tarkibidagi fonemalar miqdori teng bo'lmasligi ham mumkin, ammo ularning talaffuzida bir-biriga yaqinlik, o'xshashlik sezilib turadi: amr (3 fonemali leksema) – amir (4 fonemali leksema), asr (3 fonemali leksema) – asir (4 fonemali leksema), abonent (7 fonemali leksema) – abonent (9 fonemali leksema), diplomat (8 fonemali leksema) – diolomant (9 fonemali leksema) kabi.

Paronimlar omonim, omofon va so'z variantlaridan quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

1. Paronimlarning talaffuzi bir-biriga yaqin, o'xshash bo'ladi (yuqoridagi misollar). Omonimlarning esa talaffuzi va yozilishi bir xil boladi: o't ("maysa") – o't ("olov") kabi.

2. Omofonlarda ham talaffuz bir xildir: tub va tup (yozuvda) – tup va tup (talaffuzda). Paronimlarda esa talaffuz teng emas, o'xshash bo'ladi: ganj va ganch kabi.

3. Omofonlarda fonemalar miqdori teng bo'ladi, paronimlarda esa ular teng bo'lishi ham, teng bo'lmasligi ham mumkin. Qiyos qiling:

Omofonlar: *yot* (<yod: 3 ta fonema) – *yot* (3 ta fonema), *bop* (<bob: 3 ta fonema) – *bop* (3 ta fonema). Bular da fonemalar miqdori teng, leksemalar talaffuzi ham bir xil.

Paronimlar: *shahid* va *shohid* (fonemalar miqdori teng, ammo talaffuzi teng emas, o'xshash); *asr* va *asir* (talaffuzi bir-biriga yaqin, ammo fonemalar miqdori teng emas).

4. Paronimlar talaffuzi o'zaro o'xshash bo'lgan bir necha leksemdir; so'z variantlari esa bir leksemaning jonli so'zlashuvdagi turli ko'rinishlar, xolos: *tomosha* va *tamosho*, *do'ppi* va *to'ppi*, *gado* va *gadoy*, *shohi* va *shoyi* kabi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tilshunoslikda paronimiya hodisasining izchil mezonlari yetarli darajada ishlanmagan, shuning uchun bir xil hodisaga har xil baho berish holatlari tez-tez uchrab turadi. Demak, masalaning muammoli jihatlari hali anchagina bor, ularni maxsus tadqiq qilish tilshunoslikning navbatdagi vazifalaridan biri bo'lmog' I kerak.

Paronimlarning nutqda uslubiy vosita sifatida qo'llanishi (paronomaziya)

Paronimlarning nutqda, ayniqsa, badiiy matnda o'ziga xos uslubiy ahamiyati bor: paronimlarning tovush tarkibidagi o'xshashlik, bir-biriga yaqinlik ba'zan, qisman bolsa-da, shakl neytralizatsiyasiga olib keladi, oqibatda ayrim kishilar nutqida ularni farqlay olmaslik holatlari yuz beradi. Bunday holatni payqagan badiiy ijodgorlar (yozyvchilar, shoirlar, dramaturglar, notiqarlar va b. lar) paronimlardan yoki paronimlarga o'xshash holatlardan obraz va personajlarning ma'naviy dunyosini, nutqiy saviyasini tasvirlashda uslubiy figuralar sifatida foydalanadilar. Bu hodisa tilshunoslikda *paronomaziya* deb nomlanadi. "Charxpalak" videofilmidan keltirilgan quyidagi epizodda buni yaqqol sezish mumkin. Unda atrofiga laganbardor yugurdaklarni to'plab olgan bir obro'talab, mansabdor shaxs aroq ichishdan bosh tortgan raqqosa qiz Zulxumor Hamidovaga qarata shunday deydi: "Mayli, majbur qilmaymiz, bizga bu qizning *sanoati* juda ma'qul". Bu nutqiy parchada *sanoat* so'zi "san'at" leksemasi o'rnida qo'llangan bolib, u jamiyatda uchrab turadigan ayrim shaxslarning ma'naviy qashshoqligini, tilga befarqligini ifodalash uchun xizmat qilgan. Demak, asar muallifi (Sharof Boshbekov) shu epizodni tasvirlashda *san'at* va *sanoat* leksemalaridagi talaffuz yaqinligidan juda orinli foydalangan.

Atoqli yozuvchi Abdulla Qahhorning "San'atkor" hikoyasida *bo'sa* va *bo'lsa* paronimlaridan uslubiy figura sifatida foydalanilganligining guvohi bolamiz. Hikoyada nomi chiqqan ashulachi san'atkorning "bo'sa" so'zi ornida "bo'lsa" so'zini qollagani zalda otirgan bir traktorchi tomonidan tahqid qilinadi. Bundan darg'azab bo'lgan san'atkor o'ziga-o'zi deydi: "labingdan bo'lsa olsam, e shakarlab" deganim u kishiga yoqmaпти, "bo'lsa" emas, "bo'sa" emish! O'zi bilmaydi-yu, menga o'rgatganiga

kuyaman! Senga o'xshagan savodsizlar "bo'lsa, bo'lmasa" deydi. Artist kulturniy odam-gapni adabiy qilib aytadi- "bo'lsa, bo'lmasa" deydi.

Hikoyadan keltirilgan bu parchada *bo'sa* va *bo'lsa* paronimlaridan mohirona foydalanish "taniqli ashulachi san'atkorning" istehzoli obrazini yaratishga xizmat qilgan.

Tekshirish savollari va topshiriqlar

1. Antonimiya nima? Antonimik juftlik-chi?
2. Qanday ma'noli leksemalarda antonimiya hodisasi keng tarqalgan?
3. Kontekstual antonimiya haqida ma'lumot bering.
4. Qanday holatlarda antonimiya hodisasi yuz bermaydi?
5. Antonimiya va enantiosemiya hodisalarini tushuntiring.
6. Antonimiya va polisemiya o'rtasidagi bog'lanishni tushuntiring.
7. Antonimiya hodisasi bilan bog'liq qanday munozarali masalalarni bilasiz?
8. Antonimiya hodisasining mezoni sifatida qaraladigan *mantiqiy markaz* haqida ma'lumot bering.
9. Antonimlardan qanday uslubiy vosita sifatida foydalaniladi?
10. Qanday hodisa paronimiya sanaladi?
11. Paronimlar va kvaziomonimlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni qanday tasavvur qilasiz?
12. Paronimlar, omonimlar va omoformalar qanday farqkanadi?
13. Paronimlar bilan so'z variantlari o'rtasidagi farqni qanday tushunasiz?
14. Paronimiya hodisasining qaysi jihatlari hozircha o'zining tugal yechimini topmagan?
15. Paronimiya hodisasining nutqqa ta'siri bormi?
16. Paronomaziya nima?

Tayanch tushunchalar

Antonimiya – leksemalarning bir-biriga zid ma'no anglatishi asosida guruhlanishi.

Antonimik juftlik - o'zaro qarama-qarshi ma'noli ikki leksema.

Kontekstual antonimiya – tilda antonimik munosabatda bo'lmagan leksemalarning ma'lum kontekst doirasida antonimik munosabatga kiritilishi.

Enantiosemiya – bitta leksema ma'nosida nutqiy muhit taqozosi bilan zidlanishning ifodalanishi.

Mantiqiy markaz – ikki ma'no o'rtasidagi oraliq tushuncha.

Paronimiya-ikki yoki undan ortiq leksemaning talaffuzda o'zaro o'xshash, ohangdosh bo'lishi.

Kvaziomonimlar-bir fonemasi bilan farqlanadigan ikkita so'z: *bir* va *bur* kabi. Ular tilshunoslikda minimal fuftlkdagi so'zlar deb ham yuritiladi va muayyan tilning fonologik sistemasini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar: 7 (82-85), 10 (170-177), 16 (178-180), 17 (215-228), 28 (79-82), 29 (86-89), 33 (113-114), 59 (7-17).

UYGA VAZIFA

1)Mavzu bo'yicha adabiyotlar ustida ishlash, ularni konspektlashtirish. Adabiyotlar A-2 (166-170),A-3 (32-36), A-7 (107-113),A-5 (73-79), Yana qarang: . M. M Mirtojiyev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2004(174-178).

2) .Quyidagi gaplardan “**makr-hiyлага usta**” ma'noli sinonimlarni toping, ularni sinonimlarning qaysi turiga mansub bo'lishi mumkinligini aniqlang.

1.Mirzakarimboy ilonning yog'ini yalagan odam: hamma boylar kabi ayyor mug'ambir, puxta-pishiq (O.). 2.Bir ertakda tulki hiylagar odamning qilmishlarini ko'rib ayyorlikdan voz kechib yiborardi (“Mushtum”).3.Tavba, bunday ustamonn ko'rgan emasman (O.). 4.Dushmanning makkor va qo'rqinchli niyatini oynaday ravshan ko'rsatgan xaritadan xo'rsinib boshini oldi (O.).5.Bunaqa dog'ulilar ishni boblab yuradi (S. A.). 6.Avvali shuki, hech kimim yo'q, yolg'iz boshim degandir shum ukasi, ilonning yog'ini yegan mo'ltoni onasi borligini yashirgandir (A.Q.). 7 Ha-ha, juda qilvirsan, ilonning yog'ini yegansan (K.Y.).8.Yana u Mirzakarimboy xonadoniga boshliq bo'lib kekkaysin,.. boylarning nishabini o'z tomoniga to'g'rilasin!.. U juda shayton xotin (O.). 9.Chol soqolini timiskilab: “Ehtiyot bo'ling u [Qo'qonboy] juda tulki odam, kattaroq shikast yetkazmasin”,- dedi (Mirm.). 10.O'z ham ish ko'rgan tullak emasmi, endi bu og'ir holatdan ustalik bilan chiqib olish yo'llariga yopishdi (A.Qod.). 11.Haydarov esa rahbar kishilarga xos fazilatlarida tamoman mahrum, qirriq kishi (“Tanish basharalar”). 12.Yerning tagida ilon qimirlasa bilaman! Bilasizmi, o'sha eski, xirpa Boymat buning ham chorasini allaqachon topib qo'ygan! (K.Y.). **I z oh:** *Gaplarning bir qismi akad. Azim Hojiyevning “O'zbek til. sinonimlarining izohli lug'ati”dan olindi.*

UYGA VAZIFA

I.Q-4 (26-28-betlar)dagi 10-11-12-13-mavzular(“Ishchi dastur”dagi 9-10-11-12-mavzular) bo'yicha adabiyotlar ustida ishlash, ularni konspektlashtirish.

II. Savolnoma, topshiriqlar va tayanch tushunchalar ustida ishlash.(Qarang: Q-4, 28-betlar).

UYGA VAZIFA

I.Omonimiya va paronimiya bo'yicha adabiyotlar ustida ishlash, ularni konspektlashtirish.


II. Savolnoma, topshiriqlar va tayanch tushunchalar ustida ishlash.

4-MAVZU: O'ZBEK TILI LEKSIKASINING TARIXIY TARAQQIYOTI. LEKSEMALARNING ISHLATILISH DOIRASI. EMOTSIONAL-EKSPRESSIVLIK JIHATDAN O'ZBEK TILI LEKSIKASI.

So'z o'zlashtirish yo'llari va usullari.

R E J A

1. O'zbek tili lug'at tarkibidagi so'zlarning kelib chiqishi haqida umumiy ma'lumot.
2. O'z qatlamga mansub leksemalar va ularning turlari.
3. O'z qatlamga oid so'zlarning eng muhim belgilari.
4. O'zlashgan qatlam va uning turlari.
5. Forscha – tojikcha so'zlar.
6. Arabcha so'zlar va ularning eng muhim xususiyatlari.
7. Ruscha-baynalmilal so'zlar va ularning mavzuiy guruhlari.



I. O'zbek xalqi, ma'lumki, eng qadimgi turkiy urug' va qabilalardan o'sib chiqqan, demak, uning tili ham shu urug' va qabilalar tili negizida rivoj topgan. Markaziy Osiyodagi turli tarixiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xususan, arablar, mo'g'ullar va ruslar istilosi, qardosh qozoq, qirg'iz, turkman, tojik xalqlari bilan qo'shnichilik munosabatlari ham o'zbek tili taraqqiyotiga jiddiy ta'sir o'tkazgan, bunda, ayniqsa, turkiy-arab, o'zbek-arab, o'zbek-tojik, o'zbek-qozoq, o'zbek-qirg'iz va o'zbek-turkman bilingvizmi kabi omillarning roli katta bo'lgan. Ana shu tarixiy jarayonlar nuqtai nazaridan qaralganda, hozirgi o'zbek tilining lug'at boyligida ikkita yirik qatlam - o'z va o'zlashgan qatlamlar borligi ma'lum bo'ladi.

O'z qatlamga turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan hamda o'zbek tilining o'ziniki bo'lgan so'zlar kiradi. Turkiy tillar uchun umumiy, mushtarak bo'lgan so'zlar **umumturkiy so'zlar** deyiladi. Umumturkiy so'zlar asrlar davomida o'zbek, qozoq, qirg'iz, tatar, boshqird, turkman, ozarbayjon va boshqa turkiy tillarda qo'llanib kelgan leksemalardir. Bunday so'zlar o'zbek tili lug'at tarkibining asosini tashkil etadi. Umumturkiy so'zlar deyarli barcha so'z turkumlarida mavjud. Bularga tog', suv, tosh, til, qo'l, bola, er (otlar), oq, qora, qizil, ko'k, sariq, yaxshi, yomon (sifatlar), bir, ikki, uch, besh, olti, sakson, tuqson, yuz, ming (sonlar), men, sen, u, biz, siz, ular, qanday, qachon (olmoshlar), kelmoq, bormoq, turmoq, qaramoq, olmoq (fe'llar), ildam, erta, indin, ilgari (ravishlar) kabilar misol bo'la oladi. Mazkur so'zlarning ba'zilar fonetik jihatdan yoki talaffuz qilinishiga ko'ra farq qilishi mumkin. Lekin shunday bo'lsa-da, ularning kelib chiqish asosi birdir. Umumturkiy so'zlar o'zbek tili leksikasining eng qadimgi lug'aviy biriklaridir. Ularning aksariyati hozirgi qozoq, qirg'iz, turkman, ozarbayjon tillarida ham

saqlangan. Qiyos qiling: *bosh* (o'zb.) – *bas* (qoz.qoraq.) – *bash* (qirg'.,turkm.); *til* (o'zb.,qoz.,qirg'.) – *dil* (turkm.,ozarb.,gagauz.); *tog'* (o'zb.) – *too* (qirg'.) – *tav, tau* (qoraq,qoz.) – *dag'* (turkm., ozarb.) kabi.

O'zbek tili leksikasidagi umumturkiy so'zlarning o'ziga xos fonetik va semantik belgilari bor.

Fonetik belgilari: a) so'zlarning ko'pchiligi bir yoki ikki bo'g'inlidir. Bir bo'g'inli so'zlar: *qo'l, ko'z, bosh, tosh, bir, uch*; ikki bo'g'inli so'zlar: *ikki, olti, oltin, yetti, ota, ona* va b.lar. Uch bo'g'inli so'zlar juda kam: *qo'rg'oshin, qumursqa, yigirma* kabi; b) so'z yoki bo'g'in boshida undosh tovushlar qatorlashib kelmaydi; d) so'z oxirida undosh tovushlar yonma-yon qo'llanishi mumkin, ammo bu hodisa juda kam uchraydi: *ort, ost, ust, to'rt, qirq* kabi; e) ikki bo'g'inli so'zlarning birinchi bo'g'ini to'la ochiq (**o-na, o-ta**), boshi yopiq (**ku-mush, bo-la**), oxiri yopiq (**ol-tin, o'r-dak**), to'la yopiq (**bay-ram, bay-roq**), ikkinchi bo'g'ini esa boshi yopiq (**o-ta, o-na**) va to'la yopiq (**ol-tin, ku-mush, si-gir**) strukturali bo'ladi; f) ikkinchi bo'g'in hech qachon unli bilan boshlanmaydi, ammo unli bilan tugash holatlari keng tarqalgan: *ik-ki, yet-ti, bo-la, ar-pa, bol-ta* kabi; g) so'z tarkibida ikki unli yonma-yon kelmaydi; f,h,j,(dj),ts undoshlari esa umuman qo'llanmaydi; h) r,l,v,ng, g,(g),d,z undoshlari so'z boshida uchramaydi; i) e,o' unilari so'z oxirida ishlatilmaydi (ayrim undov so'zlar bundan mustasno);j) urg'u ko'pincha so'z oxiriga tushadi.

Semantik belgilari: umumturkiy so'zlarning aksariyati ko'p ma'nolidir: *bosh* – 1) «odamning boshi», 2) «ko'chaning boshi», 3) «ishning boshi», 4) «bosh agronom»; *ko'z* – 1) «odamning ko'zi», 2) «uzukning ko'zi», 3) «taxtaning ko'zi», 4) «derazaning ko'zi» kabi.

Bu qatlamda «qon-qarindoshlik», «inson a'zolari», «uy hayvonlari», «yovvoyi hayvonlar», «parrandalar», «mehnat faoliyati», «uy-ro'zg'or buyumlari», «rang-tus», «maza-ta'm», «miqdor», «sanoq», «harakat», «holat», «urf-odat» ma'noli so'zlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Morfologik belgilari: a) umumturkiy so'zlar hozirgi o'zbek tilining barcha so'z turkumlarida uchraydi; b) turlanadi va tuslanadi; d) o'zak va affiks morfemalar erkin va standart bo'ladi: *ko'zim, ko'zing, ko'zi, ko'zni, ko'zning, boraman, borasan, boramiz* kabi; e) so'z tarkibida prefikslar qo'llanmaydi;

S o f o' z b e k s o' z l a r i - o'zbek tilining o'zida yasalgan leksemalar. Ular o'z qatlamning ikkinchi (nisbatan yangi) qismini tashkil qiladi. Bunday yasalişning quyidagi turlari bor:

a) **semantik usul** – ma'no taraqqiyoti mahsuli sifatida yangi leksemaning yuzaga kelishi: *ko'k* («rang») – *ko'k* («osmon»), *yetti* («son»)– *yetti* («ma'raka nomi»), *yupqa* (sifat) – *yupqa* (ot: «ovqatning bir turi») kabi;

b) **affiksatsiya usuli**. Bunda o'zak va affikslar turli til materiallari bo'lishi mumkin, ammo ularning qo'shilishi o'zbek tili tarkibida yuz beradi, o'zbek tilining so'z yasash qoliplariga asoslanadi, shu sababli bunday yasama so'zlar o'zbek tilining o'z qatlami birligi sanaladi. Masalan: *bosh* (umumturkiy)+ «-la» (o'zb.)–*boshla* (o'zb.), *temir* (umumturkiy)+ «-chilik» (o'zb.)–*temirchilik* (o'zb.), *jang* (f-t.)+«-chi» (o'zb.)– *jangchi* (o'zb.), *madaniyat* (ar.)+«-li» (o'zb.)–*madaniyatli* (o'zb.), *obuna* (r-b.)+«-chi» (o'zb.)–*obunachi* (o'zb.), *axta* (mo'g'.)+«-chi» (o'zb.)–*axtachi* (o'zb.),«be-» (f-t.)+*bosh* (umumturkiy)–*bebosh* (o'zb.)+ «-lik» (o'zb.)–*beboshlik* (o'zb.), *bil* (f-t.)+ «-im» (o'zb.)–*bilim* (o'zb.)+ «-don» (f-t.)–*bilimdon* (o'zb.) kabi.

Til taraqqiyotining xalq tarixi bilan bog'liqligi: o'z va o'zlashgan qatlamlar.

II. O'z qatlam: o'zbek tili leksikasining umumturkiy so'zlar va sof o'zbek so'zlaridan iborat qismlari:

1. Umumturkiy so'zlar: a) *bosh-bas-bash*; b) *til-dil*; d) *tog'– too– tav, tau– dag'* kabi.

Fonetik belgilari:

a) so'zlarning ko'pchiligi bir yoki ikki bo'g'inli (qo'l, ko'z, bosh, bir,uch; ikki, olti, oltin,yetti, ota, ona....);

b) so'z yoki bo'g'in boshida undosh tovushlar qatorlashib kelmaydi;

d) so'z oxirida undosh tovushlar qatorlashib kelishi mumkin, ammo bu hodisa kam uchraydi (**ort, ost, ust, to'rt, qirq** kabi);

e) ikki bo'g'inli so'zlarning birinchi bo'g'ini to'la ochiq (**o-ta, o-na**), boshi yopiq (**ku-mish, bo-la**), oxiri yopiq (**ol-tin, o'r-dak**), to'la yopiq (**bay-ram, bay-roq**), ikkinchi bo'g'ini esa boshi yopiq (**o-ta, o-na**) va to'la yopiq (**ol-tin, ku-mush**) bo'ladi;

f) ikkinchi bo'g'in hech qachon unli bilan boshlanmaydi, ammo unli bilan tugash holatlari keng tarqalgan: *ik-ki, yet-ti, bo-la, ar-pa, bol-ta* kabi;

g) so'z tarkibida ikki unli yonma-yon kelmaydi;

h) f, h, ts undoshlari umuman qo'llanmaydi;

- i) r, l, v, ng, g, g', d, z undoshlari so'z boshida ishlatilmaydi;
- j) e, o' unilari so'z oxirida qo'llanmaydi (ayrim undov so'zlar bundan mustasno);
- k) urg'u ko'pincha so'z oxiriga tushadi.

Semantik belgilari:

a) umumturkiy so'zlarning aksariyati ko'p ma'nolidir. Masalan; bosh-1) "odamning boshi"; 2) "ko'chaning boshi"; 3) "ishning boshi"; 4) "bosh agronom" kabi. Bunday ko'p ma'nolilik ko'z, quloq, burun kabi turkiy so'zlarga ham xos;

b) bu qatlamda "qon-qarindoshlik", "inson a'zolari", "uy hayvonlari", "yovvoyi hayvonlar", "parrandalar", "mehnat faoliyati", "uy- ro'zg'or buyumlari", "rang-tus", "maza-ta'm", "miqdor", "sanoq", "harakat", "holat", "urf-odat" ma'noli so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Morfologik belgilari:

a) umumturkiy so'zlar hozirgi o'zbek tilining barcha so'z turkumlarida uchraydi;

b) turlanadi va tuslanadi;

d) o'zak va affiks morfemalar erkin va standaryt bo'ladi: ko'zim, ko'zing, ko'zi, ko'zni, ko'zning; boraman, borasan, boramiz kabi;

e) so'z tarkibida prefikslar qo'llanmaydi.

2. Sof o'zbek so'zlari- o'zbek tilining o'zida yasalgan leksemalar. Ular o'z qatlamning ikkinchi (nisbatan yangi) qismini tashkil qiladi. Bunday yasalishning quyidagi turlari bor:

a) semantik usul- ma'no taraqqiyoti mahsuli sifatida yangi leksemaning yuzaga kelishi: ko'k ("rang")- ko'k ("osmon"), yetti ("son")- yetti ("ma'raka nomi"), yupqa (sifat turkumidagi so'z) -yupqa (ot tukumidagi so'z : "ovqatning bir turi") kabi;

b) affiksatsiya usuli- so'z yasovchi morfemalarning asosga qo'shilishi natijasida yangi so'zning yuzaga kelishi: Bunda o'zak va affikslar turli til materiallari bo'lishi mumkin, ammo ularning qo'shilishi o'zbek tili tarkibida yuz beradi, o'zbek tilining so'z yasaliş qoliplariga asoslanadi, shu sababli bunday yasama so'zlar o'zbek tilining o'z qatlami birligi sanaladi. Masalan, bosh (umumturkiy so'z)+ "-la"(o'zb.) =boshla (o'zb.), temir (umumturkiy) + "-chilik"(o'zb.)= temirchilik (o'zb.), jang (fors-tojik) + "-chi" (o'zb) = jangchi (o'zb), madaniyat (arab.) + "-li" (o'zb.) = madaniyatli (o'zb.), obuna (ruscha - baynalmilal) + "-chi" (o'zb.) = obunachi (o'zb.) kabi.

O'zbekcha so'zlarni ajratishda quyidagilarga e'tibor berish mumkin:

1. Asli o'zbekcha so'zlarga shu tilga oid qo'shimchalarni qo'shish orqali yasalgan so'zlar. Bunda -chi, -ma, -lik, -gich, -im singari o'zbekcha qo'shimchalar vositasida yasama so'zlar hosil qilinadi: suvchi, terimchi, o'quvchi, o'qituvchi, boshlovchi, kema, terlama, boshqarma, qorishma, bosma, otalik, onalik, bolalik, yaxshilik, yomonlik, suzgich, muzlatgich, o'g'itlagich, sovitgich, terim, yig'im, bo'lim va boshqalar.

2. Boshqa tillardan kirgan so'zlarga o'zbekcha qo'shimchalarni qo'shish orqali yasalgan so'zlar. Bunda o'zbekcha leksemalar quyidagicha hosil qilinadi: 1) tojikcha so'zlarga o'zbekcha qo'shimchalarni qo'shish asosida yaratiladi: jangchi, mardlik, tanburchi, dutorchi, vayronalik, sabzavotchilik, chorvachilik; 2) arabcha so'zlarga o'zbekcha qo'shimchalarni qo'shish vositasida hosil qilinadi: maorifchi, maslahatchi, jamoatchi, murabbiylik, zamondosh, vazirlik, rahbarlik, ovqatlanmoq; 3) ruscha-baynalmilal so'zlarga o'zbekcha qo'shimchalarni qo'shish orqali yasaladi: traktorchi, sportchi, shofyorlik, demokratlashtirish, elektrlashtirish, mexanizatsiyalashtirish, betonlamoq singarilar.

3. Boshqa tillardan o'tgan yasovchi vositalar yordamida o'z va o'zlashma qatlamdan hosil qilingan so'zlar. Bunda qo'shimcha o'zga tilga oid bo'ladi, asos so'z o'zbekcha, tojikcha, arabcha, ruscha so'zlardan tashkil topadi: kitobxon, jurnalxon, bilimdon, savodxon, ma'rifatparvar, adabiyotshunos, tilshunos, partiyaviy, ommaviy, soatsoz, vagonsoz, uysoz, mashinasoz, noaniq, serish, sertarmoq, serhosil, madadkor, bunyodkor, notinch, beish, chizmakash, yo'lsoz, ilmiy, tarbiyaviy, oilaviy kabilar.

O'z qatlam leksemalarining bir guruhini kompozitsiya usuli bilan yasalgan qo'shma so'zlar tashkil qiladi. Qo'shma o'zbekcha leksemalar quyidagicha hosil etiladi: 1) bir lug'aviy qatlamga mansub leksemalardan yasaladi: issiqsevar, belkurak, ituzum, suvqovoq, baqaterak, yiloshi, tomorqa, otboqar, tezpishar, quloqcho'zma, olaqarg'a; 2) turli lug'aviy qatlamga mansub so'zlardan yasaladi: yondaftar, tilxat, buyintumor, havorang, radioaloqa, fotonusxa, umumshahar, qumshakar, boshpana, kelinsalom, otameros, kitobsevar, sheryurak kabilar.

O'z qatlam leksemalari bir qator xususiyatlari bilan o'zlashma qatlam leksemalaridan farqlanib turadi. O'z qatlamga oid leksemalarning eng muhim, asosiy belgilari quyidagilardir:

1. O'z qatlamga oid leksemalarning ko'pchilik qismi ko'p ma'nolidir, polisemantik xarakterga egadir. O'zlashma leksemalarda bu xususiyat chegaralangan.

2. O'z qatlam leksemalarining aksariyati aniq ma'noli so'zlardir. O'zlashma qatlamga tegishli so'zlar esa ko'proq mavhum ma'nolidir.

3. O'z qatlam leksemalari fonetik tuzilishiga ko'ra asosan bir bo'g'inli, ikki bo'g'inli, uch bo'g'inli bo'ladi. Bir bo'g'inli tub so'zlar ko'proq undosh + unli + undosh shakliga ega bo'ladi.

4. O'z qatlam leksemalari r, l, v, f, h, ʉ tovushlari bilan boshlanmaydi. Leksemalar bunday tovushlar bilan boshlansa o'zlashma qatlamga mansub bo'ladi.

5. O'z qatlam leksemalarida birinchi bo'g'indan keyingi bo'g'inlar hech vaqt unli tovush bilan boshlanmaydi.

6. O'z qatlamga oid so'zlarning oxiri e(e), o' unlisi bilan tugamaydi. Ba'zi undov va taqlidiy so'zlar (he, ehe, o'ho', bo', mo' kabilar) bundan mustasno.

7. O'z leksemalarda bo'g'in boshida, o'rtasida va oxirida ikki undosh qatorasiga kelmaydi. Ost, ust, art, arch, berk, gurs, yilt kabi so'zlar bundan mustasno.

8. O'z qatlam so'zlari tarkibida bo'g'iz undoshi h, qorishiq ʉ kelmaydi. Him, uh, ah, ha-ha kabi ayrim so'zlar bundan mustasno.

9. Grafik jihatdan o'z qatlamga oid so'zlarda ' (tutuq), Ъ (yumshatish) belgilari ishlatilmaydi.

10. O'zbekcha so'zlarda urg'u odatda oxirgi bo'g'inda bo'ladi.

Sof o'zbek so'zlarining yasovchi asosi arabcha yoki ruscha-baynalmilal bo'lganda, yasalmaning o'zagi yoki asosida ikki unli yonma-yon kelishi, so'z boshida ikki-uch undosh qatorlashishi mumkin: *maorifchi, matbaachi, doirachi, saodatli, manfaatli, dramnavislik, drenajlanmoq, plakatbop, planbozlik*.

O'zlashgan qatlam - o'zbek tili leksikasining boshqa tillardan o'zlashtirilgan leksemalardan iborat qismi. Masalan: *maktab, oila* (ar.), *daraxt, gul* (f-t.), *axta, bahodir* (mo'g'), *afandi* (turk.), *ravshan* (sug'd.), *traktor, avtobus* (r-b.) va b.lar. Bu qismda arab, tojik-fors va rus tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

1. Arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlar. Bunday so'zlarning o'zlashtirilishi VIII asrdan boshlanib, IX-X asrlarda ancha faollashgan. Arab tilidan so'z o'zlashtirilishiga olib kelgan omillar ichida quyidagilar muhim rol o'ynagan: a) arablar istilosi; b) islom dinining keng tarqalishi; d) arab yozuvining qo'llana boshlanganligi; e) madrasalarda arab tilining o'qitilishi; f) turkiy-arab ikki tilliligining (bilingvizmning) tarkib topganligi; g) olimu fuzalolarning arab tilida ijod qilganligi va b.lar.

Hozirgi o'zbek tili leksikasida arab tilidan o'zlashtirilgan leksemalarning ko'pchiligi ot, sifat va ravish turkumlariga mansubdir: otlar – *adabiyot, axborot, avlod, ayol, maktab, maorif, ma'naviyat, hosil, hukumat, odam, haqiqat, intizom, inshoot* va b.lar; sifatlar – *adabiy, ajnabiy, aziz, azim, ayyor, aqliy, badiiy* va b.lar; ravishlar – *avval, ba'zan, bil'aks, ta'ziman* kabi. Bulardan tashqari, bog'lovchilar (*balki, ammo, lekin, va, vaholonki*), undovlar (*ajabo, barakalla, salom, xayr*), modal so'zlar (*albatta, ehtimol, avvalo*), yuklamalar (*faqat, xuddi*), ko'makchilar (*binoan*) ham o'zlashtirilgan.

Arab tilidan so'z o'zlashtirilishi o'tmishda faol bo'lgan, hozir esa bu jarayon deyarli to'xtagan. Ayrim arabcha so'zlar hatto eskirib, tarixiy so'zlar yoki arxaizmlar qatoriga o'tib qolgan: *adad* (sanoq so'z), *ajam* ("arablardan boshqa xalqlar"), *akbar* ("katta", "buyuk", "ulkan"), *alam* (bayroq), *bayoz* ("she'riy to'plam"), *sallox* ("qassob"), *saloh* ("to'g'rilik", "vijdonlilik"), *sanad* ("hujjat") va b.lar.

Arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlarning fonetik, semantik va morfemik tarkiblarida quyidagi xususiyatlar borligi ko'zga tashlanadi: a) so'z tarkibida ikki unlining yonma-yon qo'llanish hollari uchraydi: *matbaa, mutolaa, saodat, oila, doir, rais* kabi; b) *ra'no, da'vo, ta'na, e'lon, me'mor, ta'lim, e'tibor, mo'tabar* kabi so'zlarda ayn tovushidan oldingi unli kuchli va bir oz cho'ziq talaffuz etiladi; d) *jur'at, sur'at, bid'at, qal'a, san'at* so'zlarida bo'g'inlar ayirib talaffuz qilinadi; e) semantik jihatdan: ko'proq diniy, hissiy, axloqiy, ilmiy, ta'limiy va mavhum tushunchalar ifodalanadi: *avliyo, aza, azon, vahiy, avrat, axloq, axloqiy, xulq, fikr, tafakkur* kabi; ilmga, adabiyot va san'atga oid tushuncha nomlari ham keng tarqalgan: *amal* (matematikada hisob turi), *rukn, vazn* (adabiyotshunoslik atamalari), *riyoziyot* ("matematika"), *adabiyot, san'at, tabiiyot* (fan va soha nomlari) kabi; f) so'zlarning lug'aviy va grammatik shakllari flektiv xarakterda bo'lib, o'zbek tilida morfemalarga ajratilmaydi: *ilm, muallim, olim, ulamo; fikr, tafakkur, mutafakkir* kabi.

Arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlar orasida tarixan yasama bo'lgan *adabiy, badiiy, g'olibiyat, voqeiy, voqean, oilaviy* kabi leksemalar ham bor. Bunday leksemalar bilan birga o'zlashtirilgan "-iy", "-viy", "-an" affikslari o'zbek tilida so'z yasovchi affikslar darajasiga ko'tarilgan, natijada o'zbek tilida

so'z yasash imkoniyatlari kengaygan. Hozirgi o'zbek tilida shu affikslar vositasida yasalgan juda ko'p yangi leksemalar mavjud: *texnikaviy, fizikaviy, tuban, turkiy* kabi. Bulardan tashqari, arabcha leksik o'zlashmalar o'zbekcha yoki tojikcha so'zlar bilan ma'no munosabatiga kirishib, o'zbek tilining sinonimik qatorlarini boyitgan: *o'rinbosar* (o'zb.)- *muovin* (a.), *guvoh* (f-t.)- *shohid* (a.), *aniq* (a) – *ravshan* (so'g'd.) kabi

2. Fors-tojik tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar. Bunday so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashtirilishida quyidagi omillarning alohida roli bor: a) o'zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir (yoki qo'shni) territoriyada, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy muhitda yashab kelayotganligi; b) o'zbek-tojik va tojik-o'zbek ikki tilliligining (bilingvizmining) keng tarqalganligi; d) tojik va fors tillarida ijod qilish an'analarning uzoq yillar davom etganligi; e) Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida tojik tilining alohida mavqega ega bo'lganligi; d) adabiyot, san'at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik va b.lar.

Hozirgi o'zbek tilida tojik-fors tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar orasida otlar (*sartarosh, avra, avra-astar, bazm, barg, baxt, daraxt, daraxtzor, hunar, hunarmand*), sifatlar (*badbo'y, badjahl, baland, baravar, barvasta, bardam, barzangi, barra, baxtiyor, bachkana, ozoda, toza*), ravishlar (*bajonidil, banogoh, do'stona, tez, bazo'r, astoydil, chunon*), bog'lovchilar (*chunki, yoki, agar, garchi, ham*), undovlar (*balli, dod*), yuklamalar (*xo'sh, xuddi*), modal so'zlar (*chunonchi, binobarin*) uchraydi.

Fors-tojik tillaridan o'zlashtirilgan so'zlarda: a) so'z oxirida undosh tovushlarning qatorlashib kelishi ancha keng tarqalgan: *g'isht, go'sht, daraxt, karaxt, do'st, past, kaft, farzand* kabi. (Umumturkiy so'zlarda bu holat kam uchraydi); b) kuchsiz lablangan "o" unlisi so'zning barcha bo'g'inlarida qo'llanadi: *ohang, nobud, bahor, obodon, peshona* kabi.

Tojik-fors tillaridan o'zbek tiliga bir qator prefiks va suffikslar ham o'zlashgan: prefikslar – "be-", "ba-", "no-", "ham-", "bar-", "kam-", "xush-", suffikslar "-kor", "-zor", "-xo'r", "-parvar", "-kash", "-bop", "-boz", "-do'z", "-namo", "-paz", "-furush" va b.lar. Ular dastlab tojik-fors so'zlari tarkibida qo'llangan, keyinchalik o'zbek tilining so'z yasovchi affikslari qatoridan o'rin olib, yangi so'zlarning yasashida ishtirok etgan, shu yo'l bilan o'zbek tili leksikasini yana-da boyitgan. Masalan: *badavlat, beayov, bebosh, beboshlik, nosog', noto'g'ri, hamyotoq, hamkurs, hamyurt, barkamol, kamsuv, kamsuvlik, kamsuqum, kamsuqumlik, xushbichim, xushyoqmas, o'rikzor, olmazor, to'qayzor, bug'doyzor, bug'doykor, nafaqaxo'r, tekinoxo'r, adolatparvar, chizmakash, somsapaz, yubkabop, kostumbop, gruppaboz, buyruqboz, maxsido'z, telbanamo, ipakfurush* kabi. Bulardan tashqari, tojik tilidan o'zlashgan *xona, noma* so'zlari o'zbek tilida affiksoid vazifasida qo'llanib, *yilnoma, oynoma, ishxona, bosmaxona* kabi so'zlarning yasashida ishtirok etgan.

Tojik tilidan o'zlashtirilgan so'zlarga o'zbek tilining so'z yasovchi qo'shimchalarini qo'shib leksema yasash hollari ham anchagina bor (bu haqda "O'z qatlam" bahsiga qarang).

Tojik tilidan so'z o'zlashtirilishi o'zbek tilining lug'at tizimida yangi sinonimik qatorlarni ham yuzaga keltirgan: *qirov*(o'zb.) – *shabnam*(toj.), *yaproq*(o'zb.) – *barg*(toj.), *oltin*(umumturkiy) – *tilla*(toj.), *buloq*(o'zb.) – *chashma*(toj.) kabi. Bunday holni antonimlar tizimida ham ko'ramiz: *do'zax*(f-t.) – *jannat*(ar.), *yirik*(o'zb.)-*mayda*(f-t.) kabi.

3. Ruscha-baynalmilal so'zlar - o'zbek tiliga rus tilidan va u orqali Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan leksemalar: *gazeta, jurnal, avtobus, trolleybus, teatr, roman, sujet, geometriya, fizika, matematika, traktor, kombayn, raketa, avtomat, armiya* va b.lar.

Rus tilidan so'z o'zlashtirilishiga ko'proq quyidagi omillar sabab bo'lgan: a) Chor Rossiyasining imperialistik siyosati; b) Sovet imperiyasida rus tilining millatlararo til mavqeiga ega bo'lishi, bu mavqening yildan-yilga mustahkamlanib borishi; d) o'zbek-rus ikki tilliligining tarkib topishi; e) matbuot, radio, televideniya rus tiliga keng o'rin berilishi; d) maktab-maorif tizimida, oliy o'quv yurtlarida rus tilining maxsus o'qitilishi; f) ilm-fan terminologiyasining shakllantirilishida ruscha-baynalmilal atamalarga ko'proq tayanish; g) ma'muriy-idoraviy ish qog'ozlarining asosan rus tilida yozilishi va b.lar.

Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlarning aksariyati ot va son turkumlariga mansubdir: *institut, universitet, drama, zavod, fabrika* (otlar), *million, milliard, trillion* (sonlar), *gramm, kilogramm, litr, millimetr, santimetr, kilometr, sekund, tonna* kabi. Bu qatlamda kalka usulida o'zlashtirilgan sifatlar ham bor: *simmetrichny>simmetrik, psixologicheskij>psixologik, biologicheskij>biologik* kabi.

Semantik jihatdan ruscha-baynalmilal so'zlar orasida ishlab chiqarishga (*zavod, fabrika, sex, stanok*), ilm-fanga (*sema, semema, nomema* – tilshunoslikda; *teorema, aksioma, romba, kvadrat* – matematikada; *spora, gameta, flora*-botanikada; *fauna, reptiliya* - zoologiyada va b.lar); transportga

(*mashina, avtomobil, avtobus, poezd, trolleybus, tramvay*), san'atga (*teatr, spektakl, rejissor, opera, drama*), radio va televideniye (radio, televizor, lampa, detal, videomagnitofon), harbiy tizimga (*artilleriya, avtomat, tank, raketa, vzvod, rota, batalon*) oid so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Fonetik jihatdan qaralganda ruscha-baynalmilal so'zlarda quyidagi belgi-xususiyatlar ko'zga tashlanadi:

a) so'z urg'usi erkindir: u so'zning turli (birinchi, ikkinchi va oxirgi) bo'g'inlarida bo'lishi mumkin: abajur *avantura, prof?ssor, standart, drama* kabi;

b)urg'uli bo'g'indagi unli o'zbek tili so'zlarining urg'uli bo'g'inidagi unidan cho'ziqroq talaffuz etiladi: *oltin*(o'zb., umumturkiy) – *karantin* (r-b.), *ovsin* (o'zb.) – *apelsin* (r-b.), *orzu* (f-t.) – *meduza* (r-b.) kabi;

d)bir bo'g'inli so'zlarda unli ruscha so'zlarda cho'ziqroq, o'zbekcha va tojikcha so'zlarda esa qisqaroq talaffuz qilinadi: *biz* (o'zb.)-*bis*>*bi:s* (“bis”ga chaqirmoq), *tep* (fe'l shakli) – *temp, pul* (f-t<yun.) – *puls* (r-b.);

e)ruscha **o** o'zbekcha **o'** unlisidan kengroq va orqaroqda talaffuz qilinadi: *to'n* (o'zb.)-*ton* (r-b.), *to'rt* (o'zb.<umumturkiy)-*tort*(r-b.) kabi;

f)ruscha o'zlashmalarning birinchi urg'uli bo'g'indagi unli o'zbek so'zlarining birinchi bo'g'inidagi unidan ancha cho'ziq va kuchli talaffuz qilinadi (chunki o'zbek tili so'zlarining birinchi bo'g'ini ko'pincha urg'usiz bo'ladi). Qiyos qiling: *imlo* (o'zb.<ar.)-*impuls*(r-b.), *indin*(o'zb.)-*indeks*(r-b.), *etik*(o'zb.)-*etik*(“etikaga oid”), *ellik*(o'zb.)-*ellips*(r-b.) kabi.

Yuqoridagi kabi tafovutli belgi-xususiyatlar so'z tarkibidagi undoshlarda ham uchraydi. Xususan:

a) ruscha o'zlashmalar tarkibida undoshlarning qattiqlik va yumshoqlik ziddiyati o'zbek tilida ham saqlanadi: *ukol* va *parol* (*укол ва пароль*), *feodal* va *medal* (*феодал ва медаль*), *parad* va *naryad* (*парад ва наряд*) kabi; b) ruscha so'zlardagi lab-tish “v” so'z oxirida jarangsiz “f” tarzida talaffuz qilinadi, o'zbek tili so'zlarida esa lab-lab “v” jarangsizlanmaydi. Qiyos qiling: *nav*(o'zb.<f-t)-*ustav*>*ustaf*(r-b.),*birov*(o'zb.)-*aktiv*>*aktif* (r-b.) va b.lar; v) so'z va bo'g'in boshida bir necha undoshning qatorlashib kelishi keng tarqalgan (umumturkiy so'zlarda bu hol uchramaydi): *shkaf, tramvay, trolleybus* kabi.

Morfologik belgilari: ruscha-baynalmilal leksemalarda prefiks+o'zak(*a+morf, de+duksiya*), o'zak+suffiks (*bronx+it, jurnal+ist*), prefiks+o'zak+suffiks (*a+simmetriya*) tarkibli so'zlar uchraydi.

Ruscha-baynalmilal so'zlar tarkibidagi affiksalar o'zbek tilida so'z yasamaydi (*mikroo'g'it, mikroiqlim, ultratovush* kabi kalkalar bundan mustasno).

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, sobiq ittifoq tuzumiga xos bir qator ruscha-baynalmilal so'zlar (*raykom, partkom, gorkom, kolxoz* kabilar) eskirib, o'zbek tili leksikasining eskirgan so'zlari (istorizmlar) qatoriga o'tib qoldi, ayni paytda yangi ijtimoiy-siyosiy tuzum taqozosi bilan hamda iqtisoddagi va ta'limdagi islohotlar tufayli o'zbek tili leksikasida yangi ruscha-baynalmilal o'zlashmalar paydo bo'ldi: *investitsiya, marketing, minimarket, supermarket, test, reyting, litsey, kollej* va boshqalar shular jumlasidandir.

Tekshirish savollari va topshiriqlar

1.O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti jarayonida so'z va leksemalarning qanday qatlamlari yuzaga kelgan?

2.O'z qatlam qanday so'zlardan tarkib topgan?

3.Qanday so'zlar umumturkiy leksemalar sanaladi? Buning sababi?

4.Umumturkiy leksemalarning fonetik, semantik va grammatik belgi-xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

5.Qanday so'zlar sof o'zbek tili lug'aviy birliklari hisoblanadi?

6.Sof o'zbek so'zlari qanday yuzaga kelgan? Nima uchun ular o'z qatlam birliklari sanaladi?

7.Sof o'zbek so'zlarining fonetik va morfemik tarkibi haqida ma'lumot bering.

8.O'zlashgan qatlam qanday so'zlardan tarkib topgan?

9.Arab tilidan so'z o'zlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablari haqida ma'lumot bering.

10.Arabcha o'zlashmalarning fonetik, semantik va morfemik belgi-xususiyatlarini tushuntiring.

11.Arab tilidan o'zbek tiliga leksemalardan tashqari yana qanday so'zlar va morfemalar o'zlashtirilgan?

12.Arabcha o'zlashmalarning so'z turkumlari bo'yicha taqsimoti qanday?

13.O'zbek tili leksikasining boyishida arab tilidan o'zlashtirilgan so'z va morfemalarning qanday ishtiroki bor?

14. Fors-tojik tillaridan soʻz oʻzlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablari haqida maʼlumot bering.
15. Fors-tojik tillaridan oʻzlashtirilgan soʻzlarning soʻz turkumlariga munosabati?
16. Fors-tojik tillaridan oʻzlashtirilgan soʻzlarning fonetik va morfemik tarkibi haqida maʼlumot bering.
17. Fors-tojik tillaridan oʻzlashtirilgan soʻz yasovchi prefiks va suffikslarning oʻzbek tilidagi soʻz yasashida tutgan oʻrni haqida gapiring.
18. Oʻzbek tili lugʻat boyligidagi sinonimiya hodisasining rivojlanishida fors-tojik tillaridan soʻz oʻzlashtirishning qanday roli bor?
19. Rus tilidan soʻz oʻzlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablari haqida gapiring.
20. Ruscha-baynalmilal soʻzlarning soʻz turkumlariga munosabatini tushuntiring.
21. Ruscha-baynalmilal soʻzlarning semantik xususiyatlari hamda fonetik va morfemik tarkibi haqida maʼlumot bering.
22. Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, oʻzbek tiliga rus tilidan oʻzlashgan leksikada qanday oʻzgarishlar yuz berdi? Buning sabablari?

Tayanch tushunchalar

Oʻz qatlam - oʻzbek tili leksikasining umumturkiy va sof oʻzbekcha soʻzlardan iborat qismi.

Oʻzlashgan qatlam – boshqa tillardan olingan leksik oʻzlashmalar qatlami.

Umumturkiy soʻzlar - oʻzbek tili lugʻat boyligidagi eng qadimgi lugʻaviy birliklar.

Sof oʻzbekcha soʻzlar - oʻzbek tilining oʻzida yasalgan (nisbatan yangi) leksemalar.

Arabcha oʻzlashmalar – arab tilidan oʻzlashtirilgan soʻzlar.

Fors-tojik soʻzlari – fors-tojik tillaridan oʻzlashtirilgan soʻzlar.

Ruscha-baynalmilal oʻzlashmalar – rus tilidan va u orqali boshqa tillardan oʻzlashtirilgan soʻz va terminlar.

A D A B I Y O T L A R

1. Shoabdurahmonov SH. va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, 1980, 120-124-betlar.
2. Tursunov U. va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, 1992, 173-183-betlar.
3. Oʻzbek tili leksikologiyasi. Toshkent, 1981, 55-141-betlar.
4. Begmatov E. Hozirgi oʻzbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent, 1985, 48-116-betlar.
5. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. I qism. Toshkent, 1966, 159-178-betlar.
6. Nurmonov A. va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, 2002, 66-73-betlar.
7. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, 2003, 35-38-betlar.
10. Gulyamov X. Uzbekska-tadjikskie yazykovye svyazi. Tashkent, 1983, 9-80-betlar.
11. Muhammadjonova G. Oʻzbek tili leksikasi taraqqiyotining baʼzi masalalari. Toshkent, 1982.
12. Bafoyev B. Navoiy asarlari leksikasi. Toshkent, 1983.

DAVOMI: SOʻZ OʻZLASHTIRISH.

1. Soʻz oʻzlashtirish haqida maʼlumot.
2. Soʻz oʻzlashtirishning ikki yoʻli.
3. Soʻz oʻzlashtirish usullari
4. Soʻz oʻzlashtirishning chet soʻzlarni qoʻllashdan farqlari

MAʼRUZA MAZMUNI

Soʻz oʻzlashtirish boshqa til soʻzlarining oʻzbek tiliga olinishidir. Bu jarayon, yuqorida koʻrilganidek, oʻzbek tili leksikasining oʻzlashgan qatlamini yuzaga keltirgan.

Soʻz oʻzlashtirish til taraqqiyotining qonuniy koʻrinishidir: xalqlar oʻrtasidagi ijtimoiy- iqtisodiy, madaniy- maʼrifiy va ilmiy aloqalar, bunday aloqalarning jamiyatda shakllangan bilingvizm sharoitida barqaror tus olishi bir tildan ikkinchi tilga soʻz va atamalarning oʻtib turishini taqozo qiladi. Oʻzbek tiliga arab, fors-tojik va rus tillaridan soʻz oʻzlashtirilishi ham ana shunday ijtimoiy-tarixiy omillar tufayli sodir boʻlgan (Bu haqda “Oʻzlashgan qatlam” mavzusiga qaralsin.)

SO`Z O`ZLASHTIRISHNING IKKI XIL YO`LI

1. Jonli so`zlashuv orqali so`z o`zlashtiriladi.

Bunda boshqa til so`zlari o`zbek tiliga mahalliy aholining og`zaki nutqi orqali o`tadi. Masalan, ruscha *rami(рамы), klubnika, podnos* so`zlari o`zbek tilining jonli so`zlashuvda *rom, qulubnay va patnis* deb talaffuz qilingan, keyinchalik o`zbek adabiy tiliga ham shu shaklda o`zlashgan.

2. Bosma manbalar orqali o`zlashtiriladi.

Bunda boshqa tildagi matnni o`zbek tiliga tarjima qilish yoki o`zbek tilida yozilgan maqolalarda, ilmiy va badiiy asarlarda boshqa til so`zlarini (ayniqsa, termin va atamalarni) ishlatish orqali bo`ladigan o`zlashtirish nazarda tutiladi. Matematikadagi *katet, gipotenuza*, adabiyotshunoslikdagi *kulminatsiya, sujet* kabi terminlar, *ocherk, roman, povest* kabi so`zlar shu yo`l bilan o`zlashtirilgan.

To`liq va yarim kalkalar so`z o`zlashtirishning *grammatik usuli* deb ham qaraladi, chunki bunda boshqa til so`zlarining ma`noli qismlaridan nusxa ko`chirilishi orqali so`z yasaladi. **Ammo tilda ba`zan yangi so`z yasalmay, azaldan mavjud bo`lgan birorta leksemaga boshqa til leksemasining birorta ma`nosini yuklash orqali ham ma`no o`zlashtirilishi ta`minlanadi.** O`zlashtirishning bu turi *semantik kalka* sanaladi. Masalan, *til* so`zi “so`zlashuv quroli” nomi sifatida ruscha *язык* so`ziga ekvivalentdir. Ayni shu holat rus tilidagi *язык* so`zining “asir” ma`nosini o`zbek tilidagi *til* so`zi bilan ifodalashga turtki bo`lgan: *“Qo`mondonlik Ostonaquillar keltirgan “til”dan hujum jangining planini tuzish uchun eng kerakli ma`lumotlarni oldi”*. (A. Rahm. Ellik bir bahodir.)

O`zbek tilidagi *o`zak* leksemasida “so`zning o`zagi” ma`nosining paydo bo`lganligi ham ruscha *корень* leksemasining «*корень слово*» ma`nosiga asoslangandir.

5.14. SO`Z O`ZLASHTIRISH USULLARI

1. O`zicha olish.

Bunda boshqa tildan o`zlashtirilayotgan so`z hech qanday o`zgarishsiz yoki ayrim (juz`iy) fonetik o`zgarishlar bilan olinadi. Mas., *g`o`za (f-t.), poya (f-t.), kaptar (<f-t: kabutar); balo (ar.) bil`aks (ar.), davlat (ar.), muallim (< ar. mua`llim); direktor (r-b.), rektor (r-b.), institut (r-b.), metro (r-b.), cho`t (<rus. счеты), cho`tka (< rus щетка) kabi.*

2. Kalkalab olish. Bunda boshqa tildagi (mas., rus tilidagi) so`zning morfemik tarkibidan qismma- qism nusxa olish orqali o`zbekcha so`z yasaladi va shu so`z bilan boshqa til (mas., rus tili) leksemasining ma`nosi ifodalanadi. Qiyos qilqng: *yarim o`tkazgich* <rus: полупроводник, *ilmiy ommabop* < rus: научно популярный kabi. Kalkalashning bu turi to`liq kalka sanaladi, chunki unda boshqa til so`zining ifoda materiali o`zbek tili materiali bilan to`liq almashtirilgan. Ba`zan, boshqa til so`zining bir qismi o`zgarishsiz olinadi, qolgan qismi esa o`zbek tili materiali bilan almashtiriladi. Qiyos qiling: *mikroo`g`it* <rus. микроудобрение, *ultratovush* <rus ультразвук, *rekordli* < рекордный, *meshchanlik* < мещанство kabi. Kalkalashning bu turi yarim kalka hisoblanadi.

SO`Z O`ZLASHTIRISHNING CHET SO`ZLARNI QO`LLASHDAN FARQLARI

So`z yoki ma`no o`zlashtirilishini chet so`zlarni qo`llashdan farq qilish kerak. So`z yoki ma`no o`zlashtirilishi muayyan til leksikasini boyituvchi qonuniy hodisadir, chunki bir til boshqa tildan o`zi uchun zarur bo`lgan leksik- semantik birliklarni o`zlashtiradi. **Chet so`zlarni ishlatish hodisasi esa g`ayri qonuniydir**, chunki o`zbek tilining o`zida biror so`z mavjud bo`lgani holda, uning o`rnida chet so`zni ehtiyojsiz, maqsadsiz qo`llash tilni boyitmaydi, aksincha, ayrim shaxslarning o`z nutqiga e`tiborsiz qarashinigina aks ettiradi.

Tayanch so`zlarning o`zbekcha - inglizcha-ruscha lug`ati

O`zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Kalka	Vellum	Калька
Kalkalash	Tracing	Калькирование
Jargon	Jargon	Жаргон
Jargon, argo	Argot	Жаргон, арго
Jonli til	A living language	Живой язык
Kasb-hunar leksikasi	Professional vocabulary	Профессиональная лексика
Varvarizm	Barbarism	Варваризм
Vulgarizm	Vulgarism	Вульгаризм
Dialectizm	Dialectism	Диалектизм

SO`Z O`ZLASHTIRISH USULLARI

1. O`zicha olish.

Bunda boshqa tildan o`zlashtirilayotgan so`z hech qanday o`zgarishsiz yoki ayrim (juz`iy) fonetik o`zgarishlar bilan olinadi. Mas., **g`o`za (f-t.), poya (f-t.), kaptar (<f-t: kabutar); balo (ar.) bil`aks (ar.), davlat (ar.), muallim (< ar. mua`llim); direktor (r-b.), rektor (r-b.), institut (r-b.), metro (r-b.), cho`t (<rus. счеты), cho`tka (< rus щетка)** kabi.

2. Kalkalab olish. Bunda boshqa tildagi (mas., rus tilidagi) so`zning morfemik tarkibidan qismma- qism nusxa olish orqali o`zbekcha so`z yasaladi va shu so`z bilan boshqa til (mas., rus tili) leksemasining ma`nosi ifodalanadi. Qiyos qilqng: **yarim o`tkazgich** <rus: полупроводник, **ilmiy ommabop** < rus: научно популярный kabi. Kalkalashning bu turi to`liq kalka sanaladi, chunki unda boshqa til so`zining ifoda materiali o`zbek tili materiali bilan to`liq almashtirilgandir. Ba`zan, boshqa til so`zining bir qismi o`zgarishsiz olinadi, qolgan qismi esa o`zbek tili materiali bilan almashtiriladi. Qiyos qiling: **mikroo`g`it** <rus. микроудобрение, **ultratovush** <rus ультразвук, **rekordli** < рекордный, **meshchanlik** < меццанство kabi. Kalkalashning bu turi yarim kalka hisoblanadi.

To'liq va yarim kalkalar so'z o'zlashtirishning *grammatik usuli* deb ham qaraladi, chunki bunda boshqa til so'zlarining ma'noli qismlaridan nusxa ko'chirilishi orqali so'z yasaladi. Ammo tilda ba'zan yangi so'z yasalmay, azaldan mavjud bo'lgan birorta leksemaga boshqa til leksemasining birorta ma'nosini yuklash orqali ham ma'no o'zlashtirilishi ta'minlanadi. O'zlashtirishning bu turi *semantik kalka* sanaladi. Masalan, til so'zi "so'zlashuv quroli" nomi sifatida ruscha **язык** so'ziga ekvivalentdir. Ayni shu holat rus tilidagi **язык** so'zining "asir" ma'nosini o'zbek tilidagi **til** so'zi bilan ifodalashga turtki bo'lgan: **"Qo'mondonlik Ostonaqullar keltirgan "til"dan hujum jangining planini tuzish uchun eng kerakli ma'lumotlarni oldi"**. (A. Rahm. Ellik bir bahodir.)

O'zbek tilidagi **o'zak** leksemasida **"so'zning o'zagi"** ma'nosining paydo bo'lganligi ham ruscha **корень** leksemasining «**корень слово**» ma'nosiga asoslangandir.

SO'Z O'ZLASHTIRISHNING CHET SO'ZLARNI QO'LLASHDAN FARQLARI

So'z yoki ma'no o'zlashtirilishini chet so'zlarni qo'llashdan farq qilish kerak. So'z yoki ma'no o'zlashtirilishi muayyan til leksikasini boyituvchi qonuniy hodisadir, chunki bir til boshqa tildan o'zi uchun zarur bo'lgan leksik- semantik birliklarni o'zlashtiradi. **Chet so'zlarni ishlatish hodisasi esa** g'ayri qonuniydir, chunki o'zbek tilining o'zida biror so'z mavjud bo'lgani holda, uning o'rnida chet so'zni ehtiyojsiz, maqsadsiz qo'llash tilni boyitmaydi, aksincha, ayrim shaxslarning o'z nutqiga e'tiborsiz qarashinigina aks ettiradi.

UYGA VAZIFA

- I. "O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti" mavzusini o'qish va konspektlashtirish.
- II. Savolnoma, topshiriqlar va tayanch tushunchalar ustida ishlash.

Adabiyotlar: A-2 [198-203], 3 [64-69], 5 [88 -91].

DAVOMI: LEKSEMALARNING ISHLATILISH DOIRASI.

Ma'ruza rejasi.

1. Leksemalarning ishlatilish doirasi: ishlatilish doirasi chegaralanmagan va chegaralangan leksemalar,
2. Leksik, fonetik va grammatik dialektizmlarning uslubiy vosita sifatida qo'llanishi .
3. Kasb-hunar leksikasi .
4. Agotizm va jargonizmlar.
5. Vulgarizmlar

Tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha-ruscha lug'ati

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Kalka	Vellum	Калька
Kalkalash	Tracing	Калькирование
Jargon	rgon	Жаргон
Jargon, argo	Argot	Жаргон, арго
Jonli til	A living language	Живой язык
Kasb-hunar lersikasi	Professional vocabulary	Профессиональная лексика
Varvarizm	Barbarism	Варваризм
Vulgarizm	Vulgarism	Вульгаризм
Dialektizm	Dialectism	Диалектизм

Leksemalarning ishlatilish doirasi

Leksemalarning ishlatilish doirasi **chegaralanmagan va chegaralangan** bo'lishi mumkin. Bunday ikki guruhga ajralish asosan **ot, sifat, ravish va fe'l** turkumlaridagi leksemalarga xosdir. **Son va olmosh** turkumlarida, shuningdek, **bog'lovchi, yuklama, ko'makchi va undovlarda** ishlatilish doirasi chegaralangan so'zlar yo'q.

1. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksemalar o'zbek tilida so'zlashuvchilarning barchasi uchun umumiy bo'lgan, hammaga tushunarli va hammaning nutqida bir xil darajada qo'llanadigan so'zlardir: *bosh, qo'l, ko'z, daraxt, meva*(otlar); *oq, qora, qizil, katta, kichik, yaxshi, yomon* (sifatlar); *tez, oz, ko'p, jo'rttaga, atayin* (sifat- ravishlar); *yurmoq, ishlamoq, o'qimoq, yozmoq* (fe'llar) va b.lar. Bunday leksemalar *umumxalq lug'aviy birliklar* deb ham yuritiladi.

2. Ishlatilish doirasi chegaralangan leksemalar dialektga, kasb-hunar leksikasiga va jargon-argolarga xos so'zlardir. Jonli so'zlashuvda ishlatiladigan **vulgarizmlar** ham qo'llanishi chegaralangan lug'aviy birliklar sanaladi.

Dialektlarga xos so'zlar qo'llanishi territoriyaga ko'ra chegaralangan leksemalardir. Bunday so'zlar *leksik dialektizmlar* sanaladi. Ular ikki xil bo'ladi:

a) *dialektizm- so'z*. Bunda so'zning **ifoda plani**, demak, **nomemasi** shevaga xos bo'ladi: *buzog'* - Tosh. sh., *g'o'sala* - Bux. sh., *o'djak* - Xorazm. sh.(ad. -orf. *buzoq*); *rayhon* - Tosh. sh., *nozvoy* - Sam. sh.(ad. -orf. *rayhon*); *yostiqlik* - Tosh. sh., *taka* - o'g'iz dial., *bolish* - Bux. sh.(ad. -orf. *yostiqlik*); *do'ppi, to'ppi* - Tosh. sh., *qalpoq* - Sam. sh., *kallapo'sh* - Bux. sh.(ad.- orf. *do'ppi*) kabi;

b) *dialektizm ma'no*. Bunda leksemaning **ifoda plani (nomemasi)emas, ma'nosi (sememasi) shevaga xos bo'ladi**, nomema esa adabiy tilda ham qo'llanadi. Masalan, *chopqi* -(Tosh .sh.) -*chopqi* - (Sam.sh.) - *chopqi* - (ad. tilda.). Demak,*chopqi*, nomemasi dialektizm- so'z sanalmaydi, ammo uning ma'nolari bir xil emas. Qiyos qiling: (*chopqi* - Tosh. shevasida - "shox shabba qirqish, go'sht, piyoz qiymalash va sh.k. ishlarda qo'llanadigan katta va og'ir, pichoqqa o'xshash asbob") -*chopqi* Sam. shevasida- "tig'i sopi ichiga qayirib yopib qo'yiladigan pichoqcha, qalamtarosh") - *chopqi* - ad. tilda - "shox shabba qirqish, go'sht qiymalashda qo'llanadigan katta va og'ir, pichoqqa o'xshash asbob"). Demek, *chopqi* leksemasining semantik tarkibida **ikkita semema** (leksik ma'no)bor: 1) **Toshkent shevasi va adabiy tildagi ma'nosi**. Bular dialektizm emas; 2) **Samarqand shevasidagi ma'nosi**. Bu ma'no faqat shevaga xos bo'lib, adabiy tilga o'tmagan, shuning uchun u **dialektizm - ma'no** (dialektizm - semema)sanaladi. Bunday holni *lagan* leksemasida ham ko'ramiz. Bu leksema adabiy tilda "**quyuq ovqatlar solinadigan, tarelkadan katta yassi idish**" ma'nosini anglatadi. Demak, u shu shaklda va shu ma'nosida dialektizm emas, ammo *lagan* leksemasining shevalarda "**katta chuqur to'garak idish**", "**kir yuviladigan tog'ora**" ma'nolari ham bor, *lagan* so'zining ayni shu ma'nolari **dialektizm - sememalar** sanaladi.

Tilning lug'at boyligida leksik dialektizmlardan tashqari, frazeologik dialektizm ham uchraydi. (Bu haqda darslikning "Frazeologiya" bo'limiga qarang.) Leksik va frazeologik dialektizmlar birgalikda lug'aviy dialektizmlar hisoblanadi.

Dialektizm hodisasi tilning fonetik va grammatik sathlarida ham bor:

a) **fonetik dialektizmlar** dialektga xos nutq tovushlari yoxud soʻzning u yoki bu shevadagi fonetik tarkibi. Masalan, oʻzbek tilining qipchoq lahjasi shevalarida **9 ta unli fonema** bor: **i-yi, a-a, u-u, o-o, va e**. Bunday zidlanishning har bir aʼzosi soʻz maʼnosini farqlash uchun xizmat qiladi. Qiyos qiling: **tish** (“odamning tishi”), **twish** (“tashqari”), **wis** (qurum) – **is** (“hid”), **swiz** (“chiz”) – **siz** (“siz”), **ot** (oʻt: “olov”, “oʻsimlik”) – **ot** (oʻt: “oʻtishga buyruq”), **or** (oʻr: “bedani oʻr”) – **or** (oʻr: “sochni oʻr”), **tur** (“turishga buyruq”) – **tur** (“xil”, “jins”) kabi. Biroq hozirgi oʻzbek adabiy tilining fonologik tizimida unli fonemalarning bunday zidlanishi (“yoʻgʻonlik” va “ingichkalik” belgilari bilan farqlanish) yoʻq, demak, yuqoridagi soʻzlarning har biridagi unli fonema faqat shevaning oʻzigagina xos, shunga koʻra **ular fonetik dialektizmlar** sanaladi.

Sirgʻaluvchi y va qorishiq dj undoshlari shevalarda ham, adabiy tilda ham bor. Demak, ular dialektizm emas, ammo bu tovushlarning shevada va adabiy tilda qoʻllanishi farqlanadigan oʻrinlar uchraydi. Xususan, soʻzning boshida adabiy tildagi y oʻrnida qipchoq lahjasining “dj”lovchi shevalarida qorishiq dj ishlatiladi: **yoʻq** (ad.-orf.) – **joʻq** (shevada), **yigit** (ad.-orf.)- **jigit** (shevada), **yilon** (“y”lovchi shevalarda) – **jilan** (“j”lovchi shevalarda) kabi. Bu hodisa **k** va **g**, **t** va **d** undoshlarining qoʻllanishida ham yuz beradi: **koʻz** (ad.-orf.) – **goʻz** (goz: Xorazm sh.), **kel** (ad.-orf.) – **gal** (Xorazm sh.), **til** (ad.-orf.) – **dil** (oʻzb. tilining oʻgʻuz lahjasida) kabi. Bu hodisa **leksik-fonetik dialektizm** deb baholanadi.

b) **grammatik dialektizmlar** – biror shevaning oʻzigagina xos (adabiy tilidagidan oʻzgacha) grammatik shakllari. Mas., adabiy tildagi – “**miz**” shaxs – son affiksi oʻrnida Toshkent shevasida “**vuz**” affiksi ishlatiladi: **boramiz** (ad.-orf.) – **boravuz** (Tosh. sh.) kabi. Adabiy tildagi “**-da**” (oʻrin – payt kelishi qoʻshimchasi) oʻrnida Samarqand shevasida “**-ga**” qoʻllanadi: **Toshkenda oʻqiyapman** (ad. tilda.) – **Toshkentga oʻqopman** (Sam. sh.) kabi. Hozirgi zamon davom feʼli shakllari shevalarda “**-vot**” (Tosh. sh.)- “**op**” (Sam. sh.) – “**utti**” (Nam. sh.) affiksleri bilan ifdalanadi: **borvotti, boropti, borutti** kabi. Keltirilgan misollarning shevalardagi turlari **grammatik dialektizmlar** sanaladi.

Leksik, fonetik va grammatik dialektizmlarning uslubiy vosita sifatida qoʻllanishi

Leksik, fonetik va grammatik dialektizmlardan badiiy asar tilida uslubiy vosita (uslubiy figura) sifatida foydalanish hollari ham uchraydi. Yozuvchi J. Abdullaxonovning “Toʻfon” romanidan keltirilgan quyidagi matn parchasiga nazar **tashlaylik**:

Shu vaqt koʻcha eshik taraqlab ochildi-yu, ostonada oʻn yoshlardagi maykachan, qop-qora bola paydo boʻldi. U nihoyatda hansirar, koʻp yugurib toliqqanidan nafasini rostlay olmasdi:

-Akamullo, akamullo, sizni yoʻqloshopti, idoraga yoʻqloshopti.

-Nima gap?

-Hojar ayani bachasi sahroda brogan ekan... Boʻronda qolgan ekan... Qaytib kelmopti... Soʻgʻin Xoʻjanazar akoning duxtori boʻronga qolip oʻlipti.

Hoshim yigurgancha chiqib ketdi. Mahmuda bilan Mohidil bir- biriga hayron qarab qolishdi.

Yuqoridagi nutqiy parcha muallif tili va personajlar tilidan tarkib topgan boʻlib, unda nutqning dialogik shakli qatnashgan. Personaj tilida oʻzbek-tojik ikki tilliligi taʼsirida boʻlgan oʻzbek shevalari soʻzlaridan (**akamullo, bacha, duxtor, soʻgʻin** kabi **leksik dialektizmlardan**), shu shevalarga xos **grammatik shakllardan** (**yoʻqloshopti kelmopti**) va **leksik-fonetik dialektizmlardan** (**aka** soʻzining **ako** shaklidan) unumli foydalanilgan, natijada obraz nutqining tipik va taʼsirchan boʻlishiga erishilgan.

Yozuvchi Erkin Samandarovning “**Daryosini yoʻqotgan qirgʻoq**” romanidan keltirilgan quyidagi dialogda esa dialektizmlarning uslubiy vosita sifatidagi roli, personajlar nutqini tipiklashtirishdagi ahamiyati yanada yorqinroq koʻzga tashlanadi:

Ichkaridan Anvar chiqdi. Nima boʻlayotganini angshara olmay serrayib turdi.

-Voy, anavi olovini koʻring, -dedi Qumrixon oʻrnidan turib.

-Oloving nimasi?

-Olovi de, huv ana.

-Chiyani aytasanmi?

Qumrixon bogʻistongacha chiya soʻzini tushunmadi.

-Olchami?

Ha, olvoli yegim kelutti.

-Ma, Qumri, -dedi Ganja bir hovuch olchani uzib. (“Sharq yulduzi” j-li, 1989. 1. 39-b.)

Yuqoridagi dialog epizodida mevaning bir turi uch xil nom bilan – **olvoli, chiya va olcha** leksemalari vositasida atalgan, bu hol ikki (Namangan va Boʻston) sheva vakillari oʻrtasidagi nutqiy muloqotning jonli, hayotiy chiqishiga xizmat qilgan.

Kasb-hunar leksikasi ijtimoiy mehnatning u yoki bu turiga, ishlab chiqarish, ilm-fan, adabiyot-san'at va hokazo sohalarga oid narsa-hodisa hamda tushuncha nomlaridir: *degrez* –“qozon,omoch tishi va boshqa cho`yan asboblari quyuvchi usta”, *kavshar*-“metall buyum,detal va shu kabilarni bir-biriga ulash uchun ishlatiladigan metall yoki qotishma”, *changchi*, *urug`chi*, *gultoj* (**botanikaga oid tushuncha nomlari**) kabi.Bular **tilshunoslikda professionalizmlar** yoki *professional leksika* deb ham ataladi. Professional leksikaning ilm-fanga, texnikaga, adabiyotgaoid qismi **terminlar** deb ham nomlanadi: *fonema*, *morfema*, *semema* (tilshunoslik terminlari), *tangens*, *sinus*, *teorema*, *katet* matematika terminlari) kabi. (“Terminlar” mavzusiga ham qarang.).

Kasb-hunar leksikasi (professionalizmlar), asosan, muayyan sohaga oid og`zaki va yozma matnlarda faol qo`llanadi, umumtil doirasida esa ular ancha passiv bo`ladi. Bunday qatlam leksemalarining ishlatilish doirasidagi chegaralanish shu bilan belgilanadi.

Kasb-hunar leksikadan uslubiy vosita sifatida foydalanish hollari .

Kasb-hunar leksikadan badiiy asar tilida ma'lum maqsadlarda foydalanish holatlari ham uchraydi. Masalan:

Payshanba- maosh kuni edi. Peshindan keyin atrofi taxta devor bilan omonat o`ralgan qurilish hovlisiga chang-to`zon ko`tarib “ZIL” mashinasi kirib keldi. Chekkadagi ko`chma vagoncha oldida vashillab to`xtadi. Kabina eshigi ochilib, qo`ltig`iga qora sumka qistirgan kassir qiz – Faya sakrab tushdi. Vagoncha zinasiga pildirab chiqib, baqirdi:

-Yigitlar, kelig`iz, zarplata olig`iz!

Betonchi Safar aka ayiqdek lapanglab vagoncha tomonga birinchi bo`lib yurdi. Ketidan payvandchimiz Ikrom aka. Uning ketidan Erkin degan takellajchi yigit. (O`H.)

Yuqoridagi matn parchasida qurilishdagi bir epizod yoritilganligi tufayli, unda **betonchi**, **payvandchi**, **takellajchi** kabi qurilish leksikasiga so`zlar ishlatilgan.

Agotizm va jargonizmlar – biror argo yoki jargonga xos leksemalar. Argo va jargonlar biror ijtimoiy guruh yoki toifalarning, masalan, sportchilar, o`g`rilar, olibsotarlar, poraxo`rlar va boshqalarning “yasama tili”dir. Shuning uchun argo va jargonlar *ijtimoiy dialektlar* deb ham yuritiladi.

Argotizmlar yashirin ma`no ifodalaydi. Masalan, otarchilar orasida- **yakan** (“pul”), ichuvchilar orasida – **novcha** (“araq”), **qizil** (“vino”) kabi.

Jargonizmlarda yashirin ma`no bilan birga tinglovchini yoki o`zga bir shaxsni kamsitish yoxud uning xislatlarini bo`rttirib baholash ottenkalari ham mavjud bo`ladi. Masalan, talabalar jargonida:**dum** – “topshirilmagan imtixon”, “qarz”; jonli so`zlashuvda : **yo`rg`a**- “yengil tabiatli”, “buzuq” va b. lar.

Argotizm va jargonizmlar, asosan, jonli so`zlashuvda, tor doirada ishlatiladi. Ulardan badiiy asarda obraz va personajlarni tipiklashtirish maqsadida foydalanish hollari ham uchraydi. Masalan: Bu qora yer yutkurning yo`rg`a chiqarishini yeti uxlab tushida kim ko`ribdi. (Hamza. Paranjli sirlari.) Gapni aylantirmang.Yog`liq joy.Yakan katta bo`ladi!(“Mushtum”,1960. 2).

Bir maktabda gap mish-mish,
Turg`unning **dumi** bormish.
Xo`sh, bu ajab qanday **dum**,
Hech kimda yo`q-ku bu **dum**?

Bilsam voqea o`zga,
Ilinmas qo`lga, ko`zga!
“**Ikki**” degan oti bor,
Na o`zi, na zoti bor...

(Q. M.)

Vulgarizmlar - haqorat ma'nosida qo'llanadigan so'zlar: *xunasa, dayus, so'tak, to'nka* kabilar. Bunday leksemalar yoki ularning vulgar ma'nolari adabiy til birligi sanalmaydi, ularni qo'llash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi, ammo badiiy asar tilida bunday so'zlardan uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. Masalan: *U qizig'ar mashinasini Qoraqamishga qarab uchirdi.* (T. M.). *Yolg'on gapirasan, xunasa, uyida bo'lmagansan. Ayvoni yo'q uning* (T. M.) *Dayus , dayus Vali tog'a, Mirvali tog'a dayus ...* (S. Ahm.) *Hosilboyvachchaga aytib qo'y: senikini artguncha, o'zinikini eplasin. Kelib – kelib o'shandan panoh izladingmi, e so'tak!* (T.M.) *Anavi to'nkani nima qilamiz?- dedi Asadbek, jahlidan tushib...* (T.M.).

DAVOMI: O'ZBEK TILI LEKSIKASINING EMOTSIONAL-EKSPRESSIV JIHATDAN QATLAMLANISHI


Ma'ruza rejasi.

O'zbek tili leksikasining emotsional-ekspressiv jihatdan qatlamlanishi.

1. Emotsional-ekspressiv jihatdan betaraf leksemalar.
2. Emotsional-ekspressiv jihatdan bo'yoqdor leksemalar.
3. Emotsional-ekspressiv jihatdan bo'yoqdor leksemalarning nutqda qo'llanishi, bunda ekspressivlikni reallashtiruvchi usullar:
 - a) leksik usul;
 - b) kontekstual usul;
 - d) affiksatsiya usuli;
 - e) fonetik usul;
 - f) so'zni metaforik qo'llash usuli

Tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha-ruscha lug'ati

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Affiksatsiya usuli	Affixation	Аффиксация
Fonetik usul	A phonetic method	Фонетический метод
Emotsional-ekspressiv	Emotionality-expressive	Эмоционально экспрессивный




1. Emotsional-ekspressiv jihatdan betaraf so'zlar. Bunday so'zlarning semantik tarkibida faqat denotativ ma'no (atash, nomlash semalari) mavjud bo'ladi: *yuz, oriq, ozg'in, jilmaymoq* kabi.

2. Emotsional-ekspressiv jihatdan bo'yoqdor so'zlar. Bunday so'zlarning semantik tarkibida denotativ ma'no (atash, nomlash semalari) bilan birga uslubiy bo'yoqlar (baho semalari, konnotativ semalar) ham mavjud bo'ladi: *turq* (denotativ ma'no + uslubiy bo'yoq), *dirdov* (denotativ ma'no

+uslubiy bo`yoq), *qiltiriq*, *ipiltiriq* (denotativ ma`no +uslubiy bo`yoq), *irshaymoq* (denotativ ma`no +uslubiy bo`yoq) kabi.

I z o h: *yaxshi* va *yomon*, *g`azab* va *nafrat* kabi so`zlarda uslubiy bo`yoq bordek tuyuladi, aslida esa ularda uslubiy bo`yoq yo`q, bu so`zlar belgi yoki voqelikni atash (nomlash) bilan cheklanadi, shunga ko`ra emotsional-ekspressiv jihatdan bo`yoqdor so`zlar sanalmaydi.



Emotsional-ekspressiv bo`yoqdor so`zlarning nutqda qo`llanishi

Uslubiy bo`yog`i bor bo`lgan so`zlardan nutqda his-tuyg`ularni, so`zlovchining voqelikka nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabatini ifodalash maqsadida foydalaniladi. Masalan: *Mamlakat bizlarga ishonsin! Biz shalvirab ishni xurjun qilaylik!..* (Uyg`.). *Tursang-chi, muncha shalpayasan!* (H. Sh.). Bu misollarda *bo`shashmoq* leksemasi o`rnida *shalviramoq* va *shalpaymoq* so`zlari qo`llangan va shu so`zlarning mazmun planidagi uslubiy bo`yoqlar ("kinoya", "mazax", "kesatiq" semalari) hisobiga nutqda ekspressivlik ta`minlangan.

Nutqda ekspressivlikning ifodalanishi quyidagi usullarga tayanadi:

1.Leksik usul. Bunda uslubiy bo`yog`i bor bo`lgan so`z nutqqa kiritiladi (yuqoridagi misollar).

2.Kontekstual usul. Bunda uslubiy bo`yog`i yo`q bo`lgan so`z ma`lum kontekst yoki nutqiy muhit ta`sirida uslubiy bo`yoqdor so`zga aylantiriladi. (Bu haqda "Ifoda semalari" bahsiga qarang)

3.Affiksatsiya usuli. Bunda betaraf ma`noli so`zlarga subyektiv baho ifodalovchi affiksalar morfemalar qo`shiladi. (Bu haqda ham "Ifoda semalari" bahsiga qarang).

4.Fonetik usul. Bunda so`z tarkibidagi undoshlardan biri qavatlantiriladi (geminatsiya), unilalar cho`ziladi, urg`uning o`rni o`zgartiriladi, shular hisobiga ekspressivlik ta`minlanadi. M i s o l l a r: *Ishqilib, Zamira bechora uyatga chidolmay ketib qolgan. Yashshamagurlar...* (P.Q.). *Akam bechora go`shangada ko`rib, xayro-o-o-on bo`lib qolganlar.* (Mirm.).

So`zni metaforik qo`llash usuli. Bu ko`p ma`noli so`zning metaforaga asoslangan majoziy (hosila) ma`nosidan uslubiy figura sifatida foydalaniladi: *Muxtaram qayin otamizga! Siz bilan meni qorong`i zindonlarga tushirib, dor ostigacha tortgan ... Homid ismli bir to`ng`izni, nihoyat ikki yillik sargardonlik so`ngida, yordamchilari bilan tuproqqa qorishtirishga muvaffaq bo`ldim.* (A. Qod.) Bu gapda *to`ng`iz* so`zi ko`chma ma`noda Homidga nisbatan qo`llangan, shu bilan Otabekning bu shaxsga nisbatan salbiy his-tuyg`usi, nafrati ifodalangan. Yana: *Mamajon lochin yigit, (Q.M.).* Bu gapda *lochin* so`zi o`z ma`nosida emas, ko`chma ma`noda - yigitning epchilligini, chaqqon va jasurligini baholash maqsadida qo`llangan.

MUSTAQIL ISH TOPSHIRIG`I

1. Mustaqil ishlar ro`yxatida belgilangan mavzular (referatlar) ustida ishlash.
2. Birinchi oraliq nazoratga tavorlanish.

UYGA VAZIFA 12-
mavzu bo`yicha
adabiyotlar ustida ishlash,
ularnikonspeklashtirish. A
dabiyotlar: Q-3 (31-33-b)

5-MAVZU: FRAZELOGIYANING O`RGANISH OBYEKTI. FRAZEOLOGIK MONOSEMIYA VA POLISEMIYA. FRAZEMALARNING SHAKL VA MA`NO

Ma`ruza rejasi.

1. Frazelogiya tilshunoslikning frazemalar haqidagi bo`limi ekanligi.
2. Frazema – ko`chma ma`noli turg`un konstruksiya.
3. Frazemaning ifoda plani (tashqi tomoni, tuzilishi).
4. Frazemaning mazmun plani (ichki tomoni).
5. Frazemalarning so`z turkumlari bo`yicha guruhlanishi
6. Frazelogik monosemiya.
7. Frazelogik polisemiya.
8. Frazelogik polisemiyaning ma`no ko`chish qonuniyatlariga asoslanishi.
9. Frazemalarning semantik turlari:
 - a) frazeologik butunliklar;
 - b) frazeologik chatishmalar.

Tayanch soʻzlarning oʻzbekcha - inglizcha-ruscha lugʻati

Oʻzbekcha	Inglizcha	Ruscha
Frazeologiya	Phraseology	Фразеология
Frazema	Expression	Выражение
Frazeologik birlik	Phraseological unit	Фразеологическая единица
Frazeologik monosemiya	Phraseological monosemiy	Фразеологическая моносемия
Frazeologik polisemiya	Phraseological polisemiya	Фразеологическая полисемия

Frazeologiya tilshunoslikning bir boʻlimi boʻlib, u tilning lugʻat tarkibidagi frazemalar haqida maʼlumot beradi.

Frazema koʻchma maʼnoli turgʻun konstruksiyadur. Masalan, *zoʻraymoq* (leksema) – *avj olmoq* (frazema), *qiynalmoq* (leksema) - *azob chekmoq* (frazema) kabi. Demak, frazema ham leksema kabi lugʻaviy birlik sanalsdi, ammo oʻzining ifoda va mazmun planlaridagi qator belgilari bilan leksemalardan farqlanadi.

Frazemaning ifoda plani

Frazemaning ifoda plani deganda uning tovush tomoni, leksik tarkibi, birikmaga yoki gapga teng konstruksiyasi nazarda tutiladi. Masalan: *koʻngulni olmoq* (birikmaga teng), *koʻzlari qinidan chiqib ketdi* (gapga teng), *boshi qotdi* (gapga teng), *ensasi qotdi* (gapga teng) kabi. Frazemalar orasida qoʻshma gapga teng qurilishli turgʻun konstruksiyalar ham uchraydi: “*gor yogʻib, izlar bosildi*” kabi. Frazemalar tarkibidagi soʻzlarning bogʻlanishi erkin birikma yoki gap tarkibidagi soʻzlarning bogʻlanishidan farq qilmaydi: ularning barchasida soʻzlar tobelanish asosida bogʻlanadi, biroq: a)erkin birikmadagi yoki gapdagi bogʻlanish nutq jarayonida, nutq bilan bir paytda sodir boʻladi; frazema bogʻlanish esa nutq paytidan ancha avval yuzaga kelib, turgʻnlashib qoladi, inson xotirasida va tilda yaxlitligicha saqlanadi; b) erkin birikmadagi yoki gapdagi soʻzlarni soʻzlovchi oʻz ixtiyori bilan almashtira oladi: “*keng koʻcha*” birikmasi oʻrnida “*tor koʻcha*” birikmasini, “*men oʻqiyman*” gapi oʻrnida “*men ishlayman*” gapini qoʻllashi mumkin, ammo “*yulduzni benarvon urmoq*” birikmasi oʻrnida “*yulduzni narvonsiz urmoq*”, “*yulduzni shotisiz urmoq*”, “*yulduzni beshoti urmoq*” birikmalari qoʻllanmaydi.

Shuni taʼkidlash lozimki, har qanday turgʻun birikma frazema boʻlavermaydi. Masalan, *Birlashgan Millatlar Tashkiloti* birikmasi turgʻun konstruksiyadir, ammo toʻgʻri maʼnoli turgʻun konstruksiya boʻlganligdan frazema hisoblanmaydi. Frazema yaxlit holda koʻchma maʼno ifodalashi shart.

Frazemalarning ifoda planida leksemalardan tashqri, yordamchi soʻzlar (koʻmakchilar) va turli forma yasovchi morfemalar qatnashishi mumkin. Masalan, *ochiq yuz bilan* (bu frazemaning ifoda planida “*bilan*” koʻmakchisi qatnashgan), *dam olmoq* (bu frazemaning ifoda planida “*-moq*” morfemasi ishtirok etgan). Keltirilgan misollarda koʻmakchi va affiksial morfema frazemalarning doimiy belgilari hisoblanadi, chunki ular shu frazemalarning ichki Grammatik qirilishiga mansubdir, ammo *dam oldim*, *dam olgin*, *dam olsin* abi bogʻlanishlarda qoʻllangan “*-di+m*”, “*gin*”, “*sin*” morfemalari (zamon, shaxs-son, mayl koʻrsatkichlari) shu frazemalarning ifoda planiga karmaydi, chunki bu morfemalar nutq talabiga koʻra qoʻshiladi.

Frazemaning mazmun plani

Frazemaning mazmun plani uning nimanidir nomlashi, ifodalanishi, anglatishidir. Masalan, *og`zi-qulog`ida* frazemasining mazmun planida “xursand” ma`nosi ifodalangan.

Frazemaning mazmun plani albatta ko`chma ma`noga asoslanadi, aks holda uning to`g`ri ma`noli turg`un birikmalardan (*electron hisoblash mashinasi, kvadrat uyalab ekish* kabi sostavli terminlardan) farqi qolmaydi.

Frazemaning mazmun planidagi ma`no *frazeologik ma`no* hisoblanadi. Qiyos qiling: leksemaning mazmun planida - “leksik ma`no”; frazemaning mazmun planida -“frazeologik ma`no”. Frazeologik ma`no leksik ma`nodan murakkabroqdir, chunki frazema tarkibidagi so`zlar bogalanishidan kelib chiqadi va umumlashgan bo`ladi.

Frazemaning semantik tarkibida frazeologik ma`nodan tashqari, uslubiy bo`yoq ham mavjud bo`ladi. Masalan, *to`nini teskari kiymoq* frazemasining semantik tarkibida “o`chakishmoq” (frazeologik ma`no) bilan birga “qaysarlik” semasi (uslubiy bo`yoq) ham bor. *To`rt tomoni qibla* frazemasida “qayoqqa xohlasa ketaversin” ma`nosi bilan birga salbiy baho (uslubiy bo`yoq) ham ifodalangan. *Chehrasi ochiq* frazemasining semantik tarkibida esa “xushtabiat” ma`nosi ijobiy baho (uslubiy bo`yoq) semasi bilan qoplangan.

Salbiy yoki ijobiy baho semalari, odatda, frazemalarning mazmun planida bo`rtib turadi, bu omil frazemalardan nutqiy ta`surchanlikni ta`minlovchi uslubiy vosita sifatida foydalanish imkonini beradi, ayniqsa, badiiy asar tilida bunday birliklarning roli katta. M i s o l l a r: *Bir umr qulingiz bo`lmasam, kalomullo ursin, ko`zim ochildi, aka!* (T.M.), *Rangi quv o`chib, yupqa lablari titrab, ko`zlarining paxtasi chiqib ketdi.* (H.N.)

Ba`zi frazemalarda qonun hujjatlari tiliga ixtisoslashish, terminlashish ham uchraydi. Bunday paytlarda frazema ma`nosida neytrallashish yuz beradi, uslubiy bo`yoq sustlashib, oxiri tushib qoladi. Buni jinoyat- protsessual kodeksida qo`llanidigan *aybini bo`yniga qo`ymoq, aybiga iqror bo`lmoq* kabi termin “ frazemalar” da ko`rish mumkin.

Frazemalarning semantik tarkibidagi turkum semalari

Bu semalar frazeologik ma`noga tayanadi. Masalan: *aravani quruq olib qochmoq* (fe`l frazema), *arpasini xom o`rmoq* (fe`l frazema), *ammamning buzog`iday* (sifat frazema), *bag`ri qattiq* (sifat frazema), *bir og`iz* (avish frazema), *bir og`izdan* (ravish frazema), *to`rt ko`z bilan* (ravish frazema), *tomdan tarasha tushganday* (ravish frazema)kabi

Frazeologik monosemiya

Frazeologik monosemiya - frazemaning semantik tarkibida bitta frazeologik ma'noning bo'lishi. Chunonchi, *ko'ngilga qo'l solmoq* frazemasining semantik tarkibida “yashirin fikr - o'yni bilishga harakat qilmoq” ma'nosidan boshqa frazeologik ma'no yo'q: “*Rizaning yuragiga qo'lsolib ko'rgan Muhiddin uning javobidan xursand bo'ldi.*” (R.F.). “*Kechagi ishdan maqsadim u yerdagi xotinlarning ko'ngliga qo'l solib ko'rish, undan keyin o'zimga ba'zi bir ishonchliroqlarini tanlab olish edi.*” (S.Z.). keltirilgan gaplarning birinchisida *ko'ngliga qo'l solmoq* frazemasining variatsiyasi - “*yuragiga qo'l solib ko'rmoq*” ishlatilgan, har ikki holda ham bitta frazeologik ma'no – “yashiri fikr-o'yni bilishga harakat qilmoq” nazarda tutilgan.

Frazeologik polisemiya

Frazeologik polisemiya – frazemaning semantik tarkibida ikki yoki undan ortiq frazeologik ma'noning bo'lishi. Masalan: *boshi(m) aylandi* frazemasining semantik tarkibida ikkita frazeologik ma'no bor: 1) “Behud bo'lmoq” ma'nosi: *stol yoniga kelguncha uning boshi aylanib ketdi.* “Muncha darmonsiz bo'lmasam”, - o'yladi u”. (S.Z.); 2) “Esankiramoq” ma'nosi: “... *muloyim qarab qo'yishlarini, ... jilmayib gapirishlarini sezardim, buning hammasidan boshim aylanardi.*” (O. Yo.). Leksemalarda bo'lganidrk, frazemalarda ham polisemiya hodisasi ma'no ko'chish qonuniyatlariga asoslanadi.

Frazemalarning semantik turlari

Frazeologik butunlik.

Bunday frazemaning umumlashgan ko'chma ma'nosi frazema tarkibidagi leksemalar ma'nosi bilan izohlanadi. Masalan, *tepa sochi tikka bo'lmoq* frazemasini yaxlit holda "g'azablanmoq" ma'nosini – umumlashgan ko'chma anglatadi. Bunday ko'chma ma'noga esa kishi darg'azab bo'lganida uning badanidagi tuklarning sezilar-sezilmas harakatga kelishi (psixofiziologik holat) asos bo'lga, demak, frazemaning ko'chma ma'nosini frazemaning tarkibidagi so'zlarning o'zaro ma'nolari bilan izohlash mumkin. Yana: *Ona suti og'zida* frazemasini yaxlit holda "hali yosh", "tajribasiz" ma'nosini anglatadi, bunday ko'chma ma'noni esa frazema tarkibidagi so'zlar ma'nosi bilan izohlash mumkin: *"Mahmadona, shumshan-da. Ona suting og'zingda-yu, soqolimning oqiga qaramay aql o'rgataman deysan"*. (O.).

Frazeologik chatishma.

Bunday frazema ifodalagan ko'chma ma'no frazema tarkibidagi so'zlar anglatgan leksik ma'nolar bilan izohlanmaydi. Masalan, *ikki qo'lini burniga tiqib* frazemasini "quruqdan quruq, evaziga hech narsa olmay" ma'nosini ifodalaydi, bu ma'noni frazema tarkibidagi so'zlarning ma'nolari bilan izohlab bo'lmaydi: *"Kelmagandan keyin, domlaga "ozodlik" olish kerak-da. Bu bo'lsa shumshayib, ikki qo'lini burniga tiqib keldi"*. (P.T.) *"...Senga ish yo'q!" – deb, bizni quvib yubordi. Katta o'g'lim bilan ikki qo'limizni burnimizga suqib uyimizga bordik"*. (S.A)

Frazeologik butunlik bilan frazeologik chatishma orasida ma'lim umumiylik va tafovutlar bor. Ularni quyidagicha izohlash mumkin:

Umumiylik:

- 1) ikkalasi ham turg'un konstruktsiya sanaladi;
- 2) ikkalasida ham umumiylashgan yaxlit bir ma'no (ko'chma ma'no) ifodalanadi;
- 3) ikkalasida ham uslubiy bo'yoq (uslubiy sema) bo'ladi, chunki frazemalarning barchasivoqelikni nomlash bilan cheklanmaydi, uni bahulash xususiyatiga ham ega;
- 4) ikkalasi ham nutqda yaxlit holda bitta sintaktik vazifada qo'llanadi.

Farqlari:

- 1) Frazeologik butunlik tarkibidagi so'zlarning manolari frazemaning ko'chma ma'nosini izohlaydi. Frazeologik chatishmada esa so'zlar ma'nosi bilan frazema ma'nosi (frazeologik ma'no) o'rtasida bunday aloqa yo'q;
- 2) frazeologik butunlikning ma'nosida ichki obraz saqlanadi: tarkibidagi so'zlarga xos ma'nolar sezilib turganligidan frazemaning ma'nosini ko'p qirrali, boy bo'ladi. Frazeologik chatishma ma'nosining gavdalanishida esa frazema tarkibidagi so'zlarning ma'nolari ishtirok etmaydi, shuning uchun unda ichki obraz so'ngan bo'ladi.

Davomi: FRAZEMALARNING SEMANTIK. TURLARI. FRAZEMALARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATLARIGA KO'RA TURLARI.


Ma'ruza rejasi.

1. Frazemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari:
 - a) frazeologik omonimlar (omofrazemalar); “omonimiya” va “omonimlik” atamalarining farqlanishi;
 - b) frazeologik paronimlar.
2. Frazemalarning ma'no munosabatiga ko'ra turlari:
 - a) frazeologik sinonimlar, ularning frazeologik variantlaridan farqlari;
 - b) frazeologik antonimlar.
3. Frazemalarning ishlatilish doirasiga ko'ra guruhlanishi.
4. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan frazemalar.
5. Ishlatilish doirasi chegaralangan frazemalar.
6. Kasb-hunarga ko'ra chegaralanishning frazemalarga xos emasligi.
7. Zamoniylik belgisiga ko'ra frazemalarning turlari:
 - a) istorizm frazemalar;
 - b) arxaizm frazemalar;
 - d) neologizm frazemalar.

Tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha-ruscha lug'ati

'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Frazeologiya	Phraseology	Фразеология
Frazema	Expression	Выражение
Frazeologik birlik	Phraseological unit	Фразеологическая единица
Frazeologik monosemiya	Phraseological monosemy	Фразеологическая моносемия
Frazeologik polisemiya	Phraseological polisemy	Фразеологическая полисемия
Frazeologik sinonimiya	Phraseological synonymy	Фразеологическая синонимия
Frazeologik antonimiya	Phraseological antonymy	Фразеологическая антонимия
Frazeologik omonimiya	Phraseological homonymy	Фразеологическая омонимия
Frazeologik paronimiya	Phraseological paronymy	Фразеологическая паронимия
Istorizm frazemalar;	Historical Expression	Исторические выражения
Arxaizm frazemalar	Expressions archaic	Архаическое выражение
Neologizm frazemalar	Expressions neologism -	Неологизмовые выражения

Adabiyotlar: 2[221-225], 3[87-90],5[435-436]



Frazemalarning shakl munosabatiga ko'ra turlari

Frazemalarning shakl munosabati asosida frazeologik omonimiya va frazeologik paronimiya yuzaga keladi:

1. Frazeologik omonimiya frazemalarning ifoda planidagi (shakldagi, tuzilishdagi) tenglik hodisasidir.

Q i y o s q i l i n : 1. *jon bermog* – “*barhayot qilmoq*”:... *Odamzodga jon bergan ham, jonini oladigan ham yaratganning o'zi* (P. T.)

2. *Jon bermog* - “o'lmoq”, “so'nggi marta nafas chiqarmoq”: *Semiz va hamisha yurak kasalidan qiynalib yurgan xotin arava ustida yulduz to'la osmanga termilib jon berdi.*(Sh. R.) Y a n a : 1. *Ustidan chiqmoq* – “Biror narsa qilinayotganda tepasiga borib qolmoq”: *Qaynanangiz rosa sevar ekan, rais, - dedi Ro'zi polvon hazil aralash, - ovqatning ustidan chiqdingiz* (Sh.R). 2. *Ustidan chiqmoq* - “Bajarmoq”: *Demak, Hakimov telefonda bergan so'zining ustidan chiqibdi* (P. Q.).

Shaklan teng bo'lgan frazemalar tilshunoslikda *omofrazemalar* deb nomlanadi. Erkin birikma bilan frazema (turg'un birikma) o'rtasidagi shakiliy tenglik hodisasi frazeologik omonimiya emas, *frazeologik omonimlik* sanaladi. Demak, bunday holatlarda “*Omonimiya*” va “*omonimlik*” atamaları o'zaro farqlanadi. Chunonchi: 1) *Ko'z yummoq* – (erkin birikma) – “Ko'zini yumibolmoq” ma'nosida; 2) *Ko'z yummoq* (turg'un birikma, frazema) – “ko'ra bila turib e'tiborsiz qoldirmoq” ma'nosida; 3) *ko'z yummoq* (turg'un birikma, frazema) – “vafot etmoq” ma'nosida. Keltirilgan misollarning birinchi va ikkinchisida erkin va turg'un biikmalar, ikkinchi va uchinchisida esa turg'un birikmalar (frazemalar) o'rtasida shakiliy tenglik, orligini ko'ramiz. Birinchi va ikkinchi misollardagi shakiliy tenglik omonimlik sirasiga, ikkinchi va uchinchi misollardagi shakiliy tenglik esa omonimiya sirasiga kiradi.

3. Frazeologik paronimiya - tarkibidagi biror leksik komponent bilangina farq qiluvchi frazemalar. Bunday leksik komponentlar bir-biriga o'xshash bo'lishi kerak: 1) *Yetti uxlab tushiga kirmaslik* - “mutlaqo o'ylamaslik, kutmaslik”. 2) *Yetti uxlab tushida ham ko'rmaslik* – “hech qachon ko'rmaslik kabi. Bu ikki frazemaning tarkibidagi “kirmaslik” va ko'rmaslik” so'zlari talaffuzida (ma'nisida emas, albatta) o'xshashlik bor, bunday frazemalar tilshunoslikda parafrazemalar deb nomlanadi [27-142].



Frazemalarning ma'no munosabatlariga ko'ra turlari

Bunday munosabat asosida frazeologik sinonimiya va frazeologik antonimiya hodisalari yuzaga keladi.

1. Frazeologik sinonimiya bir necha frazemaning bitta frazeologik ma'no atrofida birlashishidir. Masalan: 1) *pixini yorgan* – “ayyor”, 2) *ilonning yig'ini yalagan* – “ayyor” kabi. Yana: 1) *yer bilan osmoncha* – “Juda katta farq”, 2) *ot bilan tuyacha* – “Juda katta farq” kabi.

Leksik sinonimiyada bo'lganidek, frazeologik sinonimiyada ham sinonimik qatorlar yuzaga keladi: birinchi misoldagi *pixini yorgan* va *ilonni yog'ini yalagan* frazemalari “ayyor” ma'nosi bilan bitta sinonimik qatorni; ikkinchi misoldagi *yer bilan osmoncha* va *ot bilan tuyacha* frazemalari esa “juda katta farq” ma'nosi bilan bir sinonimik qatorni hosil qilmoqda.

Frazeologik sinonimlarda uslubiy bo'yoq, odatda bo'rtib turadi. Aslida, frazeologik birliklar (frazemalar) xuddi shu maqsadda – voqelikni nomlashda uni o'tkir baholab berish uchun, shu voqelikka ijobiy yoki salbiy ifodalash uchun yaratiladi, shuning uchun ular nutqning ta'sirchan, obrazli bo'lishini

ta'minlovchi muhim uslubiy vosita sanaladi. Misollar: 1) *Bunga Botirning achchag'i keldi, buni Bo'ston sezdi.* (S. N.). 2) *Keyingi nasihatomuz gapi qonini qaynatib yubordi.* (S.Ay.).

Frazeologik sinonimiya hodisasi ko'proq har bir tilning o'z frazemalari doirasida uchraydi: *Qlidan quyrug'igacha.* – *Ipidan ignasigacha; Quvonchi olamga sig'maydi.* – *Sevinchi ichiga sig'maydi* kabi. Boshqa tildan frazema o'zlashtirish juda passiv bo'lganligidan, o'zlashma iboralarning frazeologik sinonimiya doirasiga tortilishi juda kam uchraydi.

Frazeologik sinonimiya hodisasini *frazeologik variatsiyadan* farqlash kerak; frazeologiksinonimiyada bir necha frazema bir ma'no atrofida birlashadi, demak, bitta sinonimik qatorni hosil qiladi; frazeologik variatsiyada esa bitta frazemaning ichki ko'rinishlari nazarda tutiladi, bunday ko'rinishlar sinonimik qatorni hosil qilmaydi. Masalan: 1)*ko'zini yummoq*; 2)*bandalikni bajo keltirmoq*; 3)*jon bermoq*. Bu uch frazema bitta ma'noni – “vafot etmoq” ni bildiradi, shunga ko'ra bitta sinonimik qatorga birlashadi. *Qo'lini bigiz qilmoq* va *barmog'ini bigiz qilmoq* qo'shilmalari esa ikkita frazema emas: ular bitta frazemaning ikkita ko'rinishi, xolos. Bu frazema tarkibidagi “qo'l va “barmoq” so'zlari o'rtasida sinekdoxa yo'li bilan ma'no ko'chishi (butun va qism munosabati) bor, bu hol “qo'l” so'zi o'rnida “barmoq” so'zining qo'llanishiga yo'l ochgan, ammo bir frazema o'rnida butunlay boshqa frazema yuzaga kelmagan, shunga ko'ra ular bitta frazemaning ichki ko'rinishlari – variatsiyalari sanaladi. Demak, variatsiyalar bir obrazga asoslanadi. Yana misollar: *Kiprik qoqmaslik.* – *Mijja qoqmaslik* (bir frazemaning ikki varianti. Chunki “kiprik” va “mijja” so'zlarida bir obraz mujassam).

Ba'zan leksema bilan frazema bir sinonimik qatorga birlashadi: *qaramoq* (leksema) – *ko'z qirini tashlamoq* (frazema), *xursand* (leksema) – *boshi osmonda* (frazema) kabi. Bular leksik-frazeologik sinonimlardir. Leksik-frazeologik sinonimlar qatorida leksema dominanta sanaladi. Demak, lug'aviy sinonimlar uch xil bo'ladi: 1)leksik sinonimlar (sinonimik qatorida faqat so'zlar birlashadi); 2) frazeologik sinonimlar (sinonimik qatorida faqat frazemalar birlashadi); 3) leksik-frazeologik sinonimlar (sinonimik qatorida so'z va frazemalar birlashadi).

2. Frazeologik antonimiya ikki frazemaning o'zaro zid ma'no ifodalashidir: *oshig'i olchi* va *ishi o'ngidan kelmaslik*; *boshi ko'kka yetmoq* va *fig'oni falakka chiqmoq* kabi.

Antonimiya hodisasi ikki frazema o'rtasidagina emas, leksema bilan frazema o'rtasida ham yuzaga kelishi mumkin: *xursand* (leksema) – *dili siyoh* (frazema), *landavur* (leksema) – *yulduzni benarvon uradigan* (frazema) kabi. Bular lug'aviy antonimlarning leksik-frazeologik turi sanaladi. Demak, lug'aviy birliklar o'zaro zid ma'no anglatishiga ko'ra leksi antonimlar (so'z bilan so'z o'rtasida), frazeologik antonimlar (frazema bilan frazema o'rtasida) va leksik-frazeologik antonimlar (so'z bilan frazema o'rtasida) kabi mikrosistemalarni hosil qilishlari mumkin.

6-MAVZU: MORFEMIKA. SO'ZNING MORFEM TARKIBI VA SO'ZNING MORFEM TARKIBIDAGI O'ZGARISHLAR.

Reja:

1. Morfemika va uning birligi haqida umumiy ma'lumot.
2. Morfemalarning funktsional-semantik tasnifi. Morfemalarning struktural tasnifi.
3. Morfemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.
4. Morfonema haqida. So'z va bo'g'in tuzilishi. So'z va morfema variatsiyalari.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar: *so'zning ma'noli qismlari, morfema, so'z yasovchi, lug'aviy shakl yasovchi, aloqa-munosabat shakllari, sodda, mu so'z yasash qoliplari, unumli va unumsiz qoliplar, yasama so'z, ixtisoslashish, soddalashish, tublashish, qo'shma so'z.rakkab; omonim, sinonim, antonim, polisemantik morfemalar, fonetik o'zgarishlar*

Morfemika va uning birligi haqida umumiy ma'lumot. Morfemika so'zning nomustaqil tarkibiy qismlari haqidagi ta'limot. Ma'lumki, o'zbek tilida, flektiv tillardagidan farqli o'laroq, o'zak mustaqil ma'no anglatish xususiyatiga ega. So'zning o'zakdan boshqa qismlari esa undan ayricha qo'llanmaydi va ma'no anglatmaydi. Shuning uchun ular *morfemalar* deyiladi. Masalan, *paxtakorlarga* so'zi *paxta-*, *-kor*, *-lar*, *-ga* qismlaridan iborat. Ajratilgan har bir tarkibiy qism bu so'z doirasida o'ziga xos elementar va semantik mavqega ega. Ular lisonda ana shunday ajralgan holda o'z «xonacha»larida guruh-guruh bo'lib yashaydi.

Paxta- va *-kor, -lar, -ga* qismlari o'zaro semantik va qo'llanish xususiyatlari jihatidan farqlanadi. *Paxta* birligi mustaqil lug'aviy ma'noga egaligi va bu ma'noni qolgan qismlarsiz ham anglata olish xususiyati bilan boshqa tarkibiy qismlardan ajralib turadi. Shuning uchun u *leksema* deyiladi. Boshqa qismlar esa ajralgan holda mavhum bo'lishi, leksemasiz mustaqil ma'no anglata olmasligi bilan xarakterlanadi. Leksema shakllanuvchanlik belgisiga ega bo'lsa, morfemalar shakllantiruvchanlik belgisiga ega. Nomustaqillik tabiati va leksemaga shakl berish vazifasiga xoslanganligi ularni *morfema* deb atashga olib kelgan. Morfe-maning nutqiy ko'rinishi *qo'shimcha* deyiladi.

Tilimizda *yordamchi so'zlar* deb ataluvchi katta guruh ham bor bo'lib, ular leksema va morfemalar sirasida «oralik uchinchi» maqomida bo'ladi. Shuning uchun ularni *leksema-morfema* deyish mumkin. Yordamchi so'zlarning leksemaligi shundaki, ular mustaqil so'zlar kabi ajralganlik xususiyatiga ega. Biroq shakllanuvchanlikka ega emas. Lug'aviy ma'noga ega emasligi ularni morfemik maydon sari tortib turadi.

Lisoniy sathda leksemalar qo'shimchali yoki qo'shimchasiz bo'lishi mumkin. Masalan, *ishchi, paxtakor, ishla* lekse-malari nutqiy yasama so'zlarning lisoniylashuvidir. Ular leksema sifatida lisonda *ish, paxta* leksemalaridan farqli o'laroq, so'z yasovchi qo'shimchalar bilan birga mavjud. Qo'shimchalardan xoli leksema *o'zak* atamasi bilan ham nomlanadi.

Turkiy tillarda nol morfema grammatik shakllar sirasida ustuvor mavqega ega ekan, nutqda voqelangan biror mustaqil leksema qo'shimchasiz bo'lishi mumkin emas. Moddiy qiyofali morfemasiz leksema nol qo'shimchalidir. Masalan, nutqdagi *Kitobni o'qi, Uyga bor, U a'lochi* gaplaridagi *o'qi, bor, a'lochi* so'zlari nol qo'shimchali nutqiy birliklardir.

Leksemalar tarixiy taraqqiyot natijasida morfemaga aylanib borishi, morfemalar esa so'zning o'zagiga singib ketishi mumkin. Masalan, *xona* leksemasi taraqqiyot natijasida ikkiga ajralgan. Bir ma'nosida «joy» semali yasama so'zlarni hosil qiluvchi derivatsion vositaga aylanib ketgan, leksemalikdan mahrum bo'lgan. *Noma, goh, xo'r* leksemalari ham shunday tarixiy siljishni boshidan kechirgan. Albatta, tildagi bunday hodisalar ilmiy muammo bo'lib, maxsus tekshirish natijasida tayinli xulosaga kelish mumkin. Chunki bu birliklarning turkiy unsurlar emasligi shuni taqozo qiladi.

So'zning morfemik strukturasi-dagi o'zgarishlar. Aytilganidek, til taraqqiyoti natijasida so'zning semantik, fonetik strukturasi-dagi bo'lgani kabi, morfemik tarkibida ham jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Ularning har xil ko'rinishlari bor:

1. So'z va qo'shimcha birlashib, so'z *tublashishi* mumkin: *yuksal, yuksak*.

2. So'z va qo'shimcha birlashib, ular *yaxlitlanishi* mumkin: *biron, biror, bezor*. Qo'shimcha bunday zichlashishi natijasida o'z invarianti – morfemasidan uzilishi mumkin.

3. So'z va qo'shimcha orasidagi aloqa *soddalashishi* mumkin: *yumshoq, qattiq*.

4. So'z qo'shimcha holiga kelishi, murakkab qo'shimchalar bir-biriga qo'shilib ketishi, ya'ni *birlashishi* mumkin: *borib yotibdi – borib yatipti – boryapti; ning + ki=niki*.

Keltirilgan hodisalarga mansub misollarning barchasi tarixiy yasalishga mansubdir.

Morfemalarning funksional-semantik tasnifi. Morfemalar funksional-semantik xususiyatiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi: 1) derivatsion morfemalar; 2) grammatik morfemalar.

Derivatsion morfemalar so'zlarga qo'shilib, yangi so'z hosil qiladi. Yangi so'z yangi lug'aviy va grammatik ma'nolarga ega bo'ladi. Masalan, *paxta* leksemasi *-chi* affiksini olib, *paxtachi* so'zi vujudga keladi. Yangi lug'aviy ma'no yangi grammatik ma'noni ham vujudga keltirdi: narsa-buyum oti shaxs otiga aylandi. Shu bilan birgalikda, yangi so'zning valentlik imko-niyatlari ham asos so'znikidan keskin farqlanadigan holga keladi.

Grammatik morfemalar asosiy xususiyatlariga ko'ra uchga ajraladi: 1) lug'aviy shakl hosil qiluvchi morfemalar; 2) lug'aviy-cintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar morfemalar; 3) sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar.

Lug'aviy shakl hosil qiluvchi morfemalar leksema lug'aviy ma'nosini nutqqa moslashtirish vazifasini bajaradi. Masalan, *kitob* leksemasining sememasida birlik va ko'plik ma'nolari noma'lum. Son lug'aviy shakl hosil qiluvchisi bo'lgan *-lar* uni ko'plik tomon muayyanlashtiradi.

Lug'aviy-cintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar lug'aviy ma'noni muayyanlashtirish, nutqqa xoslash bilan birga (*kelgan, o'qigach*), so'zlarni sintaktik aloqaga ham kiritadi: *o'qigan bola, o'qigach gapirmoq*.

Sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar so'zlarning sintaktik qurilmalardagi o'rnini belgilaydi. Masalan, kesimlik kategoriyasi so'zlarga kesimlik mavqeini beradi. Kesimning ega va hol bilan sintaktik aloqasini ta'minlaydi. Kelishik morfemalari oldingi mustaqil so'zni keyingi, egalik qo'shimchalari esa keyingi mustaqil so'zni oldingisiga bog'lash vazifasini bajaradi.

Morfemalarning struktural tasnifi. Morfemalar tuzili-shiga ko'ra *sodda* va *murakkab* turlarga bo'linadi:

Sodda morfemalar tarixan qanday bo'lganligidan qat'iy nazar ajralmas, yaxlit, bir tarkibli morfemalardir: *-lar, -roq, -chi, -niki, -sin, -di, -gach*;

Murakkab morfemalar aslida mustaqil morfemalarning ma'lum funktsiya bajarish maqsadida birlashgan holda qo'lla-nishidir: *odamgarchilik, uygacha, xafachilik, chorvachilik, borganda*.

Morfemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Morfemalarda ham shakl va ma'no munosabati barqaror. Morfemalarning miqdoran cheklanganligi bu munosabatning keng qamrovliligidan dalolat beradi.

Morfemik polisemiya. Morfemik polisemiya keng tarqalgan. Bu morfemalarning polifunksionalligiga bog'liqdir. Misol sifatida *-chilik* affiksini olaylik. Darslik va qo'llanmalarda uning quyidagi uch ma'nosi farqlanadi:

1. Asosdan anglashilgan narsa etishtiriladigan sohani ifodalovchi ot: *paxtachilik, urug'chilik, chorvachilik, uzumchilik*.
2. Asosdan anglashilgan narsa-hodisaning borlik holatini bildiruvchi ot: *pishiqchilik, mo'lchilik, arzonchilik*.
3. Asosdan anglashilgan tushuncha bilan bog'liq bo'lgan ishni bildiruvchi ot: *ulfatchilik, tirikchilik, dushmanchilik*.

Aksariyat morfemalar polisemik tabiatlidir.

Morfemik omonimiya. Shakldosh morfemalar omonim morfemalar deyiladi. Shakldoshlik bir tur morfemalar orasida ham, turli morfemalar orasida ham bo'lishi mumkin.

1. Derivatsion omonimiya:

-ki I: *turtki, tepki, ko'chki* (ot yasovchi).

-ki II: *ichki, kechki, ustki* (sifat yasaydi).

2. Grammatik omonimiya:

-(i)sh I: *borish (bormoq), kelish(kelmoq), ketish(ketmoq)* (harakat nomi shakli).

-(i)sh II: (birga) *yuvish*, (birga) *tarash*, (birga) *ishlash* (birgalik nisbat shakli).

3. Derivatsion-grammatik omonimiya:

-(i)m I: *yig'im, terim, sig'im* (ot yasovchi morfema).

-(i)m II: *uyim, kitobim, soatim* (egalik morfemasi).

Morfemik sinonimiya. Barcha tur morfemalar ma'no-doshlik munosabatida bo'ladi. Shu boisdan *derivatsion sinonimiya* hamda *grammatik sinonimiya* farqlanadi.

Derivatsion sinonimiya. Derivatsion morfemalarning bir-biriga yaqin ma'nolarni ifodalashi *derivatsion sinonimiya* deyiladi. Masalan, sifat yasovchi *-li, -dor, -ser, -ba* morfemalari o'zaro sinonim: *savlatli, savlatdor, sersavlat, basavlat* kabi. Biroq ma'nodoshlik morfemalararo to'liq emas, balki ayrim ma'no qirralari orasidadir. Ya'ni bir morfema ikkinchi morfema bilan barcha ma'nolari asosida sinonim bo'la olmaydi.

Bugungi kunda derivatsion sinonimiya va derivatsion darajalanishni farqlash tilshunosligimizda tadqiqini kutayotgan muammolardandir.

Grammatik sinonimiya. *Nonni eng - nondan eng, uyga jo'namoq - uy tomon jo'namoq* kabi hodisalarda grammatik ma'nodoshlik mavjud.

Morfemik antonimiya. Morfemik antonimiya derivatsion morfemalar orasidagina mavjuddir. Unga misol sifatida *-li* va *-siz* affikslarini keltirish mumkin: *andishali-andishasiz, barakali-bebaraka, baxtli-baxtsiz*.

Morfema variantlari. Morfema nutqda turli varinatlariga ega bo'ladi. Misol sifatida qaratqich kelishigi invariant shaklining variantlarini kuzataylik:

a) poetik variant: *bog'in mevasi*;

b) tarixiy variant: *manim*;

v) dialektal variant: *kitobting*;

g) fonetik variant: *mening*.

Kelishik paradigmasiga kirish huquqiga faqat invariant shakliga ega.

Morfonologiya. Morfonema haqida. Ma'lumki, fonema variantlari so'z va morfemalar tarkibida uni tashkil etuvchi sifatida ishtirok etar ekan, u boshqa tovushlar bilan kombinatsiyalar hosil qilish jarayonida turli o'zgarishlarga uchraydi. So'z va morfemalar tarkibidagi har qanday almashinuvlar, avvalo, fonetik xarakterdadir. Bu esa bugungi kunda til strukturasi fonetik, leksik va morfemik sathlari oralig'ida morfonologiya sathining mavjudligi haqida fikr yuritishga olib keladi.

Aksariyat tilshunoslik atamaları kabi morfonologiya ham zulma'nayndir: 1) ma'lum bir qurshovdagi leksema va morfema nutqiy variantlari tarkibidagi fonetik o'zgarishlar sistemasi; 2) tilshunoslikning shu o'zgarishlarni o'rganuvchi sohasi.

Morfema nolug'aviy ma'no ifodalovchi eng kichik lisoniy birlik. Fonemaning so'zning so'z yoki qo'shimcha bilan, shuningdek, qo'shimchaning qo'shimcha bilan birikuvi natijasida yuz beradigan fonetik o'zgarishlar natijasidagi varianti *morfonema* deyiladi. Masalan, *ong, ot, son* kabi so'zlarga fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shilganda, o'zak tarkibidagi *o* tovushi *a* tovushiga aylanadi. Demak, *o* va *a* tovushlari kompleksi bir morfonemadir, ya'ni «*o-a*» morfonemasi. Ammo bu fonetika obyekti sifatida ikki fonemaning variantlaridir.

Tilshunoslikda morfonologiya va uning birligi masalasi atrofidagi munozaralar davom etmoqda.

Morfonologiyada quyidagi masalalar o'rganilishi tavsiya etiladi:

- so'z va bo'g'inning fonetik strukturasi;

- so'z va qo'shimchaning ma'lum qurshovdagi fonetik variantlari.

So'z va bo'g'in tuzilishi. Turkiy tillarda so'zlar o'zakning bir bo'g'inli ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu bo'g'in to'rt xil fonetik strukturaga egadir:

1) CVC;

2) CV;

3) VC;

4) V.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida CVC tipidagi o'zak boshida *dj, ng* dan boshqa barcha undoshlar kela oladi: *bor, tor, zor, nor, kor, yor, sol, xol, lol, rol, mol, pol, shol, fol, val, jar* kabi. Demak, o'zak boshida mazkur undoshlar kelsa, bu o'zakning noturkiy ekanligidan dalolat beradi.

Turkiy o'zak boshida (SCVC tarzida (*traktor, trassa* kabi)) undoshlar qavatlanib kelmaydi.

Morfemalarning fonetik strukturasi quyidagicha:

1) CVC (*-kaz - o'tkaz, ketkiz*);

2) CV (*-qi - chopqi, gi - kuzgi*);

3) VC (*-im - kitobim, uyim*);

4) V (*-a - tuna, ata, sana*);

5) S (-k - kurak, tilak);

So'z va morfema variatsiyalari. Agglyutinativ morfonemalar. Turkiy tillar garchi ustuvor agglyutinatsiyaga ega bo'lsa-da, baribir ularda ham kombinatsion o'zgarishlar sodir bo'lib turadi. Morfemalarning o'zakka, o'zakning o'zakka qo'shilishi natijasidagi o'zgarishlar turkiy tillarda fuziya unsurlari majud-ligidan dalolat beradi. Bu esa agglyutinativlik, flektivlik yoki amorflik muayyan tillar uchun mutlaq hodisa emasligidan kelib chiqadi.

O'zbek tilida agglyutinatsiya jarayonidagi quyidagi morfonologik holatlar e'tiborlidir.

Unlilar almashinuvi:

a) o-a: *ong -angla, ot- ata, son – sana, yosh - yasha;*

b) a-o: *tarqa - tarqoq, yara - yaroq, chanqa - chanqoq, so'ra - so'roq, alda - aldoq, tara -taroq;*

v) i-u: *sovi - sovuq, qovi - qovuq, quri - quruq;*

Undoshlar almashinuvi:

a) q-g': *qiliq - qilig'i, bo'liq - bo'lig'i, qiziq - qizig'i;*

b) k-g: *bilak - bilagi, tilak - tilagi, kichik - kichigi;*

v) g-k: *bargga - barkka, eggan - ekkkan, teggan - tekkan;*

g) n-z: *bizni - bizzi, sizni - sizzi, qizni - qizzi;*

d) n-t: *otni - otti, o'tni - o'tti, toshni - toshti;*

e) n-r: *qorni - qorri, shaharni - shaharri;*

j n-p: *gapni - gappi, qopni - qoppi;*

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Kompozitsion so'z yasalishi va analitik shakl yasalishidagi morfonemalar. Kompozitsion so'z yasalishi va analitik shakl yasalishi jarayonida so'zlarga fonetik-intonatsion yaxlitlik berish uchun qator fonetik va morfonologik hodisalar (urg'u, tovushlar almashinuvi, fonetik qayta bo'linish) ishtirok etadi.

Qo'shma so'z va analitik so'zshakllarni hosil qilishdagi morfonologik o'zgarishlarda urg'uning roli juda katta.

Bu tipdagi morfonologik o'zgarishlarning ayrimlarini ko'rib o'tamiz.

1. Har ikki uzv yopiq bo'g'inli bo'lganda:

a) n-m: *o'n besh - o'm besh;*

b) b-v: *belbog' - belvog';*

v) ch-s: *uch so'm - us so'm;*

g) b-p: *ichib qo'y - ichip qo'y;*

d) n-m: *o'n bir - o'm bir;*

2. Birinchi uzv ochiq bo'g'in bilan tugab, ikkinchi bo'g'in yopiq bo'g'in bilan boshlanganda:

a) b - v: *bora berdi - boraverdi;*

b) k - g: *bu kun - bugun;*

3. Birinchi uzv yopiq bo'g'in bilan tugab, keyingi bo'g'in ochiq bo'g'in bilan boshlanganda ham uzvlar yaxlitligini ta'minlash uchun morfonologik hodisa (tovush tushishi) yuz beradi:

a) e tushishi: *kelar emish - kelarmish;*

b) b-v va i tushishi: *bosib oldi - bosvoldi.*

4. Fonetik qayta bo'linish:

qayn ona – qaynona - qayna

qayn ota – qaynota – qaynata

qayn ini – qaynini – qayni.

Reduplikatsiya jarayonidagi o'zgarishlar. Juft so'zlarning ko'pchiligida uzvlarni biri ikkinchisining fonetik o'zgarishi asosida bo'ladi. Bu ham morfonologik hodisalarning yorqin ko'rinishidir. Misollar:

1. Birinchi uzvi o'zgaradi:

a) t-s: *butun –bus-butun*;

b) t-p: *katta – kap-katta*;

v) k-m: *ko'm-ko'k*;

g) q-r: *qop-qora*.

2. Ikkinchi uzvi o'zgaradi:

a) y-p: *yog'och - yog'och -pog'och*;

b) m-s: *mol – mol - sol*;

v) m-p: *mol – mol - pol*;

g)t-m: *tugun – tugun-mugun*.

g)t-p: *tugun – tugun-pugun*.

Demak, ma'lum bo'ladiki, bir leksema yoki morfemaning variantlarini yuzaga chiqaruvchi almashinuvchi tovush juftliklari morfonema deyiladi.

Asosiy adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Hozirgi o'zbek tili. Morfemika. Derivatsiya. Morfologiya. II qism. Qarshi-2005.

2. Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek tili. Morfologiya, 1-qism. Mustaqil so'z turkumlari. (Ma'ruza matnlari). Buxoro-2003.

3. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh. va boshqalar. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya.-T.: Yangi asr avlodi. 2001.- 182 b.

4. O'zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. Max.muh. G'.A.Abdurahmonov va boshq. T.: Fan, 1972.-610 b.

5. Zamonaviy o'zbek tili: Morfologiya\ Mualliflar jamoasi. Max. muh. H.G'.Ne'matov va boshqalar. T. Mumtoz so'z, 2008.

6. Sayfullaeva R.R., Mehglyev B.R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'qv qo'llanma.-T., Fan va texnologiya,2009. -416.

Yordamchi adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Morfologik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari: Filol. fan. nomz ... diss. Buxoro. 1995, - 144 b.

2. Nigmatov X.G. Funktsionalnaya morfologiya tyurkoyazchnx pamyatnikov XI-XII vv. -T.: Izd. Fan, 1989.-191 s.

3. Nigmatov X.G. Vkluychennoe tretye v morfologicheskoy sisteme tyurkskix yazkov// Sov.tyurkologiya. 1976. -№3. -S. 31-36.

4. Shahobiddinova Sh. Grammatik ma'no talqini haqida: Filol.fan.nomz... .diss. -Samarqand, 1993.- 152 b.

5. Musulmanova N.R. Grammatik shakllarda kategorial, yuondosh va hamroh ma'no (zamon va mayl kategoriyalari misolida) Filol.fan.nomz...diss. -Toshkent, 2007.-116 b.

6. Bahriddinova B.M. Fe'1 lug'aviy shakllari tizimi (tur kategoriyasi) Filol.fan.nomz...diss. - Samarqand, 2002.-146 b.

7. Shukurov O. Harakat tarzi shakllari paradigmasi. Filol. fan. nomz ... diss. Avt. Qarshi. 2005, - 22 b.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. So'zning ma'noli qismlari deganda nimani tushunasiz?

2. Fonetik o'zgarishlarga misollar keltiring.

3. Morfemikaning birligi haqida ma'lumot bering.

4. Morfemalarning funksional-semantik tasnifi deganda nimani tushunasiz?

5. Morfemalarning struktural tasnifi deganda-chi?

6. Morfemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari haqida ma'lumot bering.

7. Morfonema nima?
8. Soʻz va boʻgʻin tuzilishi haqida gapiring.
9. Soʻz va morfema variatsiyalariga izoh bering.

7-MAVZU: SOʻZ YASALISHI.SOʻZ YASALISH STRUKTURASI VA SOʻZ YASASH USULLARI.

Reja:

1. Soʻz yasalishi tilshunoslikning alohida boʻlimi sifatida.
2. Soʻz yasash (derivatsion) qoliplari.
3. Nutqiy yasama soʻzlarning lisoniy sathga koʻtarilishi.

Soʻz yasalishi tilshunoslikning alohida boʻlimidir. U soʻz yasalishi, uning diaxron va sinxron turlari, soʻz yasash usullari kabi masalalar bilan shugʻullanadi.

Soʻz yasalishi sof nutqiy hodisa, nutqiy jarayondir. Biroq uning lisoniy asoslari bor. Shu sababli soʻz yasalishi ham lison va nutqqa birday daxldor hodisadir.

Soʻz yasalishi lingvistik termin sifatida ikki maʼnolidir:

- a) soʻz yasash jarayoni atamasi;
- b) ushbu jarayonni oʻrganuvchi soha.

Soʻz yasash deganda qanday usul bilan boʻlsa-da, yangi soʻz hosil qilish tushunilavermaydi. Masalan, soʻz yangi maʼno kasb etishi natijasida yangi soʻz paydo boʻlishi mumkin. Deylik, *ishbilarmon* soʻzi yangi maʼno kasb etdi. Biroq bu erda yangi soʻz yasalishi yoʻq.. Demak, soʻz yasalishi, yasama va yangi maʼno kasb etgan soʻzlarning leksemalashuvi hodisalarini farqlash lozim.

Soʻz yasalishi ham til taraqqiyoti natijasida tarixiylik va zamonaviylikka daxldor boʻladi. Shu boisdan tarixiy va sinxron soʻz yasalishini farqlash lozim.

Tarixiy va sinxron soʻz yasalishi. Hozirgi soʻz yasalishida yasama soʻz bilan derivatsion (soʻz yasash) qolip orasida aloqa mavjud boʻlib, qolipning shakliy va mazmuniy tomoni hosila soʻzda oʻz izlarini qoldirgan boʻladi. *kitobchi* yasama soʻzida [ot+chi=shu ot bilan shugʻullanuvchi shaxs oti] qolipidagi tenglik alomatining chap (shakliy) va oʻng (mazmuniy) tomoni izlari shundoq koʻrinib turibdi.

Tarixiy soʻz yasalishida yasama soʻzning shakli va maʼnosiga mos qolip mavjud boʻlmaydi. Bu maxsus tekshirishlar natijasida aniqlanadi. Masalan, *qishloq*, *ovloq* soʻzlarining maʼnosini ularning tashkil etuvchilari va derivatsion qoliplari asosida keltirib chiqarib boʻlmaydi. Chunki ular tarixiy yasalmalardir. *Qorovul*, *yasovul*, *silliq* soʻzlarida ham shu hol kuzatiladi.

Soʻz yasash (derivatsion) qoliplari haqida. Har qanday soʻz soʻz yasash qoliplari asosida hosil qilinadi. Hosila lisoniylashib, oʻz qolipidan uzilib ketsa ham, unda bilinar-bilinmas qolip bilan (agar qolip yashovchan boʻlsa) bogʻlanishlar baribir saqlanib qoladi.

Soʻz yasash qolipi ikki uzvdan iborat boʻladi:

- a) qolipning shakliy tomoni;
- b) qolipning mazmuniy tomoni.

Yasama soʻzda ana shu ikki jihat tajallilanadi. Yasalma shaklan va mazmunan ana shu qolipga muvofiq kelsa, uni shu qolip hosilasi sifatida qarash mumkin. Masalan, *kitobchi* soʻzida mazkur qolipning izlari bor. Lekin *xabarchi* soʻzida qolipning mazmuniy tomoni aks etmagan. Demak, bu leksema ushbu qolip mahsuli emas.

Soʻz yasash qolipining shakliy tomoni ikki qismdan tashkil topadi: *yasovchi asos* va *yasovchi vosita*. Masalan, [ot+chi=shu ot bilan shugʻullanuvchi shaxs oti] qolipining shakliy qismi boʻlgan [ot+chi] ning *ot* qismi yasovchi asos, *-chi* qismi esa yasovchi vositadir.

Qolipning yasovchi asosi, albatta, mustaqil soʻz, yasovchi vosita qismi esa soʻz ham, qoʻshimcha ham boʻlishi mumkin. Masalan, qoʻshma, juft soʻz yasash qoliplarida asos ham, vosita ham soʻzdir.

Qoliplarning soʻz yasash darajasi bir xil emas. Shunga koʻra qoliplar dastlab bugungi kunda hosila berish-bermasligiga koʻra farqlanadi. Bugungi kunda hosila berish-bermasligiga koʻra soʻz yasash qoliplari unumli va unumsiz qoliplarga boʻlinadi. Qoliplarning baʼzilari til tarixida soʻz yasagan, ular hosilalarining barchasi tarixiy soʻz yasashga oid boʻladi. Bunday qoliplar *unumsiz soʻz yasash qoliplari* deyiladi. Masalan, *qorovul, yasovul, hirovul, shigʻovul* hosilalarini bergan qoliplar jonli qoliplar emas. Unumsiz (tarixiy) soʻz yasash qoliplari hozirda hosila bermaydigan, soʻz yasash uchun xizmat qilmaydigan qoliplardir. Masalan, *keskin, toʻlqin, bosqin, uchqun, tuygʻun* soʻzlari [[feʼl]+[gin]=ot] qolipi asosida hosil qilingan. Biroq ushbu qolipdan chiqqan hosilalar rang-barang boʻlib, ulardan anglashilgan maʼnolarni qolipning tenglik belgisidan oʻng tomondagi mazmuniy tomonidan keltirib chiqarish mumkin emas. Chunki bu hosilalar tarixiy yasama soʻzlar boʻlib, davrlar oʻtishi bilan ularning maʼnoviy tabiatida ham, grammatik jihatlarida ham evolyutsiya jarayoni kechgan. Chunki qolip bugungi kunda ishlaymaydigan, foydalanilmaydigan holga kelgan, ularning hosilalari esa qolipdan behad uzoqlashib, maʼnolarning ixtisoslashishi va bir-biridan uzoqlashishi yuz bergan. Natijada aslida bir qolipdan chiqqan hosilalar (yasama soʻzlar) mustaqil leksemalarga aylanib, bir-birinikiga yaqin va bogʻliq boʻlmagan turli-tuman maʼnolarni anglatadi. Tadqiqotchilar oʻzbek tilidagi unumsiz (tarixiy) soʻz yasash qoliplarining yuzga yaqin koʻrinishini ajratishadi. Shuning uchun ular unumsiz qoliplar deyiladi. Unumsiz qoliplarning oʻzi *mahsuldor unumsiz soʻz yasash qoliplari* va *kammahsul unumsiz soʻz yasash qoliplariga* boʻlinadi. Mahsuldor soʻz yasash qoliplari til tarixida koʻplab hosilalar bergan boʻladi. Kammahsul qoliplar esa sanoqli soʻzlar yasagan.

Bugungi kunda ham hosila berib turgan qoliplar *unumli soʻz yasash* qoliplari deyiladi. Unumli soʻz yasash qoliplari hosila berish darajasiga qarab oʻz oʻrnida ikkiga boʻlinadi: *mahsuldor unumli soʻz yasash qoliplari* va *kammahsul unumli soʻz yasash qoliplari*.

-gar, -kash, -mon vositali qoliplar unumli kammahsul qoliplarga misoldir. *-chi, -li, -la* vositali qoliplar mahsuldor unumli soʻz yasash qoliplaridir.

Barcha til birliklari kabi yasama soʻzlar ham lisoniy va nutqiy sathlarga daxldor boʻladi. Boshqacha aytganda, yasama soʻzlar nutqiy ham, lisoniy ham boʻlishi mumkin. Fikrimizni dalillash uchun quyidagi soʻzlarni tahlilga tortaylik: *paxtakor, ishchi, kitobchi, domladosh, aqlli, daftarchi, sharsimon, uysimon*. Soʻzlarni ikki guruhga ajratamiz:

- 1) *paxtakor, ishchi, aqlli, sharsimon*;
- 2) *kitobchi, domladosh, daftarchi, uysimon*.

Har ikkala guruh soʻzlari ham yasama soʻzlar hisoblanadi. Biroq ulardan birinchisi qoʻllash uchun qulayligi, oʻzbek tilida soʻzlovchi va tinglovchilarning unga odatlanganligi, shuningdek, keng isteʼmolliligi bilan xarakterlansa, ikkinchi guruh soʻzlari unchalik qulay emasligi, kam isteʼmolliligi, favquloddaligi bilan birinchi guruh soʻzlaridan ajralib turadi.

Demak, birinchi guruh yasama soʻzlari ijtimoiy shartlan-ganlik xossasiga ega va shu boisdan yuqoridagi zikr etilgan birinchi tur belgilar ularning barchasi uchun umumiydir.

Ikkinchi guruh soʻzlarida esa ular nutqiy hodisa ekanligi, endigina soʻz yasash qolipidan chiqqanligi sababli, odatlanilma-ganlik, favquloddalik xossalari yaqqol boʻrtib turadi.

Koʻrinadiki, nutqiy yasama soʻzlarning ayrimlari nutq bosqichidagina mavjud boʻlsa, baʼzilari oʻzlarini chiqqan qoliplardan uzoqlashib, bir butun holda lisoniy sathga «koʻtarilib ketgan» boʻladi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, leksemalar tub yoki yasama boʻlishi mumkin. Masalan, *kitob, savdogar, nonchi* birliklarini olaylik. Qatordagi *kitob* va *savdogar* birliklari tayyorlik, umumiylik, ijtimoiylik xossalari ega. *Savdogar* leksemasi yasama boʻlsa-da, tayyorlik belgisiga ham ega. Biroq tilimizda *nonchi* degan lisoniy birlik yoʻq. U *non* leksemasi va [aniq ot+chi=otdan anglashidigan narsa/predmet bilan shugʻul-lanuvchi shaxs] qolipi asosida nutq jarayonidagina hosil qilinishi mumkin hamda yuqoridagi birliklar ega boʻlgan xususiyatlardan xoli. *nonchi* birligining nutq jarayonigagina xosligi uning tayyorlik belgisiga ega emasligini koʻrsatadi.

Hosilalarining lison va nutqqa munosabati jihatidan soʻz yasash qoliplari ham farqlanadi. Biz ularni unumsiz (tarixiy) va unumli (zamonaviy) soʻz yasash qoliplari sifatida farqlaymiz.

Nutqiy yasama soʻzlarning lisoniy sathga koʻtarilishi bir necha bosqichda kechadi. Ularni nutqdan lisonga siljishi, lisoniylashishi darajasiga koʻra quyidagicha tartiblash mumkin:

- 1) ixtisoslashgan leksemalar;
- 2) soddalashgan leksemalar;
- 3) tublashgan leksemalar.

Ixtisoslashgan leksemalar nutqiy yasama soʻzlar lisoniy-lashuvining eng quyi darajasidir. Ular yasamaligini yoʻqotmagan, yaʼni oʻzida qolipning shakliy tomoni izlarini saqlagan, biroq maʼnoviy tomondan qolipdan uzilgan, yaʼni maʼnosini qolipning oʻng (mazmuniy) tomonidan keltirib chiqarish imkoni boʻlmagan, toraygan maʼnoli leksemalardir. Masalan, *ishchi* (worker, rabochiy) leksemasi «zavod yoki fabrikalarda ishlovchi, oʻrta maʼlumotli mutaxassis» maʼnosiga ega boʻlib, u [ot]+[chi]=otdan anglashilgan narsa ustida ishlovchi kishi] qolipi hosilasidir. Qolip hosilasi sifatida u qolipning chap tomoni xususiyatlarini oʻzida mujassam-lashtirgan. Chunki ishchi leksema-sining shakliy tomoni, yaʼni nomemasida qolipning [ot+chi] umumiyliigi zarrasi, koʻrinishi tajallilangan. Leksema sememasi esa «shu otdan anglashilgan narsa bilan shugʻullanuvchi shaxs» mohiyati koʻrinishiga emas, balki uning toraygan, maʼlum bir ixtisosni anglatuvchi koʻrinishi holatiga ega boʻlib qolgan. *ishchi* leksemasiga qiyosan olinadigan, deylik, *kitobchi* soʻzida soʻz yasash qolipining shakliy tomonidan ham, maʼnoviy tomonidan ham uzilishi kuzatilmaydi. Yoki *yozuvchi* leksemasi va *yozuvchi* yasama soʻzini qiyoslaylik. Har ikkala hosila ham [[feʼl]+[uvchi]=shu feʼldan anglashuvchi harakat bilan shugʻullanuvchi shaxs] qolipi mahsulidir. Ularni gap tarkibida kuzatamiz: 1.*Yozuvchi hayotni teranroq kuzatadi.* 2.*Insho yozuvchi ijodkorligini namoyon qilishi kerak.* Birinchi gapda *yozuvchi* leksemasining varianti kasbni anglatib, ixtisoslashgan maʼnoga ega va u ot turkumiga mansub ismi foildir. Ikkinchi gapda esa ajratilgan soʻz muayyan yozish harakatini bajaruvchi shaxsni ifodalagan va mohiyatan sifatdoshdir. «Adib» maʼnosidagi *yozuvchi* leksemasi shaklan emas, balki maʼnoviy jihatdan qolip-dan uzilgan, ixtisoslashgan maʼnoli leksema. Ikkinchi hosila esa ham shaklan, ham mazmunan qolipga muvofiq kelganligi bois, nutqiy yasamadir. Leksemalar hosil boʻlishining bu usuldagi boshqa koʻrinishi sifatida soʻzlarning atamaviy maʼno kasb etishi (*qoʻshish, ayirish, boʻlish, koʻrish(salomlash), qarash (yordam-lash), yigʻin, urush* soʻzlari)ni koʻrsatish mumkin. Shuni alohida taʼkidlash lozimki, nutqda hosil qilingan *yozuvchi* hosilasini *yozuvchi* leksemasining nutqiy koʻrinishidan farqlamaslik bugungi kunda ularni goh sifatdosh, goh shaxs oti, [-uvchi] qoʻshimchasini goh shaxs oti yasovchi, goh sifatdosh shakli sifatida turlicha baholashlarga sabab boʻlmoqda.

Soddalashgan leksemalar yasama soʻzlar lisoniylashuvi-ning yanada yuqoriroq bosqichidir. Soddalashish deganda maʼlum bir soʻz yasash qolipining hosilasida oʻzak va qoʻshimchaning oʻzaro birikib ajralmas holga kelishi, soʻzshakldagi grammatik shakllarning qotib qolishi natijasida yangi maʼno ifodalashidir. Oʻzbek tilidagi *oldin, keyin, tashqari, ichkari, yuqori* kabi yuzlab soʻzlar soddalashgan yasama soʻzlar - leksemalardir. Soʻz birikma-larining sintaktik qoliplardan uzilish holatlari (*boshning ogʻrigi - boshogʻriq, belning bogʻi – belbogʻ, bu kun - bugun*) ni ham soddalashishga misol qilib koʻrsatish mumkin.

Tublashgan leksemalar shunday leksemalashgan yasama soʻzlarki, ularning yasalishini, tarkibini etimologik maʼlumotga ega boʻlmasdan aniqlab boʻlmaydi. Masalan, *sin* feʼlining oʻzagi *si, tingla* feʼlining oʻzagi *ding, toʻq* soʻzi oʻzagining *toʻ* ekanligini til tarixi boʻyicha chuqur maʼlumotga ega boʻlmasdan bilish qiyin.

Demak:

1. Yasama soʻzlar nutqiy birlik ham, lisoniy birlik ham boʻlishi mumkin.
2. Tilda leksema yasash hodisasi yoʻq, balki yasama soʻzlarning, nutqiy hosilalarning lisoniylashuvi, leksemalashuvi hodisasi mavjud.

3. Ayrim yasama soʻzlar oʻz qolipidan uziladi hamda ular tarkibidagi oʻzak va yasovchi qoʻshimcha aloqasi zichlashib, bunday yasama soʻzlar oʻzbek tili jamiyati aʼzolari uchun tayyor holga keladi - leksemaga aylanadi.

Asosiy adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Hozirgi oʻzbek tili. Morfemika. Derivatsiya. Morfologiya. II qism. Qarshi-2005.
2. Abuzalova M.Q. Hozirgi oʻzbek tili. Morfologiya, 1-qism. Mustaqil soʻz turkumlari. (Maʼruza matnlari). Buxoro-2003.
3. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh. va boshqalar. Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya.-T.: Yangi asr avlodi. 2001.- 182 b.
4. Oʻzbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. Max.muh. Gʻ.A.Abdurahmonov va boshq. T.: Fan, 1972.-610 b.
5. Zamonaviy oʻzbek tili: Morfologiya\ Mualliflar jamoasi. Max. muh. H.Gʻ.Neʼmatov va boshqalar. T. Mumtoz soʻz, 2008.
6. Sayfullaeva R.R., Mehglyev B.R. va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Oʻqv qoʻllanma.-T., Fan va texnologiya,2009. -416.
7. . Neʼmatov H., Rasulov R. Oʻzbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. -T.: Oʻqituvchi. 1995.-127 b.

Yordamchi adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Morfologik vositalarning maʼnoviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari: Filol. fan. nomz ... diss. Buxoro. 1995, - 144 b.
2. Nigmatov X.G. Funktsionalnaya morfologiya tyurkoyazchnx pamyatnikov XI-XII vv. -T.: Izd. Fan, 1989.-191 s.
3. Nigmatov X.G. Vkluychennoe tretye v morfologicheskoy sisteme tyurkskix yazkov// Sov.tyurkologiya. 1976. -№3. -S. 31-36.
4. Shahobiddinova Sh. Grammatik maʼno talqini haqida: Filol.fan.nomz... .diss. -Samarqand, 1993.- 152 b.
5. Musulmanova N.R. Grammatik shakllarda kategorial, yuondosh va hamroh maʼno (zamon va mayl kategoriyalari misolida) Filol.fan.nomz...diss. -Toshkent, 2007.-116 b.
6. Bahridinova B.M. Feʼl lugʻaviy shakllari tizimi (tur kategoriyasi) Filol.fan.nomz...diss. - Samarqand, 2002.-146 b.
7. Shukurov O. Harakat tarzi shakllari paradigmasi. Filol. fan. nomz ... diss. Avt. Qarshi. 2005, - 22 b.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Derivatsiya nima?
2. Soʻz yasalishi tilshunoslikning alohida boʻlimimi? Avvalda qanday boʻlgan? Qaysi til boʻlimining bir qismi sifatida oʻrganilgan?
3. Tilshunoslikdagi *qolip* atamasiga izoh bering.
4. Soʻz yasash qoliplariga misollar keltiring, izohlang.
5. Ixtisoslashish, soddalashish, tublashish atamalariga izoh bering.
6. Nutqiy yasama soʻzlarning lisoniy sathga koʻtarilishi.

8-MAVZU: GRAMMATIKA. GRAMMATIK MAʼNO, GRAMMATIK SHAKL VA GRAMMATIK KATEGORIYA. MORFOLOGIYA. MUSTAQIL SOʻZ TURKUMLARI.

Reja:

1. Grammatik maʼno haqida umumiy tushuncha.
2. Grammatik va leksik maʼno munosabati.
3. GM turlari. UGM, OGM, XGM haqida.

4. GM tarkibi. Kategorial, yondosh va hamroh ma'no.
5. UGMni ochish yo'llari.
6. Grammatik ma'no ifodalash usullari.
7. Grammatik shakllarning tuzilishiga ko'ra turlari.
8. Grammatik kategoriya.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar: morfologik vosita, grammatik ma'no, leksik ma'no, grammatik shakl, grammatik kategoriya, umumiy grammatik ma'no, xususiy grammatik ma'no, oraliq grammatik ma'no

Grammatik ma'no haqida umumiy tushuncha. Ma'lumki, grammatik ma'no ifodalashning turli vositalari mavjud. Masalan, fonetik, leksik, morfologik va sintaktik usullar shular jumlasidandir. Demak, grammatik ma'noni faqat so'z yoki so'zshaklga nisbat berish ma'qul emas. Nutqni shakllantiruvchi barcha lisoniy birliklar grammatik ahamiyat kasb etishi mumkin.

Grammatik ma'no deganda **til (fonetik, leksik, morfo-logik va sintaktik) birliklarning bevosita nutqni shakllan-tiruvchi umumlashma abstrakt ma'nolari tushuniladi.** Ta'rifni qisqacha sharhlaymiz. Ko'rinadiki, ta'rifda uch muhim unsur mavjud. Ular quyidagilar: a) grammatik ma'noning barcha til birliklariga xosligi; b) bevosita(!)nutqni shakllantirishi; v) umumlashma va obstraktligi.

Keyingi mavzularning birida grammatik ma'no ifodalash usullari haqida fikr yuritganimizda siz grammatik ma'no ifodalashning barcha til birliklariga xosligini anglab etasiz.

Grammatik ma'noning bevosita nutqni shakllantirishi deganda shuni tushunish lozimki, lisoniy birliklar grammatik ma'nodan xoli qilinsa, u nutqqa tayyor bo'lmay qoladi. Masalan, *bola* leksemasining lug'aviy ma'nosi nutqqa grammatik ma'no vositasida kiradi. Uning kelishik, son, subyektiv baho, hokim yoki tobe uzvlik, qaysi gap bo'lagi ekanlik grammatik ma'nolari lisoniy sathda yo'q. Demak, leksema lug'aviy ma'nosi ustiga ana shu grammatik ma'nolar qavatlangan, u nutq tarkibiga kira oladi. Shu boisdan birorta til birligi grammatik ma'nodan xoli bo'lolmaydi.

Grammatik ma'no nutqda to'g'ridan-to'g'ri voqelanaveradi. Bunga morfologik shakllarning grammatik ma'nolari asosida amin bo'lish mumkin.

Grammatik ma'no umumlashma tabiatga ega deganda uning juda ko'p lisoniy birliklarga birday tegishli, umumiy ekanligi nazarda tutiladi. Masalan, «ot», «sifat», «son» grammatik ma'nosi juda katta miqdordagi so'zlar uchun umumiydir. Lug'aviy ma'no (semema) har bir leksema o'ziga xos va yakka, xususiy bo'lsa, grammatik ma'no bir tipdagi juda ko'p leksemalar uchun umumiydir. Yoki [WpM – kesimlik ko'rsatkichlari bilan shakllangan atov birligi] sintaktik qolipining o'ng tomoni uning grammatik ma'nosi bo'lib, u chap, ya'ni shakliy tomoni bilan birgalikda o'zbek tilidagi barcha nutqiy gaplar uchun umumiydir.

Grammatik ma'noning abstraktligi deganda uning bevosita kuzatishda berilmaganligi nazarda tutiladi. Masalan, biz hozirgina keltirgan [WpM – kesimlik ko'rsatkichlari bilan shakllangan atov birligi] sintaktik qolipining grammatik ma'nosi ko'zga tashlanib turgan til birliklari orqasiga yashiringandir.

Grammatik ma'no morfologik sathda so'zlarning umumiy ma'nosi bo'lmish so'z turkumlari (masalan, otlarda umumiy predmetlik, fe'llardagi jarayonlilik), shuningdek, har bir so'z-shaklning ma'lum bir morfologik kategoriya doirasida qarama-qarshi qo'yiluvchi ma'nosi (masalan, zamon, shaxs-son, egalik, kelishik) sifatida yuzaga chiqsa, sintaksis doirasida predikativlik, so'z birikmasidagi hokim va tobe uzvlarning, gap bo'laklarining, gapning tema-rematik uzvlarining bir-biriga o'zaro munosabati sifatida namoyon bo'ladi. Keng ma'noda so'z yasaliş hodisasi ham grammatik ma'noga daxldor. Chunki yasaliş natijasida so'zning turkumlardagi o'rni o'zgarib ketadi. Bu esa ularning yangi grammatik tabiat kasb etganligini ko'rsatadi. Masalan, *aql* so'zi «ot», «mavhum ot» grammatik ma'nolariga ega. Undan *-li* so'z yasovchi shakli vositasida sifat yasaliş bilan, albatta, grammatik ma'noda ham katta o'zgarish yuz berdi. Ko'rinadiki, birorta lisoniy birlik (bir planli bo'lgan fonetik birliklardan tashqari) grammatik ma'nodan xoli bo'lolmaydi. Faqat mustaqil leksemalardagina lug'aviy va grammatik ma'no dialektik

bog'liqlikda bo'ladi. Sintaktik qoliplar, yordamchi leksemalar va grammatik shakllarda faqat grammatik ma'no mavjuddir.

Grammatik ma'no grammatik shakllanmagan leksema-larning lisoniy mohiyatida mavjud bo'lishi ham, grammatik shakl yoki grammatik qoliplar yordamida ifodalanishi ham mumkin. Masalan, *kitoblar* so'zshaklining «turdosh ot» grammatik ma'nosi boshqa barcha turdosh otlarda bo'lgani kabi uning zotida mavjud, «ko'plik» ma'nosi esa ma'lum bir shakl (-lar) yordamida ifodalangan. *Kitobni o'qimoq* birikuvidagi kitob so'zining «tobe uzv» grammatik ma'nosi unga lisoniy sintaktik qolip asosida «yopishtirilgan».

Grammatik va leksik ma'no munosabati. *Bolalar qiziqarli kitobni o'qiydilar* gapini olaylik. Aytilganidek, mustaqil so'zlar o'zida bir vaqtda leksika va grammatikani birlashtiradi. *Bolalar* so'zida ikki xil ma'no anglashilib turadi: a) lug'aviy ma'no («borliqdagi odam jinsiga mansub bo'lgan, yosh jihatdan voyaga etmagan shaxsni yoki voyaga etgan kishining farzandi, avlodi»); b) turdosh ot, ko'plik son bosh kelishik, ega vazifasida. Bu so'z leksik va grammatik ma'nonini o'zida birlashtirgan. Shuning uchun so'zlar grammatik va leksik birlik sifatida so'z turkumlariga guruhlanadi. Bunda guruhlash, avvalo, leksik asoslarda, ya'ni ularning lug'aviy ma'nolariga asoslangan holda amalga oshiriladi, guruhlashning yuqori bosqichida u grammatik xarakter kasb etadi. Masalan, *o'qituvchi, doktor, ishchi, injener* otlari bir butun holda «kasb otlari» lug'aviy guruhini tashkil etadi va bu leksik asosdadir. Chunki bu so'zlar boshqa guruh otlaridan farqli o'ziga xos, qandaydir ayricha grammatik xususiyatga ega emas. Lekin bu otlarning boshqa tur otlari bilan birlashib hosil qilgan katta guruhi, deylik, turdosh otlar atoqli otlardan farqli grammatik xususiyat-larga ega. Masalan, turdosh otlar birlik va ko'plikda qo'llanadi, atoqli otlar esa asosan birlikda qo'llanadi. Shuning uchun otlarning atoqli va turdosh otlarga ajratilishi grammatik ahamiyatga egadir. Deylik, narsa-buyum otlari va o'simlik otlari orasida grammatik farqlar bo'lmaganligi sababli bu bo'linish leksik tabiatlidir. Chunki bu ikki guruhga kiruvchi so'zlar turlanish, son, tuslanish va boshqa grammatik omillarga bir xil munosabatda bo'ladi.

So'z grammatik birlik sifatida morfologik ma'nolar tizimiga egadir. Shunga ko'ra grammatik ma'nolarni quyidagi tiplarga bo'lish mumkin: a) ma'lum bir turkumga kiruvchi so'zlarning ular qaysi morfologik shaklda bo'lishidan qat'i nazar barchasi uchun birday tegishli bo'lgan grammatik ma'nolar (masalan, otlarda predmetlik, sifatlarda belgilik, fe'llarda jarayonlilik); b) bir turkumdagi biror guruhning qanday grammatik shaklda bo'lishidan qat'i nazar barcha so'zlariga xos bo'lgan grammatik ma'no (masalan, ozaytirma daraja sifatning faqat rang bildiruvchi turlariga xos); v) biror turkumdagi ma'lum bir so'zlarning ma'lum bir shakldagi turigagina xos bo'lgan grammatik ma'no (masalan, o'zlik olmoshiga kelishik qo'shimchasi faqat egalik qo'shimchasidan keyin qo'shiladi, olmoshning boshqa turlarida bunday hol kuzatilmaydi, yoki -yap qo'shimchali aniq hozirgi zamon shakli III shaxsda –di shakli bilangina voqelana oladi).

GM turlari. UGM, OGM, XGM haqida. Grammatik shakllarning fahmiy his qilinadigan alohida ma'nolari xususiy grammatik ma'no deyiladi. Masalan, egalik qo'shimchalari umuman «keyingi so'zni oldingi so'zga bog'lash» mohiyatiga ega. Bu umumiy grammatik ma'no (qisq.UGM) bo'lib, u, masalan, nutqiy birlik bo'lgan *Salimning kitobi* birikuvida «*kitob* so'zini *Salim* so'ziga bog'lash», *daftarning varag'i* birikuvida esa «*vara*q so'zini *daftar* so'ziga bog'lash» tarzida xususiylashgan. Bu tipdagi ma'nolar tilshunoslikda *xususiy grammatik ma'no* (qisq.XGM) termini bilan yuritiladi. UGM lisoniy tabiatli bo'lib, lisoniy birliklarga xos barcha belgilarga, XGM esa nutqiy ma'no bo'lganligi uchun nutqiy birliklarga xos belgilarga ega (Bu haqda «Hozirgi o'zbek adabiy tili» kursining «Kirish» qismida tanishgansiz.). UGM umumiy, mavhum, zaruriy, barqaror, invariant, uzual, ijtimoiy bo'lsa, XGM bu belgilarning aksi bo'lgan xusu-siylik, aniq, tasodifiy, beqaror, okkozional, individual kabi belgi-larga ega.

UGM va XGM xususiyatlarini idrok etish uchun barcha borliq hodisalarida umumiy yashash qonuniyati bo'lgan *umumiylik* va *xususiylik* tushunchalari munosabatini yaxshi bilish lozim.

Biz ko'ra oladigan, seza oladigan, o'lchay oladigan narsalarning barchasi xususiylikdir. Hovlimizda o'sib turgan har bir daraxt xususiylikka misol bo'la oladi. Biroq ongimizda umuman daraxt tushunchasi ham bor. Umuman daraxtning mohiyati «tanasidan shoxlanuvchi yirik o'simlik»dir. Umuman daraxt ko'rib bo'lmasligi, sezib bo'lmasligi, o'lchab bo'lmasligi, mevali-mevasizligi, katta-kichikligi noaniqligi bilan muayyan daraxtdan farq qiladi. Umuman daraxt abstrakt tushunchadir. U borliqdagi daraxtlarning o'sishi, rivojlanishi, kesilishi, qurishi yoki yonib ketishiga befarq holda ongimizda o'zgarmay, bir xil turaveradi. Bu umumiylikning barqarorlik, o'zgarmaslik belgisidir. Demak, xususiylik sifatidagi muayyan daraxt o'zgaruvchan, o'tkinchi, atrof-muhitga bog'liq, takrorlanmas bo'lib, barcha belgilari bilan umuman daraxtga zid turadi. Shu o'rinda xususiy daraxtning takrorlanmasligiga diqqatni qaratmoqchimiz. Bir daraxt qurisa, uni qayta ekib, o'stirib bo'lmaydi. O'rniga ekilgan daraxt esa uning takrori emas, balki yangi daraxtdir. Umuman daraxt o'z belgilarini har bir yangi daraxtda takrorlayveradi. Masalan, biz yuqorida keltirgan «tanasidan shoxlanuvchi yirik o'simlik» umumiyliigi har bir xususiy daraxtda ko'rinish beradi. Umuman daraxt bitta, xususiy daraxtlar esa cheksizdir.

Umumiyliklar mayda-chuyda ahamiyatsiz belgilarga befarqdir. Masalan, xususiy daraxtning katta-kichikligi, yosh-qariligi, mevali-mevasizligi, madaniyligi yoki yovvoyiligi umumiy daraxt uchun ahamiyatsizdir. Zero, uning mohiyati «tanasidan shoxlanuvchi yirik o'simlik» bo'lib, bunda biz hozirgina sanagan belgilardan xususiy daraxtga xos birortasi ham yo'q.

UGM va XGM munosabatini xuddi shunday idrok etmoq lozim bo'ladi.

Nutqiy birliklarda turli lisoniy umumiyliklarning belgilari mujassamlanganligi, qorishganligi kabi, XGMLar ham o'zida o'zi mansub UGM zarralari bilan birgalikda boshqa lisoniy zotlarning zarralarini ham o'zida birlashtirgan. Masalan, egalik qo'shimcha-sining «*kitob* so'zini *Salim* so'ziga bog'lash» XGMSida «keyingi so'zni oldingi so'zga bog'lash» UGMsi ko'rinishi bilan birgalikda «qarashlilik» ma'nosi, shuningdek, *Salim* va *kitob* leksemalarining (umumiyliklari) zarralari qorishgan holda yuzaga chiqqan.

Grammatik ma'no so'zning grammatik shakli bilan va undan xoli holdagi holatidan, ya'ni o'zak-negizidan anglashil-ganligi kabi UGM va XGMLar ham ikki xil tabiatlidir. Masalan, «predmetlik» ot turkumining, «jarayonlilik» fe'l turkumining, «belgi» sifat turkumining grammatik shaklsiz ifodalanadigan UGM sidir. *Bu Salimning kitobidir* gapidagi *kitob* so'zining «Salimga tegishli o'qish uchun mo'ljallangan predmetni ifodalovchi turdosh ot» ma'nosi bu so'zning grammatik shaklsiz ifodalanadigan XGMSidir.

UGM va XGM grammatik shakllarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Har bir grammatik kategoriyaning ma'nosi uning shakllarining ma'nosiga nisbatan UGMdir. Masalan, barcha kelishik shakllari uchun umumiy bo'lgan «oldingi mustaqil so'zni keyingi mustaqil so'zga bog'lash» ma'nosi kelishik kategoriyasining UGMsidir. Bu kategorial umumiylik alohida shakllarning ma'nosiga nisbatan belgilanadi. Boshqacha aytganda, kelishik kategoriyasining yuqorida aytilgan UGMsi uning tarkibiga kiruvchi 6 ta kelishik shaklining ma'nosidan sintezlanadi, ya'ni keltirib chiqariladi.

Har bir kelishik shaklining ma'nosi undan quyidagi ma'nolarga nisbatan UGM hisoblanadi. Masalan, qaratqich kelishigining UGMsi oldingi ism turkumiga kiruvchi so'zni keyingi ism turkumiga kiruvchi so'zga bog'lashdir. UGM har doim ham quyi ma'nolarga nisbatan olinadi. Masalan, kelishik kategoriyasi UGMsi quyidagi kelishiklarning ma'nosiga nisbatan olinsa, har bir kelishikning UGMsi undan quyidagi bu kelishik UGMsining «parchalari»ga nisbatan olinadi. Chunki ota farzandiga nisbatan ota, otasiga nisbatan farzand bo'lganligi kabi kelishik kategoriyasi UGMsi haqida gap ketayotganda har bir kelishikning ma'nosiga nisbatan UGM termini qo'llanilmaydi. Kategoriya va shakl ma'nosi hamda uning xususiy ko'rinishi haqida bahs ketganda ularni qanday baholash muammosi ham bor. Bunda dialektikaning *umumiylik-maxsuslik-alohidalik* kategoriyasiga metodologiya sifatida tayanish lozim bo'ladi. Tilshunoslikda grammatik ma'noga nisbatan bu *umumiy grammatik ma'no-oraliq grammatik ma'no(qisq.OGM)*–*xususiy grammatik ma'no* tarzida tatbiq etilgan. Misol sifatida tushum kelishigi

shakli ma'nosini olaylik. Kelishik kategoriyasining «oldingi mustaqil so'zni keyingi mustaqil so'zga bog'lash», tushum kelishigining «oldingi ismni keyingi fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» va tushum kelishigining muayyan nutq parchasi bo'lmish *kitobni o'qimoq* birikuvida voqelangan «*kitob* so'zini *o'qimoq* so'ziga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» nutqiy ma'nosi yaxlitlikda olinganda UGM-OGM-XGM munosabatidadir. Kelishik kate-goriyasining «oldingi mustaqil so'zni keyingi mustaqil so'zga bog'lash» ma'nosi tushum kelishigining «oldingi ismni keyingi fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» ma'nosiga nisbatan UGM maqomida bo'lib, tushum kelishigining muayyan nutq parchasi bo'lmish *kitobni o'qimoq* birikuvida voqelangan «*kitob* so'zini *o'qimoq* so'ziga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» nutqiy ma'nosi XGMdir. Tushum kelishigining «oldingi ismni keyingi fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» ma'nosi esa UGM va XGM orasida turganligi hamda ularni bog'lovchi bo'g'in bo'lganligi uchun OGM maqomidadir. OGMning mavqei nisbiy-dir. Masalan, kelishik kategoriyasining UGMsi e'tibordan soqit qilinsa va fikr faqat tushum kelishigi va uning quyi ma'nolari haqida ketsa, mazkur OGM UGM sifatida qaraladi. Tushum kelishigining zikr etilgan XGMsi e'tibordan soqit qilinib, so'z kelishik kategoriyasi va tushum kelishigi munosabati xususida ketsa, bunda OGM ushbu UGMga nisbatan XGM sifatida ham qaralishi ham mumkin.

Demak, borliq hodisalari umumiylik-maxsuslik-xususiylik (alohidalik) munosabatida bo'lganligi kabi grammatik ma'no ham umumiy grammatik ma'no-oraliq grammatik ma'no-xususiy grammatik ma'no ko'rinishlariga ega.

GM tarkibi. Kategorial, yondosh va hamroh ma'no. Grammatik ma'no tarkibi murakkabdir. Masalan, son kategoriya-sining UGMsi predmetning miqdoriy va sifatiy tavsiflarini berishdan iborat, bu umumiy kategorial ma'no son kategoriyasi-ning [0] shaklida «miqdoriy aniqlik–noaniqlik va sifatiy bo'lin-maslik», [-lar] shaklida “miqdoriy noaniq ko'plik va sifatiy bo'li-nuvchan va bo'linmaslik” kabi har bir shaklga ixtisoslashgan ko'rinishlarga ega bo'lib, ularni sifat va miqdor kabi turlarga ajratish mumkin. Son kategoriyasining nomidan ma'lumki, u miq-dor ifodalashga ixtisoslashgan morfologik hodisadir Shuningdek, uning UGMsida “noaniq”, “aniq”, “sifat”, “bo'linuvchan”, “bo'lin-mas” kabi unsurlar bevosita kategoriya markazidagi “miqdor” unsuriga bevosita daxldor emas. Biroq “bevosita daxldor emas-lik”ni u UGMdan tashqari deb tushunmaslik kerak. Chunki, deylik, [-lar] shakli miqdor (ya'ni ko'plik) ifodalar ekan, u bir paytning o'zida o'z-o'zidan yuqorida zikr etilgan “bo'linuvchanlik – bo'lin-maslik”, “noaniq” kabi belgilarini ham ifodalab yuboradi. Demak, son kategoriyasi shaklida miqdor belgisi har doim sifat belgisi bilan baqamti yashaydi, u bilan dialektik bog'lanishda turadi. Boshqacha aytganda, miqdor belgisi hech qachon sifat belgisisiz yuzaga chiqmaydi. Nutqda bu ma'nolardan birining kuchayishi boshqasining susayishiga, boshqasining kuchayishi birinchisining susayishiga olib keladi. Masalan, *Do'konda suvlar bor* gapida [-lar] shakli miqdoriy belgi ham (ya'ni «ko'plik»), sifatiy belgi ham («bo'linuvchanlik», «har xil») ifodalanmoqda. Bunda sifatiy belgi ustuvorlik kasb etib, miqdor belgisi kuchsizlanganligi sezilib turadi. Lekin baribir «ko'plik» yuzaga chiqmoqda. Ma'lum bo'ladiki, grammatik shakl UGMsi tarkibiy qismlaridan biri uning mohiyati bo'lsa (masalan, sonda «miqdor»), boshqalari unga yondosh, mohiyatga mansub bo'lmagan, biroq u bilan dialektik yaxlitlik kasb etgan ma'nodir (masalan, sonda «bo'linuvchanlik»). Shuning uchun grammatik shakl UGMsi tahlilida kategorial ma'no va unga yondosh hodisalar farqlanadi.

Kategorial va yondosh ma'no har bir grammatik shaklda mavjud.

Grammatik shakllar nutqda ba'zan UGMsida bo'lmagan ma'nolarni ham voqelantiradi. Masalan, biz ko'rib o'tgan [-lar] shakli nutqda «hurmat» ma'nosini ifodalashi ham mumkin. Bu ma'no shaklning UGMsi tarkibiga kirmaydi. U UGM bilan birga yuzaga chiqishi ham, chiqmasligi ham mumkin. Bunday ma'no *hamroh ma'no* deb yuritiladi. Demak, kategorial ma'no shaklning mohiyati va UGMning asosidir. Yondosh ma'no UGMga kirsada, mohiyat tarkibiga kirmaydi. Hamroh ma'no esa shakl mohiyatiga ham, UGM tarkibiga ham kirmaydi. Quyidagi gaplarni qiyoslang: 1. *Aqllari bormi? – ukasiga istehzoli kuldi Salim. U kishining fikrlari bizga ma'qul.* Birinchi gapda *aqllari* so'zshaklining [-la-ri] egalik

qo'shimchasida "kesatish" ma'nosi ham (aslida *aqling*), «II shaxs, birlik» ma'nosi ham anglashilmoqda. «Kesatish», umu-man, egalik kategoriyasi UGMsi daxldor emas. Lekin "II shaxs birlik" ma'nosi bu kategoriyaning [- (*ing*)] shakliga xos kategorial ma'no bo'lib, [-lari] shakli bu ma'noni ifodalash uchun xoslangan va UGM ko'rinishiga vaqtincha "yopishgan" tajalli hisoblanadi. Uning bunday xususiyatga egaligi ushbu "noqulay" ifodalovchi bilan nutqqa chiqishi uchun zarur nutqiy sharoit, bog'liq qurshov talab qilayotganligi bilan ham belgilanadi. Zero, gapdan muallif gapi ("ukasiga istehzoli kuldi Salim") olib tashlansa, [-lari] shaklidan anglashilayotgan ushbu hamroh ma'no uqilmay qoladi.

UGMni ochish yo'llari. UGM nutqiy ma'no bo'lmish XGMLarni bosqichli umumlashtirish orqali ochiladi. Bunda XGMdagi o'zi mansub UGMga tegishli bo'lmagan barcha begona tajallilar idrokiy yo'l bilan e'tibordan soqit qilinadi. Quyida [-moqda] hozirgi zamon davom fe'li shakli va umuman zamon kategoriyasining UGMsini bosqichli tiklash namunasini beramiz.

1-bosqichda [-moqda] shaklining turli matniy va uslubiy hollarda qo'llanishini tahlil etish asosida bu shaklning nutqiy, matniy ma'no turlari, ya'ni XGMLari aniqlanadi. Shakl XGMLariga misollar keltiramiz. 1.*Suv egatlarda jildirab oqmoqda.* 2.*Umr o'tmoqdadir.* 2. *Zamin aylanmoqda mag'rur tebranib.* Shakl 1-misolda «ish-harakat nutq paytida davom etayotganligining badiiy uslub nasriy turiga xos obrazli ifodasi», 2-misolda «ish-harakat nutq paytida davom etayotganligining badiiy uslub lirik turiga xos ko'tarinki ifodasi», 3-misolda «ish-harakat nutq paytida davom etayotganligining badiiy uslub lirik turiga xos tantanavor ifodasi» XGMLarini voqelantirgan. Misollarni davom ettirsak, XGMLar soni yana ortib boradi. Biroq umumlashtirish uchun bizga ushbu XGMLar etarli. Ular orasidagi umumiylik «ish-harakat nutq paytida davom etayotganligining ifodasi» bo'lib, XGMLarning qolgan unsurlari farqlardir (1-misolda «badiiy uslub nasriy turiga xos obrazli ifodasi», 2-misolda «badiiy uslub lirik turiga xos ko'tarinki ifodasi», 3-misolda esa badiiy uslub lirik turiga xos tantanavor ifodasi»). Farqlar e'tibordan soqit qilinib, ulardagi bir xillik (umumiylik)lar ajratib olinadi. Farqlar shu bosqich uchun qiymatga ega bo'lsa, bir xilliklar yuqori bosqich qiyoslashlari uchun ahamiyat kasb etadi.

2-bosqichda [-moqda] qo'shimchali zamon shakli birinchi bosqich xulosalari asosida [-(a)y] qo'shimchali hozirgi –kelasi zamon, [-yap] qo'shimchali aniq hozirgi zamon, [-yotir] qo'shimchali hozirgi zamon shakli kabi barcha hozirgi zamon turlari bilan munosabatlarda ko'rib, shu asosda [-moqda], [-yotir], [-yap], [-(a)y] qo'shimchali hozirgi zamon shakllarining mohiyati – UGMlari ochiladi. Keyingi bosqich uchun farqlar e'tibordan soqit qilinib, ulardagi bir xillik(umumiylik)lar ajratib olinadi. Bu bir xilliklarga keyingi bosqich qiyoslashlari uchun ahamiyatli bo'ladi.

3-bosqichda avvalgi bosqich xulosalari asosida hozirgi zamon shakllari umumiylik sifatida olinib, uning kelasi zamon shakllari umumiyliigi bilan aloqa-munosabatlari, o'xshash va farqli jihatlari oydinlashtiriladi. Joriy bosqich uchun ulardagi farqlar, keyingi bosqich uchun bir xillik(umumiylik)lar ahamiyatli bo'ladi.

4-bosqichda oldingi bosqich xulosalari asosida «sodir bo'lmagan va bo'layotgan harakat-holat»ni ifodalovchi o'tgan zamon shakli bilan munosabatlari tekshirilib, hozirgi-kelasi va o'tgan zamon shakllarining UGMlari ochiladi.

5-bosqichda 4-bosqich xulosalari asosida hozirgi, kelasi va o'tgan zamon shakllari ma'noviy xususiyatlari bilan munosabat-larini aniqlash asosida zamon va mayl kategoriyalarining UGMlari tiklanadi.

Xususiylikdan umumiylikka qarab yo'naltirilgan bu tadqiq jarayonida har bir bosqichga o'tish bilan xususiyliklarning zamiridagi UGMga chuqurlashib boriladi. Chunki [-moqda] qo'shimchali zamon shaklining nutqiy voqelanishlarida zamon kategoriyasi UGMsiga xos hozirgi-kelasi zamon shakli UGMsi ko'rinishining hozirgi zamon UGMsi ko'rinishchasiga mansub turining bevosita kuzatishda berilishini ko'ramiz va bu XGMLarda barcha oldingi bosqichlar UGMlari zarralari mavjud bo'ladi. Shuning uchun [-moqda] qo'shimchali zamon shaklining ziddiyatlari va UGMsi faqat 2-bosqichdagina ochilishi mumkin. 3-bosqichda [-moqda] va [-(a)y], [-yap-] qo'shimchali zamon shakllari mustaqil til birliklari sifatida

emas, balki hozirgi zamon shaklining variantlari sifatida yuzaga chiqadi. Bu pog'ona qancha yuqorilasa, xususiy ko'rinishlar shunchalik katta guruhlarga birlashib, o'z mustaqilliklarini yo'qotib, umumlashib boraveradi. Shu boisdan grammatik shakllarning ma'noviy xususiyatlari haqida gapirganda tekshirish qaysi bosqichda olib borilayotganligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

So'zshakl va uning asosiy tiplari: nol shakl, sintetik, analitik, aralash, juft va takroriy shakllar. Leksema nutqqa chiqqanda, albatta, grammatik shakllangan bo'ladi. Grammatik shakllanmagan so'z nutqda bo'lmaydi. *Men sarguzasht kitoblarni sevib o'qiyman* gapidagi so'zlarga diqqat qilaylik. *Men* olmoshi ongda leksema sifatida hech qanday grammatik shaklga ega emas. Biroq u mazkur gapda bosh kelishik shaklida va birlik sonda. *Sarguzasht* sifati oddiy daraja shaklida, *kitoblarni* tushum kelishigida va ko'plik sonda, *sevib* aniq nisbat va ravishdosh shaklida, *o'qiyman* aniq nisbat, hozirgi-kelasi zamon shakli, birinchi shaxs birlik, tasdiq shaklida. Leksemaning nutqda voqelangan ko'rinishi **so'zshakl** atamasi bilan yuritiladi. Bundan shunday xulosa chiqadi: so'zning grammatik shakli bir leksemaning nutqdagi har xil tusli o'zgarishlari bo'lib, ular bir sememanining o'zini ifodalab, yo qo'shimcha ma'no ottenkasi bilan farqlanadi yoxud bir leksemaning boshqa leksemaga nutqdagi sintaktik munosabatini ko'rsatadi. Shu sababli so'z yasovchilardan boshqa qo'shimchalarning barchasi grammatik shakl deb yuritiladi.

Bir leksemaning bir sistemaga kiruvchi grammatik shakllari bir butun holda paradigmani tashkil qiladi. Masalan, *olma, olmaning, olmani, olmaga, olmada, olmadan* so'zshakllari *olma* leksemasining kelishik paradigmasidir. Morfologik para-digma (grammatik shakllar sistemasi) har bir so'z turkumi uchun alohida (son, daraja, nisbat, o'zgalovchi) bo'lishi ham, barcha so'z turkumlari uchun umumiy bo'lishi ham (kelishik, egalik, kesimlik) mumkin.

O'zbek tilida so'z bir grammatik ko'rsatkichli yoki bir necha grammatik ko'rsatkichli bo'lishi mumkin. Masalan, yuqorida keltirilgan *sarguzasht* so'zi bir grammatik ko'rsatkichli (oddiy daraja), *kitoblarni* ikki grammatik ko'rsatkich (tushum kelishigi, ko'plik son) lidir. Shuningdek, tilimizda grammatik shakllarning ba'zilari bir grammatik ma'noni, ba'zilari bir vaqtning o'zida bir necha grammatik ma'noni ifodalashi mumkin. Masalan, keltirilgan *sevib* so'zshaklidagi *-ib* ko'rsatkichi holat ma'nosinigina, *o'qiyman* so'zshaklidagi *-man* shakli esa, ham birinchi shaxs, ham birlik ma'nosini ifodalamoqda.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'zshakllarning bir necha tipi mavjud: a) affikslar yordamida hosil bo'luvchi so'zshakl (sintetik yoki yopishgan shakl); b) nomustaqil (faqat grammatik ma'no ifodalaydigan) so'zlar bilan ifodalanadigan so'zshakl (analitik yoki ajralgan shakl; v) ham affiks, ham nomustaqil so'z yordamida ifodalangan shakl (sintetik-analitik yoki aralash shakl; g) so'zlarning takroridan hosil bo'lgan shakl yoki takroriy shakl).

Sintetik shakl affiksning tabiatiga qarab ikki ko'rinishga ega:

a) affiksi moddiy shaklga ega bo'lmagan (nol shaklli) so'zshakl (*Shoir she'r o'qiydi* gapidagi *shoir* so'zi bosh kelishikda va birlik sonda bo'lib, bu ma'noni ifodalovchi shakl **nol shakl** deyiladi);

b) affiksi moddiy shaklga ega bo'lgan so'zshakl (keltirilgan gapdagi *o'qiydi* so'zshaklining hozirgi-kelasi zamon, III shaxs birlik ma'nolari moddiy shaklli vosita bilan ifodalangan).

ESLATMA. *She'r o'qidi* birikuvidagi *she'r* so'zi belgisiz tushum kelishigida bo'lib, u nol shakl sifatida qaralmaydi. «O'zbek tilining, boshqa turkiy tillarda bo'lgani kabi, asosiy belgilaridan biri bo'lgan nol shakl masalasi hali etarlicha o'rganilmagan va uning o'ziga xos xususiyatlarini ochish tilshunosligimiz oldida turgan dolzarb muammolardan biri sanaladi.» (H.Ne'matov.)

Analitik so'zshakllar nomustaqil ma'noli (asosan, yordamchi) so'zlar yordamida hosil qilinadi: *maktab uchun, kelajak sari*.

Sintetik-analitik shakl ham affiks, ham yordamchi so'z yoki yordamchi so'z vazifasidagi mustaqil so'zlar bilan hosil qilinadi. Masalan, *o'qib chiqdi, borgan ekan, shaharga tomon* va h. Bunda *chiqdi* so'zi

ushbu o'rinda *-ib* affiksi, *tomon* so'zi *-ga* qo'shimchasi yordamida aralash so'zshaklni vujudga keltirgan.

Takroriy shakl ham ma'lum bir grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, *baland-baland* (imorat), *qator-qator* (daraxtlar), *kula-kula* kabilar «ko'plik», «takror» ma'nosini ifodalaydi. Ba'zi manbalarda takror so'zshakllarni ravish sifatida qarashlar ham uchraydi. Biroq bunda takrorlash natijasida yangi so'z emas, balki lug'aviy ma'no saqlangan yangi so'zshakl vujudga kelmoqda. Masalan, *qator-qator* so'zshaklida yangi lug'aviy ma'no emas, balki *qator* so'zining kuchaygan, orttirilgan ifodali ko'rinishi mavjud.

Grammatik ma'no ifodalash usullari. O'zbek tilida grammatik ma'no ifodalashning quyidagi vositalari mavjud:

1. Affiksal vositalar.
2. Sof nomustaqil va nomustaqil vazifadagi so'zlar.
3. So'z tartibi.
4. Takror.
5. Ohang.
6. Sintaktik qoliplar.

Affiksatsiya tilimizda grammatik ma'no ifodalashning eng keng tarqalgan turi bo'lib, u orqali deyarli aksariyat grammatik ma'nolar ifodalanadi. Ifodalaydigan grammatik ma'noning xarakteriga va o'z mohiyatlariga ko'ra affikslar ikkiga bo'linadi: *so'z yasovchi affikslar* va *shakl yasovchi affikslar*.

So'z yasovchi affikslar so'zga qo'shilib, yangi lug'aviy ma'no hosil qiladi va so'zning grammatik tabiatiga ham ta'sir etadi. Masalan, *ish* so'ziga qo'shilgan *-la* so'z yasovchi qo'shimchasi yangi lug'aviy ma'no vujudga keltirish bilan birga, yangi grammatik ma'no ham hosil qiladi. Qiyoslang: *ish* (gram.ma'no: *predmetlik, ot*) – *ishla* (grammatik ma'no: *jarayon, fe'l*). Ko'rinadiki, hosila leksemadagi *jarayon* va *fe'l* grammatik ma'nolari so'z yasovchi vosita yordamida vujudga kelgan.

So'z yasovchi vositalar orqali har xil grammatik ma'nolar ifodalanishi mumkin. Masalan, *-kash* yasovchisi hosilasi sifat ham, ot ham bo'ladi (*mehnatkash* – ot, *dilkash* – sifat). Demak, so'z yasovchi vositalar nafaqat yangi so'z hosil qiladi, balki yangidan-yangi grammatik ma'nolarni ham vujudga keltiradi. Bu mustaqil so'zlarda lug'aviy ma'noning grammatik ma'no bilan dialektik aloqasini, ularning o'zaro yaxlitlikda mavjudligini ko'rsatadi.

Shakl yasovchi qo'shimchalar grammatik ma'no ifodalashning affiksal vositalari sirasida eng sermahsulidir.

Ayrim shakl yasovchilar faqat bir turkumga xos grammatik ma'nolarni vujudga keltirsa (tasniflovchi, bir turkumgagina tegishli bo'lgan shakl yasovchilar, masalan, son, daraja, nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik), ayrimlari barcha turkumlar uchun birday tegishlidir (masalan, kelishik, kesimlik, egalik).

Affikslar asosan sintetik shakl hosil qiladi va qisman anali-tik shakllar hosil qilishda yordamchi vositalarga ko'maklashadi.

Sof nomustaqil va nomustaqil vazifadagi so'zlar ham grammatik ma'no ifodalovchi vositalar sirasida muhim o'rin tutadi.

Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlar va gaplarda grammatik ma'no ifodalashning alohida turini tashkil etadi.

Ko'makchilar mustaqil so'zlar bilan birga kelib, oldin turgan so'zni keyingi so'z bilan grammatik aloqaga kiritadi. Bu bilan kelishiklarga o'xshaydi. *Biz kelajakka ishonch bilan qaraymiz* gapida ko'makchi yordamida «holat» grammatik ma'nosi ifodalangan. *Telefon orqali gaplashdim* gapida «vosita», *Do'stlik biz uchun hamisha ilhom va kuch-quvvat manbai bo'lib kelgan* gapida «atalganlik» ma'nosi ifodalangan. Bu ma'nolar grammatik ma'noning bir tomoni bo'lib, ikkinchi tomoni oldingi so'zlarni keyingi so'zlarga bog'lash, sintaktik aloqaga kiritishdir.

Bog'lovchilar teng munosabatli sintaktik birliklarni bog'-lashdan iborat sintaktik, ular orasida har xil tenglashtirish, zidlash, ayirish kabi morfologik ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi: *olma va anor, o'qidi lekin yozmadi*.

Ko'makchilarning morfologik ma'no ifodalash imkoniyat-lari uning sintaktik imkoniyatlaridan kengroqdir. Chunki ular mustaqil so'zlar va gaplarga qo'shimcha ma'no yuklashi bilan ahamiyatlidir.

O'zbek tilida yordamchi so'zlar juda katta guruhni tashkil etib, ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalarning yarim bog'lovchi, yarim ko'makchi, yarim yuklama kabi turlari mavjud bo'lib, bunday so'zlar ham mustaqil, ham nomustaqil ma'noga ega. Masalan, *Ishning boshida Abdurahim turar edi*.

O'zbek tilida *juda, eng, bag'oyat, nihoyatda, o'ta, sal, bir muncha* kabi ravishlar ham, *olmoq, bermoq, qolmoq, o'tirmoq, chiqmoq, ketmoq, boshlamoq, bo'lmoq* kabi 40 dan ortiq fe'llar ham keng qo'llaniladi. Harakat tarzi shakllarini hosil qiluvchi ko'makchi fe'llar aslida lug'aviy ma'noli fe'llar bo'lib, ko'makchi fe'lga aylanganda, sof grammatik ma'no ifodalaydi. Harakat tarzi shakllari sintetik-analitik shakllardir. Masalan, *o'qib chiqdi, yoza boshladi, qo'rqib ketdi* so'zshakllari ravishdosh shakli va ko'makchi fe'ldan tashkil topganligi sababli sintetik-analitik shakl hisoblanadi.

So'z tartibi grammatik ma'no ifodalashning maxsus vositasi bo'lib, tartib o'zgarishi so'z grammatik ma'nosining o'zgarishiga olib keladi. Masalan, *Dalalar yam-yashil* birikuvi gap bo'lsa, *yam-yashil dalalar* birikuvi so'z birikmasidir. «gap» va «so'z birikmasi» grammatik ma'noning sintaktik turidir. Grammatik ma'no ifodalashda so'z tartibiga ohang hamrohlik qiladi. Ya'ni yuqoridagi gap va so'z birikmasida tartib o'zgarishi bilan ularning ohangi ham o'zgarib ketgan (so'z birikmasida tugallanmagan, gapda esa tugallangan ohang mavjud).

Ohang grammatik ma'no ifodalashning fonetik vositasidir. Bu vosita yordamida gapning turlarini, gap bo'laklarini ajratish, farqlash mumkin. *Gulnora, singlim keldi. Gulnora, singlim keldi. Gulnora singlim keldi* gaplarining birinchisida *Gulnora* va *singlim* so'zlari uyushiq bo'laklar vazifasida, ikkinchi gapda *Gulnora* so'zi undalma, *singlim* so'zi ega, uchinchi *Gulnora* so'zi aniqlovchi, *singlim* so'zi izohlanmish-ega vazifasida kelgan. Gaplarni tashkil etuvchilardagi bunday farqlar so'zlovchining maqsadiga muvofiq tarzidagi ohang yordamida yuzaga chiqmoqda.

Grammatik shakl va uning turlari. Grammatik ma'no ifodalovchi morfologik ko'rsatkich grammatik shakl deyiladi. Boshqa nofonologik birliklar kabi grammatik shakl uch tomon – shakl, ma'no va vazifaning yaxlit birligidan iborat. Grammatik shaklning moddiy tomoni *grammema* atamasi bilan ham yuritiladi.

Grammatik shakllar (resp. *grammatik ko'rsatkich, grammatik shakl, morfologik shakl, morfologik ko'rsatkich, morfologik vosita* atamaları bunda ma'nodosh terminlar sifatida qo'llanadi) tasnifi tilshunoslik, jumladan, o'rta va oliy ta'lim grammatik tizimining muhim tushunchalaridan biri bo'lganligi sababli, hamma davrning dolzarb mavzusi bo'lib kelgan. O'tgan davr mobaynida o'zbek tili grammatik ko'rsatkichlarining tasnifi yaratildi, ammo xulosalar avval arab, keyinchalik rus tili grammatik me'yorlariga asoslangan holda berib kelindi. O'zbek tilida grammatik ko'rsatkichlarga nisbatan forma hosil qiluvchilar deb qaralib, u ikkiga – so'z o'zgartiruvchi va shakl hosil qiluvchilarga bo'linardi. So'z o'zgartiruvchilar sifatida so'zlarni bir-biriga bog'lash vazifasini bajaruvchi egalik, kelishik va shaxs-son qo'shimchalari ajratilsa, shakl hosil qiluvchilarga so'z ma'nosiga biroz ta'sir etadigan, ammo yangi ma'noli so'z hosil qilmaydigan deb ta'riflanadigan ko'rsatkichlar kiritilardi. Diqqat qilinsa, bu qo'shimchalarning biri lug'aviy, ikkinchisi sintaktik vazifa bilan bog'liq.

So'z o'zgartiruvchi va *forma yasovchi* atamaları tilshunosligimizga ichki fleksiyaga asoslangan rus tili grammatik me'yorlari asosida kirib kelgan bo'lib, o'zbek tilining turkona tabiatini yoritib bermas, tanlangan atama va tushuncha o'rtasida nomuvofiqlik mavjud edi. Aniqrog'i, so'z o'zgartiruvchi va shakl yasovchi sifatida ajratilgan morfologik shakllar o'zbek tilida so'zning shakliga hech qanday o'zgartirish kiritmaydi va yasash darajasida ta'sir etmaydi. Bu shakllarning biri so'z lug'aviy ma'nosiga biroz ta'sir

etishi bilan, ikkinchisi so'zlarga sintaktik imkoniyat (bog'lash, biriktiruvchanlik, muayyan sintaktik vazifa berish) bilan xarakterlanadi.

Bugungi kunda o'zbek tilining haqiqiy talqinini berish, o'zbek milliy tilshunosligini yaratish, uni boshqa til me'yorlari asosida qoliplashtirish asoratidan xalos qilish imkoni tug'ildi. Bu imkoniyat, avvalo, morfologik ko'rsatkichlarning asl tasnifini berishda qo'l keldi. Tilshunosligimiz o'zbek tilining turkona agglyutinativ tabiati va ontologik shakl yasash xususiyatlariga tayangan holda grammatik ko'rsatkichlarning yangicha tasnifini yaratdi. Natijada grammatik shakllarga nisbatan *lug'aviy shakl hosil qiluvchilar* va *sintaktik shakl hosil qiluvchilar* deb nomlangan yangi atama va tushunchalar kirib keldi.

Xo'sh, *lug'aviy shakl* tushunchasi nima va uning *an'anaviy shakl hosil qiluvchi* tushunchasidan farqi nimada?

So'z shakli tushunchasi o'zbek tilshunosligiga XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kirib kela boshladi. Bunda Evropa tilshunosligi va o'zbek (sart, chig'atoy) tili bo'yicha evropaliklar tomonidan yaratilgan darsliklar turtki bo'ldi. Arab tilshunosligi ichki fleksiyaga ega arab tili qoidalari asosida ish tutganligi sababli bu asosda turkiy tillarning agglyutinativ tabiatini to'g'ri baholab bo'lmas, va mavjud darsliklarda so'zning o'zagiga qo'shilib keladigan qo'shimchalar (ular arab tilidagi yuklamalar – harflarga o'xshash bo'lganligi sababli) *harflar* deb baholanar edi. Buni Mahmud Koshg'ariy, Mirzo Mahdixon tadqiqotlarida ham kuzatish mumkin.

So'zshakllari va ularning paradigmatlarini ajratish o'zbek tilshunosligida E.D.Polivanov asarlari va A.Fitratning «Sarf» va «Nahv» darsliklaridan so'ng ommalasha boshladi. Bu davrda so'z shakli deganda o'zakka qo'shilib, kelgan har qanday qo'shimcha tushunilib, *kitoblar* ham, *kitobim* ham, *yozdik* ham, *yozdi* ham so'z shakli deb talqin qilinar edi. O'tgan asrning 40-yillaridan keyin o'zbek tilshunosligiga F.F.Fortunatov asos solgan Moskva lingvistik maktabining *forma yasash* va *so'z o'zgartirish* atamaları bir-biridan farqlangan holda kirib keldi. Forma yasovchilar deganda yangi so'z hosil qilmaydigan, ma'noni keskin o'zgartirmaydigan, balki har xil ma'noviy bo'yoq beradigan, aniqrog'i, so'zni nutqqa xoslaydigan, moslaydigan qo'shimchalar tushunildi. So'z o'zgartiruvchilar deganda so'zlarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan qo'shimchalar tushunilib, forma yasovchilar ham, so'z o'zgartiruvchilar ham faqat bir turkum doirasida bo'lishi ta'kidlandi.

O'zbek tilida morfologik ko'rsatkichlarning yangicha talqini akademgrammatikalardagi ta'riflarga tayanadi, biroq tasniflardagi ayrim chalkashliklarga oydinlik kiritadi.

Ma'lumki, flektiv tillarda *okonchanie* mavjud bo'lib, u so'zning ma'lum bir shakliga qo'shiladi. So'z o'zgartiruvchi sifatida faqat *okonchanie* tanlanadi, undan boshqa qo'shimchalar forma yasovchilar sirasiga kiritiladi. Masalan:

<i>Oni uznali</i>	<i>Ona uznala</i>
<i>Oni uznavali</i>	<i>Ona uznavala</i>

Bu ikki fe'lda *-l* o'tgan zamon formasini yasaydi, *-i*, *-a* okonchanielari esa bu formalarni son va rodlarda o'zgartiradi. O'zbek tiliga *okonchanie* xos emas, shuningdek, so'zga rus tili uchun me'yoriy bo'lgan va *osnova* deb ataladigan *okonchaniesiz* qism ham ahamiyatsiz. Shu sababli forma yasalishi va so'z o'zgartirishni ajratishga keskin zarurat yo'q. O'zbek tilida ham o'zakka qo'shimchalarni so'z yasovchi va so'zning ayrim shakllarini yasovchilarga ajratish xosdir. So'zning ayrim shakllarini yasovchilar esa *lug'aviy shakl hosil qiluvchilar* va *sintaktik shakl hosil qiluvchilarga* bo'linadi.

Lug'aviy shakl hosil qiluvchilar so'z ma'nosini qisman o'zgartiruvchi, muayyanlashtiruvchi qo'shimchalardir. Masalan, *kitob* so'zida birlik ma'nosi ham (*Bu kitob qiziqarli*), ko'plik ma'nosi ham (*Do'konga kitob keldi*) mujassamlangan. Nutq sharoiti, matn *kitob* so'zida birlik yoki ko'plik voqelanishini ajratib beradi. Shu so'zga *-lar* shakli qo'shilishi bilan u *kitob* so'zida birlik ma'nosini ko'plik ma'nosidan chegaralaydi, ya'ni lug'aviy ma'noni muayyanlashtiradi, toraytiradi. Lekin bevosita so'zlarni sintaktik aloqaga kiritish uchun xizmat qilmaydi. Lug'aviy shakl hosil qiluvchilar, asosan, to'rt yirik so'z turkumi – fe'l (nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, o'zgalovchi, sintetik va analitik harakat tarzi

shakllari), ot (son, kichraytirish-erkalash), sifat (daraja) va sonda (uning ma'no turini hosil qiluvchilar) mavjud bo'lib, ularning qo'llanilishi o'zi mansub so'z turkumi bilan chegaralanadi. Shu boisdan ular tasniflovchi, ya'ni so'zlarni tasniflash chog'ida bir turkumni boshqalaridan ajratuvchi shakllar deb yuritiladi.

Sintaktik (aloqa-munosabat) shakli hosil qiluvchilar so'z lug'aviy ma'nosiga ta'sir etmay, so'zlarni bir-biriga bog'lashga yoki ularga ma'lum bir sintaktik vazifa berishga xizmat qiladi. An'anaviy ta'riflardagidan farqli ravishda aloqa-munosabat shakllarining qo'llanilishi lug'aviy shakllardek bir so'z turkumi bilan chegaralanmaydi, ya'ni bu shakllar istalgan mustaqil so'zga qo'shilib, uni o'zidan keyingi yoki oldingi so'z bilan sintaktik aloqaga kiritadi. Kelishik, egalik, kesimlik shakllari shunday grammatik vositalardir.

O'zbek tilida shunday shakllar borki, ular bir tomondan so'zning lug'aviy ma'nosiga ta'sir etadi, ikkinchi tomondan, ularni sintaktik aloqaga kiritadi. O'zgalovchi kategoriya shakllari shunday ikkiyoqlama mohiyatga ega. Masalan, *shoshilib gapirmoq* birikmasida *-ib* ravishdosh shakli *shoshil* so'zining lug'aviy ma'nosiga ta'sir etgan, ya'ni unga ravishlik ma'nosiga yaqin ma'no bergan, shu bilan birgalikda, bu so'zni keyingi so'zga bog'lash vazifasini ham bajarimoqda. Shuning uchun o'zgalovchi kategoriya shakllari lug'aviy shakl hosil qiluvchilar va sintaktik shakl hosil qiluvchilar orasida oraliq vaziyatni egallab, *lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi* atamasi bilan nomlanadi.

Grammatik shakllarning tuzilishiga ko'ra turlari. Grammatik shakllarning tuzilishiga ko'ra turlari bir qarashda ularning sintetik va analitik turlarining yangicha nomlanishiga o'xshaydi. Biroq sintetik shakllarning o'zi sodda yoki murakkab bo'lishi mumkin. Masalan, *uydagi, ko'chadagi* so'zshakllaridagi sintetik grammatik shakl (*-dagi*) murakkab shaklga misoldir (*-da+gi*).

Grammatik shakl tuzilishiga ko'ra sodda yoki murakkab bo'lishi mumkin. Sodda shakl bir grammatik ko'rsatkichdan iborat bo'ladi. Kelishik, egalik shakllari bunga misoldir. Sintetik shakl-larning ayrimlari va sintetik-analitik shakllarning barchasi murakkab shakldir.

Shakllarning so'zga qo'shilish tartibi. Affikslarning so'z tarkibidagi tartibi ma'lum qonuniyatlarga ega bo'lib, bu hodisa ularning turi bilan bog'liq: so'z yasovchi, lug'aviy shakl hosil qiluvchi va sintaktik shakl hosil qiluvchilar so'zdagi o'rni bilan farqlanadi.

Morfemalarning o'rinlashidagi tartib va izchillik ularning ma'no-grammatik xususiyatlari bilan bog'liq ekan, so'zning lug'aviy ma'nosini hosil qiluvchi affikslar birinchi, lug'aviy ma'noga ta'sir qiluvchi affikslar ikkinchi va lug'aviy ma'noga ta'sir qilmaydigan affikslar uchinchi bo'lib qo'shiladi.

Qo'shimchalarning o'rinlashuvidagi me'yoriy holat ba'zan istisno ko'rinishlar ham kasb etadi (*opalar-im - opa-m-lar, ayt-di-ng-lar - ayt - di -lar - ing* kabi). Bu kam uchraydigan hodisa bo'lsa-da, unda grammatik, uslubiy va dialektal asoslar mavjud.

«O'zak+so'z yasovchi affiks+lug'aviy shakl hosil qiluvchilar+cintaktik shakl hosil qiluvchilar» qolipidagi qoida bundagi turlarning o'zaro munosabati, har bir turning o'z ichidagi morfemalarning tartibi jihatidan bir qancha xususiyatlarga ega. Biz quyida faqat shakl hosil qiluvchilar doirasida fikr yuritimiz.

Lug'aviy shakl hosil qiluvchilarning odatdagi tartibi:

a) otlarda: subyektiv baho+son. Subyektiv baho shakl-larining kam qo'llanadiganlari ko'p qo'llanadiganlaridan avval keladi: umuman, «tirik» affikslar «o'lik» affikslardan keyin keladi (*toychoqcha, taylovcha*);

b) sifatlarda *-roq* affiksi *-ish, -imtir* affikslaridan, shuningdek, ravishdosh sifatdoshlarga qo'shilganda ham ularni hosil qiluvchi affikslardan keyin qo'shiladi (*oqishroq, ko'kimtirroq, sovinqiraganroq, tortinibroq* kabi);

v) sonlarda: taxmin bildiradigan *-cha* affiksi «dona» ma'nosini ifodalovchi *-ta* (urg'usiz) unsuridan keyin keladi (*o'ntacha* kabi);

g) olmoshlarda: gumon bildiruvchi *-dir* (ur-usiz) unsuri (*kimdir, nimadir*), umuman, yuklama xarakterida bo'lib, hamma turdagi affikslardan keyin qo'shiladi: *nima-lar-ni-dir...*;

d) fe'llarda: fe'ning daraja affikslari boshqa daraja ko'rsatkichlaridan keyin keladi: *ko'r-in, ko'r-il-di, ko'r-ish-di, yuv-in-tir*; lekin o'zlikdan boshqa nisbatlarning ko'rsatkichlari orttirma nisbat affiksidan keyin qo'shiladi: *tarqa-til-di, yugur-tir-ish-di, tik-tir-ish-di*); fe'ning tarz affikslari va kuchaytiruvchilari (*chayqa, bura, to'zg'i*); bo'lishsizlik affiksi (*urintirma, chayqatma*); zamon affikslari; shart mayli affiksi va buyruq maylining kuchay-tiruvchilari (*bordi, boradi, borsa, boray, borgin/borgil*), fe'ning o'zgalovchi shaklini hosil qiluvchi affikslar (*bormoq, borgan, borib* va boshqalar).

Sintaktik shakllarning tartibi:

a) nokesimlik shakllari: egalik affiksi+kelishik qo'shim-chasi (bolamni, o'qiganimni);

b) kesimlik shakllari: tasdiq/inkor+zamon/mayl+shaxs+ son.

Hamma turdagi affikslardan keyin affiks tipidagi yukla-malar qo'shiladi.

Qo'shimchalarga qo'shilishidagi istisnolar:

a) semantik boshqalik talabi bilan bog'liq bo'ladi;

b) til hodisalarining davrlarga ko'ra o'zgarishi (tarix), dialektal farq va o'zgarish xususiyati, poetik talab bilan bog'liq bo'ladi. Misollar: *Bilurlarerd* (Qutb) –bilar edilar, *qilmag'aylarsiz* («Bobirnoma») – qilmag'aysizlar, *solurlarerd* quloq –quloq solurerdilar.

Bunday tartib o'zgarishlari o'zida nozik ma'noviy farqlarni aks ettiradi.

Shakllarda pleonazm va tejamkorlik. Bir so'zda ma'no-lari bir xil yoki yaqin bo'lgan qo'shimchalarning takrorlanishi (ikki, ba'zan uch) *affiksal pleonazm* deyiladi. Pleonazm affikslarda bir necha ko'rinishlarga ega. Masalan, bir affiksning aynan o'zi yoki tashqi shakli xar xil bo'lgan - ma'nodosh affikslar takror-lanadi: takrorlangan bu affikslar a) zich, ketma-ket holda (ayting+iz+lar) ham; b) ajralgan holda ham bo'lishi (ish+da +lig+im+da) mumkin.

Affiksal pleonazm har xil sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin. Bir affiks o'zak bilan juda ham zichlashib, o'zakning tarkibiga singib ketadi, bunda o'zak o'z mustaqqilligidan mahrum bo'ladi, natijada so'zga shu qo'shimchaning ma'nodoshlaridan biri qo'shilishi mumkin, qo'shimcha arxaiklashib, undan keyin tildagi iste'molda bo'lgan qo'shimcha qo'shiladi (*ichkariga, tashqariga, nariga, beriga, barisi* kabi). Takrorlanyotgan sinonim affikslarning barchasi «tirik» bo'lsa, ular ta'kid, kuchaytirish kabi uslubiy vazifalarni o'z zimmasiga oladi (*sizlar aytingizlar* kabi). Boshqa tildan kirgan affikslar tushunarli va keng iste'molli bo'lmaganda ham uning tilimizdagi ma'nodoshi qo'llanadi (yor+on+lar kabi). Qo'shimcha qo'shilishi natijasidagi tovush o'zgarishlari ham ma'nodosh affikslarning qo'shilishiga sabab bo'ladi: *yarmisi, kichkinagina, unisi, anavinisi, qaysinisi, singlisi, toychoqcha* kabi.

Pleonazm aksariyat hollarda til evolyutsiyasi bilan bog'liq hodisadir. Bunga o'zbek tilining akademgrammatikasida ayrim izohlar berilgan: 1. Ot va sifat yasovchi –lik affiksi farqlanib, vazifasi ajralishishi (*-li* sifat yasaydi, *-lik* ot yasaydi) natijasida ular ketma-ket qo'llanadigan bo'lgan: *aqllilik, ifodalilik, bilimlilik*. 2. Og'zaki so'zlashuv nutqida ba'zan uchrab qoladigan mashshoqchi, xodimchi kabi so'zlarda «bajaruvchi» ma'nosi ikki marta ifodalangan: ichki fleksiya (arab tilida *mashshoq* –mashq qiluvchi shaxs, xodim – xizmat qiladigan shaxs) va *-cha* affiksi orqali. 3. Bir xil ma'nodogi ikki affiks qo'shma affiks maqomini oladi: *yog'ingarchilik, namgarchilik, rasvogarchilik* kabi. 4. Kelishik va egalik affikslarining ikki marta ifodalanishi (kitobni uch *so'mdanga* oldi, romanning *so'zboshisi*) ham pleonazmning o'ziga xos ko'rinishidir. 5. Bir qo'shimchaning o'zi takrorlanganda, ko'pincha ular morfema fonetik variantlarining qator kelishi tusida bo'ladi (fonetik, uslubiy qulaylik): *qistalang* (*-ta, -la*), *shoshilinch* (*-l, -n*), *tiqilinch* (*-l, -n*) kabi. 6. Bir ma'nodogi ikki affiksning ketma-ket qo'llanishi analogiya natijasida tug'ilishi ham mumkin. Masalan, *biri - birisi, yig'loq- yig'loqi, sayroq- sayroqi, o'ynoq-o'ynoqi*.

Tejamkorlik plenonazmning ziddidir. Tildagi tejamkorlik tamoyili so'zlovchi (indiv)ning ruhiy, psixofiziologik quvvatini til birliklarini qisqartirish, tushirib qoldirish orqali tejash, kommunikatsiyaga ketadigan vaqtni kamaytirish, tildagi ortiqchalikni bartaraf etish ehtiyojlaridan kelib chiqib, zohir bo'ladigan umumtil tendensiyasidir. *Op keling* (olib keling), *buyam* (bu ham), *qong* (qoling) kabi

hodisalar bunga misol bo'ladi. Tejamkorlikning fonetik, morfologik ko'rinishlari mavjud. Morfologik tejam asosida fonetik tejam yotadi. *Yirik-irik, yigit-igit, yiroq-iroq* qisqaruvlari fonetik tejamga misol. *Olib ber-ober, bizim-bizning, sizing- sizning* kabilar morfologik qisqaruvga misoldir. *Olib ber-ober, bizim-bizning, sizing- sizning* tejalishlari nutqiy qisqaruvdir.

Tejam o'z maqomiga ko'ra yo lisoniy, yo nutqiy bo'lishi mumkin. Masalan, jo'nalish kelishigi shakli dastlab *-qaru* ko'rinishida bo'lgan, bugungi kunda u qisqarib, *-ga* shakliga kelib qolgan. Bu tejamning lisoniylashuvidir. *Olib ber-ober, bizim-bizning, sizing-sizning* tejalishlari nutqiy qisqaruvdir. Chunki, masalan, *sizing* so'zshaklidagi *-ing* lisonda *-ning* shaklida yashaydi. Tilshunoslikda faqat nutqiy qisqaruvlarnigina tejam sifatida tan olishga moyillik kuchli.

Tejam o'z mohiyatiga ko'ra nutqiy aloqani osonlash-tirishga xizmat qiladi, biroq axborot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Grammatik kategoriya. *Kategoriya* atamasi tilshunoslik-ka falsafadan kirib kelgan termindir. U falsafada «obyektiv borliq va bilishdagi mohiyatan ko'proq qonuniy aloqa va munosabatlarni aks ettiruvchi umumiy tushuncha» tarzida ta'riflanadi. Falsafada ham, tilshunoslikda ham kategoriya bir xil narsani ataydi, ya'ni kategoriya uchun juftlik va yakka xos bo'lishi shart. Falsafada juftlikni sabab-natija, mohiyat-hodisa, butun qism, yakka xos borliq, miqdor, makon tashkil etsa, tilshunoslikda *kategoriya* atamasi ostida zidlangan ikkilik (son kategoriyasi) yoki ko'plik (kelishik kategoriyasi) tushuniladi.

Bugungi tilshunosligimizda *grammatik kategoriya* atamasi ostida, asosan, morfologik kategoriyalarni tan olish ustuvorlik qiladi. Umuman, sintaktik kategoriyalar ham grammatik kategoriya sifatida qaralsa-da, xususiy hollarda, ya'ni sintaktik tekshirishlarda *kategoriya* tushunchasi e'tiborga molik ahamiyat kasb etmaydi. Bunga qo'shib bo'lmaydi.

Butun uchun qismlar va ular orasidagi munosabat, sistema uchun element va ularni birlashtiruvchi aloqalar shart va zarur bo'lganligi kabi grammatik kategoriya (qisq.GK) uchun ham (biz ayni paytda morfologik hodisalar haqida so'z yuritayotganimiz tufayli *grammatik kategoriya* atamasi ostida morfologik kate-goriyalarni nazarda tutamiz) aloqa va aloqada turuvchi birliklar zarur. Muayyan zotiy ma'no umumiylik ostida birlashgan va o'zaro zotiy ma'noning parchalanishi, xususiylashuvi asosida zidlanadigan shakllar sistemasi GK hisoblanadi. GK grammatik shakllarning oddiy arifmetik yig'indisi emas, balki ma'lum bir turdagi shakllarning zotiy ma'no asosidagi barqaror munosabatlari tizmasidan iborat bo'lgan yangi bir butunlikdir. Bunda umumiylik va farqlar *z o t i y m a ' n o* asosida bo'lishi lozim. Buni yorqin idrok etish uchun kelishik kategoriyasi va ravishdoshlarni *grammatik kategoriya* tushunchasiga munosabat nuqtayi nazaridan kuzatish etarli.

Ma'lumki, kelishiklarning zotiy mohiyati «oldingi mustaqil so'zni keyingi mustaqil so'zga tobelab bog'lash»dir. Bu zotiy mohiyat faqat ana shu morfologik ko'rsatkichlar tizimiga xosdir. Har bir kelishik ushbu zotiy ma'noni o'ziga xos tarzda xususiylashtirib, bu xususiylashmasi bilan bir-biriga zidlanadi. Masalan, qaratqich kelishigi «oldingi ismni keyingi ismga», tushum kelishigi «oldingi ismni keyingi fe'lga» xususiylashmasiga ega. Bu xususiylashmalar zotiy ma'noning parchalanishlari bo'lish bilan birga mazkur kelishiklarning farqlovchi belgilari hamdir. Demak, har bir kelishikka xos «parcha» kelishik zotiy mohiyati-ning xususiylashmasi, zidlanish esa ana shu parchalar asosida. Ravishdosh shakllari esa «fe'lni fe'lga bog'lash» ma'nosiga ega. Biroq ravishdosh shakllariaro farqlar o'zga kategoriyalar ma'no-larining ushbu shakllardagi tajallilari evazigadir. Masalan, *-gani* ravishdosh shaklidagi «maqsad» ma'nosi mayl kategoriyasining ushbu shakldagi tajallisidir, yoki *-gach* shaklidagi «payt» ma'nosi zamon kategoriyasi ma'nosining mazkur ko'rsatkichdagi tajallisi-dir. Agar shakllari «fe'lni fe'lga bog'lash» ma'nosining parchala-nishi asosida zidlansa edi, ravishdoshni alohida kategoriya sifatida baholash lozim bo'lur edi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, grammatik kategoriya va unga mansub grammatik shakl o'zaro pog'onali, butun-bo'lak munosabatlarida bo'ladi. Bu esa biror grammatik shaklning qaysi-dir grammatik kategoriyaga mansub bo'lmasligi mumkin emasligi-ni ko'rsatadi. To'g'ri, ayrim kategoriyalarda moddiy

ifodali grammatik shakl bitta bo'ladi. Moddiy ko'rsatkichi bitta bo'lgan kategoriyalarda muayyan morfologik formani yasovchi asosning o'zi nol ko'rsatkichli bo'lib, ikkinchi morfologik shaklni tashkil qiladi. Masalan, otning son kategoriyasida shunday holni ko'ramiz. Bunda birlik son nol shaklli grammatik ko'rsatkich bo'lib, u ushbu shakliy va shunga muvofiq ma'noviy mohiyati bilan *-lar* shakliga ziddiyatda turadi. Sifatlardagi oddiy va qiyosiy daraja shakllari ham fikrimizni dalillaydi.

Darsliklar va akademgrammatikalarda *-niki, -dagi, -dek, -gacha* birliklarini goh nokategorial shakl yasovchi, goh so'z yasovchi sifatida qarash hollari uchrab turadi. Agar ular grammatik shakl bo'lsa, ularning ziddi ham nol shaklli birliklar bo'lib, birgalikda grammatik kategoriyalarni tashkil etadi. Bu tilshunosli-gimizda nol shakl bilan bog'liq o'rganilishi lozim bo'lgan muammodir.

Demak, nokategorial grammatik shakl bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun grammatik shakllarni kategorial va nokategorial kabi turlarga ajratish va zid qo'yish ilmiy asosli emas. Shunday qilib grammatik kategoriyaga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Bir umumiy grammatik ma'no tagida birlashuvchi, shu asosda bir-birini taqozo va bu umumiy ma'noning parchalanishi asosida inkor qiluvchi shakllar tizimi grammatik kategoriya deyiladi.

O'zbek tilshunosligida tilimizdagi quyidagi GKlar mavjudligi tan olinadi:

Nisbat kategoriyasi.

O'zgalovchi kategoriyasi.

Harakat tarzi kategoriyasi.

Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi.

Son kategoriyasi.

Daraja kategoriyasi.

Kelishik kategoriyasi.

Egalik kategoriyasi.

Kesimlik kategoriyasi.

GKlar ham serqirra mohiyatli lisoniy hodisalar bo'lganligi sababli turli tomondan tasnif qilinadi. Ulardan ayrimlarini keltiramiz:

1. Kategoriya shakllarining ma'noviy tarkibiga ko'ra.

2. Morfologik kategoriya (MK)larning so'z turkumlari yoki gap bo'laklariga xosligiga ko'ra.

3. MK sintaktik qobiliyatining yo'nalishiga ko'ra.

Birinchi tasnifga muvofiq, GKlar sodda va murakkab kategoriyalarga bo'linadi. Nisbat, son sodda kategoriyalar sifatida qaraladi. Chunki ularda ma'no sodda bo'lib, ularda faqat o'zlariga tegishli bo'lgan ma'nolarni ajratamiz. Chunonchi, son kategori-yasining ma'nosi miqdoriy va sifatiy belgilarning ma'lum yig'in-disidan iborat bo'lsa, kelishik kategoriyasi tobelikni ifodalaydi. Daraja kategoriyasi belgining qiyosan ekanligini ko'rsatsa, nisbat kategoriyasi fe'l anglatgan bajaruvchining miqdor va sifat jihatdan tavsifini beradi. Bu soddalik, albatta, nisbiydir. Chunki grammatik ma'no tarkibi kategorial, yondosh va hamroh ma'nolardan iboratligi bunday hukm chiqarishga yo'l bermaydi. Biroq bu kategoriyalarda mavjud ma'nolardagi yondosh va hamroh ma'nolar boshqa bir morfologik kategoriyaga emas, balki umuman boshqa qaysidir sathga tegishlidir.

Murakkab kategoriyalar shakllarida ma'no murakkab bo'lib, ularda boshqa kategoriyalarga mansub ma'nolar ham mujassamlashgan bo'ladi. Egalik, o'zgalovchi, harakat tarzi, kesimlik ana shunday GKlardandir. Masalan, egalik kategoriyasida uch xil ma'no mujassamlashgan bo'ladi:

a) lisoniy (so'zlarni bir-biriga bog'lash) va nolisoniy (borliqdagi bir narsa/shaxsning ikkinchi bir narsa/shaxsga mansubligi) munosabatni ifodalash;

b) shaxs ma'nosi (egalik kategoriyasi uchun nokategorial, ya'ni yondosh);

v) son ma'nosi (egalik kategoriyasi uchun nokategorial, ya'ni yondosh).

Kesimlik kategoriyasi ham murakkab bo'lib, unda tasdiq/inkor, mayl-zamon, shaxs-son va zamon ma'nolari birlashgan va ular bitta qo'shimchada yoki bir necha qo'shimchada yuzaga chiqadi. Masalan,

olmani ol gapida *ol* so'zshakli tasdiq, buyruq mayli, ikkinchi shaxs, birlik son va hozirgi zamon ma'nolarini voqelantirib kelmoqda va bular nol shakl bilan ifodalanmoqda. *Kitobni olmadingiz* gapida inkor ma'nosi *-ma* qo'shimchasi bilan, mayl va zamon ma'nosi *-di* shakli bilan, ko'plik ma'nosi *-iz* shakli bilan ifodalanmoqda.

O'zgalovchi kategoriyasi ham murakkab bo'lib, unda ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi shakllari ma'nolari yondosh ma'nolar sifatida bir butunlikni tashkil etadi.

So'z turkumlari yoki gap bo'laklariga xosligi jihatidan MKlar ikkiga bo'linadi: leksik-morfologik va funksional-morfo-logik kategoriyalar. Leksik-morfologik kategoriyalar so'zlarning ayrim guruhlariga, ya'ni trkumlarga xos bo'lib, ular sirasiga nisbat, harakat tarzi, bo'lishli-bo'lishsizlik, o'zgalovchi, son, subyektiv munosabat, qiyoslash, daraja kategoriyalari kiradi. Kelishik, egalik, kesimlik funksional-morfologik kategoriyalardir. Chunki kesimlik kategoriyasi kesim vazifasida keluvchi barcha so'zlarga xos. Kelishik kategoriyasi so'z birikmasidagi tobe uzv vazifasida keluvchi so'zlarni shakllantirsa, egalik kategoriyasi qaratuvchili birikmalardagi hokim a'zoni shakllantiruvchi grammatik kate-goriyadir. An'anaviy o'zbek tilshunosligida kelishik va egalik kategoriyasining ot turkumiga, shaxs-son kategoriyasining fe'lga xosligi uqtirilar edi. Bu ham, albatta, asossiz emas. Chunki kelishik va egalik kategoriyasi ko'rsatkichlari ko'p hollarda otlarni shakllantirsa, kesim vazifasida kelishga asosan fe'llar xoslangan. Fe'l fe'l bo'lganligi uchun emas, balki kesim vazifasida kelganligi uchun tuslanadi. Ot esa ot bo'lganligi uchun emas, balki tobe a'zo vazifasida kelganligi uchun turlanadi. Chunki so'zlarning turkum-larga ajralishidagi dastlabki asos ularning sintaktik vazifasidir. «Avvalo gap bo'laklari farqlangan va, shunga muvofiq, so'z turkumlari ajratilgan» (I.I.Meshchaninov). Demak, kelishik va egalik kategoriyasini faqat otga, kesimlik kategoriyasini faqat fe'lga bog'lab qo'yish ularning imkoniyatlarini sun'iy ravishda toraytirib ko'rishdir.

MKlar sintaktik qobiliyatlarining yo'nalishlariga ko'ra tasnifida «birin-ketinlik», ya'ni grammatik kategoriyalar sintaktik qobiliyatlarining «oldingisi bilan» va «keyingisi bilan» sifatida belgilanishi nazarda tutiladi. Masalan, *kitobning* so'zshaklidagi *-ning* o'zidan keyin egalik shaklini olgan ot kelishi shartligini, *kitobi* so'zidagi *-i* bu so'zshakldan oldin qandaydir qaratqich aniqlovchi bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. O'zbek tilida egalik, nisbat, o'zgalovchi, kesimlik, qiyoslash, son kategoriyalari so'zshaklning «oldingisi bilan» aloqalarini ko'rsatsa, kelishik va o'zgalovchi kategoriyasining ravishdosh va sifatdosh shakllari so'zshaklning «keyingisi bilan» aloqasini ifodalaydi. O'zgalovchi kategoriyasining harakat nomi shakli hamda subyektiv baho kategoriyasi bu jihatdan mo'tadildir.

Asosiy adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Hozirgi o'zbek tili. Morfemika. Derivatsiya. Morfologiya. II qism. Qarshi-2005.
2. Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek tili. Morfologiya, 1-qism. Mustaqil so'z turkumlari. (Ma'ruza matnlari). Buxoro-2003.
3. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh. va boshqalar. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya.-T.: Yangi asr avlodi. 2001.- 182 b.
4. O'zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. Max.muh. G'.A.Abdurahmonov va boshq. T.: Fan, 1972.-610 b.
5. Zamonaviy o'zbek tili: Morfologiya\ Mualliflar jamoasi. Max. muh. H.G'.Ne'matov va boshqalar. T. Mumtoz so'z, 2008.
6. Sayfullaeva R.R., Mehglyev B.R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'qv qo'llanma.-T., Fan va texnologiya,2009. -416.
7. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. -T.: O'qituvchi. 1995.-127 b.
8. Musulmanova N.R. Grammatik shakllarda kategorial, yuondosh va hamroh ma'no (zamon va mayl kategoriyalari misolida) Filol.fan.nomz...diss. -Toshkent, 2007.-116 b.

Yordamchi adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Morfologik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari: Filol. fan. nomz ... diss. Buxoro. 1995, - 144 b.
2. Nigmatov X.G. Funktsionalnaya morfologiya tyurkoyazchnx pamyatnikov XI-XII vv. -T.: Izd. Fan, 1989.-191 s.
3. Nigmatov X.G. Vkluychennoe tretye v morfologicheskoy sisteme tyurkskix yazkov// Sov.tyurkologiya. 1976. -№3. -S. 31-36.
4. Shahobiddinova Sh. Grammatik ma'no talqini haqida: Filol.fan.nomz... .diss. -Samarqand, 1993.- 152 b.
5. Bahridinova B.M. Fe'1 lug'aviy shakllari tizimi (tur kategoriyasi) Filol.fan.nomz...diss. - Samarqand, 2002.-146 b.
7. Shukurov O. Harakat tarzi shakllari paradigmasi. Filol. fan. nomz ... diss. Avt. Qarshi. 2005, - 22 b.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ma'noning turlari nechta, qaysilar?
2. Grammatik ma'no haqida ma'lumot bering.
3. Leksik ma'no nima?
4. Uslubiy ma'no-chi?
5. Kategorial, yondosh va hamroh ma'nolarning o'xshash va farqli jihatlarini ayting.
6. UGMni ochish yo'llari nimalardan iborat?
7. Grammatik ma'no ifodalash usullari haqida gapiring.
8. Grammatik shakllarning tuzilishiga ko'ra turlari nimalardan iborat?
9. Kategoriya va grammatik kategoriya atamalariga izoh bering.

DAVOMI: MORFOLOGIYA. MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARI

Reja:

1. So'z turkumlari va ularni tasniflash tamoyillari haqida.
2. So'zlarning semantik tasnifi.
3. So'zlarning morfologik tasnifi.
4. Leksemalarning sintaktik tasnifi.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar: mustaqil so'zlar, yordamchi so'zlar, ishora so'zlari, alohida so'zlar guruhi, o'zgaradigan va o'zgarmas so'zlar; mustaqil fe'llar, yordamchi fe'llar, harakat, holat, nutq, tafakkur fe'llari

Leksemalar ham serqirra mohiyatli lisoniy birliklar bo'lib, ularning tasnifida bu jihat asosiy diqqat markazda turishi lozim. Chunki leksemalarning har bir qirrasi alohida bir tasnifga asos bo'ladi. Ularning har biri o'z o'rnida ahamiyatlidir.

So'z turkumlarida leksika va grammatika, lison va nutq, til va borliq munosabatlari shunday qorishadiki, bu murakkab holat ularni tasniflashning jo'n hodisa emasligini ko'rsatadi.

So'z leksika uchun ham, grammatika uchun ham asosiy va zaruriy birlikdir. Modomiki, so'z turkumlari o'zida u yoki bu belgisiga ko'ra ajratilgan so'z guruhlari ekan, ularga ajratishga doir muammolarni leksika, morfologiya va sintaksis bilan shug'ul-lanuvchi tadqiqotchilar o'zlaricha hal etadilar. Bunday ilmiy bahslar, avvalo, turkumlarga ajratish mezonlari, ajratiluvchi guruhlar soni va ularning tarkibi masalasidir. Boshqacha aytganda, tilshunosligimizda asosiy e'tibor so'z turkumlari tasnifiga qaratilib, boshqa bir muhim masala – so'z turkumlarining o'zaro munosabati, ularning kesishuv nuqtalari, yaqinlashuvi va uzoqlashuvi ko'p hollarda nazardan chetda qoladi.

Soʻz turkumlari soni va tarkibini aniqlashda dunyo tilshunosligida boʻlgani kabi, oʻzbek tilshunosligida ham, soʻzlarning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini inobatga olish keng tarqalgan. Biroq amaliyotda soʻz turkumlarini ajratish, asosan, ularning semantik xossalari tayanish urfi boʻlgan. Ayrim tilshunoslar tasnifda maʼnoviy belgi bosh va yagona asos sifatida qaraladi. Baʼzilar esa mezon sifatida mazkur uch belgini tan olishganlari holda soʻzlarni maʼnoviy va sintaktik belgilari asosidagina guruhlashadi. Soʻz turkumlarining bir-biriga oʻtishi, leksik va leksik-grammatik omonimiya masalasi esa bunda har xil qarama-qarshilik va ikkilanishlar yuzaga kelishiga sabab boʻladi.

Soʻz guruhlariaro munosabatlarning ochilishi u yoki bu belgi asosida soʻz turkumlarining muayyan turlarini ajratishga, tasnifini berishga olib keladi. Shuning uchun mantiqiy qarama-qarshiliklardan qochish maqsadida formal mantiqning borliq hodisalarini tasniflashga qoʻyadigan asosiy talablaridan biri boʻlmish «tasnif faqat bir mezon asosida amalga oshirilishi lozim. Inchunun tasnifning ikki belgisini bir paytning oʻzida qoʻllab, ularni qorishtirmaslik kerak» degan qoidaga qatʼiy rioya qilish lozim.

Shunday qilib, soʻzlar semantik, morfologik va sintaktik belgisi asosida tasnif qilinishi maqsadga muvofiqdir. Bu uch belgi har bir soʻzda dialektik birlikni tashkil etadimi degan savol tugʻilishi tabiiy. Boshqacha aytganda, maʼlum bir semantikada maʼlum bir morfologik belgi va sintaktik xususiyat mujassam-lashganmi? Masalan, predmetni ifodalovchi soʻz (yaʼni predmetlik maʼnosi) son, kelishik, egalik maʼnolariga, shuningdek, subyekt, obyekt vazifalariga egami? Dalillar shuni koʻrsatadiki, ular subyekt, obyekt vazifalarida keladi. Shu bilan birgalikda, atributiv vazifada kelib, predmetning belgisini (*tilla uzuk, qum soat*), belgining belgisini (*tovushdan tez, yovdan xavfli*) bildiradi. Belgi maʼnoli soʻz egalik, kelishik affikslarini olishi, gapda subyekt, obyekt vazifalarida kelishi mumkin (*Olmaning qizili pishdi, gullarning oqidan terdi* kabi.)

Semantik-morfologik-sintaktik belgilar birligi asosida tasniflash tarafdorlari bunda yo omonimiya, yo substantizatsiya (otlashish) hodisasini koʻradilar. Chunki bu soʻzlarda belgi ham, predmetlik ham mushtarakdir.

Soʻzlarning bayon etilgan semantik xususiyatlari, yaʼni belgilik va predmetlik maʼnolarining birligi shuni koʻrsatadiki, soʻzlarning egalik, kelishik affikslari hamda maʼlum bir sintaktik vazifa bilan toʻgʻridan-toʻgʻri aloqasi yoʻq. Boshqacha aytganda, egalik, kelishik va, qolaversa, kesimlik affikslari, shuningdek, gapda maʼlum bir sintaktik vazifa bajarish biror soʻz turkumi uchun xususiylashmagan. Toʻgʻri, ayrim soʻzlar faqat predmetni bildirib, belgi ifodalamaydi (masalan, atoqli otlar), baʼzilar esa predmetga ishora qilmasdan, faqat belgi, miqdor (masalan, koʻp, oz, bir ikki) ifodalashi mumkin. Bu yuqorida fikrimizga monelik qila olmaydi. Chunki ular juda oz miqdorda boʻlib, «predmetlik va belgilik mushtarakligi maydoni»ning chekkasidan oʻrin oladi. Chegaradan oʻrin egallovchi bunday soʻzlar tasnifda, albatta, qiyinchilik tugʻdiradi. Shu boisdan ular sunʼiy ravishda u yoki bu turkumga kiritib yuboriladi. Holbuki, bunday birliklarning oʻrni ajratilayotgan soʻz turkumlarining sarhadlaridadir. Shu boisdan tilshunos L.V.Shcherba shunday yozadi: «Faqat guruhlar markazidagi birliklar aniqdir. Soʻz turkumlari chegarasidagi oraliq birliklar esa hamisha u yoq-bu yoqqa tebranib turadi. Biroq ana shu noaniq, xira va tebranib turuvchi holatlar tilshunosning diqqatini koʻproq oʻziga jalb etmogʻi lozim.»

Agar soʻzda semantik, morfologik va sintaktik belgi butunlikni tashkil etmas ekan, bunda ular tasnif asosi boʻlib xizmat qila olmaydi. Zero, ziddiyatsiz boʻlish faqat bir asosda amalga oshiriladi. Shuning uchun ayrim manbalarda, darslik va qoʻllanmalarda mualliflar soʻzlarni uch belgi birligi asosida tasnif qilishib, asosan, ulardan biriga etakchi, asosiy mezon sifatida tayanishadi, shu bilan birgalikda bir tasnifning oʻzida tasnif asosini bir necha marta almashtirishadi. Deylik, oʻzbek tilidagi soʻzlar tasnifida morfologik belgi etakchilik qiladi. Shu boisdan taqlidlar mustaqil soʻzlarning barcha belgilariga ega boʻlsa-da, morfologik oʻzgarmas soʻz boʻlganligi uchun nomustaqil soʻzlar sirasiga kiritib yuborilgan. Yoki gap boʻlamlari sintaktik belgi asosida tasnif etiladi, biroq qoʻshma gaplar boʻlinishida tasnif sintaktik belgi asosida boshlanib, semantik belgi bilan yakunlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qayd qilingan uch mezondan hammasi ham so'z guruhlarini belgilashda bir xil mavqega ega emas. Bu, avvalo, so'zlarning sintaktik vazifalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki biror bir sintaktik vazifani bajarish imkoniyati barcha mustaqil so'z turkumlarida mavjud. Bu vazifa so'z turkumlarini farqlash uchun emas, aksincha ularni tenglashtirish uchun xizmat qiladi. Sintaktik vazifa nuqtayi nazaridan mustaqil va yordamchi so'zlar ajraladi, xolos. Ammo bunda ham yordamchi so'z vazifasida qo'llanadigan otlar yoki fe'llar haqida gap ketganda chalkashliklar vujudga keladi. Nomustaqil so'zlarning ichki tasnifida ularning sintaktik vazifalarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, muayyan sintaktik munosabatni ifodalash ularning mohiyatini, kategorial ma'nosini tashkil etadi.

Morfologik tasnifda so'zlarning ikki muhim jihati e'tiborga olinadi: so'zlarning shakl yasalishiga potensial qobiliyati va muayyan grammatik kategorial ma'noning ifodalanishining ma'lum bir so'z guruhlari bilan bog'liqligi. Birinchi jihatga ko'ra, morfologik o'zgaruvchi so'zlar va morfologik o'zgarmas so'zlar farqlansa, ikkinchi jihatga ko'ra, so'zlarning morfologik guruhlari (so'z turkumlari) ajratiladi.

So'zlarning semantik tasnifi. Bunda so'zlar quyidagi guruhlarga ajraladi:

- a) mustaqil lug'aviy ma'noli so'zlar (fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid);
- b) nomustaqil lug'aviy ma'noli so'zlar (olmosh va so'z-gaplar);
- v) lug'aviy ma'nosiz so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama).

Olmoshlar anglatadigan ma'no u almashtirayotgan so'zlar-ning ma'nosidir. Shu boisdan u nomustaqil lug'aviy ma'noli so'zlar sifatida baholanishi lozim. So'z-gaplar (tasdiq-inkor, taklif, undov va modal so'zlar) esa hatto bir butun gap vazifasida ham kela oladi. Bu ularning lug'aviy ma'nosiz so'zlardan farqini ko'rsatadi, biroq kontekst yordamida lug'aviy ma'no anglatadi. Masalan, *-Uyga bor. – Mayli.* gapida *mayli* so'z-gapi *boraman* so'zi anglatgan lug'aviy ma'noga teng nutqiy ma'noga ega. Biroq bu ma'no mustaqil emas.

So'zlarning morfologik tasnifi. Bu tasnifga binoan, so'zlar, aytilganidek, ikki guruhga ajraladi:

- a) o'zgaruvchi leksemalar;
- b) o'zgarmas leksemalar.

O'zgaruvchi leksemalar grammatik shakllarni qabul qila oladi. O'zgarmas so'zlar esa bunday xususiyatga ega emas. Bu tasnifda so'zlarning o'rni quyidagicha:

Leksemalar	
O'zgaruvchilar	O'zgarmaslar
Fe'l	Ko'makchi
Ot	Bog'lovchi
Sifat	Yuklama
Son	Ravish
	Undov
	So'z-gap

O'zgaruvchi so'zlar uchun tasniflovchi grammatik shakllar mavjud. Masalan, otlarda son, subyektiv baho shakllari, fe'llarda nisbat, o'zgalovchi, harakat tarzi, sifatlarda daraja. O'zgarmas so'zlar bunday shakllarga ega emas.

Ushbu tasnifda olmoshlar va taqlidlarga o'rin berilmagan. Chunki olmoshlar o'zlari ishora qiluvchi barcha mustaqil so'z turkumlariga xos o'zgarish tizimiga ega. Shuning uchun olmoshlarni ot-olmoshlar, fe'l-olmoshlar, sifat-olmoshlar, son-olmoshlar kabi turlari mavjud. Ot-olmoshlar sonlanadi (son kategoriyasiga ega bo'ladi), fe'l-olmoshlar nisbatlanadi, tarzlanadi, o'zgalanadi, sifat-olmoshlar darajalanadi, son-olmoshlar son shakllarini qabul qiladi. Taqlidlarning esa o'ziga xos morfologik kategoriyasi yo'q. Biroq o'zgarmas so'zlar ham emas. Taqlidlarning morfologik kategoriyalarga ega

bo'lishi gapda ularning qanday bo'lak bo'lib kelishi bilan bog'liq. Chunki taqlidlarda leksemalarning hali ajralmagan davrdagi «embrion-diffuz» holati saqlanib qolgan.

Leksemalarning sintaktik tasnifi. Leksemalarning sintaktik tasnifida, asosan, ularning nutqda boshqa leksemalar bilan bog'lana olish-olmasligi, gap bo'lagi bo'lib kela olish-olmaslik xususiyati o'z aksini topadi.

Gap bo'lagi bo'lishga xoslanmagan so'zlar: undov, modal, so'z-gaplar.

Gap bo'lagi bo'lishga xoslangan so'zlar: fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlidlar, olmoshlar.

Sintaktik aloqa vositasi bo'lishga xoslangan so'zlar: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

So'z-gaplar boshqa so'zlar bilan sintaktik aloqaga kirish-maydi, o'zi mustaqil gap bo'lib kelish qobiliyatiga, ya'ni ajralish xossasiga ega. Mustaqil va yordamchi so'zlar esa bog'lanish xususiyatiga ega bo'lib, bulardan yordamchilar gapda alohida bo'lak bo'lib kela olmaydi, balki sintaktik jihatdan bog'lash vazifasini bajaradi. Mustaqil leksemalar esa mustaqil ravishda gap bo'lagi bo'lib kela oladi.

O'zbek tili leksemalarining semantik-morfologik-sintaktik belgilar majmuidan iborat serqirralik mohiyatini jadvalga quyidagicha solish mumkin (3-jadval).

3-jadval

Leksema turlari	Ma'noviy belgilari	Morfologik belgilari	Sintaktik belgilari	Ajralishning asosiy belgisi
Fe'l	Harakat holatni nomlash asosida atash mustaqil leksemalari	Nisbatlanuvchi, o'zgalanuvchi, tarzlanuvchi	Cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish	Morfologik va ma'noviy
Ot	Predmet va predmetlikni nomlash asosida atash mustaqil leksemalari	Sonlanuvchi	Cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish	Morfologik va ma'noviy
Sifat	Belgini nomlash asosida atash mustaqil leksemalari	Darajalanuvchi	Cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish	Morfologik va ma'noviy
Son	Miqdorni nomlash asosida atash mustaqil leksemalari	Tartiblanuvchi	Cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish	Morfologik va ma'noviy
Ravish	O'rin-payt, tarz-tusni nomlash asosida atash mustaqil leksemalari	O'zgarmaslik	Cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish	Morfologik va sintaktik
Taqlid	Tovush yoki ko'rinishga taqlid mustaqil leksemalari	O'zgarmaslik	Cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish	Ma'noviy
Olmosh	Ishora qiluvchi mustaqil leksemalar	O'zgaruvchi	Cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish	Ma'noviy

	Ko'makchi		O'zgarmaslik	So'zni so'zga bog'lovchi gap bo'lagi vazifasida kela olmaydigan so'zlar	Ma'noviy-cintaktik	
	Bog'lovchi		O'zgarmaslik	So'zni va gapni bog'lovchi gap bo'lagi vazifasida kela olmaydigan so'zlar	Sintaktik	
0	Yuklama		O'zgarmaslik	Gap bo'lagi vazifasida kela olmaydigan so'zlar	Ma'noviy	
1	So'z-gaplar	Modal	Munosabatni atash leksemalari	O'zgarmaslik	Ajraluvchilik (gap bo'laklari bilan munosabatga kirisha olmaslik)	Ma'noviy va sintaktik
		Undov	His-hayajonni tasvirlash leksemalari	O'zgarmaslik	Ajraluvchilik (gap bo'laklari bilan munosabatga kirisha olmaslik)	Ma'noviy va sintaktik
		Tasdiq va inkor so'zlar	Tasdiq-inkor ma'noli leksemalar	O'zgarmaslik	Ajraluvchilik (gap bo'laklari bilan munosabatga kirisha olmaslik)	Ma'noviy va sintaktik
		Taklif so'zlar	Taklif ma'noli leksemalar	O'zgarmaslik	Ajraluvchilik (gap bo'laklari bilan munosabatga kirisha olmaslik)	Ma'noviy va sintaktik

O'zbek tilida so'z turkumlari mazkur belgilari asosida yangicha quyidagi ko'rinishda tartiblanadi:

I. Mustaqil so'zlar.

1. Fe'l.
2. Ot.
3. Sifat.
4. Son.
5. Ravish.
6. Taqlid.
7. Olmosh.

II. YOrdamchi so'zlar.

8. Ko'makchi.
9. Bog'lovchi.
10. Yuklama.

III. Oraliq so'zlar.

11. So'z-gaplar.

Asosiy adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Hozirgi o'zbek tili. Morfemika. Derivatsiya. Morfologiya. II qism. Qarshi-2005.
2. Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek tili. Morfologiya, 1-qism. Mustaqil so'z turkumlari. (Ma'ruza matnlari). Buxoro-2003.
3. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh. va boshqalar. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya.-T.: Yangi asr avlodi. 2001.- 182 b.
4. O'zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. Max.muh. G'.A.Abdurahmonov va boshq. T.: Fan, 1972.-610 b.
5. Zamonaviy o'zbek tili: Morfologiya\ Mualliflar jamoasi. Max. muh. H.G'.Ne'matov va boshqalar. T. Mumtoz so'z, 2008.
6. Sayfullaeva R.R., Mehliyev B.R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'qv qo'llanma.-T., Fan va texnologiya,2009. -416.
7. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. -T.: O'qituvchi. 1995.-127 b.
8. Musulmanova N.R. Grammatik shakllarda kategorial, yuondosh va hamroh ma'no (zamon va mayl kategoriyalari misolida) Filol.fan.nomz...diss. -Toshkent, 2007.-116 b.

Yordamchi adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Morfologik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari: Filol. fan. nomz ... diss. Buxoro. 1995, - 144 b.
2. Nigmatov X.G. Funktsionalnaya morfologiya tyurkoyazchnx pamyatnikov XI-XII vv. -T.: Izd. Fan, 1989.-191 s.
3. Nigmatov X.G. Vkluychenoe tretye v morfologicheskoy sisteme tyurkskix yazkov// Sov.tyurkologiya. 1976. -№3. -S. 31-36.
4. Shahobiddinova Sh. Grammatik ma'no talqini haqida: Filol.fan.nomz... .diss. -Samarqand, 1993.- 152 b.
5. Bahridinova B.M. Fe'l lug'aviy shakllari tizimi (tur kategoriyasi) Filol.fan.nomz...diss. - Samarqand, 2002.-146 b.
7. Shukurov O. Harakat tarzi shakllari paradigmasi. Filol. fan. nomz ... diss. Avt. Qarshi. 2005, - 22 b.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. So'z turkumlariga umumiy ta'rif berishga harakat qiling.
2. So'z turkumlari va ularni tasniflash tamoyillari nimalardan iborat?
3. So'zlarning semantik tasnifi deganda nimani tushunasiz?
4. So'zlarning morfologik tasnifi deganda-chi?
5. Leksemalarning sintaktik tasnifiga izoh bering.
 1. Fe'l va kesimlik munosabati haqida gapiring.
 2. Fe'lning asosiy LMGlarga izoh bering.
 3. Fe'llarda so'zshakllarning turlari deganda nimani tushunasiz?
 4. Tafakkur fe'llariga misollar keltiring.
 5. Fe'l yasalishi tizimining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

9-MAVZU: FE'L SO'Z TURKUMI

Reja:

1. Fe'l va uning UGMsi.
2. Fe'lning asosiy LMGlari.

3. Fe'llarda so'zshakllarning turlari.
4. Fe'llarning yasalishi.

Fe'l va uning UGMsi. Fe'llarning umumiy grammatik ma'nosi ish-harakat va holatni jarayon sifatida ifodalashdir. Holat ifodalash boshqa so'z turkumlariga ham xosdir. Biroq fe'lda u bir holatdan ikkinchi holatga o'tish tarzida bo'ladi. Masalan, *Daraxtlar yam-yashil* gapida sifat kesim (*yam-yashil*) turg'un holatni ifodalamoqda. *Daraxtlar ko'kardi* gapida esa holat jarayon sifatida, bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tish tusida yuz bermoqda.

Ish-harakatning barchasi ham zamon bilan bog'liq holda yuz bersa-da, gapda ulardagi zamon ifodalanmasligi mumkin. *Daraxtlar ko'kardi* gapidagi fe'lda zamon lisoniy ifodasiga ega. *Ishga borish* gapidagi fe'lda esa bunday xususiyat lisoniy voqelanmagan.

O'zbek tilidagi fe'llar leksik-grammatik xususiyatiga ko'ra ikki asosiy guruhga ega:

- a) mustaqil fe'llar;
- b) nomustaqil fe'llar.

Mustaqil fe'llarga quyidagi xususiyatlar xos: 1) lug'aviy ma'no asosidagi harakatni ifodalaydi va shu boisdan gapda biror bo'lak vazifasida keladi; 2) biror so'zni boshqarib (*kitobni o'qidi*) yoki biror so'z tomonidan boshqarilib (*o'qilgan kitob*) keladi; 3) harakatning obyektga munosabatiga ko'ra ikkiga bo'linadi: a) o'timli fe'llar; b) o'timsiz fe'llar. O'timli fe'llar bildirgan harakat obyekt tushunchasi bilan bog'liq bo'ladi va bunda obyektni ifodalovchi birlik tushum kelishigidagi so'z bo'ladi: *ol, o'qi, boshqar*. O'timsiz fe'llar bunday xususiyatga ega bo'lmaydi: *yig'la, uxla, sevin*. O'timli-o'timsizlik fe'lining zotiy mohiyatida, lisoniy tabiatli bo'lishi ham, grammatik shakllar vositasida hosili qilinishi ham mumkin. Masalan, *uxla, yig'la, bor, ket, kel* fe'llarida o'timsizlik ma'nosi fe'lining o'zak-negizidan anglashiladi va u lisoniy tabiatlidir. *Yuvinoq, sevinmoq, burilmoq, qirilmoq* fe'llaridagi o'timlilik esa nutqiy bo'lib, grammatik vosita yordamida vujudga kelgan. (Bu haqda yana «Nisbat kategoriyasi» mavzusi ostida so'z yuritiladi); 4) fe'l ifodalagan harakat obyektiv borliq hodisasi bo'lib, uni tilda ifodalashda bevosita inson, so'zlovchi ishtirok etadi. Tilda ifodalangan harakatda, demak, inson munosabati ham mavjud bo'ladi. Bunday munosabat fe'l mayli deb yuritiladi; 5) harakat real yoki irreal bo'lishi ham mumkin. Bunga ko'ra bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar farqlanadi; 6) har qanday harakat bajaruvchi bilan ham bog'lanadi. Bajaruvchi aniq, noaniq, bitta yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Ish-harakatning bajaruvchiga munosabat nuqtayi nazaridan tavsifi fe'l nisbatlari deb yuritiladi; 7) harakat zamon bilan bog'lanishi mumkin. Mantiqan zamondan tashqaridagi harakat yo'q. Yuqorida tilga olingan *borish* fe'lida zamon bevosita ifodalanmagan. Lekin uni gap ichida olsak (*Ishga borish lozim*), uning kelasi zamonda yuz beradigan harakat ekanligi mantiqan anglashilib turadi. Demak, har qanday fe'lda yo grammatik, yo mantiqiy zamon anglashilib turadi. Modomiki, til qurilishini o'rganayotgan ekanmiz, biz uchun grammatik zamon ahamiyatlidir. Shu boisdan zamonli va zamonsiz fe'llarni farqlaymiz; 8) aytilganidek, borliqda harakat, albatta, bajaruvchi bilan bog'lanadi. Biroq uning tildagi ifodasida grammatik shaxs mavjud bo'lmasligi mumkin. Masalan, *Salim keldi* gapida grammatik shaxs mavjud. U kesimlik shaklida yuzaga chiqqan. Biroq *Salim kelgach* qurilmasida mantiqiy shaxs mavjud bo'lsa-da, u o'z ifodasiga ega emas. Chunki qurilma *men kelgach, sen kelgach* tusini olsa ham, *kelgach* so'zshaklida bajaruvchi qaysi shaxsda ekanligi noaniqligicha qolmoqda. *Salim, men, sen* mantiqiy bajaruvchi, grammatik emas. Bu nutqdagi tuslangan va tuslanmagan fe'llarni farqlashni taqozo qiladi.

Tildagi mantiqiy va grammatik jihatlarni keskin farqlay bilish kerak. Ularni qorishtirish har xil chalkashliklarga olib keladi, mohiyatni anglashga to'siq bo'ladi.

Nomustaqil fe'llar bevosita lug'aviy ifodali harakat ma'nosiga ega emas. Masalan, *qaror qildi, o'qib chiqdi, ishlayotgan ekan* hosilalarida *qildi, chiqdi, ekan* birliklari oldinda turgan so'zlarning lug'aviy ma'nosini yo yangilagan, yo modifikatsiya qilgan. Biroq bu fe'llardan ham qandaydir harakat uqilmoqda. Bu harakat derivatsion, grammatik harakatdir, lekin lug'aviy emas. Aniqrog'i, ular o'zlaridan oldingi so'zlarning ma'nolariga harakat, jarayon tusini bermoqda.

Nomustaqil fe'llar mohiyat e'tibori bilan uchga bo'linadi: a) yordamchi fe'llar; b) ko'makchi fe'llar; v) to'liqsiz fe'llar. Yordamchi fe'llar yangi lug'aviy birlik hosil qiladi – so'z yasaydi, ko'makchi fe'llar harakat tarzi shaklining bir qismi bo'lib, fe'l lug'aviy ma'nosini nutqqa xoslaydi – modifikatsiya qiladi, to'liqsiz fe'llar esa fe'l va fe'l bo'lmagan so'zlarning zamonini ko'rsatadi.

Fe'lning asosiy LMGlari. LMGda markaz va qurshov leksemalari. Fe'llar anglatgan qator ma'nolariga ko'ra turli mazmuniy guruhlarga bo'linadi. Bunda harakatga xos yaratish, buzish, o'zgartirish, so'zlash, sezish, yo'naltirish, holatga xos ruhiy-psixologik, tafakkur bilan bog'liq fe'llar farqlanadi. Bularndan xarakterlilarini ko'rib o'tamiz.

Harakat fe'llari jonli va jonsiz predmetlarga xos harakatni ifodalaydi. Ular yurish, ta'sir etish, zarb berish kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Qo'l, oyoq, yuz, og'iz, gavda bilan bog'liq harakatlarda harakatlanuvchi obyektlar yaqqol ko'rinish turadi. Oyoq bilan bog'liq harakatni ifodalovchi fe'llar: *yurmoq, kezmok, yo'rg'alamoq, pildiramoq, lapanglamoq, gindiraklamoq, do'qong-lamoq, tentiramoq, tepkilamok, tepmoq, toptamoq, deysinmoq, tisarilmoq*; qo'l bilan bog'liq harakatni ifodalovchi fe'llar: *urmoq, solmoq, ushlamoq, silamoq, tirnamoq, shapaloqlamoq, chimchila-moq, uqalamoq, qitiqlamoq, changallamoq, mushtlamoq, chert-moq, hovuchlamoq, chapak chalmok, paxsa qilmoq*;

YUz, gavda, og'iz, lab, quloq, burun va h.lar bilan bog'liq harakatlar ham mavjud.

Nutq fe'llari insonning gapirish faoliyati bilan bog'liq harakatlarni ifodalaydi. *Gapirmok, so'zlamoq, aytmoq, demoq, bidirlamoq, to'ng'illamoq, g'o'ldiramoq, vaysamoq, vaqillamoq, javramok, bobillab berdi, javob bermadi, vag'illab ketdi* kabi.

Holat fe'llari. Inson tabiatiga xos jismoniy va ruhiy holatlar turli xususiyatlarga ega. Holatlarni to'rtga bo'lish mumkin:

a) ichki holat (ruhiy kechinmalar bilan bog'liq: *eslash, unutish, yodlash, tubanlashmok* kabi);

b) tashqi holat (ichki holatning namoyon bo'lishi bilan bog'liq: *xafa bo'lmoq, shodlanmok, esankiramoq, dovdira-mok, g'azablanmok*);

v) jismoniy holat (inson tanasi bilan bog'liq: *holsizlanmok, kuymok, kuchlanmok, zaiflashmok*);

g) ijtimoiy holat (jamiyat bilan bog'liq: *boyimok, kambag'allashmok, ko'tarilmok, urilmok, kuvg'in bo'lmoq* kabi).

Natijali faoliyat fe'llari tizimi *yasamoq, qurmoq, bunyod etmok, hosil bo'lmoq, chizmok, yozmok, barpo qilmoq, arralamok, parchalamok, sayqal bermok, randalamok, sindirmok, emok, o'chirmok* kabi birliklarni o'z ichiga oladi.

Tafakkur fe'llari sirasiga insonning fikrlash qobiliyati bilan bog'liq *o'ylamoq, fikrlamoq, xayol surmok, tafakkur qilmoq, o'yga botmok, ko'z oldiga keltirmok, bir qarorga kelmok, xulosaga kelmok* kabilar kiradi.

Munosabat fe'llari qatorierkalamok, *suymok, yaxshi ko'rmok, parvona bo'lmoq, rahmi kelmok, xushomad qilmoq, yon bosmok, maftun bo'lmoq, e'zozlamok* kabi ijobiy xarakterdagi munosabat fe'llari, *beti qursin, xudo olsin, qorasi o'chsin, baloga giriftor bo'lsin, juvonmarg bo'lgur* kabi salbiy xarakterdagi munosabat fe'llaridan tashkil topadi.

Fe'l ma'noviy guruhlari ham markaz va qurshov leksemalari farqlanadi. Masalan, ma'nodosh fe'llarda bosh (dominanta) so'z, uyadoshlik paradigmasida uya (giperonim) markaz leksemasi hisoblansa, boshqa ma'nodoshlar va uyadoshlar (giponimlar) qurshov leksemalari deyiladi. *Kulmok* fe'li dominanta sifatida bunga ma'nodosh boshqa leksemalarni, *buzmok* esa buzishning turli ko'rinishlarini ifodalaydigan giponim leksemalarni uyushtirib turadi. So'zlar yirikroq butunliklarga birlashtirilganda, markaz leksemasigina bu butunlikdan joy oladi. Qurshov leksemalari esa uning «soyasi» sifatida quyida qolaveradi. Masalan, *kulmok, yig'lamoq, xursand bo'lmoq* leksemalari o'z atrofida ko'plab fe'llarni birlashtirgan. Lekin ular bu uch leksema mansub tizimga kira olmaydi, quyi bosqichda qoladi.

Fe'llarda so'zshakllarning turlari. Fe'llarda ham, boshqa turkumlarda bo'lgani kabi, so'zshakllar nol shaklli, sintetik, sintetik-analitik, takroriy ko'rinishlarda bo'ladi.

Fe'ning grammatik shakllardan xoli qilingan o'zak-negizi har doim kelasi zamon, buyruq mayli, aniq nisbat, ikkinchi shaxs, birlik ma'nolarini ifodalaydi: *bor, kel, o'qi, yoz, sev, ayt, ishon* kabi. Bunday so'zshakllar *nol shaklli* deyiladi. Yuqorida aytilgani-dek, nol shakl masalasi o'zbek tilshunosligida o'z echimini kutayotgan muammolardan biridir.

Grammatik shakli qo'shimcha tusida bo'lgan fe'llar *sintetik shaklli* so'zshakl deyiladi. *O'qiyman, bordim, kelyapman, yozayotirman, shoshib, kelgach, kelgan* kabi. Bunda grammatik shakl fe'l o'zak-negiziga «yopishgan» holdadir.

Fe'llar nomustaqil fe'llar bilan shakllanganda, albatta, sintetik-analitik ko'rinishda bo'ladi. Masalan, *o'qib chiqdi, ayta boshladi, borgan ekan* kabi. Bunda ham «yopishgan», ham «ajralgan» grammatik shakllar yaxlitlikni tashkil qilganligi uchun u *sintetik-analitik shakl* atamasi bilan yuritiladi.

Takroriy shakllarni faqat takroriy deyish unchalik to'g'ri emas. Chunki bunda takrorlanayotgan fe'l avval sintetik shakl qiyofasiga kiradi, so'ngra takroriy shaklga aylanadi. Masalan, *aytdi-aytdi, o'qidi-o'qidi, bordi-bordi* kabi. Misollar: *Aytib-aytib charchadi, chopib-chopib o'ynadi* va h. Bunda takrorlanuvchi fe'l nisbat, o'zgalovchi, kesimlik shakllarini olgan va undan keyin takrorlangan.

Ayrim manbalarda fe'llarning *juft so'zshakl* turi ham ajratilib, unga *aytdi-qi'ya, topshirdi-qi'ya* tipidagi misollar kiritiladi. Bunga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki juflanayotgan fe'ning ikkalasi ham mustaqil bo'lsa va ularning juftlanishidan yangi grammatik ma'no uqilsagina, uni so'zshakllarning juftligi deyishga asos bo'lur edi. Bunda esa juftlikning ikkinchi qismi ko'makchi fe'l sifatida grammatik ma'no ifodalash uchungina xizmat qilmoqda.

Fe'llarning yasalishi. Fe'llar o'ziga xos so'z yasalish tizimiga ega. Ular asosan affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan yasaladi.

Affiksatsiya usuli. Affiksatsiya usuli keng qamrovlidir. Bu usul bilan fe'l bo'lmagan so'zlardan fe'l yasaladi.

Yasash asosiga qo'shilib, yasama fe'llar hosil qiluvchi affikslarning so'z yasash darajasi ham turlicha. *-la, -lan, -lashtir, -(a)/r, -(a)y* kabi affikslar ancha mahsuldor bo'lib, ko'p miqdorda fe'l hosil qiladi. Bu affikslarning har biri turli derivatsion qoliplar tarkibida fe'l yasaydi.

1. [*ot/sifat/ravish/olmosh/taqlid/undov + la = 1*] asosdan anglashigan narsa/predmetga ega holatli qilish harakati; 2) asosdan anglashilgan asbob vositasida bajariladigan harakat; 3) asosdan anglashilgan narsa/predmetni yuzaga keltirish harakati] qolipi ko'p ma'noli bo'lib, uning hosilalari quyidagicha:

- 1) *o'g'itla, moyla, betonla, jilovla, kishanla, tikla, tekisla, dumaloqla, to'g'rila, tushovla;*
- 2) *randala, qaychila, egovla, arrala;*
- 3) *urug'la, mog'orla, bolala, chuhla, dodla, gumburla, sizla, senla, hozirla* kabi.

2. [*ot/sifat/son + lan/lash = subyektning asosdan anglashilgan belgiga ega bo'lishi harakati*] qolipi tarkibidagi *-lan/lash* affiksi o'zining murakkab tabiati bilan xarakterlanadi.

Zohiran ular ikki affiksning birikuvi (*-la+n* va *-la+sh*) dek ko'rinadi. Chunki hozirgi o'zbek adabiy tilida *-la* so'z yasovchi va *-sh* hamda *-n* nisbat shakllari faol bo'lib, ko'p hollarda ular birgalikda keladi. Shuningdek, *-lan/lash* affiksalarida birgalik va o'zlik nisbati ma'nolari ham uqilib turadi (*shodlanmoq, salom-lashmoq, afsuslanmoq, ajablanmoq, zavqlanmoq, lazzatlanmoq, janjallashmoq, ravshanlashmoq* kabi). Biroq bu misollarda *-lan/lash* affiksini ajratib bo'lmaydi. *Maydalanmoq* kabi fe'llarda esa ular ajraladi (*mayda+la+n+moq*). Demak, bunda *-la* va *-n* mustaqil affikslardir.

-lan affiksining aslida *-la* va *-n* affikslarining birikuvidan iborat ekanligini sezish qiyin emas.

3. [*taqlid+illa/ira=asos bildirgan tovush yoki obrazni harakat tarzida ifodalash*] qolipi faqat taqlid so'zlardan fe'l yasaydi: *chirqillamoq, chirsillamoq, likillamoq, guvillamoq, shuvillamoq, mo'ltillamoq, bezillamoq, yarqiramoq, sirqiramoq, mo'ltiramoq, yaltiramoq*. *-illa* va *-ira* qo'shimchalari orasida ma'noviy farq kuzatilmaydi, balki ular qaysi so'zga qo'shilishi bilan farqlanadi, xolos.

4. [ot/sifat/taqlid+a] (*o'shamoq, qonamoq, o'ynamoq, bo'shamoq, qiynamoq, shildiramoq, jildiramoq*), [sifat/ravish +(a)y] (*qoraymoq, toraymoq, ko'paymoq, ozaymoq*), [sifat+(a)r] (*oqarmoq, ko'karmoq, qisqarmoq, eskirmoq*), [ot/olmosh+sira] (*qonsiramoq, suvsiramoq, tuzsiramoq, gumonsiramoq*), [son/ ot/ravish+(i)k/(i)q] (*birikmoq, yo'liqmoq, kechikmoq, zo'riqmoq*), [sifat/ot+i] (*tinchimoq, boyimoq, changimoq*), [sifat+t] (*to'latmoq, berkitmoq*) qoliplari unumsiz qoliplar bo'lib, birinchidan, ularning hosilalari sanoqli bo'lib, bugungi kunda bu qolip asosida yangi-yangi so'zlar hosil qilib bo'lmaydi, ikkinchidan, bu hosilalar davr o'tishi bilan derivatsion ma'nosi jihatidan bir-biridan shu darajada uzoqlashib ketganki, ular asosida qolipning o'ng, ya'ni ma'noviy tomonini chiqarib, aniqlab bo'lmaydi. *Kamsitmoq, boshqarmoq, g'ivirmisoq, yo'qolmoq, kuchanmoq, yotsinmoq, qiziqsinmoq* kabi fe'llarning ham yasamaligi aniq, lekin ulardagi affikslar ayrim so'zlar doirasida chegaralangan. Ularga nisbatan ham yuqorida aytilgan fikr o'rinli.

Eslatma: *siltala, tortqila, opichla* kabi so'zlardagi shakl yasovchi *-la* affiksini fe'l yasovchi *-la* affiksi bilan almashtir-maslik kerak. Ular omonim affikslardir.

-kila (-qila, -gila, -g'ila), -imsira, -inqira, sh/ish (to'lish, qizish, ozish), q/iq/k/ik (toliq, ko'nik), -qi/g'i affikslari hozirgi o'zbek adabiy tilida harakatning tarzini (kuchli/kuchsizligi, takroriyliigi kabi) bildirganligi uchun shakl yasovchilar sifatida qaraladi.

Kompozitsiya usuli. Bu usul vositasida qo'shma va juft fe'llar yasaladi.

Qo'shma fe'llar. Qo'shma fe'llar tarkibiga ko'ra ikkiga bo'linadi: a) ism+fe'l; b) fe'l+fe'l.

Ism+fe'l tipidagi fe'llarni hosil qilishda yordamchi fe'l vazifasida *qilmoq, etmoq, aylamoq, bo'lmoq, bermoq, olmoq, topmoq, emoq, urmoq, ko'rmoq, kelmoq, keltirmoq* kabi birliklar keladi: *abgor qilmoq, ado bo'lmoq, ayyuhannos solmoq, javob bermoq, javob olmoq, xalal bermoq, xabar olmoq, qiron solmoq, tartibga keltirmoq, oh urmoq, tush ko'rmoq, qo'nim topmoq* kabi.

O'zbek tilida fe'l+fe'l tipidagi fe'llar barmoq bilan sanarli: *sotib olmoq, olib bermoq, olib kelmoq, olib chiqmoq, olib qochmoq, ishlab chiqarmoq* kabi.

Juft fe'llar. Juft fe'llar grammatik shakliga ko'ra ikki ko'rinishda bo'ladi:

Biri ravishdosh shaklida, ikkinchisi boshqa shaklda: *aylanib-o'rgilmoq, elib-yugurmoq, yayrab-yashnamoq, o'ynab-kulmoq, qo'llab-quvvatlamoq.*

Har ikki qismi bir xil shaklda: *aylanib-o'rgilib, o'ylamay-netmay, aralashib-quralashib, achib-bijib, tejab-tergab, qisinib-qimtinib, yuvib-tarab, yayrab-yashnab.*

Tilshunosligimizda fe'l iboralar bilan qo'shma fe'llar chegarasi aniq oydinlashtirilmagan.

Juft fe'llar tarkibiy qismlarining qo'llanishiga ko'ra quyidagi shakllarda bo'ladi:

Qismlari yakka holda ishlatiladigan juft fe'llar:

a) qismlari o'zaro sinonim: *hormay-tolmay, qo'llab-quvvatlamoq;*

b) qismlari o'zaro antonim: *kelib-ketib, o'lib-tirilib, kirib-chiqib, o'tirib-turib;*

v) qismlarining ma'nosi yaqin: *aylanib-o'rgilmoq, eb-ichmoq, o'ynab-kulmoq, oshirib-toshirib, yuvib-tarab.*

2. Ikkinchi qismi yakka (mustaqil) ishlatilmaydigan fe'llar: *aldab-suldab, yig'lab-siqtab, yamab-yasqab, qolgan-qutgan.*

Asosiy adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Hozirgi o'zbek tili. Morfemika. Derivatsiya. Morfologiya. II qism. Qarshi-2005.
2. Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek tili. Morfologiya, 1-qism. Mustaqil so'z turkumlari. (Ma'ruza matnlari). Buxoro-2003.
3. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh. va boshqalar. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya.-T.: Yangi asr avlodi. 2001.- 182 b.
4. O'zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. Max.muh. G'.A.Abdurahmonov va boshq. T.: Fan, 1972.-610 b.

5. Zamonaviy o'zbek tili: Morfologiya\ Mualliflar jamoasi. Max. muh. H.G'.Ne'matov va boshqalar. T. Mumtoz so'z, 2008.

6. Sayfullaeva R.R., Mehg'liyev B.R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'qv qo'llanma.-T., Fan va texnologiya,2009. -416.

7. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. -T.: O'qituvchi. 1995.-127 b.

8. Musulmanova N.R. Grammatik shakllarda kategorial, yuondosh va hamroh ma'no (zamon va mayl kategoriyalari misolida) Filol.fan.nomz...diss. -Toshkent, 2007.-116 b.

Yordamchi adabiyotlar

1. Meng'liyev B.R. Morfologik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari: Filol. fan. nomz ... diss. Buxoro. 1995, - 144 b.

2. Nigmatov X.G. Funktsionalnaya morfologiya tyurkoyazchnx pamyatnikov XI-XII vv. -T.: Izd. Fan, 1989.-191 s.

3. Nigmatov X.G. Vkl'yuchennoe tretye v morfologicheskoy sisteme tyurkskix yazkov// Sov.tyurkologiya. 1976. -№3. -S. 31-36.

4. Shahobiddinova Sh. Grammatik ma'no talqini haqida: Filol.fan.nomz... .diss. -Samarqand, 1993.-152 b.

5. Bahriddinova B.M. Fe'l lug'aviy shakllari tizimi (tur kategoriyasi) Filol.fan.nomz...diss. - Samarqand, 2002.-146 b.

7. Shukurov O. Harakat tarzi shakllari paradigmasi. Filol. fan. nomz ... diss. Avt. Qarshi. 2005, - 22 b.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Fe'l va kesimlik munosabati haqida gapiring.
2. Fe'lning asosiy LMGLariga izoh bering.
3. Fe'llarda so'zshakllarning turlari deganda nimani tushunasiz?
4. Tafakkur fe'llariga misollar keltiring.
5. Fe'l yasalishi tizimining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

10-MAVZU: OT SO'Z TURKUMI

Reja:

1. Ot va uning UGMsi.
2. Otning UGM parchalanishiga ko'ra turlari.
3. Atoqli va turdosh ot.
4. Muayyan va mavhum ot.
5. Yakka va jamlovchi ot.
6. Otlarning yasalishi
7. Otning morfologik belgilari va tasniflovchi kategoriyalari.
8. Otning xususiy lugaviy shakllari.
9. Otlarda sintaktik kategoriyalarning voqelanishi.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar: *atoqli va turdosh, sanaladigan va sanalmaydigan, shaxsiva narsa, aniq va mavhum otlar, kichraytirish, erkalash, shaxsiy baho, son shakllari,sodda, qo'shma, juft, takroriy va qisqartma otlar.*

Ot va uning UGMsi. *Kim, nima, qayer* so'roqlariga javob bo'lib, mavjudot, narsa, joy, voqea, jarayonni atovchi leksik birliklar ot deyiladi. «Borliq yoki uning parchasini predmet sifatida atash» ot turkumining UGMsidir. Bunda *predmet* tushunchasi mantiqiy emas, balki grammatik mohiyatga ega.

Mantiqan jonsiz va bevosita sezgi a'zolariga ta'sir etuvchi narsalar predmet deyiladi. Gramatikada esa u keng ma'noda tushuniladi, «mavjudlik» mohiyatiga ega deb qaraladi.

Ot so'z turkumi sifatida o'ziga xos morfologik paradigmalarga, so'z yasash tizimiga, xoslangan sintaktik pozitsiyalariga ega.

Otning UGM parchalanishiga ko'ra turlari. Otlarni ma'no jihatidan turlicha tasnif qilish mumkin. Bu o'rinda otlarning grammatik xususiyatlarini muayyanlashtiruvchi semantik belgilar asosga olinadi. Otlar quyidagi semantik xususiyatlariga ko'ra tasnif qilinadi:

Bir turdagi predmetlarning birining nomini yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirishiga ko'ra.

Kim yoki nima so'roqlariga javob bo'lishiga ko'ra.

Sanalish-sanalmasligiga ko'ra.

Otlar borliqdagi bir turdagi predmetlardan birining nomini yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirishiga ko'ra, *atoqli* va *turdosh* otlarga bo'linadi.

Atoqli va turdosh ot. Atoqli otlar bir xil predmet yoki hodisalarning birini ajratib ko'rsatishga xizmat qiladigan ikkilamchi nomdir. Masalan, *bola* bir turdagi predmet (shaxs) larning umumiy va birlamchi nomi. *Sherzod* ana shu bir xil predmet(shaxs)lardan birini ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladigan va *bola* atamasidan keyin qo'yilgan ikkilamchi nomdir.

Atoqli otlar quyidagi lug'aviy mavzuviy to'da (LMT) larga ega:

1. Kishilarning ismi, familiyasi, taxallusi: *Ikrom, Otabek, Jumayev, Xudoynazarov, Imomzoda.*

2. Jo'g'rofiy nomlar: *O'zbekiston, Dehqonobod, Hisor, Tanxozdaryo.*

3. Tashkilot, muassasa, korxonalar nomlari: *Qarshi universiteti, Xalq ta'limi vazirligi, «Nasaf ziyosi» jurnali.*

4. Samoviy yoritqichlar nomlari: *Mushtariy, Zuhro, YUjupiter, YArqiroq.*

5. Tarixiy hodisalar nomlari: *Mustaqillik kuni, Loy jangi, Boston choyxo'rligi.*

6. Hayvon nomlari: *Boychibor, Brendi, Yo'lbars.*

7. Mahsulot nomlari: *Siltama* (ovqat), *Qoraqum* (shokolad) *CHiyali yaxnasi.*

8. Ilohiy tushunchalarni ifodalovchi nomlar: *Alloh, Do'zax, Iso, Buroq.*

Atoqli otlar matndan, nutq vaziyatidan uzilgan holda atash ma'nosiga ega bo'lmaydi, faqat kontekstda reallashadi. Masalan, *Sanam* so'zining atoqli yoki turdosh ekanligi shu so'zni qurshab turgan so'zlar yordamida anglashiladi. Bu jihatdan atoqli otlar olmoshlarga o'xshab ketadi.

Atoqli otlarning aksariyati turdosh otlar va boshqa turkum so'zlari asosida vujudga kelgan. Turdosh otlardan: *Asal, Ra'no, Rayhon, Anor*; fe'llardan: *Sotiboldi, O'lmas, Itolmas, Turdi*; sifatlardan: *Shirin, Buyuk, Aziz, Ulug'*; sondan: *Etmishboy, Saksonboy* kabi.

Bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomini bildiruvchi otlar *turdosh ot* deyiladi. Turdosh otlar ot turkumiga kirgan so'zlarning asosiy qismini tashkil etadi: *tog', qishloq, mashina, sevgi, muhabbat.* Turdosh otlarda predmetlik va belgilik xususiyatlari yaxlitlashgan holda mavjud bo'ladi. Chunki har qanday narsa belgi-xususiyatlar majmuasidir.

Atoqli va turdosh otlar nafaqat lug'aviy semantikasi, balki grammatik xususiyatlari bilan ham farqlanadi. Masalan, atoqli otlar, asosan, birlik sonda qo'llanadi. Ko'plik son shaklida butunlay boshqa ma'no bo'yog'iga ega bo'ladi: ***Farhodlar keldi kanal qazmoqqa.***(Turs.)

Turdosh otlar atoqli otlardan hosil bo'lishi ham mumkin: *muslimka, xosiyatxon, rentgen, amper.*

Turdosh otlar ifodalangan tushunchaning xarakteriga ko'ra: a) muayyan va b) mavhum otlarga bo'linadi.

Muayyan va mavhum ot. Sezgi a'zolari bilan sezish mumkin bo'lgan predmetlarni atovchi otlar muayyan otlar deyiladi. Muayyan otlarni bevosita sanash mumkin. Shuning uchun bunday otlar sanoq sonlar bilan munosabatga kirishadi. Shuningdek, shaxsiy baho shakllari, ko'plik qo'shimchasini olishi mumkin: *beshta daftar, yuzlab odam, o'g'ilcha, qizgina.*

Muayyan otlar quyidagi LMTlarga ega:

Modda nomlari: *oltin, kumush, qum, suv*.

Shaxs tavsifi nomlari: *yigit, chol, o'zbek, tojik, cho'loq, kasal, ota, ona*.

Buyum nomlari: *qalam, kitob, cho'mich, kosa, gilam, sholcha*.

O'simlik nomlari: *daraxt, buta, o't, jiyda, ildiz*.

O'rin-joy nomlari: *qishloq, shahar, sahro, adir*.

Miqdor nomlari: *misqol, tonna, botmon, chaqirim*.

Tashkilot va muassasa nomlari: *maktab, idora, do'kon, bozor*.

Vaqt-payt nomlari: *kun, fasl, tong, kecha*.

Bu har bir LMT o'z ichida bir necha lug'aviy-ma'noviy guruh (LMG) larga bo'linib ketadi. Masalan, shaxs tavsifi nomlari quyidagi LMGlarga ajraladi:

Shaxsni yosh jihatdan tavsiflovchi LMG: *chol, qari, o'smir, o'spirin*.

Shaxsni qarindoshlik jihatdan tavsiflovchi LMG: *opa, ona, singil, egachi, buvi*.

Shaxsni kasb jihatdan tavsiflovchi LMG: *ishchi, dallol, dehqon, suvchi, mirob*.

Shaxsni istiqomat jihatdan tavsiflovchi LMG: *qishloqi, toshkentlik, shaharlik*.

Shaxsni tashqi belgilari jihatdan tavsiflovchi LMG: *bukri, novcha, pakana*;

Shaxsni ruhiy holati jihatdan tavsiflovchi LMG: *jinni, ovsar, dovdir, ezma*.

Shaxsni ijtimoiy jihatdan tavsiflovchi LMG: *boy, kambag'al, xasis, ziqna*.

Boshqa LMTlar ham shunday LMG larga bo'linadi. Masalan, «Hayvon nomlari» LMTsi LMG lari: qoramol LMG, ot LMG, qo'y LMG, echki LMG, it LMG, eshak LMG, tovuq LMG va h.

Muayyan otlar LMG lari nisbatan barqaror va o'ta keng, deyarli cheklanmagan va o'zgaruvchan qurshovlardan iborat. LMG markazidagi leksemalar o'zaro giponimik, partonimik, graduonimik, funktsionimik, ierarxionimik munosabatlarida yashaydi. Masalan, *daraxt* leksemasi quyidagi jins-tur munosabatlarida yashaydi: *qayin, tol, o'rik, terak, majnuntol, archa*. Funktsionimik asosda tuzilgan LMGlarda ancha oz: *qalam, ruchka*.

Shaxs tavsifi otlari esa keng graduonimik munosabatlarga egaligi bilan ajralib turadi.

Mavhum otlar turli narsalarda mavjud bo'lgan bir xil yoki o'xshash sifatlarni bir alohidalik tarzida ifoda etadi. Masalan, *olma, qovun, shakar, qand* otlarining muhim sifat belgisi «shirinlik» bo'lsa, *shirinlik* mavhum otida yuqoridagi narsalarda mavjud bo'lgan umumiy belgi bir alohidalik sifatida beriladi. Shuning uchun muayyan va mavhum otlarning farqli tomoni faqatgina ularning haqiqiy (*kitob, olma, eshik*) yoki xayoliy (*sevgi, ishq, shirinlik*), umumiy va yakka narsalarni ifodalashida emas, balki belgi, sifat ma'nosining qay usulda talqin etilishi hamdir.

Otlar birlik shaklda bir turdagi predmetlarning o'zini (*yakka ot*) yoki predmetlar to'dasini (*jamlovchi ot*) bildirishiga ko'ra ham farqlanadi.

Yakka va jamlovchi ot. Bir turdagi predmetning o'zini bildiruvchi otlar yakka ot deyiladi: *kitob, uy, daraxt*. Jamlovchi otlar birlik shaklda ham predmetlar majmuini anglatadi: *armiya, ko'pchilik, xalq*. Lekin bunday otlar semantik ko'plikda bo'lsa-da, grammatik birlikda deyiladi.

Otlarning yasalishi. Otlar ikki xil - *affiksatsiya* va *kompozitsiya* usullari bilan yasaladi. Shunga muvofiq, ot yasashning affiksial va kompozitsion qoliplari mavjud. Bu qoliplar ham o'z o'rnida unumli, unumsiz; mahsuldor va kammahsul turlarga bo'linadi.

Ot yasovchi qoliplarning aksariyati ko'p ma'noli qoliplardir. Quyida ularni ko'rib o'tamiz.

-*chi* affiksli [ot + -chi = 1) asosdan anglashilgan narsa bilan bog'liq kasb, mutaxassislik bilan shug'ullanuvchi shaxs oti; 2) asosdan anglashilgan ish/harakat/hodisa bilan shug'ullanuvchi shaxs oti; 3) asosdan anglashilgan ish-harakat, faoliyatda qatnashuvchi shaxs oti; 4) ish-faoliyatda biror oqim, maslak va sh.k. tarafdori, shularga mansub bo'lgan shaxsni bildiruvchi oti; 5) asosdan anglashilgan hodisani, ish-harakatni bajarish odati kuchli bo'lgan shaxsni bildiruvchi ot] qolipi quyidagi hosilalarni beradi:

1) *sportchi, dutorchi, kashtachi, shaxmatchi, bufetchi, matbaachi*;

- 2) *xabarchi, maslahatchi, terimchi, yordamchi, himoyachi, davomchi;*
- 3) *jangchi, isyonchi, hasharchi, muzokarachi, sayrchi, obunachi;*
- 4) *respublikachi, muxtoriyatchi, paxtakorchi, tursunoychi;*
- 5) *to'polonchi, buzg'unchi, tavakkalchi, ginachi, uyquchi, lofchi, kekchi.*

Ko'rinadiki, bu qolip polisemantik va polifunksional bo'lib, har bir ma'nosi yana bir necha ma'no turlariga bo'linib ketadi.

-*shunos* affiksli [**ot + -shunos = asosdan anglashilgan sohani o'rganuvchi mutaxassis**] qolipi bir ma'noli bo'lib, u quyidagi hosilalarni beradi: *adabiyotshunos, tilshunos, tarixshunos, o'lkashunos, musiqashunos* kabi.

-*kor* affiksli ikkita qolip mavjud: a) [**aniq ot + -kor = asosdan anglashilgan narsa/predmetni etishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxs oti**] (*paxtakor, lavlagikor, sholikor, g'allakor*) va b) [**mavhum ot + -kor = asosdan anglashilgan ish-harakat bilan shug'ullanuvchi shaxs**] (*madadkor, xiyonatkor, gunohkor, tajovuzkor, tashabbuskor, ijodkor, xizmatkor*).

-*kash* affiksli qolip ham ikki ma'nolidir: a) [**ot + -kash = 1) asosdan anglashilgan ish, mashg'ulot bilan shug'ullanuvchi shaxs oti; b) asosdan anglashilgan ishni bajarish odati kuchli bo'lgan shaxs oti**]: a) *zambilkash, kirakash, loyakash, paxsakash*; b) *janjalkash, hazilkash*.

Quyida boshqa affiksli qoliplarni misollari bilan sanab o'tamiz.

[**o'quv otlari + -xon = asosdan anglashilgan narsa/predmetni doimiy mutolaa qiluvchi shaxs oti**] (*gazetxon, kitobxon, jurnalxon, duoxon*), [**ot + -do'z = asosdan anglashilgan narsa/predmetni tikuvchi shaxs oti**] (*etikdo'z, mahsido'z, mo'ynado'z, do'ppido'z*), [**ot + -gar = asosdan anglashilgan narsa/predmet bilan bog'liq kasbni qiluvchi shaxs oti**] (*zargar, sovungar, savdogar*), [**ot + -soz = asosdan anglashilgan narsa/predmetni yaratuvchi, tuzatuvchi shaxs oti**] (*soatsoz, stanoksoz, asbobsoz*), [**ot + -paz = asosdan anglashilgan taomni tayyorlov shaxs oti**] (*oshpaz, somsapaz, mantipaz, kabobpaz*), [**ot + -boz = asosdan anglashilgan ish/harakat bilan ko'p shug'ullanuvchi, unga berilgan shaxs oti**] (*majlisboz, arizaboz, maishatboz, safsataboz, va'daboz, guruhboz, kaptarboz, bedanaboz*), [**ot + -xo'r = asosdan anglashilgan egulik, ichimlikni doimiy iste'mol qiluvchi shaxs oti**] (*norinxo'r, aroqxo'r, nafaqaxo'r, choyxo'r*), [**ot + -parast = asosdan anglashilgan narsaga e'tiqod qiluvchi shaxs oti**] (*butparast, mayparast, shaxsiyatparast, maishatparast*), [**ot + -go'y = asosdan anglashilgan ish/harakat, hodisani doim bajarib turadigan shaxs oti**] (*maslahatgo'y, duogo'y, xushomadgo'y, nasihatgo'y, labbaygo'y*), [**ot + -dor = asosdan anglashilgan narsa/predmetga ega bo'lgan shaxs oti**] (*bog'dor, quldor, do'kondor*), [**ot + -bon = asosdan anglashilgan narsa/predmetga qarovchi shaxs oti**] (*bog'bon, saroybon, darvozabon*), [**ot + -furus = asosdan anglashilgan narsa/predmetni sotish bilan shug'ullanuvchi shaxs oti**] (*chitfurus, nosfurus, mevafurus*), [**ot + -dosh = asosdan anglashilgan narsa/predmetga bir xil aloqador bo'lgan shaxs oti**] (*qayg'udosh, musobaqadosh, suhbatdosh, zamondosh*), [**ot + -vachcha = asosdan anglashilgan shaxsga qarashli farzand ma'nosidagi shaxs oti**] (*boyvachcha, gadoyvachcha, to'ravachcha, tog'avachcha, xolavachcha, amnavachcha, itvachcha*), [**ham + ot = asosdan anglashilgan narsa/predmetga aloqador shaxs oti**] (*hamshahar, hamsuhbat, hamkurs, hamkasb*), a) [**sifat/ravish + -lik = asosdan anglashilgan belgi oti**] (*sariqlik, tezlik, bema'nilik, yoshlik*), b) [**ot + -lik = asosdan anglashilgan narsa/predmetni umumlashtirib, holat tarzida ifodalovchi mansublik oti**] (*otalik, o'qituvchilik, ginaxonlik, va'dabozlik, rayonlik, shaharlik, urug'lik, kiyimlik, muzlik, botqoqlik*), [**ot + -chilik = 1) asosdan anglashilgan narsa etishtiriladigan soha oti; 2) asosdan anglashilgan narsa/hodisaning borlik holatini anglatuvchi ot; 3) asosdan anglashilgan narsa bilan bog'lanuvchi holat oti; 4) biror ish-hodisaning sababi asosdan anglashilgan narsa ekanini bildiruvchi ot**] (1) *paxtachilik, urug'chilik, chorvachilik; 2) pishiqchilik, to'kinchilik, qattiqchilik*, 3) *ulfatchilik, tirikchilik, maynabozchilik, o'rtoqchilik; 4) yurtchilik, o'zbekchilik, ro'zg'orchilik*), [**ot + -garchilik = asosdan anglashilgan belgi, holat, harakat-hodisaga aloqador bo'lgan oti**] (*oliftagarchilik, namgarchilik, isrofgarchilik*), [**ot + -zor = asosdan anglashilgan**

narsa ko'p bo'ladigan joy oti] (*olmazor, qaroqchizor, paxtazor, ajriqzor*), [qum, tosh, o't + -loq = asosdan anglashilgan narsa/predmet ko'p bo'ladigan joy oti] (*o'tloq, qumloq, toshloq*), [ot + -iston = asosdan anglashilgan narsa/predmetga boy joy oti] (*O'zbekiston, guliston*).

Shunday ot yasash qoliplari borki, ulardan bugungi kunda yangi so'z yasalmaydi. Hosilalarning barchasi lisoniy xarakterga ega. [ot + -goh = asosdan anglashilgan ish-harakat bajarilgan joy oti] (*sayilgoh, ayshgoh, manzilgoh*), [ot + -don = asosdan anglashilgan narsa/predmet saqlanadigan predmetni ifodalovchi ot] (*qalamdon, tuzdon, kuldon*), [ot + -xona = asosdan anglashilgan ish-harakatga mo'ljallangan joy oti] (*ishxona, qabulxona, choyxona, oshxona*), [ot + -obod = asosdan angla-shilgan narsa/predmet obod qilgan joy oti] (*Dehqonobod, Mehnatobod*), [ot + -noma = asosdan anglashilgan narsa /predmetni ifodalovchi ot] (*arznoma, taklifnoma, sayohatnoma*).

-k(-ik/-ak), -q(-iq, -uq, -oq) (*kekirik, ko'rik, og'riq, qaviq, buyruq, qiynoq, o'roq*), -k/q (-iq, -ik) (*to'shak, qayroq, elak*), -gi (*ki/g'i/qi/g'u*) (*sevgi, kulgi, supurgi, chopqi, achitqi, yonilg'i, tomizg'i*), -m(-im/-um) (*chidam, to'plam, unum, tuzum, chiqim, qo'nim, kechirim*), -ma (*uyushma, birlashma, dimlama*), -qin/g'in (*toshqin, to'lqin, bosqin, tutqun, qochqin, yong'in*), -in/-un (*ekin, yog'in, yig'in, bo'g'in, tugun*), -(i)ndi (*cho'kindi, yuvindi, chirindi, supurindi, sirqindi, yig'indi*), -gich (*g'ich/kich/qich*) (*o'lchagich, purkagich, o'chirgich, qashlagich, eritkich, savag'ich*), -ch, -inch (*quvonch, o'kinch, qo'rqinch, sevinch*), -machoq (*bekinmachoq, tortishmachoq, quvlashmachoq*), -ak/oq (*sharsharak, bizbizak, pirpirak, g'urrak, tartarak*), -ildoq (*shaqildoq, hiqildoq, chirildoq, pirildoq*), -a (*sharshara, g'arg'ara*), -os (*chuvvos, sharros, gulduros*) qo'shimchalari ishtirok etuvchi derivatsion qoliplari kam unum bo'lib, ular bugungi kunda hosila bermaydi. Shu boisdan qolipning mazmuniy tomonini uning hosilalaridan umumlashtirib bo'lmaydi.

-ish, -uv/ov, -uvchi/ovchi affiksli qurilish, kirish, chiqish, uchrashuv, kechuv, maqtov, chanqov, uchuvchi, haydovchi, tinglovchi, sotuvchi so'zlarini ham yasama so'zlar sifatida qarash hollari uchrab turadi. Bunda ular aslida so'zshaklning leksemalashuvi hodisasi ekanligini esda tutish lozim.

Kompozitsiya usuli bilan qo'shma va juft otlar otlar hosil qilinadi: *toshko'mir, tuyaqush, karnaygul, oybolta, ko'kkarg'a, qoraqurt, mingoyoq, qo'ziqorin, ota-ona, qozon-tovoq, qizilishton*.

Qo'shma otlar:

Ot+ot: *ajdargul, ayiqtovon, atirgul, kinolenta, xontaxta, xo'rozqand, toshbo'ron, sochpopuk, shakarqamish, qo'ypechak, qo'larrra, temir yo'l, piyozdog', O'rta CHirchiq*.

Sifat+ot: *kaltakesak, Markaziy Osiyo, Sho'rko'l, ko'ksul-ton, ko'rsichqon, sassiqpopishak, qoradori*.

Ot+fe'l: *echkiemar, ko'zboylog'ich, kallakesar, husnbuzar, beshiktervatar, socho'sar, dunyoqarash*.

Son+ot: *beshbarmoq, beshqarsak, Yittisuv, Oltiariq, uchburchak, mingoyoq, qirqog'ayni*.

Son+fe'l: *beshotar, birqoqar*.

Ot+sifat: *ustabuzarmon, gulbeor, oshko'k*.

Fe'l+fe'l: *iskabtopar, ishlab chiqarish*.

Fe'l+ot: *savacho'p*.

Juft otlar. Juft otlar [ot+ot], [sifat+ot] kabi qoliplar, shuningdek, boshqa turkumga oid juft so'zlarning otga ko'chishidan vujudga keladi. Juft otlar tarkibiga ko'ra quyidagi ko'rinishlarga ega.

Har ikki qismi mustaqil holda ham ishlatiladigan juft otlar:

Qismlari o'zaro sinonim: *azob-uqubat, aysh-ishrat, dori-darmon, baxt-saodat, zeb-ziynat, izzat-ikrom, izzat-hurmat, kayf-safo, makr-hiyla, nasl-nasab, pand-o'git*.

Qismlari o'zaro antonim: *avra-astar, avlod-ajdod, achchiq-chuchuk, bordi-keldi, bosh-oyoq, er-xotin, o'g'il-qiz, savol-javob, salom-alik, qulf-kalit*.

Qismlarining ma'nosi yaqin: *ariq-zovur, baxt-taxt, baqir-chaqir, boj-xiroj, bosh-ko'z, dev-pari, sovg'a-salom, o'q-dori, qovoq-tumshuq, hisob-kitob, hol-jon, qo'y-qo'zi*.

Qismlaridan biri mustaqil holda ishlatilmaydigan juft otlar: *aldam-quldami, bozor-o'char, bola-baqra, qo'ni-qo'shni, latta-putta, yig'i-sig'i, maza-matra, mehmon-izlom, irim-sirim*.

Har ikki qismi ham mustaqil ishlatilmaydigan juft otlar: *adi-badi, ashqol-dashqol, zer-zabar, shikast-rext, ikir-chikir, lash-lush, qalang'i-qasang'i, mirqinboy-shirqinboy, ya'juj-ma'juj.*

Son otning tasniflovchi grammatik kategoriya sifatida. Otning morfologik belgilari va tasniflovchi kate-goriyalari. Otlar morfologik o'zgaruvchi so'zlar sifatida o'ziga xos morfologik paradigmalariga ega. Son kategoriyasi va subyektiv baho shakllari otlarning asosiy tasniflovchi grammatik shakllari hisoblanadi.

Son kategoriyasi. Otlarda ziddiyat holida bo'lgan birlik va ko'plik ma'nolari va bu ma'nolarni ifodalovchi shakllar sistemasi grammatik son kategoriyasini tashkil etadi.

Mantiqiy va grammatik sonni aralash-tirmaslik kerak. Masalan, jamlovchi otlar (*xalq, qo'shin, poda, suruv*) mantiqan predmetlar jamini bildiradi, lekin grammatik jihatdan birlikda deb qaraladi.

Son kategoriyasining ikki: *-lar* affiksi bilan yasaluvchi shakli va shunga oppozitsiyada bo'lgan nol ko'rsatkichli shakli bor. Bularidan *-lar* affiksi otning ko'plik shaklini yasaydi, birlik shakl esa nol ko'rsatkichli shaklidir.

-lar shaklining ko'plikni ifodalashi masalasida barcha tilshunoslar hamfikrdirlar. Ammo nol ko'rsatkichli shakl masalasida har xil qarashlar bor.

Ko'p hollarda nol shakl faqat birlik ma'nosining ifodalovchisi sifatida qaraladi. Ba'zilar esa u na ko'plik, na birlik ifodalashini ta'kidlab, bu shaklning son kategoriyasi tarkibidagi o'rniga shubha bilan qaraydilar. Zero, nol shakl miqdoriy grammatik ma'no anglatishdan mahrum ekan, unda *-lar* shakli bilan aynan bir xil qurshovda o'rin almashishini qanday tushunish kerak? Unda *Askar o'rab oldi o'ngdan-u so'ldan* (Mirt.) gapida mantiqan *askarlar* so'zshakli ishlatilgan bo'lur edi.

Demak, *-lar* va nol shakl hozirgi o'zbek adabiy tilida miqdor anglatuvchi grammatik shakllardir. Bu ular sof miqdor anglatadi, degani emas, albatta. Miqdor belgisi bu shakllarda kategorial ma'no bo'lsa, unda sifatiy yondosh va boshqa hamroh ma'nolar ham mavjud.

Quyida *-lar* shaklining OGMLarini sanaymiz.

«Ko'plik» *-lar* shakli eng ko'p ifodalaydigan ma'nodir. Bunda *-lar* UGMsining kategorial ma'nosi «ko'plik» bo'lsa, unga dialektik yondosh bo'lgan ma'no «miqdoriy noaniqlik» va «sifatiy bo'linuvchanlik»dir. Ya'ni GM «bo'linuvchan noaniq **ko'plik**». Demak, «ko'plik» ma'nosi ifodalanganda, albatta, o'z-o'zidan «noaniqlik» va «bo'linuvchanlik» ma'nolari yuzaga chiqishi shart. Bunga misol: *Bog'da shirin-shirin olmalar bor.* Olmaning ko'pligi ayon. Ammo uning nechtaligi noaniq va bu ko'plik bo'linuvchan (olma+olma+olma...).

«Jamlik» ma'nosi ba'zan sezilar-sezilmas, ya'ni bo'linuvchanlik xususiyatini saqlagan holda (a) yuzaga chiqsa, ayrim hollarda, xususan, turg'unlashib qolgan izofalarda (b) yaqqol yuzaga chiqadi: a) *kishilar orzusi, qushlar bayrami ...*b) *ishchilar sinfi, o'qituvchilar ro'znomasi, kitoblar uyi.*

-lar shaklining «bog'liqlik yoki o'xshashlikka asoslangan ko'plik»ni ifodalashi quyidagi misollarda yuzaga chiqqan: *Avazlarga g'isht quyib berdim* (Avaz va u bilan bog'liq oila a'zolariga). *Avvalgi sarvigullar o'qishni tugatishdi* (Sarvigulga o'xshaganlar).

-larning miqdoriy va sifatiy belgilari ayrim hollarda unga makon va zamon o'lehovlarida taxminiylikni ifodalash imkonini beradi. Masalan, *Adashmasam, uni urib burnini qonatganimda uch yoshlarda edik. O'n yillar ilgari kamina ham shu qizlar Yoshida edim.*

-larning kuchaytirilgan ma'no ifodalashi: *Tillarimga ko'cholmaydi bo'g'zimdagi ovozim.* Bunday kuchaytirish *-larning* «ko'plik» ma'nosiga bog'liq. Chunki ko'p narsa mantiqan kuchli bo'ladi. Ya'ni til aslida «bitta». Uni kuchli qilib ko'rsatish uchun ko'plik shakli berilmoqda.

Quyida nol [0] shakl OGMLarini sanaymiz.

«Birlik» ifodalash [0] shaklning asosiy vazifasidir. Bu ma'no ko'rsatish olmoshlari, *bir so'zi, aniqlovchilar bilan munosabatga kirishganda yuzaga chiqadi: Bir radiosi bor, sandiqdek keladi.* (O'.Hosh.)

[0] shakl jamlik ifodalaganda narsalarning bo'linmas, yaxlit birligi anglashiladi: **Gadoning dushmani gado bo'ladi.** (A.Orip.)

[0] shakl matnda aniq va noaniq ko'plik ifodalashi mumkin. Masalan, *ermon buvaning aytishiga qaraganda, o'n pud ko'sakni chuvish zimmimizga yuklatilgan edi.*

Aytilganlar asosida son kategoriyasi shakllari uchun quyidagi UGM larni ko'rsatamiz:

[0] shakli UGMsi – «bo'linmas sifat, aniq/noaniq miqdor ifodalash».

[-lar] shakli UGMsi – «bo'linuvchan/bo'linmas sifat va aniq/noaniq miqdor ifodalash».

Bu UGM o'z o'rnida kategorial va nokategorial qismlarga bo'linadi. «Miqdor» kategorial, «bo'linuvchan/bo'linmas sifat» yondosh, «tur», «xil», «kuchaytirish», «hurmat» kabilar kategorial ma'no bilan dialektik bog'lanmagan hamroh ma'nolardir.

Otning xususiy lug'aviy shakllari: kichraytirish, shaxsiy munosabat shakllari. Otlardagi yana bir lug'aviy shakl kichraytirish-erkalash shaklidir. Kichraytirish-erkalash paradigmasi *-cha, -gina, -(a)loq* shakllaridan iborat bo'lib, ular quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

-cha:

a) shaxs va predmetlarning kichik ekanligini: *kitobcha, qalamcha;*

b)erkalash ma'nosini: *o'g'ilcha, qizcha;*

v) kamsitish ma'nosini: *domlacha, odamcha.*

-gina:

a) kichraytirish: *qizgina, bolagina;*

b) achinish: *bechoragina;*

v)erkalash: *bolaginam.*

-(a)loq qo'shimchasi ayrim otlarga qo'shib,erkalash, hurmat ma'nolarini bildiradi: *bo'taloq, qizaloq, toyloq.*

Shaxsiy munosabat (erkalash) shakllari (*-jon, -xon, -oy, -bonu*) shaxs bildiruvchi atoqli va turdosh otlarga qo'shib,erkalash, suyish ma'nolarini ifodalaydi: *Ahmadjon, xolajon, Salimaxon, Shirinabonu.*

Otlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Otlar tuzilishiga ko'ra *sodda* va *murakkab* bo'ladi. Sodda otlar bir o'zakli bo'ladi: *kitob, daftar, odam, ishchi.* Murakkab otlar o'z o'rnida uchga bo'linadi: a) *juft otlar;* b) *takroriy otlar;* v) *qo'shma otlar.*

Otlarda sintaktik kategoriyalarning voqelanishi. Ot turkumida sintaktik kategoriyalar keng qo'llanishga ega. Xususan, KK va EK voqelanishi uchun bu turkumda cheklanmagan imkoniyat mavjud. Ammo unda kesimlik kategoriyasining voqelanishi nisbatan chegaralangan.

Egalik kategoriyasi. Ot turkumi EK UGMsini «keyingi otni oldingi so'zga bog'lash va mansublik, xoslik ma'nosini ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Matn va birikuvchi so'zlarning semantikasiga bog'liq ravishda turli-tuman grammatik ma'nolar ifodalanishi mumkin. Lekin «keyingi otni oldingi so'zga bog'lash» kategorial ma'no xususiylashtirish sifatida o'zgarmay qolaveradi. Ot turkumining EK UGMsini xususiylashtirishidagi o'ziga xosliklarni ko'rib o'tamiz.

Ot turkumida EK ning ishlatilishida ikki holat bor:

Egalik affiksi o'zi birikkan so'zning boshqa so'z bilan bog'lanishida ishlatiladi. Bu vaqtda EK dagi so'z QK dagi so'z bilan keladi: *mening kitobim, sening kitobing, uning kitobi.* Kishilik olmoshlari va EK qo'shimchalari shaxs va sonni ifodalaydi. Shu boisdan QK dagi olmosh tushirib qoldirilishi mumkin: *kitobim, nutqing;*

EK dagi so'z ba'zan CHK dagi so'z bilan ham birga qo'llanilishi mumkin: *talabalardan biri.* Bunda qaralmish miqdor yoki belgi ifodalovchi so'zlar bilan ifodalangan bo'ladi.

Egalik affiksi QK ni talab qilmaydi. Bunda ham ikki holat farqlanadi:

a)erkin birikmalarda bosh kelishikdagi so'zni boshqaradi: *Navoiy ko'chasi, Dehqonobod tumani.*

b)EK dagi so'zda affiks ma'nosi va vazifasi kuchsizlanib, ravishga o'tib ketadi: *kechasi, kunduzi;* modal so'zga o'tadi: *chamasi, yaxshisi.*

EK ning birlik va ko'plik shakllari qo'llanilishda farq bor. Ko'pincha miqdor bildiruvchi o'zaklarga birlik son shakli qo'shilmaydi: *bashovimiz*, *barchangiz*. Bu jihatdan III shaxs egalik affiksi farqlanadi: *barchasi*, *bashovi*.

Kelishik kategoriyasi. BK dagi ot *kim*, *nima*, *qaer* so'roqlariga javob bo'lib, quyidagi vazifalarda keladi:

Ega: 1. *Ilhom* - eng yosh o'qituvchi. 2. *Darvoza tepasiga sandiq qo'yilgandi*.

Hol: *Shu kuni Abdulla allamahalgacha xayol surib yotdi*. (O'.Umar.). *Er haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda*. (Maq.)

Vositasiz to'ldiruvchi: *Murotali qazib qo'ygan chuqurlarga ko'chat o'tqazardi*. (Sh.Rash.) *Bir kishi ariq qaziydi, ming kishi suv ichadi*. (Maq.)

Qaratuvchi aniqlovchi: *Ko'k yuzini yulduzlar band etdi*. (J.Abd.) *CHO'l qovunlari pishay-pishay deb turibdi*. (S.Ahm.)

Sifatlovchi: *Shu payt elektr qo'ng'iroq asta jiringladi*. (H.G'ul.)

Izohlovchi: *Daryodan o'tilgan kun general Pogodin harbiy Kengashga chaqirildi*. (I.Rah.)

Ot kesim (*Otam - ishchi*), undalma (*Siz baxtlisiz, Olimjon aka*), atov gap (*Ko'm-ko'k dala*) vazifasida kelganda, uni BK da deyish to'g'ri emas. Aytilganidek, bunda kelishik UGMsiga xos vazifa yuzaga chiqmagan.

QK dagi otda KK UGMsi «otni qaratqich aniqlovchi vazifasida keyingi so'zga bog'lash» tarzida xususiylashadi: *Mohidil inson tabiatining naqadar murakkabligiga yanada chuqurroq tushuna bordi*. (J.Abd.)

Manbalarda QK ning belgili va belgisiz ko'rinishlari farqlanadi. BK ning KK shakllari o'rnini bemalol almashtira olishi haqidagi nazariya «belgisiz QK» ni BK sifatida qarashni taqozo qiladi. Masalan, *nonning uvog'i* – QKda, *non uvog'i* – BKda.

TK dagi ot gapda ish-harakatni qabul qilgan predmetga obyekt tusini beradi va tushum kelishigi affiksini qabul qilgan ot vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladi. «Otga obyekt tusini berish va uni fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» TK UGM sining ot turkumidagi xususiylashuvidir.

Manbalarda TK ning ham belgili va belgisiz ko'rinishlari farqlanadi. BK ning KK shakllari o'rnini bemalol almashtira olishi haqidagi nazariya «belgisiz TK» ni ham BK sifatida qarashga olib keladi. Masalan, *nonni emoq* – TK da, *non emoq* – BK da.

Demak, QK va TK da ta'kidlash va ajratish ma'nosi bo'lib, unga ehtiyoj bo'lmaganda BK qo'llanadi.

CHK KK UGMsini umuman «oldingi so'zni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» tarzida, ot turkumida esa «oldingi otni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» ko'rinishida xususiylashtiradi.

Ot turkumida CHK ko'makchi bilan kelishi mumkin: *taomdan keyin, ishdan so'ng*.

CHK dagi otning vazifalari:

a) vositali to'ldiruvchi: *Gulnorning o'zidan so'rab ko'rarmiz?* («Saodat».)

b) o'rin holi: *Eshigi ochiq narigi xonadan pianino ovozi eshitilmoqda edi*. (P.Qod.)

v) sabab holi: *Yulduz taajjubidan o'zini bosol-madi*. (M.Muh.)

g) payt holi: *Ikkalasi yoshlikdan birga o'sishgan*. (M.Qor.)

d) ko'makchilar bilan birga ajratilgan bo'lak vazifasi: *Qamishkapaliklar odamlarni nomlari bilan atashdan ko'ra, xususiyatlari bilan ta'riflaydilar*. (A.Qah.)

CHK o'z vazifasini yo'qotishi mumkin: *birdan, to'satdan, qo'qqisidan*.

Ma'nosi kuchsizlanishi va gap qisqarishi natijasida kesim vazifasida tuslovchi olishi mumkin: *Qishloqdanmisizlar?* Qisqaruv hodisasi CHK dagi so'zning ega bo'lib kelishini ham ta'minlaydi: *Bu kitoblardan menda ham bor*.

JK dagi ot ish-harakat yo'nalgan predmetni anglatadi: *maktabga, ishga, zavodga, ukamga*. Uning invariant affiksi *-ga* bo'lib, nutqda turli fonetik, poetik variantlarga ega bo'ladi: *kurakka, tuproqqa, buyona, qayg'a*.

JK ko'makchilar bilan sinonimik munosabatga kirishadi: *uyga ketdi - uy tomon ketdi, ukasiga oldi - ukasi uchun oldi*.

JK CHK, TK va O'PK lari vazifalarini ham bajaradi: *Biz hashamatli bino oldiga(da) to'plandik. Bu gapga(ni) tushunmadim. Ko'rsatishga(dan) uyaldim*.

JK dagi ot gapda:

a) vositali to'ldiruvchi: *Mohidil shoshilinch safarga otlana boshladi*. (J.Abd.) *Dildor Nafisaning oppoq chaqnoq ko'zlariga havaslanib boqdi*. (H.G'ul.)

b) o'rin holi: *Bahor ko'zi to'la yoshni yashirmoq uchun eshikka yugurdi*. (Sh.Rash.) *Nayman cho'llariga, to'qaylariga chinakam bahor keldi*. (S.Ahm.)

v) payt holi: *Sport musobaqalari bahorga qoldirildi*. («Qashq.»).

g) maqsad holi: *Baloning oldini olmoqqa ne choralar ko'rmoq lozim*. (J.Abd.) *Bahor Po'latni kuzatishga yasanib chiqqan edi*. (Sh.Rash.)

d) sabab holi: *O'z vaqtida davolanmaganimga juda afsuslanaman. Sitora sportda katta muvaffaqiyat qozonganiga xursand bo'ldi*.

e) miqdor-daraja holi: *Ra'no do'kondan besh so'mga turli o'quv qurollari sotib oldi*.

Qisqargan qolipli gaplarda kesim vazifasida keladi: *Kitob hammaga. Bilim ommaga*.

Ko'rinadiki, JK ot turkumida KK UGMSini «oldingi otni keyingi fe'lga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtiradi.

O'PK ot turkumida KK UGMSini «oldingi otni keyingi fe'lga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtirib, ish-harakatning bajarilish o'rni, vaqti, sharoiti, holati, sababi, maqsadi kabi tajalli ma'nolarni ifodalaydi. O'PK *-da* ko'rsatkichiga ega: *qishloqda, yozda, hovlida*.

O'PK dagi so'zlar uyushib kelganda oldingilari uyushib kelishi mumkin: *Na sada daraxtlari osti, na machitlar, na doim bazm qiziydigan gavjumda biror sharpa eshitasiz*. (J.Abd.)

O'PK gapda:

a) vositali to'ldiruvchi: *Botirda bog'bonlikka mehr bolalikda uyg'ondi*. (N.Saf.)

b) o'rin holi: *Katta-katta ko'chalarda yursin*. (O'.Umar.)

v) payt holi: *O'sha kezlarda YOlqin akam otda g'o'zani kultivatsiya qilar edi*. (P.Qod.)

g) tarz holi: *Qiz horg'in, parishon holda uyga qaytdi*. (Oyb.)

d) maqsad holi: *Biz yangi maktab binosi qurilishi masalasida keldik*. (J.Abd.)

e) kesim: *Olimjonning ikki ko'zi ko'm-ko'k g'o'zalarda*. (Sh.Rash.). *Katta izzatda, kichik xizmatda*.

Bunda ham sintaktik qisqaruv yuz bergan.

O'PK gap bo'laklariga xoslanganda anglashiladigan ma'nolar u birikayotgan so'zlarning lug'aviy xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, *ko'cha* so'zida o'rin ma'nosi bor, shuning uchun *ko'chalarda* so'zshakli gapda o'rin holi vazifasida, *o'sha kezlarda* birikuvidan payt anglashiladi, shu boisdan bu birikma O'PKda payt holi bo'lib kelgan. Demak, O'PK zotiy mohiyatining voqelanishida tajalli ma'nolarning roli behad katta.

Asosiy adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Hozirgi o'zbek tili. Morfemika. Derivatsiya. Morfologiya. II qism. Qarshi-2005.
2. Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek tili. Morfologiya, 1-qism. Mustaqil so'z turkumlari. (Ma'ruza matnlari). Buxoro-2003.
3. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh. va boshqalar. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya.-T.: Yangi asr avlodi. 2001.- 182 b.
4. O'zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. Max.muh. G'.A.Abdurahmonov va boshq. T.: Fan, 1972.-610 b.

5. Zamonaviy o'zbek tili: Morfologiya\ Mualliflar jamoasi. Max. muh. H.G'.Ne'matov va boshqalar. T. Mumtoz so'z, 2008.

6. Sayfullaeva R.R., Mehg'liyev B.R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'qv qo'llanma.-T., Fan va texnologiya,2009. -416.

7. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. -T.: O'qituvchi. 1995.-127 b.

8. Musulmanova N.R. Grammatik shakllarda kategorial, yuondosh va hamroh ma'no (zamon va mayl kategoriyalari misolida) Filol.fan.nomz...diss. -Toshkent, 2007.-116 b.

Yordamchi adabiyotlar

1. Meng'liyev B.R. Morfologik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari: Filol. fan. nomz ... diss. Buxoro. 1995, - 144 b.

2. Nigmatov X.G. Funktsionalnaya morfologiya tyurkoyazchnx pamyatnikov XI-XII vv. -T.: Izd. Fan, 1989.-191 s.

3. Nigmatov X.G. Vkl'yuchennoe tretye v morfologicheskoy sisteme tyurkskix yazkov// Sov.tyurkologiya. 1976. -№3. -S. 31-36.

4. Shahobiddinova Sh. Grammatik ma'no talqini haqida: Filol.fan.nomz... .diss. -Samarqand, 1993.-152 b.

5. Bahriddinova B.M. Fe'1 lug'avliy shakllari tizimi (tur kategoriyasi) Filol.fan.nomz...diss. - Samarqand, 2002.-146 b.

7. Shukurov O. Harakat tarzi shakllari paradigmasi. Filol. fan. nomz ... diss. Avt. Qarshi. 2005, - 22 b.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Atoqli va turdosh otlarni qaysi xususiyatga ko'ra farqlaymiz?
2. Muayyan va mavhum otlarni-chi?
3. Yakka va jamlovchi otlarga izoh bering.
4. Otlarning yasalishi haqida gapiring.
5. Otning morfologik belgilari va tasniflovchi kategoriyalari nimalardan iborat?
6. Otning xususiy lug'avliy shakllari nima?
7. Otlarda sintaktik kategoriyalarning voqelanishini misollar asosida tushuntiring.

11-MAVZU: SIFAT VA SON SO'Z TURKUMLARI

Reja:

- 1.Sifat va uning UGMsi.
- 2.Daraja kategoriyasi.
- 3.Sifat LMGlari.
- 4.Sifatlarning yasalishi.
- 5.Sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari.
- 6.Sifatlarda sintaktik kategoriyalarning voqelanishi.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar: *asliy va nisbiy sifatlar, harakter, xususiyat, holat,rang, maza-ta'm, shakl, ko'rinish bildiruvchi sifatlar, ozaytirma, kuchaytirma daraja shakllari.*

Sifat va uning UGMsi. Asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiruvchi so'zlar sifat deyiladi: *qizil qalam, oq kabutar, yaxshi gapirmoq.*

Boshqa so'z turkumlari ham belgi ifodalaydi. Ammo sifat barqaror va turg'un belgi ifodalashi jihatidan ulardan ajralib turadi. Masalan, *Gul qizil* deganda turg'un (statik) belgi, *Gul qizardi* deganda esa o'zgaruvchi (dinamik) belgi namoyon bo'lgan. Sifat anglatadigan belgi boshqa turkumlar anglatadigan belgidan darajalanish xususiyati bilan farqlanadi. Masalan, *qizg'ish-qizil-qip-qizil*. Boshqa turkum

anglatuvchi belgida esa bunday xususiyat yo'q. Sifat gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, qisman kesim, hol vazifasida keladi.

Shu asosda sifatning UGMsini «asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildirib, gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, ba'zan kesim, ayrim hollarda hol vazifasida kelish» ko'rinishida tiklash mumkin.

Belgi tushunchasi o'z ichiga rang-tus, hajm-shakl, xarakter, vazn, maza kabilarni qamrab oladi. Belgining xususiyatiga ko'ra sifatlar ikkiga bo'linadi: *asliy sifatlar* va *nisbiy sifatlar*.

Asliy sifatlar predmetning turg'un, nisbatlanmaydigan va darajalanadigan belgisini ifodalaydi: *qizil, sariq, katta, ko'p, oz*.

Nisbiy sifatlar belgini qandaydir bir predmet, belgi, miqdor, o'rin va harakatga nisbatan ifodalaydi: *moddiy yordam, siniq piyola, burchakdagi o'tirgich*. Nisbiy sifatlarda darajalanish, qiyoslanish bo'lmaydi.

Asliy sifatlarning barchasida daraja shakllari, ayrimlarida ozaytirma va kuchaytirma shakllar bor.

Asliy sifat bildirgan belgining darajasi har xil bo'lishi mumkin. *Daraja kategoriyasi* (DK) sifat ifodalagan belgining shu nuqtayi nazaridan tavsifini beradi.

Sifat LMGlari. Darslik va qo'llanmalarda sifatning 9 ta LMG ajratiladi:

1.Xususiyat bildiruvchi sifatlar. 2.Holat bildiruvchi sifatlar. 3.Shakl bildiruvchi sifatlar. 4.Rang-tus bildiruvchi sifatlar. 5.Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar. 6.Hid bildiruvchi sifatlar. 7.O'lchov bildiruvchi sifatlar. 8.O'rin bildiruvchi sifatlar. 9.Payt bildiruvchi sifatlar.

Quyida ularning har birini alohida-alohida ko'rib o'tamiz.

Xususiyat bildiruvchi sifatlar narsa/mavjudotlarning xarakter xususiyatini ifodalashda ko'p qo'llanadi: *yoqimtoy, badjahl, muloyim, dilkash, yaxshi, yomon, loqayd* kabi. Xarakter-xususiyat ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin.

Holat bildiruvchi sifatlar narsa/mavjudotlarning holat yoki vaziyatini turg'un belgi sifatida ifodalaydi. Holat bildiruvchi sifatlar o'z o'rnida yana ichki guruhlarga bo'linadi:

1)tabiiy holat bildiruvchi sifatlar: *go'zal, mo'min, o'ktam, cho'loq, bukir*.

2)jismoniy holat bildiruvchi sifatlar: *bardam, baquvvat, tetik, yosh*.

3)ruhiy holat bildiruvchi sifatlar: *xafsa, g'amgin, ma'yus, xursand, shod*.

4)iqtisodiy holat bildiruvchi sifatlar: *boy, badavlat, kambag'al, nochor*.

5)harorat holatini bildiruvchi sifatlar: *iliq, salqin, sovuq, issiq*.

6)tozalik holatini bildiruvchi sifatlar: *toza, ozoda, kir, musaffo, isqirt*.

7)eskilik, yangilik holatini bildiruvchi sifatlar: *yangi, eski, ko'hna, juldur*.

8)ho'l-quruqlik holatini bildiruvchi sifatlar: *ho'l, quruq, nam, namxush*.

9)tinch va notinch holatni bildiruvchi sifatlar: *tinch, jim, jimjit, sokin, osuda, osoyishta, bezovta*.

10)etilganlik holatini bildiruvchi sifatlar: *xom, pishiq, g'o'r, puxta*.

Shakl bildiruvchi sifatlar. Bu turdagi sifatlar narsa/predmetlarning tashqi ko'rinishlarini ifodalaydi: *novcha, yassi, uzunchoq, dumaloq, yapaloq, aylana*.

Rang-tus bildiruvchi sifatlar: *oq, qora, qizil, pushti, sariq, zangor*.

Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar: *shirin, achchiq, nordon, taxir, sho'r*.

Hid bildiruvchi sifatlar: *xushbo'y, badbo'y, qo'lansa*.

O'lchov bildiruvchi sifatlar: *keng, tor, uzun, yaqin, katta, og'ir*.

O'rin bildiruvchi sifatlar: *ichki, tashqi, devoriy, qishloqi*.

Payt bildiruvchi sifatlar: *kuzgi, yozgi, qishki, ertachi, chillaki, ertapishar*.

Sifatlarning yasalishi. Sifatlar ikki usul bilan yasaladi: *affiksatsiya* va *kompo-zitsiya* usuli.

Affiksatsiya usuli. O'zbek tilida sifat yasovchi affiksatsion derivatsion qoliqlar anchagina. Ularni birma-bir sanab o'tamiz.

[ot + -li = 1) asosdan anglashilgan narsa/predmetga egalik belgisini bildiruvchi sifat; 2) asosdan anglashilgan narsa/predmetga me'yordan ortiq egalik belgisini bildiruvchi sifat;] (1) *rasmli, do'ppili, masxarali, gavdali*; 2) *aqli, gavdali, kuchli*), [harakat nomi + -li = narsa/predmetning fe'ldan angla-shilgan ish-harakat uchun juda mosligi, bopligini bildiruvchi sifat] (*o'tirishli, eyishli, ichishli*).

2. [ot +- dor= 1) asosdan anglashilgan narsa-predmetga egalik belgisini bildiruvchi sifat; 2) asosdan anglashilgan narsaning me'yordan ortiqqligini bildiruvchi sifat] (1)*aloqador, aybdor, manfaatdor*; 2)*mahsuldor, nasldor, to'shdor*).

3. [ser + ot = asosdan anglashilgan narsaning me'yordan ortiqqligini bildiruvchi sifat] (*sersoqol, sersuv, sergo'sht, sersomon*).

4. [be + ot = asosdan anglashilgan narsaning yo'q ekanligini bildiruvchi sifat] (*bemajol, bedin, beg'ubor*).

5. [ba + ot = asosdan anglashilgan narsaning me'yordan ortiqqligini bildiruvchi sifat] (*basavlat, baquvvat, sersavlat*).

6. [no + ot = 1) asosdan anglashilgan narsaga ega emaslikni bildiruvchi sifat; 2) asosdan anglashilgan belgiga qarama-qarshi belgini bildiruvchi sifat]]

1) *noumid, noinsof, noo'rin*; 2) *nomard, noma'lum, nomunosib*).

7. [sifat + -chan = asosdan anglashilgan xususiyatga moyillikni bildiruvchi sifat] (*kurashchan, yashovchan, unutuvchan*).

8. [fe'l + -choq/chiq/chak = asosdan anglashilgan harakatni bajarishga moyillikning kuchliligini bildiruvchi sifat] (*urinchoq, kuyinchak, totinchoq, qizg'anchiq*).

9. [fe'l + -qoq/g'oq = asosdan anglashilgan harakatni bajarishga moyillikning kuchliligini bildiruvchi sifat] (*uyushqoq, tirishqoq, yopishqoq*).

10. [fe'l + -ag'on = asosdan anglashilgan harakatni bajarishga moyillikning kuchliligini bildiruvchi sifat] (*topag'on, chopag'on, qopag'on*).

11. [fe'l + -mon = asosdan anglashilgan harakatni bajarishga moyillikning kuchliligini bildiruvchi sifat] (*toparmon, bilarmon, eyarmon*).

12. [fe'l/taqlid + -ki(qi) = asosdan anglashilgan harakatni bajarishga moyillikning kuchliligini bildiruvchi sifat] (*shartaki, jirtaki, yig'loqi*).

13. [fe'l + -k/-q/-g' = asosdan anglashilgan harakat natijasi sifatidagi holat belgisini bildiruvchi sifat] (*egik, buzuq, yorug'*).

14. [fe'l + -kin/qin/g'in/g'un = asosdan anglashilgan harakatni belgiga aylantirish] (*tushkun, turg'un, ozg'in/so'lg'in*).

15. [fe'l + -ma = 1) predmetning asosdan anglashilgan harakat usuli bilan yuzaga kelish belgisini bildiruvchi sifat; 2) fe'ldan anglashilgan harakat predmetning odatdagi, unga xos belgisi ekanligini bildiruvchi sifat] (1) *qovurma, ag'darma, qisqartma, ivitma, buyurtma*; 2) *ko'chma, burama, og'ma, sochma*).

16. [fe'l + -(a)rli = shaxs/predmetning asosdan anglashilgan harakatning bajarilishiga oid belgisini bildiruvchi sifat] (*arzirli, achinarli, zerikarli, maqtarli, ajablanarli, etarli, tushunarli*).

17. [taqlid + -ildoq = asosdan anglashilgan belgiga ortiq darajada egalikni bildiruvchi sifat] (*chiyildoq, bijildoq, dirildoq, akildoq, likildoq, po'rsildoq*).

18. [fe'l + -ch = asosdan anglashilgan harakatga bog'liq belgini bildiruvchi sifat] (*tinch, jirkanch*).

19. [ot + -iy/viy =1) predmetning asosdan anglashilgan narsa/hodisaga aloqadorlik belgisini bildiruvchi sifat; 2) asosdan anglashilgan tushunchaga egalik belgisini bildiruvchi sifat] (1)*ilmiy, shaxsiy, imloviy*; 2) *taxminiy, aqliy, ommaviy*).

20. [ot/ravish + -gi/ki/qi = predmetning asosdan anglashilgan joy yoki vaqtga ko'ra belgisini bildiruvchi sifat] (*avvalgi, hozirgi, tonggi, tungi, kechki, ichki*).

21. [ot + -i = shaxs yoki predmetning millat/vaqt/joyga mansubligini bildiruvchi sifat] (*qozoqi, qishloqi, bahori*).

22. [ot/sifat + -cha = predmetning millat/ joy/miqdor/ xususiyat kabilarga ko'ra belgisini bildiruvchi sifat] (*o'zbekcha, farg'onacha, ortiqcha, erkakcha*).

23. [sifat + -namo = biror shaxsning asos bildirgan xarakter-xususiyat belgisiga ega ekanligini bildiruvchi sifat] (*darvishnamo, avliyonamo, majnunnamo*).

24. [ot + -simon = asosdan anglashilgan narsaga o'xshashlik belgisini bildiruvchi sifat] (*sharsimon, kumushsimon, odamsimon*).

25. [ot + -parvar = asosdan anglashilgan narsani sevishni bildiruvchi sifat] (*xalqparvar, insonparvar, vatanparvar*).

Ko'rib o'tilganlardan tashqari **-aki** (*dahanaki, zo'raki*), **bad-**(*badaxloq, badhazm, badbashara*), **-shumul**(*olamshumul, jahonshumul*), **-chil** (*dardchil, izchil*), **-kay** (*kungay, terskay*), **-don** (*gapdon, bilimdon*), **-msiq**(*qarimsiq, achimsiq*), **-kash** (*dilkash, hazilkash*), **-m** (*qaram*), **-lom** (*sog'lom*), **-qa** (*qisqa*), **-bop** (*qishbop, palovbop*), **xush-** (*xushbichim, xushhavo*) affiksli qoliplar asosida ham sifatlar yasalgan. Bu affiksli qoliplar unumsiz bo'lganligi uchun ularning mazmuniy tomonini mavjud hosilalaridan umumlashtirib chiqarib bo'lmaydi.

Kompozitsiya usuli. Kompozitsiya usuli bilan qo'shma va juft sifatlar hosil bo'ladi.

Qo'shma sifatlar. Qo'shma sifatlar quyidagi qoliplar asosida hosil bo'ladi:

1. Ot+ot: *devsifat, devqomat, dilorom, dilozor, kafangado, otashnafas, sohibjamol*.
2. Sifat+ot: *xomkalla, sho'rpehona, kaltafahm, shirin-suxan, sho'rtumshuq, balandparvoz*.
3. Ot+sifat: *yoqavayron, jig'ibiyron, tepakal, xonavayron, xudobezor, otabezori*.
4. Ravish+ot: *hozirjavob, kamgap, kamsuxan, kamsuqum, kamqon, kamxarj*.
5. Ravish+fe'l: *tezpishar, ertapishar, cho'rtkesar*.
6. Fe'l+ fe'l: *ebto'yimas*.
7. Olmosh+ot: *o'zboshimcha*.
8. Ot+fe'l: *tilyog'lama, gadoytopmas, tinchliksevar*.
9. Olmosh+sifat: *o'zbilarmon*.
10. Son+ot: *ikkizuzlamachi, qirqyamoq*.

Juft sifatlar. Juft sifatlar tarkibidagi so'zlarning xususiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

I. Har ikki qismi mustaqil holda ishlatiladigan juft sifatlar:

1. Qismlari sinonim: *aql-hushli, pishiq-puxta, telba-teskari, sog'-salomat, yakka-yolg'iz*.
2. Qismlari antonim: *achchiq-chuchuk, baland-past, vayronu-obod, issiq-sovuq*.
3. Qismlari ma'noviy yaqin: *mo'min-qobil, och-yalang'och, soya-salqin, xor-zor, ezma-churuk*.

II. Bir qismi mustaqil holda ishlatiladigan juft sifatlar: *aralash-quralash, mast-alast, ilma-teshik, tuppa-tuzuk, xom-xatala, entak-tentak, qari-quri, qora-qura, yamoq-yasqoq, harom-harish*.

III. Har ikkala qismi mustaqil holda ishlatilmaydigan sifatlar: *aji-buji, aloq-chaloq, poyintar-soyintar, uvali-juvali, o'poq-so'poq, ilang-bilang*.

Boshqa turkumlarga xos so'zlar konversiya yo'li bilan sifatga o'tishi mumkin. Bu sifatlashuv deyiladi. Sifatlashuv tarixiy jarayon bo'lib, boshqa so'z turkumlari uzoq davro'tishi bilan sifatga aylanib boradi. Sifatlashuv hodisasi lisoniy tabiatga ega.

Juft va takroriy otlarning sifatlashuvi: *mosh-guruch, yo'l-yo'l, rang-barang, xilma-xil*.

O'zak holdagi fe'llarning sifatlashuvi: *daydi, qari, chalkash, yanglish, tutash, aralash*.

Harakat nomi shaklidagi juft fe'llar: *olmoq-solmoq*.

Kesimlik shaklidagi fe'llar: *oldi-qochdi, kuydi-pishdi, tug'di-bitdi, iliguzildi, ichakuzdi, supraqoqdi*.

Sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Sifatlar tuzilishiga ko'ra *sodda* va *murakkab* bo'ladi. Sodda sifatlar bir o'zakli bo'ladi: *oq, yozgi, aqlli, beg'ubor, tor*. Murakkab sifatlar o'z o'rnida uchga bo'linadi: a) *juft sifatlar*; b) *takroriy sifatlar*; v) *qo'shma sifatlar*.

Juft sifatlar ikki sifatning juftlashishidan tashkil topadi: *oq-qora, yaxshi-yomon, katta-kichik*.

Takroriy sifatlarda bir o'zak takrorlanadi: *katta-katta, baland-baland, og'ir-og'ir*.

Qo'shma sifatlar birdan ortiq mustaqil so'zning qo'shilishidan hosil bo'ladi: *havo rang, ishyoqmas, ertapishar, yoqavayron, o'zbiarmon*.

Eslatma. Juft va qo'shma sifatlar yasama bo'lib, takroriy sifatlarda shakl yasalishi mavjud. Biroq takroriy sifatlar taraqqiyot natijasida yangi ma'no kasb etishi ham mumkin: *yo'l-yo'l*. Bunda yangi so'z yasalishi emas, balki so'zshaklning leksemalashuvi hodisasi mavjud.

Daraja sifatning tasniflovchi kategoriyasi sifatida. DK «belgi darajasi» UGMsiga ega. Daraja turli (geterogen) shakllar yordamida hosil qilinadi: *chiroyli-chiroyliroq-juda chiroyli*.

Asliy sifatlarda belgining darajasini ifodalashga ko'ra uch daraja ajratiladi:

a) *oddiy daraja*; b) *orttirma daraja*; v) *ozaytirma daraja*.

Oddiy daraja hech qanday vositasiz yuzaga chiqadi. Unda DK UGMsi «belgining ortiq-kamligiga munosabat bildirmaslik» tarzida yuzaga chiqadi: *yaxshi, qattiq, semiz, keng, baland, to'g'ri, yumshoq* kabi.

Orttirma daraja belgining me'yoriy holatdan ortiqligi, kuchliligini ifodalab, DK UGMsini «belgining me'yordan ortiqligini ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Orttirma daraja maxsus morfologik shaklga ega emas. DK ifodalovchisining geterogenligi ushbu darajada yaqqol ko'zga tashlanadi. Orttirma daraja quyidagi usullar bilan hosil qilinadi:

1. **Fonetik usul.** Buning bir necha ko'rinishlari bor: a) *qop-qora, yap-yapalok, dum-dumaloq*; b) urg'uli tovushning cho'zi-lishi: *u'zun, bala'nd, chiro'yli*.

2. **Leksik usul:** *juda kuchli, g'oyatda qo'rqinchli, nihoyatda baland*.

Belgining ortiq darajasi analitik shaklda ham ifodalanadi. Bu shakl ikki uzvli bo'lib, birinchi uzvini chiqish kelishigi shaklida qo'llash orqali hosil qilinadi: *uzundan uzoq, shirindan shirin*.

Ozaytirma daraja DK UGMsini «belgining me'yordan kamligini ifodalash» ko'rinishida xususiylashtiradi. Bu ma'no ikki usul bilan yuzaga chiqadi:

Leksik usul: *sal durust, bir oz yaxshi, xiyol ochiq*.

Morfologik usul: *kattaroq, ko'proq, ozroq*;

Eslatma. Rang-tus bidiruvchi ayrim sifatlarda qo'llanuvchi *-(i)sh, -(i)mtir* affikslari belgining kuchsiz darajasini bildirmaydi. Masalan, *oqish* so'zi oq rangning, *qoramtir* so'zi qora rangning kuchsiz darajasi emas, balki oq, qora bo'lmagan, balki ularga o'xshash bo'lgan rang turlaridir.

Sifatlarda sintaktik kategoriyalarning voqelanishi. Sifat turkumida sintaktik kategoriyalar keng bo'lmagan voqelanishga ega.

Egalik kategoriyasi. Sifat turkumiEK UGMsini «keyingi sifatni oldingi so'zga bog'lash va mansublik, xoslik ma'nosini ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Matn va birikuvchi so'zlarning semantikasiga bog'liq ravishda turli-tuman grammatik ma'nolar ifodalanishi mumkin. Lekin «keyingi sifatni oldingi so'zga bog'lash» kategorial ma'no xususiylashtirish sifatida o'zgarmay qolaveradi. Quyida sifat turkuminingEK UGMsini xususiylashtirishidagi o'ziga xosliklarni ko'rib o'tamiz.

Egalik affiksi o'zi birikkan so'zning boshqa so'z bilan bog'lanishida ishlatiladi. Bu vaqtdaEK dagi so'z QK dagi so'z bilan keladi: *olmaning qizili, odamning aqlisi*.

EK dagi so'z ba'zan CHK dagi so'z bilan ham birga qo'llanilishi mumkin: *odamlardan aqlisi*.

EK dagi so'zda affiks ma'nosi va vazifasi kuchsizlanib, ravishga o'tib ketadi: *yaxshisi*.

EK ning birlik va ko'plik shakllari qo'llanilishda farq bor. Ko'pincha miqdor bildiruvchi o'zaklarga birlik son shakli qo'shilmaydi: *aqllingiz ko'pimiz*. Bu jihatdan III shaxs egalik affiksi farqlanadi: *nodoni, rangdori*.

Kelishik kategoriyasi. KK sifatda EK bilan birga qo'llanadi.

BK dagi sifat ega vazifasida keladi: 1. *Ukamning kichigi - o'qituvchi.* 2. *Darvoza tepasiga shoxning kattasi qo'yilgandi.*

QK dagi sifatda KK UGMsi «sifatni qaratqich aniqlovchi vazifasida keyingi so'zga bog'lash» tarzida xususiylashadi: *Inson yalqovining bahonasi ko'p.* (J.Abd.)

TK dagi sifat gapda ish-harakatni qabul qilgan predmetga obyekt tusini beradi va tushum kelishigi affiksini qabul qilgan sifat vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladi. «Sifatga obyekt tusini berish va uni fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» TK UGM sining sifat turkumidagi xususiylashuvidir: *Gulning qizilini ajratdi.*

CHK KK UGMsini umuman «oldingi so'zni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» tarzida, sifat turkumida esa «oldingi sifatni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» ko'rinishida xususiylashtiradi.

CHK dagi sifatning vazifalari:

a) vositali to'ldiruvchi: *Qarzni odamning yaxshisidan so'rang.* («Saodat».)

b) o'rin holi: *Eshigi ochiq narigi xonadan pianino ovozi eshitilmoqda edi.* (P.Qod.)

v) sabab holi: *Piyozning achchig'idan ko'zlari qizardi.* (M.Muh.)

JK dagi sifat ish-harakat yo'nalgan predmetni belgisi bilan anglatadi: *og'iriga, yaqiniga.*

JK dagi sifat gapda to'ldiruvchi, hol kabi bo'laklar vazifasida keladi: 1. *Qizning ko'zlarining qorasiga havaslanib boqdi.* 2. *Bola hovuzning to'lasiga yugurdi.*

Ko'rinadiki, JK sifat turkumida KK UGMsini «oldingi sifatni keyingi fe'lga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtiradi.

O'PK sifat turkumida KK UGMsini «oldingi sifatni keyingi so'zga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtirib, ish-harakatning bajarilish o'rni, vaqti, sharoiti, holati, sababi, maqsadi kabi tajalli ma'nolarni ifodalaydi: *Odamning pismig'ida gap ko'p.*

Asosiy adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Hozirgi o'zbek tili. Morfemika. Derivatsiya. Morfologiya. II qism. Qarshi-2005.
2. Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek tili. Morfologiya, 1-qism. Mustaqil so'z turkumlari. (Ma'ruza matnlari). Buxoro-2003.
3. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh. va boshqalar. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya.-T.: Yangi asr avlodi. 2001.- 182 b.
4. O'zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. Max.muh. G'.A.Abdurahmonov va boshq. T.: Fan, 1972.-610 b.
5. Zamonaviy o'zbek tili: Morfologiya\ Mualliflar jamoasi. Max. muh. H.G'.Ne'matov va boshqalar. T. Mumtoz so'z, 2008.
6. Sayfullaeva R.R., Mehliyev B.R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'qv qo'llanma.-T., Fan va texnologiya,2009. -416.
7. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. -T.: O'qituvchi. 1995.-127 b.
8. Musulmanova N.R. Grammatik shakllarda kategorial, yuondosh va hamroh ma'no (zamon va mayl kategoriyalari misolida) Filol.fan.nomz...diss. -Toshkent, 2007.-116 b.

Yordamchi adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Morfologik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari: Filol. fan. nomz ... diss. Buxoro. 1995, - 144 b.
2. Nigmatov X.G. Funktsionalnaya morfologiya tyurkoyazchnx pamyatnikov XI-XII vv. -T.: Izd. Fan, 1989.-191 s.
3. Nigmatov X.G. Vkl'yuchennoe tretye v morfologicheskoy sisteme tyurkskix yazkov// Sov.tyurkologiya. 1976. -№3. -S. 31-36.

4. Shahobiddinova Sh. Grammatik ma'no talqini haqida: Filol.fan.nomz... .diss. -Samarqand, 1993.-152 b.
5. Bahriddinova B.M. Fe'l lug'aviy shakllari tizimi (tur kategoriyasi) Filol.fan.nomz...diss. - Samarqand, 2002.-146 b.
7. Shukurov O. Harakat tarzi shakllari paradigmasi. Filol. fan. nomz ... diss. Avt. Qarshi. 2005, - 22 b.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Asliy va nisbiy sifatlar orasidagi farqni tushuntiring.
2. Sifat va ravish oralig'idagi so'zlar bormi?
3. Darajasi kategoriyasi haqida gapiring.
4. Sifat LMGLarini izohlang.
5. Sifatlarning yasalishiga misollar keltiring.
6. Sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlariga izoh bering.
7. Sifatlarda sintaktik kategoriyalarning voqelanishini tushuntiring.

DAVOMI: SON SO'Z TURKUMI

Reja:

1. Son va uning UGMsi. Sonning grammatik xususiyatlari.
2. Sonning LMT va LMGLari hamda ularga xos lug'aviy shakl hosil qiluvchi vositalar.
3. Sanoq sonlarning hisob so'zlari bilan qo'llanishi.
4. Sintaktik kategoriyalarning son turkumida voqelanishi.

***Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar:** miqdor va tartib sonlar, dona, sanoq, chama, jamlovchi sonlar, sanoq so'zlari; ravishlarning o'zgarmasligi, ma'no turlari, yasalishi, ravishlarda soddalashish, tublashish.*

Son va uning UGMsi. «Predmetlarning sanog'i va aniq miqdori uchun ishlatiladigan so'z» sonning so'z turkumi sifatidagi UGMsidir. Sanaladigan predmetlar uchun ishlatilganda ularning sanoq va miqdorini anglatadi. Son so'z turkumi sifatida predmet ifodalovchilari bilan munosabatga kirishib, shu jihati bilan sifat va ravish turkumiga yaqin turadi. Biroq aniq miqdor bildiruvchi bu so'zlar predmetlarning noaniq miqdorini bildiruvchi *oz, ko'p, mo'l* kabi sifatlardan ajralib turadi. Sifatlar raqam bilan ifodalanmaydi. Son esa noaniq miqdorni bildirganda ham raqam bilan beriladi: *uch-to'rt kun (3-4 kun)*. Bu esa ular anglatgan miqdor noaniqligi ham nisbiy ekanligidan dalolat beradi.

Songa oid so'z matematik son ma'nosida esa faqat sonlarning nomini bildiradi. Demak, predmet nomini anglatuvchi so'z bilan munosabatda namoyon bo'ladigan ma'nosi bilan son so'z turkumini tashkil etadi.

Sonning grammatik xususiyatlari. Son morfologik va sintaktik xususiyatlarining o'ziga xosligi bilan boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi.

Sonlarda o'ziga xos morfologik ifodasiga ega bo'lgan quyidagi grammatik xususiyatlar mavjud:

- sanoq sonlarga *-(i)nchi* affiksining qo'shilishidan predmetlarning tartibiga ko'ra munosabatini ifodalovchi grammatik ma'no hosil bo'ladi: *birinchi, o'ninchi*.

- sanoq sonlarga *-ov, -ala* affikslarining qo'shilishidan predmetlarning guruhini, to'dasini ifodalovchi grammatik ma'no hosil bo'ladi: *ikkovi, uchalasi*.

- sanoq sonlarga *-ta+cha, -lab* affikslarining qo'shilishidan predmetlarning taxminiy hisobini ifodalovchi grammatik ma'no hosil bo'ladi: *o'ntacha, yuzlab*.

- sanoq sonlarga *-ta+dan* affiksining qo'shilishidan predmetlarning taqsimini ifodalovchi grammatik ma'no hosil bo'ladi: *ikkitadan, o'ntadan*.

2. Hisob so'zlari (*juft, gramm, dona, metr*) bilan qo'llanilishi uning o'ziga xosligini belgilovchi muhim omillardan biridir.

3. Sintaktik kategoriyalar cheklangan voqelanishga ega.

4. Sonlar yasaliş xususiyatiga ega emas. Biroq sondan boshqa soʻz turkumlari yasaladi: *birlashmoq, ikkilanmoq, beshlik* kabi.

Sonlar quyidagi sintaktik xususiyatlarga ega.

Sonlar otlardan oldin kelib, asosan aniqlovchi vazifasini bajaradi.

Sonlar cheklangan darajada boʻlsa-da gapning barcha boʻlaklari vazifasida kela oladi.

Son ot oldida aniqlovchi vazifasida kelganda u bilan birga ajralmas birikmani vujudga keltiradi: *ikki talaba kelmasi* birikuvida *ikki talaba* ajralmas birikma boʻlib, bitta boʻlak, *ikki* soʻzi esa boʻlakning boʻlagi vazifasida kelgan.

Son va sifatni aniqlovchi sifatida qoʻllashga toʻgʻri kelganda avval son, keyin sifat joylashadi: *uchta aʼlochi talaba, beshita ilgʻor terimchi*.

Sonning LMT va LMGlari hamda ularga xos lugʻaviy shakl hosil qiluvchi vositalar. Sonlar maʼno va grammatik xususiyatlariga koʻra dastlab ikki LMT ga boʻlinadi: «miqdor son» LMTsi va «tartib son» LMTsi. «Miqdor son» LMTsi predmetning miqdorini, «tartib son» LMT si esa tartibi, sirasiga koʻra xususiyatlarini bildiradi.

Bu LMTlar oʻzaro quyidagi munosabatlarga ega:

- miqdor son ichki LMGlarga ega. Tartib son LMTsi bir vaqtning oʻzida LMG hamdir;
- miqdor sonlar hisob soʻzlari bilan qoʻllana oladi, tartib sonlar esa bunday xususiyatga ega emas;
- miqdor sonlar juftlasha oladi, tartib sonlarda esa bunday xususiyat yoʻq;
- miqdor sonlarga *beshdan bir, uchga bir* kabi birikmali qoʻllanishlar xos, tartib sonlarga esa xos emas;
- miqdor sonlar koʻplik shaklini olganda taxminiy miqdor bildiradi (*uchlarda keldi*), tartib sonlar esa bunday holda otlashib ketadi: *birinchilar – birinchi odamlar*.

«**Tartib son» LMGsi.** Tartib son predmetning aniq tartibini, ketma-ketlikdagi oʻrnini bildirish, shuningdek, boshqalaridan farqini koʻrsatish uchun ishlatiladi.

Tartib son sanoq sonlarga *–(i)nchi* affiksining qoʻshilishidan hosil boʻldi.

–(i)nchi affiksi oʻrnida baʼzan *–lamchi* shakli ham ishlatiladi. Masalan: **Birlamchi**, *gʻalamis odamlarning gapiga quloq solmanglar, ikkilamchi, oʻzlaring bilasizlar, mardikorlikka ketganlar koʻpi bilan olti-etti oylarda qaytishadi...*(A.Qah.)

Tartib sonlar feʼllar bilan bogʻlanganda miqdorni ham anglatadi: *Bu gapni birinchi eshitishim.* (S.Ahm.)

Tartib sonlar oy kunlarning tartibini bildirganda vaqt bildiruvchi otlardan oldin keladi: *ikkinchi aprel, yigirma uchinchi aprel, oʻn sakkizinchi mart, yigirmanchi noyabr* kabi. Bu rus tilining taʼsiri, albatta. Sof oʻzbekcha oy kuni hisobi *aprelning ikkinchi kuni, noyabrning yigirmanchi kuni* tarzida boʻladi.

Tartib sonlarning otlashgan va otlashmagan holatlarini farqlash lozim. *Odamlarning birinchisi, oʻquvchilarning beshin-chisi* birikuvlarida sonlardagi egalik qoʻshimchasidan oldin tushirilgan otni qoʻyib boʻlmaydi. Demak, bu son otlashmagan. *Birinchi kitobni sen olasan, ikkinchisini men gapida ikkinchi tartib soni otlashgan.*

«**Miqdor son» LMTsi va uning LMGlari.** Miqdor sonlar predmetlarni sanash, donalash, taqsimlab yoki taxminlab koʻrsatish uchun ishlatiladi. Uning quyidagi LMGlari ajratiladi: «sanoq sonlar» LMG, «dona sonlar» LMG, «chama sonlar» LMG, «jamlovchi sonlar» LMG, «taqsim sonlar» LMG.

«**Sanoq sonlar» LMG.** Sanoq sonlar predmetlarni sanash, donalab koʻrsatish uchun ishlatiladi: *Xatni oʻqiyotganimda, kampir ikki qoʻlini tizzasiga tirab, jimgina quloq solib oʻtirdi.* (S.Ahm.) *Ikki doʻst yarim tunga qadar suhbatlashib oʻtirishdi.* (YO.Shuk.)

Sanoq sonlar morfologik koʻrsatkichga ega emas.

Sanoq son ot bilan sintaktik munosabatga kirishganda mustaqil va nomustaqil sintaktik mavqelarda bo'la oladi. Mustaqil mavqeda aniqlanmishdan ayricha so'roqqa javob bo'lib, alohida bo'lak maqomiga ega bo'ladi: *Besh* (aniql.) *kishi* (ega) *so'zladi* (kesim). Nomustaqil mavqeda tarqibiy qism sifatida yuzaga chiqadi: *Besh kishi* (ega) *kelishdi* (kesim).

Sanoq son qo'shma sifat hosil qilishi mumkin: *besh yashar bola, uch chaqirimli yo'l*.

Sanoq sonlar sirasida *bir* so'zi qo'llanish va vazifalari jihatidan qator o'ziga xosliklarga ega.

«miqdor» ma'nosi: *YAna bir gapni ayting*. (S.Nur.)

«noaniqlik» ma'nosi: *Bir o'zbek yigiti so'zlay boshladi*. (Oyb.)

«harakat belgisi» ma'nosi: *Mashina bir lapanglab, ilgariladi*. (S.Ahm.)

«mo'ljal» ma'nosi: *ertaga bir dam oling*.

«bir xil» ma'nosi: *Tiling bilan ko'nglingni bir tut*.

«kuchaytirish» ma'nosi: *YOmg'ir bir yog'di*.

«navbatma-navbat» ma'nosi: *Bola bir bizga qaraydi, bir otasiga qaraydi*.

«o'xshashlik» ma'nosi: *U mening birim*.

JK da «birgalik» ma'noli ravishga o'tadi: *birga ishlamoq*.

CHK da «to'satdan» ma'noli ravishga o'tadi: *birdan qichqirib yubordi*.

–day shakli bilan ravish bo'lib keladi: *birday*.

–ov affiksini olib «gumon» ma'noli olmosh: *Birov keldi*.

–or/-on affiksini olib keladi: *birorta, birona*.

–gina yuklamasi bilan «chegaralash» ma'nosi: *birgina*.

fonetik o'zgargan *ham* yuklamasi bilan «kuchaytirish» ma'nosi: *biram*.

–oq elementi bilan bog'lovchi vazifasida: *biroq*.

Shuningdek, *bir* so'zi *rov, pas, nafas, zum, payt, yil, vaqt, oy, kun (birrov, bir pas, bir nafas), necha, muncha, sidirg'a, oz, muncha, qadar (bir necha, bir oz, bir muncha), nima, narsa (bir nima, bir narsa), qator, talay (bir qator, bir talay), xil (bir xil), ba'zi, har, qaysi (ba'zi bir, har qaysi)* so'zlari bilan birga kela oladi.

Bir so'zi takrorlanib kela oladi: *bir-bir* («tartib bilan» ma'nosida), *birma-bir* («batafsil» ma'nosida), *birdan-bir* («yagona» ma'nosida), *bir-biridan* («o'zaro» ma'nosida), *bir-biriga* («biri ikkinchisiga» ma'nosida).

O'zbek tilida *bir* so'zi *ilk, yakka, yolg'iz, yagona* so'zlari bilan ma'nodoshlik kasb etadi.

Sanoq sonlarning hisob so'zlari bilan qo'llanishi. Sanoq sonlar o'lchov birliklarini ifodalovchi so'zlar bilan birga qo'llanilishi ham mumkin: *gektar, tanob, tosh, bosh, tup* kabi. Bunday so'zlar *hisob so'zlari* (numerativlar) deyiladi. Hisob so'zlari odatda ot turkumidan bo'ladi va alohida LMG ni tashkil etadi.

Hisob so'zlari o'zi birikkan son bilan birga ajralmas sintaktik birlikni tashkil etib, gapda bir sintaktik pozitsiyadan o'rin oladi.

Hisob so'zlari qadimdan o'zbek adabiy tilida faol qo'llangan. Bugungi kunda ularning ayrimlari butunlay iste'moldan chiqib ketgan yoki juda kam ishlatiladi. Ularga *qadoq, jon, tanob, gaz, sarjin, paysa, taxta, enlik, so'lkavoy, tosh, pud, mahal, yumaloq* (choy), *mehnat kuni* (uch mehnat kuni).

Gektar, gradus, kilovatt-soat, kubometr, metr (santimetr, millimetr), minut, par, pachka, sotix, sentner, mehnat kuni kabi hisob so'zlari o'zbek tiliga XX asrda kirib kelgan.

Hisob so'zlari tizimi ochiq sistemadir.

Hisob so'zlari LMG si quyidagi mikrosistemalardan tashkil topadi:

Predmetlarni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zlari: *bosh, nafar, dona, nusxa, tup, jon*.

Predmetni butun yoki to'daning qismi sifatida hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zlari: *burda, varaq, luqma, parcha, poy, siqim, tilim, tomchi, to'g'ram, chaqmoq, chimdim, shingil, qultum*.

Predmetlarni to'dalab, guruhlab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zlari: *bog', gala, guruh, dasta, to'da, to'p, shoda, quchoq, hovuch*.

Predmetlarni juftlab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zlari: *juft, (par)*.

Predmetlarning og'irlik o'lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zlari: *gramm, kilogramm, litr, pud, tonna, sentner, misqol, qadoq, botmon, kosa, piyola, qop, qoshiq, quti*.

Predmetlarning uzunlik va masofa o'lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zlari: *qadam, qarich, quloch, metr, tosh, chaqirim, kilometr*.

Yosh hisobini bildirish uchun ishlatiladigan hisob so'zlari: *yashar, yoshdagi, yoshli*.

Vaqt o'lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zlari: *asr, yil, kun, kecha-kunduz, oy, hafta, daqiqa, soniya*.

Qiyamat o'lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zlari: *so'm, tiyin, miri, paqir, dinor, dollar, rubl*.

Harakat miqdorini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zlari: *marta, karra, qatla, daf'a, sidra*.

«**Dona sonlar**» LMG. Dona sonlar –*ta* qo'shimchasi va *dona, nafar, bosh* kabi hisob so'zlari bilan hosil qilinadi. –*ta* qo'shimchali dona son predmetlarning miqdorini donalab ko'rsatish uchun ishlatiladi: **Bitta** bargni uzib Zokir otaga uzatdi. (A.Qah.)

Bu affiks har qanday son o'zaklariga qo'shilib kela oladi: *to'qqizta, o'n to'rtta, uch yuzta, etti yuzta*. Undan keyin ko'plik shakli qo'shilmaydi.

Egalik affiksining dona sonlar qo'shilishidagi o'ziga xoslik shundaki, bunda ko'plik Sh shaxs birlik (*bittasi, oltmish-oltitasi*) va bosh shaxslarning ko'plik (*sizning beshtangiz, bizning o'ntamiz*) shakllari faol.

Dona son fe'l oldida kelganda tarz ma'nosini ifodalab, gapda hol bo'lib keladi: *Men bitta gapiraman*.

Dona son yuklama olib, chegaralab, ayirib, donalab, kamaytirib ko'rsatish ma'nosini ham ifodalaydi: *to'rttagina, uchtagina*.

Dona son ko'rsatkichi *nafar, bosh, jon, dona* so'zlari bilan ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi: *bitta – bir dona, o'nta - o'n nafar, beshta- besh - jon* kabi.

«**CHama sonlar**» LMG. Chama sonlar –*tacha, -lab, -larcha* qo'shimchalari, sonlarning juft shakli, *taxminan, qariyb, taqriban, chamasi, yaqin, kamida, ortiq/mo'l(roq)* kabi ravish va boshqa turkum so'zlari orqali hosil qilinadi: *o'nta ishchi, millionlab yurtdoshlar, o'nlarcha mashina, soat o'n birlar, uch-to'rt kun, taxminan o'nta, yuzga yaqin, kamida besh mingta, sakson besh mingdan ortiqroq*.

Hisob so'zlari bilan kelgan sonlar –*cha* qo'shimchasi bilan chama ma'nosini beradi: *uch yilcha burun, besh kilometrcha*.

«**Jamlovchi sonlar**» LMG. Jamlovchi sonlar bir turdagi predmetlarning miqdoriy yig'indisini ifodalaydi. Ular *o'n* sonidan quyi turuvchi sonlarga qo'shiladi. Ular quyidagicha hosil qilinadi:

ikki, uch, to'rt, besh, olti, etti sonlariga –*ov/-ovlon* affiksi qo'shiladi: *ikkov(lon), uchov(lon), to'rtov(lon), beshov(lon), oltov(lon), etov(lon)*. Jamlovchi son EK da kelishi mumkin: *beshovimiz, ikkovi*. Bu hodisa otlashuv sanalmaydi.

ikki, uch, to'rt so'zlari –*ala* qo'shimchasini olib jamlash ma'nosini ifodalaydi: *ikkala, uchala, to'rtala, beshala*.

«**Taqsim sonlar**» LMG. Taqsim son LMG –*tadan* lug'aviy shakli orqali hosil qilinadi: *bittadan, o'ntadan*. Taqsim sonlar gapda ot yoki fe'llar oldidan kelishi mumkin: *o'ntadan olma, beshtadan oldi*.

Sonning butun yoki qismni ifodalashiga ko'ra turlari. Sonlar butun yoki qismni ifodalashiga ko'ra uch turga bo'linadi:

butun sonlar;

kasr sonlar;

aralash sonlar.

Butun sonlar narsa-miqdori yoki sanog'ini uning butun holatida ifodalaydi: *bir, yuz, ikki ming*.

Kasr sonlar butunning bo'lagini, ulushini ifodalaydi: *ikkidan bir, chorak, yarim*.

Aralash sonlar butun va kasr sonlarning birligidan tashkil topadi: *bir butun uchdan ikki*.

Sonlarning butun yoki qismni ifodalashiga ko'ra turlarga bo'linishini LMGLarga ajratishdan farqlash lozim.

Sintaktik kategoriyalarning son turkumida voqelanishi. Son cheklanmagan muchalanuvchanlikka ega, ya'ni u istalgan gap bo'lagi vazifasida kela oladi:

Kesim: *Bu xotinning joni bitta emas, balki mingta.* (A.Qah.)

Ega: *Dushmanning yuz birinchisi qoldi.* (A.Qah.)

Hol: *Samarqandni bir necha marta ko'rganman. U marraga birinchi etib keldi.*

Aniqllovchi: *Bir chetda gulzor oralab ikkita chiroyli qiz gul terib yuribdi.* (Oyb.)

To'ldiruvchi: *Jurnalning birinchisini topdim.*

Shunga muvofiq, son turkumi KK, EK va kesimlik kategoriyasini o'z doirasida voqelantiradi.

Egalik kategoriyasi. Son turkumi EK UGMsini «keyingi sonni oldingi so'zga bog'lash va mansublik, xoslik ma'nosini ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Matn va birikuvchi so'zlarning semantikasiga bog'liq ravishda turli-tuman grammatik ma'nolar ifodalanishi mumkin. Lekin «keyingi sonni oldingi so'zga bog'lash» kategorial ma'no xususiylashtirish sifatida o'zgarmay qolaveradi. Quyida son turkumining EK UGMsini xususiylashtirishidagi o'ziga xosliklarni ko'rib o'tamiz.

Egalik affiksi o'zi birikkan so'zning boshqa so'z bilan bog'lanishida ishlatiladi. Bu vaqtda EK dagi so'z QK dagi so'z bilan keladi: *olmaning beshtasi, odamlarning o'ntasi*.

EK dagi so'z ba'zan CHK dagi so'z bilan ham birga qo'llanilishi mumkin: *odamlardan uchyasi*.

EK ning birlik va ko'plik shakllari qo'llanilishda farq bor. Ko'pincha miqdor bildiruvchi o'zaklarga birlik son shakli qo'shilmaydi: *beshtangiz, ikkovimiz*. Bu jihatdan Sh shaxs egalik affiksi farqlanadi: *biri, oltovi*.

Kelishik kategoriyasi. KK sonda EK bilan birga qo'llanadi.

BK dagi son ega vazifasida keladi: 1. *Daftarning uchyasi menda.* 2. *Darvoza tepasiga shoxning ikkitasi qo'yilgandi.*

QK dagi sonda KK UGMsi «sonni qaratqich aniqllovchi vazifasida keyingi so'zga bog'lash» tarzida xususiylashtiradi: *Sigirning ikkitasining suti ko'p.*

TK dagi son gapda ish-harakatni qabul qilgan predmetga obyekt tusini beradi va tushum kelishigi affiksini qabul qilgan son vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladi. «Songa obyekt tusini berish va uni fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» TK UGM sining son turkumidagi xususiylashtirishidir: *Gulning uchtasini ajratdi.*

CHK KK UGMsini umuman «oldingi so'zni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» tarzida, son turkumida esa «oldingi sonni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» ko'rinishida xususiylashtiradi.

CHK dagi sonning vazifalari:

a) vositali to'ldiruvchi: *Qarzni odamning ikkinchisidan so'rang.*

b) o'rin holi: *Eshigi ochiq narigi xonaning birinchisidan pianino ovozi eshitilmoqda edi.*

JK dagi son ish-harakat yo'nalgan predmetni belgisi bilan anglatadi: *birinchisiga, uchoviga.*

JK dagi son gapda to'ldiruvchi, hol kabi bo'laklar vazifasida keladi: 1. *Qo'zilarining uchoviga havaslanib boqdi.* 2. *Bola mashinaning birinchisiga yugurdi.*

Ko'rinadiki, JK son turkumida KK UGMsini «oldingi sonni keyingi fe'lga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtiradi.

O'PK son turkumida KK UGMsini «oldingi sonni keyingi so'zga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtirib, ish-harakatning bajarilish o'rni, vaqti, sharoiti, holati, sababi, maqsadi kabi tajalli ma'nolarni ifodalaydi: *Bizning beshovimizda chora yo'q.*

Sonning tuzilishiga ko'ra turlari. Sonlar tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab bo'ladi. Sodda sonlar bir o'zakli bo'ladi: bir, besh, ming, yarim. Murakkab sonlar o'z o'rnida uchga bo'linadi: a) juft sonlar; b) takroriy sonlar; v) qo'shma sonlar.

Juft sonlar ikki sonning juftlashishidan tashkil topadi: uch-to'rt, besh-olti.

Takroriy sonlarda bir o'zak takrorlanadi: bitta-bitta, uchta-uchta, beshta-beshta.

Qo'shma sonlar birdan ortiq mustaqil so'zning qo'shilishidan hosil bo'ladi: o'n besh, bir ming olti yuz, uch butun beshdan bir, bir yarim.

Asosiy adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Hozirgi o'zbek tili. Morfemika. Derivatsiya. Morfologiya. II qism. Qarshi-2005.
2. Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek tili. Morfologiya, 1-qism. Mustaqil so'z turkumlari. (Ma'ruza matnlari). Buxoro-2003.
3. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh. va boshqalar. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya.-T.: Yangi asr avlodi. 2001.- 182 b.
4. O'zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. Max.muh. G'.A.Abdurahmonov va boshq. T.: Fan, 1972.-610 b.
5. Zamonaviy o'zbek tili: Morfologiya\ Mualliflar jamoasi. Max. muh. H.G'.Ne'matov va boshqalar. T. Mumtoz so'z, 2008.
6. Sayfullaeva R.R., Mehglyev B.R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'qv qo'llanma.-T., Fan va texnologiya,2009. -416.
7. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. -T.: O'qituvchi. 1995.-127 b.
8. Musulmanova N.R. Grammatik shakllarda kategorial, yuondosh va hamroh ma'no (zamon va mayl kategoriyalari misolida) Filol.fan.nomz...diss. -Toshkent, 2007.-116 b.

Yordamchi adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Morfologik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari: Filol. fan. nomz ... diss. Buxoro. 1995, - 144 b.
2. Nigmatov X.G. Funktsionalnaya morfologiya tyurkoyazchnx pamyatnikov XI-XII vv. -T.: Izd. Fan, 1989.-191 s.
3. Nigmatov X.G. Vkluychenoe tretye v morfologicheskoy sisteme tyurkskix yazkov// Sov.tyurkologiya. 1976. -№3. -S. 31-36.
4. Shahobiddinova Sh. Grammatik ma'no talqini haqida: Filol.fan.nomz... .diss. -Samarqand, 1993.- 152 b.
5. Bahriddinova B.M. Fe'l lug'aviy shakllari tizimi (tur kategoriyasi) Filol.fan.nomz...diss. - Samarqand, 2002.-146 b.
7. Shukurov O. Harakat tarzi shakllari paradigmasi. Filol. fan. nomz ... diss. Avt. Qarshi. 2005, - 22 b.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sonning UGMsi nima?
2. Sonning grammatik xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Sonning LMT va LMGlari hamda ularga xos lug'aviy shakl hosil qiluvchi vositalar haqida gapiring.
4. Sanoq sonlarning hisob so'zlari bilan qo'llanilishiga misollar keltiring.
5. Sintaktik katego8riyalarning son turkumida voqelanishini tushuntiring.

12-MAVZU: OLMOSH SO'Z TURKUMI

Reja:

1. Olmosh mustaqil so'z turkumi sifatida.
2. Olmoshlarning ifoda etadigan ishoraviy ma'nosiga ko'ra guruhleri.
3. Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari.

Olmosh mustaqil so'z turkumi sifatida.

“Ishoraviylik” ramzi bilan ataluvchi olmoshlar boshqa leksemalardan ajralib turadi. O'zbek tilshunosligida olmoshlarning doirasi va vazifasi zo'rma-zo'rakilik bilan ancha chegaralanib “ot, sifat, son o'rnida qo'llanuvchi so'zlar” deb o'ta tor tushunilgan. Vaholanki, bu bilan olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki fe'l, ravish, taqlid, undov, gap va, hatto, matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmagan edi. Olmoshlar guruhiga *men, sen, u, biz, siz, ular* kabi shaxsga; *kim, nima, bu, ana, mana, mana bu* kabi predmetga; *qanday, bunday, shunday* kabi belgiga; *buncha, shuncha, qancha* kabi miqdorga; *qachon* kabi paytga; *qaer* kabi o'ringa; *shunday bo'lmoq, qanday qilmoq* kabi harakat-holatga ishora qiluvchi leksemalar kiradi. Shuni aytib o'tish joizki, olmoshlar hamma vaqt ham qandaydir bir so'zni “almashtirib”, uning o'rnida kelavermaydi. Misollar: 1. *Kim mehnat qilsa, u rohat ko'radi.* 2. *Men kecha keldim. Sen buni bilasan.* 3. *Nima qilsam ham men o'zim bilaman.* 4. *Hamma mehmonlar biznikida.* 5. *Barcha mushkulotlar oson bo'ldi* kabi gaplarda kishilik, belgilash, o'zlik olmoshlari hech bir so'zni almashtirmagan.

Arab tilshunosligida olmoshlar alohida so'z turkumi sifatida berilmagan, balki har bir so'z turkumi ichida “yashirin ma'noli so'zlar” (*zamirlar*) sifatida alohida guruhlariga ajratilgan. Chunonchi, *kitob, daftar, Abbos* – aniq ma'noli otlar bo'lsa, *men, sen, kim* – yashirin ma'noli otlar (*zamid otlar*) dir. Yoxud *oq, qizil, chiroyli* ĩ ma'lum ma'noli sifat hisoblansa, *bunday, shunday* kabilar “zamid sifatlar” dir.

Olmoshlar shaxs, predmet, belgi yoki miqdorga xos bo'lgan umumiy (mavhum) ma'noni anglatadi. Olmosh bildiruvchi ma'no nutq jarayonida aniq yuzaga chiqadi. Ular o'zlari almashtiruvchi so'zlar kabi morfologik jihatdan o'zgaradi.

Olmosh qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llansa, shu turkum-ga xos sintaktik vazifani bajaradi: **O'qituvchi** *dersga kirdi. U o'quvchilar bilan salomlashdi.* Olmoshlar o'zidan oldin aniqlovchi talab qilmaydi: *Hamma xursand va shod. U kitobni o'qidi.* Olmoshlar ifoda etadigan ishoraviy ma'nosiga ko'ra quyidagi ma'no guruhlariga bo'linadi:

1. Kishilik olmoshlari.
2. Ko'rsatish olmoshlari.
3. O'zlik olmoshlari.
4. Belgilash olmoshlari.
5. So'roq olmoshlari.
6. Gumon olmoshlari.
7. Bo'lishsizlik olmoshlari.

I. Kishilik olmoshlari shaxs olmoshlari deb ham yuritiladi, chunki shaxsga ishora qilib keladi. Shaxs olmoshlarining qo'llanishida ayrim o'ziga xosliklar bor. Shaxslar o'z ma'nosidan tashqari ko'chgan holda qo'llanishi mumkin. Chunonchi:

1. *Biz* olmoshi II shaxs ko'plikdagi *siz* olmoshi o'rnida qo'llanadi: *Qani, endi biz ishga tushaylik.* Bunda tashviq ma'nosi anglashilib turadi.

2. Ko'plikni ifodalovchi olmoshlar birlik uchun qo'llana-di: *Bu ishni biz uddaladik.* Ushbu gapda *men* o'rnida ishlatilgan *biz* maqtanish, kibr ma'nosini ifoda etyapti.

3. *Men* o'rnida *biz* olmoshi ishlatilib, kamtarlikni ifodalashi mumkin: *Biz bu maqolada echimini kutayotgan muammoni olib chiqdik.*

4. *Sen o'rnida siz, u o'rnida ular* olmoshi ishlatilib, hurmat ma'nosini ifodalaydi: *Siz bugun darsda faol ishtirok etdingiz*. Men buvimni yaxshi ko'raman. Ular ham meni sevadilar.

5. *Siz* olmoshi, ko'pincha, birlik sonda hurmat ma'nosida qo'llanilganligi sababli ikkinchi shaxs ko'plik sonda *sizlar* shakli ishlatilishi mumkin: *Sizlar kelajagimiz*.

6. Kishilik olmoshlariga *-lar* qo'shimchasi qo'shilganda turli xil ma'nolar voqelanadi:

-*Senlarga aytyapman* (kamsitish ma'nosi).

-*Sizlarda insof bormi?* (ko'plik ma'nosi).

II. Ko'rsatish ma'nosini anglatuvchi olmoshlar (*bu, shu, mana, ana, u, o'sha, hov* va boshqalar) shaxs, predmet, belgini alohida ko'rsatish, ta'kid ma'nolari uchun xizmat qiladi. Ular ifodalovchi (ishoraviy) nom ham turlicha:

-shaxs yoki predmetga ishora qiladi: *-Siz o'shami?* (A. Qod.)

-belgiga ishora qiladi: *Menda ham shunaqa kitoblar bor*.

-vaqtga ishora qiladi: *Shu-shu Fotima kelmay qoldi*.

-o'ringa ishora qiladi: *Siz - unda, biz - bunda*.

III. O'zlik olmoshi. Bu olmosh turi «ta'kid», «tegishlilik» ma'nosini anglatadi: *Mening o'zim bilaman*. «O'xshatish» ma'nosi ham matndagi *o'z* so'zi orqali ifodalanadi: *Onasining o'zi*. «Umumiylik», «noaniqlik» kabi ma'nolar *-O'zim*. (*shunchaki*) turdagi gaplarda ro'yobga chiqadi.

IV. So'roq olmoshlari shaxs, predmet, belgi, harakatni aniqlash maqsadida ishlatiladi. Ular quyidagilarga bo'linadi:

-shaxsga nisbatan qo'llanuvchi olmoshlar (*kim, kimlar*);

-voqea-hodisa, predmetlarga nisbatan qo'llanuvchi olmoshlar (*nima, nimalar*);

-belgini aniqlashga qaratilgan olmoshlar (*qanday, qanaqa*);

-sabab va maqsadni aniqlashga qaratilgan olmoshlar (*nega, nima uchun, nechuk*);

-miqdorga nisbatan ishlatiluvchi olmoshlar (*necha, qancha*);

-harakat-holatga nisbatan qo'llanuvchi olmoshlar (*nima qildi, nima bo'ldi*);

-o'rin ma'nosini ifodalovchi so'roqlar (*qani, qayerda*);

-payt ma'nosini ifodalovchi so'roqlar (*qachon, qachonga*).

Bunday olmoshlar faqat so'rash ma'nolarini yuzaga chiqarmaydi, ma'noni bo'rttirish (*kimki, nimaki*), ritorik so'roq (*Men sizga nima dedim?!*), taajjub (*Buning nimasi yomon?!*) kabi ma'nolarni ifoda etadi.

V. Belgilash olmoshlari. *Har* so'zi belgilash olmoshi bo'lib, ko'pincha, so'roq olmoshlari bilan birikib keladi va qo'shma belgilash olmoshlari yasaydi. Jamlik ifodalovchi olmoshlar predmet, shaxs, belgiga nisbatan yig'indini, to'dani ifodalaydi: *hamma, yalpi, har kim, barcha, bari, butun*.

VI. Gumon olmoshlari muayyan predmet, shaxs, belgi yoki harakat xususida o'ta mavhum tushunchani bildiradi. So'roq olmoshlari bilan qo'shib keladigan *alla-* va *-dir* ushbu olmoshlarga noaniqlik ma'nosini kiritadi.

VII. Bo'lishsizlik olmoshlari ma'no jihatdan tasdiqqa nisbatan zidlikni bildiradi va *hech* so'zi bilan hosil bo'ladi. Bu olmoshlar gapni (fikrni) inkorga aylantiradi: *hech nima, hech kim, hech qachon, hech mahal...*

Tilimiz tarixida ham, hozir ham ba'zan juda ko'tarinki, tantavor nutqda kamtarinlik uchun, manmanlik qilmaslik uchun *men* kishilik olmoshi o'rnida *kamina, faqir, banda* so'zlari qo'llaniladi. Bular tilshunosligimizda *ot-olmoshlar* nomini olgan.

Olmoshlar nutqimizni o'rinsiz takrorlardan tozalashning, fikrni ixcham bayon qilishning muhim vositasidir. Ular gapda turli sintaktik vazifalarda kela oladi: 1. *Mening o'zim bu yukni ko'tara olmas edim*. 2. *Vazifamiz I shu*. 3. *Qanday kishi xor bo'lur?* 4. *Bahor keldi seni so'roqlab*.

Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlarini quyidagi jadvalda berish mumkin:

Olmosh	S h a k l l a r				
	Sodda		Qo'shma	Juft	Ta kroriy
	Tub	Yasam a			
1. Kishilik	men, sen	meniki , bularg a	-	-	-
2. Ko'rsatish	bu, shu	bular, shunisi	ana bu, mana u	u-bu	o's ha- o'sha, shu -shu
3. O'zlik	o'z	o'zim, o'zlari	-	-	o'z -o'zini
4. So'roq	kim, nima?	kinga, nimala r?	nima uchun, nima maq- sadda?	-	ki m-kim, ni ma- nima?
5. Jamlovchi	hamma , bari	hamma miz	har kim, har nima	-	bar cha- barcha, butun- butun
6. Bo'lishsizlik	hech	-	hech kim, hech nima	-	-
7. Gumon	-	birov, kimdir	allakim, allanima	-	-

Biz yuqoridagi jadvalda olmoshning “yasama” shaklini berishda tilshunos olim G'.Zikrillaevning fikrlariga tayanib, lug'aviy shakl qo'shimchalarini inobatga oldik.

Olmoshlarda **shaxs, hurmat, miqdor, munosabat** ma'no-larining mujassamligi va ularning nutqda rang-barang usulda voqelanishi, namoyon bo'lishi tilshunosligimizda aniqlangan. Masalan, kishilik olmoshlaridan *men, biz* so'zlovchi **shaxsni, sen, siz** tinglovchi **shaxsni, u, ular** o'zga **shaxsni** bildiradi. **Miqdor** ma'nosining ifodalanishi jihatidan *men, sen* birlikni; *biz, sizlar, senlar, bizlar* ko'plikni; *siz, ular* birlikka ham, ko'plikka ham betaraf ma'noni anglatadi. **Hurmat** ma'nosi II va III shaxs olmoshlariga xos. **Munosabat** ma'nosi kishilik olmoshlarining kelishik qo'shimchalarini olib o'zgarishida yuzaga chiqadi. Kishilik olmoshlariga egalik ma'nosi ham xos. Ushbu olmoshlar qaratgich kelishigida egalik ma'nosini bildiradi: *bizning universitet*. O'zbek tilida egalik ma'nosi kishilik olmoshiga *-niki* qo'shimchasini qo'shish bilan ham ifodalanadi: *meniki, bizniki, seniki* kabi. Yuqoridagi ma'nolarning ifodalanish tarzini boshqa LMGLarda ham kuzatish mumkin.

Asosiy adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Hozirgi o'zbek tili. Morfemika. Derivatsiya. Morfologiya. II qism. Qarshi-2005.

2. Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek tili. Morfologiya, 1-qism. Mustaqil so'z turkumlari. (Ma'ruza matnlari). Buxoro-2003.
3. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh. va boshqalar. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya.-T.: Yangi asr avlodi. 2001.- 182 b.
4. O'zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. Max.muh. G'.A.Abdurahmonov va boshq. T.: Fan, 1972.-610 b.
5. Zamonaviy o'zbek tili: Morfologiya\ Mualliflar jamoasi. Max. muh. H.G'.Ne'matov va boshqalar. T. Mumtoz so'z, 2008.
6. Sayfullaeva R.R., Mehg'liyev B.R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'qv qo'llanma.-T., Fan va texnologiya,2009. -416.
7. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. -T.: O'qituvchi. 1995.-127 b.
8. Musulmanova N.R. Grammatik shakllarda kategorial, yuondosh va hamroh ma'no (zamon va mayl kategoriyalari misolida) Filol.fan.nomz...diss. -Toshkent, 2007.-116 b.

Yordamchi adabiyotlar

1. Meng'liyev B.R. Morfologik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari: Filol. fan. nomz ... diss. Buxoro. 1995, - 144 b.
2. Nigmatov X.G. Funktsionalnaya morfologiya tyurkoyazchnx pamyatnikov XI-XII vv. -T.: Izd. Fan, 1989.-191 s.
3. Nigmatov X.G. Vkl'yuchennoe tretye v morfologicheskoy sisteme tyurkskix yazkov// Sov.tyurkologiya. 1976. -№3. -S. 31-36.
4. Shahobiddinova Sh. Grammatik ma'no talqini haqida: Filol.fan.nomz... .diss. -Samarqand, 1993.- 152 b.
5. Bahriddinova B.M. Fe'l lug'aviy shakllari tizimi (tur kategoriyasi) Filol.fan.nomz...diss. - Samarqand, 2002.-146 b.
6. Shukurov O. Harakat tarzi shakllari paradigmasi. Filol. fan. nomz ... diss. Avt. Qarshi. 2005, - 22 b.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Taqlidning UGMsi nima?
2. Taqlidlar mustaqil so'zmi? Nega?
3. Taqlidlar va olmoshlar orasida qanday o'xshashlik bor?
4. Taqlidlarning LMTlari haqida gapiring.
5. Taqlidlarning tuzilishiga ko'ra turlarini misollar asosida tushuntiring.
6. Olmosh mustaqil so'z turkumi sifatida.
7. Olmoshlarda lug'aviy ma'no bormi?
8. Olmosh va taqlidlar orasidagi farq va o'xshashlik haqida gapiring.
9. Olmoshlarning ifoda etadigan ishoraviy ma'nosiga ko'ra guruhlari.
10. Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlarini misollar asosida asoslang.

13-MAVZU: RAVISH SO'Z TURKUMI

Reja:

1. Ravish va uning UGMsi. Ravish o'zgarmas so'zlar turkumi sifatida.
2. Ravish LMGLari. Ravishlarda so'z yasalishi hodisasi.
3. Ravishlarning tuzilishiga ko'ra turlari.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar: ravishlarning o'zgarasligi, ma'no turlari, yasalishi, ravishlarda soddalashish, tublashish.

Ravish va uning UGMsi. Ravish hamisha tilshunoslikning bosh muammolaridan biri bo'lib kelgan. Uni atroflicha o'rgangan olim V.V. Vinogradov «musmtaqil so'zlarning hech bir guruhiga sig'may qolgan so'zlar ravish turkumiga yig'ilgan» deb haqqoniy baho bergan edi. Ularning ma'no va vazifasi ot, sifat, son, olmoshlarga yaqin turishi arab va Evropa tilshunosligida qayd etilgan. Sharq va g'arb tilshunosligi ravishlarni ma'no va vazifasi jihatidan emas, balki boshqa birortasiga xos bo'lmagan belgi – o'zgaraslik belgisi bilan ismlardan farqlaydilar. Biroq o'zbek tili grammatik qurilishining tavsifiga bag'ishlab yozilgan ko'plab ilmiy adabiyot va darsliklarda ravishlarning o'zgaraslik tabiati inobatga olinmagan. Tilshunoslar o'zbekcha ravishni rus tilidagi «narechie»ning muqobili sifatida talqin qilishib, natijada *kecha, kunduz, tong, oqshom* kabi payt otlari, *atrof, o'rta, u erda, bu erda, old, orqa* kabi o'rin otlari, *oz, mo'l, butun, to'la* kabi miqdor sifatleri, *keyin, past, baland, yuqori* kabi o'rin sifatleri ravish turkumi doirasida o'rganilgan.

«Asosan harakatning, qisman predmetning belgi, miqdor yoki holatini bildiruvchi o'zgaras so'zlar» ravishning so'z turkumi sifatidagi UGMsidir.

Ravish o'zgaras so'zlar turkumi sifatida. Ravishlar mustaqil ma'noli o'zgaras so'zlardir. Ular belgi, miqdor yoki holatni, o'rin, payt ma'nolarini ifodalaydi va bu jihatidan ot, sifat, sonlarga yaqin turadi. Ulardan farqli jihati shundaki, so'z o'zgartiruvchi, shakl yasovchi qo'shimchalar bilan birika olmaydi. Masalan, otlar ko'plik, sifatlar daraja shaklini qabul qiladi. Masalan, *tongda, oqshomda, kunduzlari, ko'proq, ozroq, balandroq* kabi. Ayrim til birliklarida uchraydigan EK, KK shakllari ravishning o'zak qismida soddalashgan, ya'ni o'zak bilan yaxlit holga kelib qolgan: *birdan, zimdan, to'satdan, kechasi, birga*. Bulardan tashqari qadimgi davrlarda keng iste'molda bo'lgan *-ra* (jo'nalish kelishigi) (*so'ngra, uzra*), *-a*, (*qayta, ko'tara*), *-in(-un)* (*birin-ketin, ostin-ustun*) qo'shimchalari ham ravishlar tarkibida qotib qolgan.

Ravish turkumini talqin qilishda uning o'zgaraslik xususiyatini e'tiborga olish uning so'z turkumi sifatidagi xusu-siyatlarini belgilashda qator qarama-qarshiliklarga nuqta qo'yadi.

Ilmiy manbalarda, darslik va qo'llanmalarda *eng, juda, nihoyat, g'oyat, lang, g'irt* kabi so'zlar kuchaytiruv ravishlari deb qaraladi. Holbuki, bu shakllar ravish oldidan kelib belgi ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuning uchun keyingi yillarda ayrim tadqiqotchilar bu unsurlarning ravish emasligini, chunki ravishlar kabi mustaqil lug'aviy ma'nodan xoliligini ta'kidlashib, kuchaytiruv yuklamalari sirasida o'rganish lozimligini uqtiradilar.

Ravish LMGlari. Ravish holat, miqdor-daraja, o'rin, payt, maqsad, sabab LMGlarga bo'linadi.

Payt ravishlari. Payt ravishlari harakatning vaqtini, paytini, muddatini bildiradi: *endi, saharlab, hali, doim, indin* kabi. Payt ravishlari gapda ko'pincha hol, ba'zan kesim bo'lib keladi: **Bugunerta turib tongni ko'rdim.** (Uyg'.) **Bugunning hakamier-tadir.** (A.Xud.)

O'rin ravishlari. O'rin ravishlari harakatning yuz berish o'rnini bildiradi: *olg'a, uzra*.

Eslatma. O'rin ravishlarini o'rin otlaridan farqlamoq kerak. Bunga o'rin otlarining morfologik o'zgarishi asos qilib olinadi: *atrofimiz, o'rtada, o'rtadan, ichkarida, o'ngdan, chapda, oldida, u erdan* kabi.

Holat ravishlari. Holat ravishlari harakatning bajarilish usulini, tarzini bildiradi. Shu boisdan ular tarz-tus ravishlari deb ham yuritiladi: *bexosdan, astoydil, majburan, qavatma-qavat, mardlarcha, yigitlarcha*.

Miqdor-daraja ravishlari. Miqdor-daraja ravishlari miqdoriy sifat va darajani ifodalaydi: *ko'plab, sal, qarich-qarich, arang, xiyol, yana* kabi. Miqdor-daraja ravishlari sonlarga yaqinlashadi. Biroq son bilan «noaniq miqdor» belgisi ostidagi noto'liq ziddiyatda belgili a'zo sifatida yuzaga chiqadi.

Maqsad ravishlari. Fe'ldan anglashilgan harakatning maqsadini ifodalaydi: *atay, atayin, ataylab, azza-bazza, jo'rttaga, qasddan*.

Sabab ravishlari fe'ldan anglashilgan harakatning sababini ifodalaydi: *noiloj, noilojlikdan, bekordan-bekorga, chor-nochor*.

Eslatma. Boshqa turkumlarda bo'lgani kabi ravishlarning ham ko'pma'noliligi ularni LMGlarga ajratishda qiyinchilik tug'diradi. Masalan, *nari-beri* ravishi o'rinni ham (*Stollarni nari-beri surdik*), holatni ham (*U nari-beri nonushta qildi*) ifodalaydi.

Ravishlarda so'z yasalishi hodisasi. Tilshunosligimizda ravish yasalishi munozaralidir. Chunki ravishlarning asosiy qismi asli boshqa turkumga mansub soddalashgan, yaxlitlashgan leksemalardir. Shu boisdan aksariyat tilshunoslar ravish yasalishini inkor etishib, ravishlashish (boshqa turkum so'zlarining ravishga o'tishi) mavjudligini tan olishadi.

YUqorida sanab o'tilgan ravishlar tarkibiga diqqat qilinsa, ularda turli so'z yasash qoliplari mavjudligi ma'lum bo'ladi: [*arabcha ot+an*], [*ot+chasiga*], [*ot+ona*], [*ot+larcha*] [*ot+lab*] kabi.

Qo'shma ravishlar esa [*olmosh+ot*] (*har gal, har zamon*), [*ravish+ot*] (*hali zamon, hali beri*), [*son+ot*] (*bir yo'la, bir dam*).

Boshqa turkumdagi takroriy so'zlar ravish bo'lishi mumkin: *yuzma-yuz, quruqdan-quruq* kabi.

Tilshunoslar ravish turkumining yasalish sistemasiga ega emasligini *-an, -ona* qo'shimchalarining arabcha va tojikcha so'zlar tarkibida uchrashini, *-larcha, -chasiga, -lab* kabilarning grammatik ma'no ifodalashi bilan va *-iga/-siga, chasiga* kabi so'zlarning sanoqli darajada ekanligi bilan izohlaydilar.

Ravishlar gapda ko'pincha fe'lga bog'lanib hol, otga bog'lanib sifatlovchi vazifasida keladi. Bu ravish UGMsining tarkibiy qismidir.

Ravishlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Ravishlar tuzilishiga ko'ra *sodda* va *murakkab* turlarga bo'linadi.

Sodda ravishlar bir o'zakli bo'ladi: *bugun, indin, ertaga, ertalab*.

Murakkab ravishlar o'z o'rnida uchga bo'linadi: a) *juft ravishlar*; b) *takroriy ravishlar*; v) *qo'shma ravishlar*.

Juft ravishlar ikki so'zning juftlashishidan tashkil topadi: *yana-tag'in, eson-omon; ochin-to'qin, oldinma-keyin, qishin-yozin; uzil-kesil, ura-sura, unda-bunda; ora-sira, ora-chora, ro'y-rost, sal-pal, chala-chulpa, emin-erkin, oz-moz, huda-behuda; azza-bazza, apil-tapil, eran-qaran, o'lda-jo'lda*.

Takroriy ravishlarda bir o'zak takrorlanadi: *galma-gal, zinhor-bazinhor, to'g'ridan-to'g'ri, es-es, o'qtin-o'qtin, ahyon-ahyonda*.

Qo'shma ravishlar birdan ortiq mustaqil so'zning qo'shilishidan hosil bo'ladi: *bir yo'la, bir muncha, bir talay; bajonudil, baholiqudrat, baqadrihol; har yili, har yoq, har dam; shu zahoti, shu asnoda*.

Asosiy adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Hozirgi o'zbek tili. Morfemika. Derivatsiya. Morfologiya. II qism. Qarshi-2005.
2. Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek tili. Morfologiya, 1-qism. Mustaqil so'z turkumlari. (Ma'ruza matnlari). Buxoro-2003.
3. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh. va boshqalar. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya.-T.: Yangi asr avlodi. 2001.- 182 b.
4. O'zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. Max.muh. G'.A.Abdurahmonov va boshq. T.: Fan, 1972.-610 b.
5. Zamonaviy o'zbek tili: Morfologiya\ Mualliflar jamoasi. Max. muh. H.G'.Ne'matov va boshqalar. T. Mumtoz so'z, 2008.
6. Sayfullaeva R.R., Mehliyev B.R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'qv qo'llanma.-T., Fan va texnologiya,2009. -416.

7. Ne‘matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. -T.: O‘qituvchi. 1995.-127 b.

8. Musulmanova N.R. Grammatik shakllarda kategorial, yuondosh va hamroh ma‘no (zamon va mayl kategoriyalari misolida) Filol.fan.nomz...diss. -Toshkent, 2007.-116 b.

Yordamchi adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Morfologik vositalarning ma‘noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari: Filol. fan. nomz ... diss. Buxoro. 1995, - 144 b.

2. Nigmatov X.G. Funktsionalnaya morfologiya tyurkoyazchnx pamyatnikov XI-XII vv. -T.: Izd. Fan, 1989.-191 s.

3. Nigmatov X.G. Vkluychennoe tretye v morfologicheskoy sisteme tyurkskix yazkov// Sov.tyurkologiya. 1976. -№3. -S. 31-36.

4. Shahobiddinova Sh. Grammatik ma‘no talqini haqida: Filol.fan.nomz... .diss. -Samarqand, 1993.-152 b.

5. Bahridinova B.M. Fe‘l lug‘aviy shakllari tizimi (tur kategoriyasi) Filol.fan.nomz...diss. - Samarqand, 2002.-146 b.

7. Shukurov O. Harakat tarzi shakllari paradigmasi. Filol. fan. nomz ... diss. Avt. Qarshi. 2005, - 22 b.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

6. Sonning UGMsi nima?
7. Sonning grammatik xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Sonning LMT va LMGlari hamda ularga xos lug‘aviy shakl hosil qiluvchi vositalar haqida gapiring.
9. Sanoq sonlarning hisob so‘zlari bilan qo‘llanishiga misollar keltiring.
10. Sintaktik katego8riyalarning son turkumida voqelanishini tushuntiring.
11. Ravishning UGMsi nima?
12. O‘zgarma so‘zlar tushunchasiga izoh bering.
13. Ravish LMGlari haqida gapiring.
14. Ravishlarda so‘z yasalishi hodisasi.
15. Ravishlarning tuzilishiga ko‘ra turlarini misollar asosida tushuntiring.

10-MAVZU: YORDAMCHI SO‘ZLAR TURKUMI. ALOHIDA SO‘ZLAR TURKUMI

Reja:

1. Leksemalarning ma‘noviy tasnifidagi “ma‘noviy nomustaqillik” belgisi tushunchasi.
2. Yordamchi so‘zlarning “oraliq uchinchi” tabiatiga egaligi.
3. Yordamchi so‘zlarning shakliy xususiyatlariga ko‘ra turlari.
4. Ko‘makchi.
5. Bog‘lovchi.
6. Yuklama.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar: bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama, ko‘makchi-bog‘lovchi, yuklama-bog‘lovchi, sof ko‘makchi, yarim ko‘makchi.

Leksemalarning ma‘noviy tasnifidagi “ma‘noviy nomustaqillik” tushunchasi. Barchaga ma‘lumki, leksik sath birliklari ikki katta guruhga bo‘linadi: mustaqil so‘zlar va yordamchi so‘zlar. Bular orasidagi zidlanishni ma‘noviy va vazifaviy nomustaqillik tashkil etadi. Bu ziddiyat belgisiga ko‘ra yordamchi so‘zlar belgili, mustaqil so‘zlar esa belgisiz a‘zo mavqeini egallaydi. Yordamchi so‘zlar hech qachon mustaqil qo‘llanmaydi, bog‘liq qurshovlardagina kela oladi. Mustaqil so‘zlar esa mustaqil qo‘llanilish va ma‘no ifodalash qobiliyatiga egadir.

Leksemalarning ma'noviy tasnifida ilk bosqich belgisi "ma'noviy mustaqillik" emas, "ma'noviy nomustaqillik" bo'lishining sababi mustaqil leksemalarning bu belgiga nisbatan betarafligidir. Chunonchi, katta guruhni tashkil etuvchi atoqli otlar (Temir, Anor, Gavhar) guruhida, mavhum otlarda mustaqil ma'noning mavjudligi kishini shubhaga soladi. Mustaqil so'zlarda "ma'noviy mustaqillik" belgisi shartlidir. Assimilyatsiya tilshunoslikda boshqacha, biologiyada esa tamoman o'zgacha talqin etiladi. Loy adabiy tilda boshqacha, otarchilar nutqida esa boshqacha izohlanadi. Shunga o'xshash hodisalarni sifat, fe'l, ravishlar ichida ham ko'plab uchratish mumkin. Bularning barchasi "ma'noviy mustaqillik" belgisi mustaqil leksemalarda nisbiy tushuncha, nisbiy belgi ekanligini ko'rsatadi. Mana shuning uchun leksemalarning ma'noviy tasnifida ilk bosqichning belgisi "ma'noviy mustaqillik" emas, balki "ma'noviy nomustaqillik" bo'la oladi. Ushbu belgi asosidagi ziddiyatda ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar kuchli (belgili) a'zoni tashkil etadi. Sof ko'makchi, sof bog'lovchi, sof yuklamalar hech qachon mustaqil ma'noli so'zlar xususiyatiga ega bo'la olmaganligi tufayli ularning guruhiga o'ta olmaydi.

Yordamchi so'zlarning "oraliq uchinchi" tabiatiga egaligi. Tilshunoslikda yordamchi so'zlarning leksemalar va qo'shimchalar orasida "oraliq uchinchi" bo'lib, ham leksemalar, ham grammatik morfemalar xususiyatini o'zida mujassamlash-tirishi aniqlangan. Ular shaklan leksema, mazmunan qo'shim-chadir (qiyos: *Kitobni akamga/akam uchun oldim.*) Shu tufayli bo'lsa kerak, til tizimida yordamchi so'zlarning o'rni turlicha baholanadi – ayrim olimlar ularni qo'shimchalarga, ayrimlari nutq bo'lakchalariga, ba'zilarini yordamchi so'zlarga nisbat beradilar. Yordamchi so'zlarning so'zmi, qo'shimchami yoki mustaqil so'zlarning yordamchi so'zlar bilan bog'lanishi so'z birikmasimi ekanligi hanuzgacha munozara mavzui bo'lib qolmoqda. Chunki yordamchi so'zlar guruhi ichida shunday birliklar borki, ular ham "ma'noviy mustaqillik", ham "ma'noviy nomustaqillik" xususi-yatiga ega (ot+ko'makchilar, yordamchi va ko'makchi fe'llar). Chunonchi, "tortib" mustaqil so'z sifatida ravishdosh kabi qo'llaniladi: *Baliq qarmoqni bir tortib, qochib ketdi.* Shu so'z *Farhod tog'idan tortib Shirin yayloviga qadar Sirdaryo bo'ylab tizilib ketgan etmish ming xalq bu sovuqlarni pisand qilmaydi* (Oyd.) gapida yordamchi so'z vazifasida kelgan. *Tortib* mustaqil va yordamchi ma'nolarga ega bo'lishiga qaramay, mustaqil leksemalar tipiga kiradi. *Uchun, sayin, uzra, kabi, va ga o'xshagan yordamchi so'zlar aniq bir tushunchani ifodalay olmaydi, ammo turli munosabatlarni yuzaga chiqarib va ular yordamchi so'zlar guruhidan joy oladi.* Yuqoridagilardan anglashiladiki, "alohida qo'llanila olish yordamchi leksemalarni mustaqil leksemalar bilan yaqinlashtirsa, turli-tuman munosabatlarni ifodalash kabi umumlashgan ma'no ularni morfemalarga, qo'shimchalarga yaqin-lashtiradi va leksemalar va morfemalar ziddiyatida "oraliq uchinchi" vazifasida keladi.

Yordamchilarni so'zlarga quyidagilar yaqinlashtiradi: a) shaklan alohida ajralib turish; b) lug'aviy ma'noning mavjudligi (sifat ko'makchilar, ot ko'makchilar, fe'l ko'makchilarda...); v) ko'pincha ularning mustaqil so'zlarga yaqinlashishi, ulardan kelib chiqishi. Yordamchi so'zlarning grammatik morfemalarga o'xshash tomoni ularning morfemalar kabi mustaqil nominativ funktsiya bajarishligi (ammo, va, sayin, kabi), qo'shimchasimon shaklda bo'lishi (-u, -yu, -da; -ki (-kim); -dek (-day), -cha) va boshqalar. Biroq yordamchi so'zlarning grammatik morfemalardan farqli tomoni shundaki:

1) ular gap bo'lagi, so'z birikmasi, gap sathida sintaktik xarakterdagi vazifa bajaradi. Bu xususiyat ko'makchilar uchun xos. Chunonchi, 1. *Yaxshi bilan yursang etarsan murodga, YOmon bilan yursang qolarsan uyatga* (Maq.) 2. *To'lqinlarning kuchli na'rasi, Yulduzlarga qadar etardi.* (Uyg'.)

2) gap bo'laklari yoki gaplarni o'zaro bog'laydi. Bunday funktsiyada, asosan, bog'lovchilar va yuklamalar keladi: 1. *Xonaga baland bo'yli, biroq oriqqina yigit salom berib kirdi.* (S.A) 2. *Saida bu gapni aytdi-yu, chiqib ketdi.* (S.Ahm.)

3) so'roq, inkor va sh.k. gap ma'nolarini ifodalashga xizmat qiladi (yuklamalar).

Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlar va so'z-gaplar oralig'ida «oraliq uchinchi» maqomini oladi. O'z navbatida, yordamchi so'zlar ham o'z ichida umumiy belgilariga ko'ra oraliq uchinchini ajratib chiqaradi. Ya'ni bog'lovchilarda bog'lash, yuklamalarda gap mundarijasiga ta'sir qilish mohiyatni belgilash

darajasida bo'lsa, ko'makchilarda sanalgan har ikki belgi mushtarakdir. Bu ularning «oraliq uchinchi»lik mavqeini ko'rsatadi.

Yordamchi so'zlarning shakliy xususiyatlariga ko'ra turlari. Yordamchi so'zlar shakliy xususiyatlariga ko'ra:

- a) qo'shimchasimon yordamchi so'zlar;
- b) sof yordamchi so'zlar;
- v) nisbiy yordamchi so'zlar.

Qo'shimchasimon yordamchi so'zlar har uchala yordamchi so'zlar tarkibida uchraydi. Ko'makchilar orasida *-dek/-day,-cha*, bog'lovchilar orasida *-ki/-kim; -u, -yu,-da* affikssimon yuklama - bog'lovchilar, yuklamalar orasida *-mi, -chi, -a, -ya, -ku,-o q (-yo q), -da, -gina* kabi qo'shimchaga o'xshash yordamchi so'zlarni uchratish mumkin. Qo'shimchasimon yordamchi so'zlar shaklan qo'shimchaga o'xshaydi, ammo yordamchi so'zlarning vazifasini bajaradi. Chunonchi, 1.*Po'latdek (kabi) dadil bir yigit bu ishdan hayiqsa, uyat bo'ladi.* (O.Mux.) 2.*Shu payt o'g'ilchasi eshikdan yugurib keldi-da (va), dadasining quchog'iga otildi.* (Oyb.) 3.*Bazmga Gulnoragina (faqat) kelmadi.* (S.Ahm)

Sof ko'makchilar sirasiga avvaldan ma'lum uchun, bilan, sari, qadar, kabi, singari, sayin, orqali so'zlari; sof bog'lovchilar sirasiga va, hamda, ammo, lekin, biroq, balki, yo, yoxud, go'yo, agar, basharti kabilar; sof yuklamalar qatoriga xuddi, faqat, axir, hatto, naq, atigi so'zlari kiradi.

Nisbiy yordamchi so'zlar atamasi ostida boshqa turkumga mansub bo'lgan so'zning yordamchi vazifasida qo'llanilishi (*old, orqa, avval, bo'ylab, boshlab...*) yoki tabiatida "shakldoshlik" mavjud bo'lgan birliklar tushuniladi. Masalan, "yolg'iz" sifat turkumiga oid so'z yuklama o'rnida (*Yolg'iz senga suyanaman*) ishlatiladi. Yoki *Vaqtida yomg'ir yog'adi, vaqtida qor gapida vaqtida* so'zining vazifasi bog'lovchilarga yaqindir. Bunga o'xshash misollar nutqimizda ko'p uchraydi. Yordamchi so'zlarning shakliy xususiyatlariga ko'ra turlarini quyidagi jadvalda umumlashtirish mumkin:

6-jadval

Yordamchi so'z turi	Sof yordamchi so'z	q o'shimchasimon yordamchi so'z	Yarim yordamchi so'z
Ko'makchi	kabi, singari, sari, sayin, dovur, uchun, orqali	-dek, -day, dayin, -cha	old, oldin, orqa, qarshi, avval, bo'ylab, ko'ra, qarab, tomon
Bog'lovchi	va, hamda, ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun, agar, go'yo, toki, basharti, garchi, xoh, dam, yoki, yoxud, yo	-ki, (-kim), -u, -yu, -da	vaqtida, bir, ba'zan, gohida
Yuklama	axir, xatto, faqat, ham, naq, go'yo, go'yoki, atigi	-mi, -ku, -gina, -u, -yu, -da, -a, -oq, (-yoq), -dir	yolg'iz, ba'zan, bir

Jadvaldan ko'rinib turganidek, yordamchi so'zlar salmog'i mustaqil so'zlar hisobidan ortib boradi. Yordamchi so'zlarning boyishida yana bir yo'l ularning ichki tomondan bir turdan ikkinchi turga o'tishidir, aniqr-og'i, "oraliq hodisa" xususiyatiga ega bo'lgan ko'makchi-bog'lovchi, bog'lovchi-

yuklamalarning mavjudligi. Masalan, *bilan, deb, deya* kabilar ko'makchi-bog'lovchilardir. Ushbu ko'makchilarning bog'lovchi vazifasida kelishi ancha keng tarqalgan hodisadir. *Ammo lekin bu ishni paysalga solish yaramaydi* gapida bog'lovchi-yuklama qo'llanilgan, ya'ni ammo bog'lovchisi kuchaytiruv yuklamasi vazifasida kelgan.

Bugungi kunda yordamchi so'zlarni har tomonlama o'rganish, ularni lisoniy tahlil qilish ishlari tilshunosligimizda davom etmoqda.

Ko'makchilar yordamchi so'zlarning bir ko'rinishi sifatida. Turkiy tillarda (jumladan, o'zbek tilida ham) ko'makchilar ko'p yillardan buyon tilshunoslarning tekshirish manbai bo'lib kelmoqda. O'zbek tilidagi ko'makchilarga birinchi bo'lib mukammal ta'rifni A.N.Kononov bergan: "Ko'makchilar shunday bir gruppaga so'zlarki, ular ot bilan yoki ob'ekt bilan predikat orasidagi qurol – vosita, maqsad, sabab, payt, masofa, yo'nalish, o'xshatish kabi munosabatlarning yaratilishida xizmat qiladi". Sh.Shoaabdurahmonov ham o'zining "Yordamchi so'zlar" asarida ko'makchilarga xuddi shunday ta'rif bergan: "Ko'makchilar ob'ektning ob'ektga yoki ob'ektning predikatga bo'lgan turli grammatik munosabatlarini ko'rsatuvchi yordamchi so'zlardir". Darhaqiqat, ko'makchilar orasidagi tobe munosabatni ifodalash va kelishik ma'nolarini aniqlash, to'ldirish uchun xizmat qiladi. Shu xususiyati bilan ko'makchi bog'lovchi va yuklamalardan farq qiladi. Ko'makchilar ma'no va vazifa jihatidan kelishik qo'shimchalariga yaqin turadi. Shuning uchun ba'zan kelishik shakllaridan anglashilgan ma'no ko'makchi bilan ham ifodalanadi (*Mashinada keldim - mashina bilan keldim. Ukamga oldim- ukam uchun oldim* kabi). Lekin bular kelishik affiksilariga qaraganda ma'noni aniq, konkret ifodalaydi.

Ko'makchilarning shakliy xususiyatiga ko'ra turlari. Ko'makchilar shakliy va bajaradigan vazifasi jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) sof ko'makchilar;
- b) yarim ko'makchilar;
- d) qo'shimchasimon ko'makchilar.

Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan *uchun, bilan, sari, qadar, kabi, singari, sayin, or- qali* so'zlari **sof ko'makchilar** bo'lib, ular tobe so'zni hokim so'zga bog'lashga xizmat qiladi. Sof ko'makchilar boshqa so'zlarga birikkan holda turli munosabatlarni anglatadi. Jumladan, **bilan** ko'makchisi o'zbek tilida asosan ko'makchi, ba'zan bog'lovchi vazifasida ishlatiladi. Shuning uchun bu ko'makchi turi bugungi kunda yordamchi so'zlardan birining o'rnida ikkinchisi qo'llanilishi nuqtayi nazaridan *ko'makchi-bog'lovchi* atamasi ostida ham o'rganilmoqda. *Bilan* yordamchisining etimologiyasi haqida prof.A.N. Kononov, V.V.Radlov, J.Deni kabi qator turkiyshunoslarning fikrlarini e'tiborga olib, uning *birlan* so'zidan kelib chiqqanini aytgan. *Bilan* yordamchisining *birla, birlan, bila, ila, -la* shakllari vazn, qofiya va uslub talabiga ko'ra ko'proq poeziyada uchraydi. Chunonchi, *Baxt ila to'lib-toshgan go'zal oy deraza tagida o'sgan daraxt barglarida mudrab yotadi.* (R.Tag.) Bu ko'makchi quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1) biror harakatning bajarilishida shaxs, predmetlarning birgaligini bildiradi: *Ko'pchilik bilan odam o'zini kuchli sezadi.*

2) harakatni bajarishda vosita ma'nosini bildiradi: *Shu gapning ustiga Ismat bobo hassasi bilan eshikni ochib kirib keldi.* (P.Qod.)

3) payt ma'nosini ifodalaydi: *Qo'ng'iroq chalinishi bilan o'qituvchi sinfga kirdi.*

4) sabab ma'nosini bildiradi: *Ular: "Gulnor o'z ajali bilan o'ldi..."*, *-deyishdi.* (Oyb.)

5) harakatning bajarilishidagi holatni ifodalaydi: *Onamning mehr bilan boqib turgan ko'zlarini bir umr unuta olmasam kerak.* (Oyb.)

Bilan ko'makchisi keng tarqalgan yordamchi so'zdir. Uning bog'lovchilik, ko'makchilik tabiati olimlarimiz orasida tortishuvlarning bo'lishiga sabab bo'lgan. Shu boisdan "... va, bilan, hamda, shuningdek so'zlari hozirgi o'zbek adabiy tilida teng bog'lovchilarning biriktiruv bog'lovchilari turiga kiradi" degan fikr ham ilgari surilgan. Ammo bu o'rinda shuni qayd etish kerakki, bog'lovchi vazifasidagi *bilan* ning *va, ham* biriktiruv bog'lovchilaridan farqlanadigan o'ziga xos xususiyatlari bor:

- «birgalik» ma'nosi *bilan* yordamchisi uchun xos: *Chodir sahnasidan bir qiz bilan yigit chiqib o'yin qildi* (M.Ism.). Ushbu misoldagi bilan o'rnida *va ni* qo'llasak, yuqoridagi ma'no kelib chiqmaydi, balki qiz bilan yigitning alohida-alohida o'ynagani ma'nosi ifodalanadi.

- *va, ham* bog'lovchilari uyushib kelgan fe'l kesimlarni bog'laydi, ammo *bilan* da bu imkoniyat chegaralangan. Qiyoslang: *Lola ishlaydi va o'qiydi. Lola ishlaydi ham o'qiydi.* Ammo *Lola ishlaydi bilan o'qiydi* tarzidagi gap nutqda ishlatilmaydi. *Bilan* ning grammatik vazifasi bog'lovchi va ko'makchi vazifasida kela olishidir; shunga ko'ra, *bilan* boshqa ko'makchilardan farqlanadi. Shuning uchun *bilan* ko'makchisini *ko'makchi-bog'lovchi* termini bilan ataganimizda uning barcha xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu ko'makchi turi gapda vosita ma'nosini bildirganda to'ldiruvchi, sabab, payt, harakatning bajarilish tarzini bildirganda hol vazifalarida keladi.

Uchun ko'makchisi atalganlik (*Yo'lchi uchun keltirgan tugunchak yodiga tushdi* (Oyb.)), maqsad (*Hamma xalq ochdan o'lmaslik uchun bir amal-taqal qilib turibdi* (Oyb.)), sabab (*Kampirning ahmoqligi yo dushmaningizning ig'vosi uchun shundoq deyishga qandoq tilingiz bordi?* (A. Qah.)) evaz (*E'tiboringiz uchun rahmat*) kabi ma'nolarda qo'llanilib, to'ldiruvchi, maqsad, sabab holi vazifalarida keladi.

Kabi, singari yanglig' ko'makchilari bir narsani boshqa narsaga o'xshatish, chog'ishtirish ma'nosini anglatadi. Masalan, *Ukam men kabi bechora... g'am chekib yotgandir* (Oyb.). *Kabi, singari* ko'makchilari bilan *-dek, -day* qo'shimchalarining ma'nodoshlik xususiyati tilshunoslarimiz tomonidan qayd etilgan. Formal tilshunoslikda bu affikslar ravish yasovchi qo'shimchalar sifatida berilgan. *-dek, -day* affikslari orqali yasalgan ravishlar harakat va holatning yasash asosida ifodalangan narsa yoki belgi-xususiyat bilan o'xshashligini, qiyoslashni bildiradi: *tog'-dek, ot-dek, lochin-day, qadimgi-day, ilgarigidek, avvalgi-dek, burungi-day, gul-day* kabi. *Qalandarovertasiga kundagiday saharda idoraga chiqdi* (A.Qah.). *U go'yo tug'ilib o'sgan qishlog'ini ko'rmoqchiday boshini ko'tarib hayajon va sog'inch bilan uzoqlarga tikildi* (Oyb.) Bu o'rinda ham til hodisalarini izohlashda zo'rma-zo'rakilik yuzaga kelgan. Natijada nutqimizda tez-tez ishlatiladigan ushbu qo'shimchalar noto'g'ri talqin etilgan. Buni quyidagi oddiy qiyosda ko'rish mumkin:

-dek, -day (qo'shimchasimon ko'makchi)	kabi (singari, yangli g') (sof ko'makchi)
1.Oydek go'zal qiz.	Oy kabi go'zal qiz.
2.Tog'dek yuksak.	Tog' kabi yuksak.
3.Lochinday dadil.	Lochin singari dadil.
4.Ilgarigidek qadrdon bo'lib ketishgan.	Ilgarigi kabi qadrdon bo'lib ketishgan.
5.Gulday ochilib menga bir bor qaramaysiz.	Gul yanglig' ochilib bizga bir bor qaramaysiz.

Oddiy mantiq **-dek, -day** qo'shimchasi *kabi (singari, yanglig', misol, misoli)* sof ko'makchisiga sinonim ekanligini, **-dek, -day** qo'shimchalarida so'z yasash xususiyati yo'qligini ko'rsatib turibdi.

-dek, -day qo'shimcha shaklidagi ko'makchilar hamisha o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi va urg'uli bo'ladi. **-dek, -day** ko'makchilari ko'p hollarda bir-birini almashtira oladi. Ular bitta ko'makchining ikki ko'rinishidir.

-dek, -day ko'makchi-qo'shimchasi o'zining eski adabiy o'zbek tilida keng qo'llangan **-dayin** ko'rinishiga ham egadir. Bu ko'rinish, asosan, hozir ko'tarinki uslubda, she'riyatda qo'llaniladi:

1. *Oydayin ruxsoringga zoru intizorman o'zim.* 2. *Zihi sarv ustida yuzung qamardayin, Qani bir shoxi gul sen siymbardayin.* («Muhabbatnoma»)

-day ko'makchisi *shunday, bunday, qanday, unday, allaqanday* kabi olmoshlar; *jinday, qittay, arziguday, aytganday, jo'jabirday, o'lguday, dovongirday* kabi ravishlar tarkibida yaxlitlanib, qotib, o'zakdan ajralmaydigan bo'lib qolgan.

Qadar, dovur ko'makchilari hokim bo'lakka tobelanish munosabatini yaratar ekan, bunda o'rin, payt ma'nolarini ifodalaydi. *Qadar* ko'makchisi **-ga** qo'shimchali ot va olmoshlar bilan qo'llanib, «chegara», «nihoya» ma'nolarini bildiradi: *Tantanali yig'ilish boshlangunga qadar askiya, o'yin-kulgi davom etdi.* (Oyb.) *Qadar* ga ma'nodosh qo'shimchasimon ko'makchi sifatida **-cha** qo'shimchasining to'g'ri kelishi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan: *Mehmonlar kechga qadar o'tirishdi – Mehmonlar kechgacha o'tirishdi.*

Orqali ko'makchisi harakatning biror vosita bilan bajarilishini bildiradi: *Anvar o'z istiqbolini yolg'iz muhabbat orqali ko'rar edi.* (A.Qod.) *Bilan* va *orqali* ko'makchilari vosita ma'nosini anglatishlariga ko'ra ma'nodoshlik hosil qiladi. Ammo bu ma'nodoshlik ma'lum kontekstlardagina voqealanadi. O'rin ma'nosini ifodalagan otlar bilan birikkanda *bilan* va *orqali* ko'makchilari sinonim bo'ladi: *Katta yo'l orqali yurib borib chapga burildik – Katta yo'l bilan yurib borib chapga burildik.* Agar ko'makchi boshqarayotgan ot o'rin ma'nosini ifodalamas, bu ko'makchilar ma'nodoshlik kasb etmaydi. Chunonchi, ... *Yigitga deraza orqali to'yib - to'yib qarashga zor bo'lsa - da, ...* (O.)

Sari ko'makchisi harakatning yo'naltirilgan o'rni, payti ma'nosini anglatadi: *Hirost sari yuridik.* (Oyb.) *Ko'krak og'rig'im borgan sari battar bo'lyapti.* (Oyb.) *Sari* ko'makchisi o'rin, tomon, payt ma'nosini bildirganda *sayin* ko'makchilari bilan ma'nodosh bo'ladi. Gapda payt holi, o'rin holi, to'ldiruvchi vazifalarida keladi.

Ma'lumki, sistem tahlil jarayonida har bir narsaning mohiyati shu narsaning o'ziga o'xshash, ayni vaqtda undan farqli va unga zid boshqa narsalar bilan bo'lgan munosabati orqali ochiladi. Jumladan, o'zbek tilining lug'aviy tizimi mustaqil va yordamchi leksemalarga bo'linadi. O'z navbatida mustaqil leksemalar atash/nomlash vazifasini bajaruvchi atovchi lekse-malarga va ishora ma'noli leksemalarga (olmoshlarga), yor-damchilar esa ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalarga, bularning har biri, o'z navbatida, yana boshqa guruhlariga pog'onali ravishda bo'linib ketaveradi. Tilimizning yordamchi so'zlar, mustaqil so'zlar va morfemalar tizimi izchil pog'onaviy (ierarxik) tuzilishga ega bo'lib, nisbiy va quyi pog'onalar o'zaro gipo-giperonimik (tur-jins) munosabatlari bilan bog'lanadi – har bir yuqori bosqich quyi pog'ona uchun giperonim mavqeida, quyi bosqich yuqori bosqichga nisbatan giponim mavqeida bo'ladi. Demak, so'z yoki morfema ma'lum bir pog'onalardan o'tib lisoniy birlik darajasiga etadi va kishi ongida tayyor, majmui sifat sifatida yashaydi. Quyida ayrim yordamchi so'z (ko'makchi)larning ULM (umumlisoniy ma'no) sini berishga harakat qilamiz:

Bilan– leksik sath birligi–ma'noviy nomustaqil – umumlashgan grammatik ma'noli – shaklan morfologik o'zgar-mas–leksoid va affiksoid ko'rinishli–yakka qo'llanishli–sintaktik bog'lash vazifasida kela oladigan lisoniy birlik.

Kabi– leksik sath birligi–ma'noviy nomustaqil–umumlashgan grammatik ma'noli–shaklan morfologik o'zgarmas–leksoid ko'rinishli–yakka qo'llanishli–sintaktik bog'lash vazifasida kela oladigan lisoniy birlik.

Boshqa ko'makchilarga ham ta'rif berish mumkin.

Nisbiy ko'makchilar haqida. Mustaqil so'zlarning “nomustaqillik” belgisiga nisbatan mo''tadilligi sababli mustaqil so'zlar ichidan nisbiy yordamchilar ajralib chiqadi. Nisbiy ko'makchilar bir xususiyati bilan “ma'noviy mustaqil”, ikkinchi xususiyati bilan “ma'noviy nomustaqil” leksemalarga o'xshab ketadi va “oraliq uchinchi” guruhini hosil qiladi. Leksemalar nomustaqil leksema sifatida voqelanganda leksema sememasi o'z muayyanligini kuchsizlantiradi va semema grammatik ma'no sifatida voqealanadi. Chunonchi, quyidagi gaplarda ifodalangan *ko'ra* leksemasining ma'nolarini qiyoslashga harakat qilamiz: 1. *YAxshi-yomonni ko'ra-ko'ra odamning yaxshimi, yomon ekanini tez ajratib oladigan bo'lib qolgan.* (A.Qah.) 2. *Qalandarovdan shikoyat boshlashdan ko'ra ko'proq bu noqulay ahvoldan chiqish*

uchun ... (A.Qah.) 1-gapda qo'llanilgan *ko'ra* «ko'z bilan ko'r-moq, kuzatmoq» semasiga ega bo'lsa, 2-gapda «ko'rish» semasi kuchsizlangan va «chog'ishtirish, qiyoslash» grammatik ma'nolari-ni voqelantirgan. 1-gapda qo'llanilgan «ko'ra» ko'rmoq fe'lining ravishdosh shakli bo'lsa, 2-gapda fe'l ko'makchi sifatida tobela-nish munosabatini hosil qilgan. Qolgan nisbiy ko'makchilar ham xuddi shunday xususiyatlarga egadir. *Old, oldin, or qa, ro'-para, qarshi, avval, keyin, so'ng, oxir, tomon, ost, ust, tag, tepa, yon, uch, ich, o'rta, ora* kabi o'rin va payt ma'noli otlar, *bosh, qosh, lab, og'iz, oyoq, qorin* kabi tana a'zolari nomlari, *qariyb, bo'ylab, boshlab, ko'ra, deya, deb, atab, o'xshab* kabi ravishdoshlar juda ko'p hollarda ko'makchi vazifasida keladi va ko'makchilar xazinasining boyishiga sabab bo'ladi. Bunday hollarda bu so'zlar nisbiy yoki yarim ko'makchi sanalib, o'zi birikib kelgan so'z bilan birgalikda bir gap bo'lagi, ko'pincha, hol bo'lib keladi. Ko'makchilardan *bilan, uchun, kabi, singari, yanglig', sayin, sari, sababli, orqali, tufayli, chog'li, bo'ylab, haqida, to'g'risida* kabilar o'zlari birikib kelgan so'zlarga hech qanday qo'shimchasiz bog'lanadi; *tomon, qadar, qarshi, qaraganda, doir; binoan, qaramay* kabi ko'makchilar o'zlari birikib kelgan so'zdan **-ga** qo'shimchasini qabul qilishni talab qiladi: *qonunga binoan, ukasiga qaraganda, baxtga qarshi; so'ng, keyin, boshqa, tashqari, buyon, avval, ilgari, boshlab* ko'makchilari **-dan** qo'shimchali so'zlar bilan birikadi: *bundan avval, o'qishdan keyin, tanaffusdan so'ng* kabi. Ko'makchilarning grammatik munosabatni yaratib, kelishik qo'shimchalariga o'xshash vazifani bajarishi haqida yuqorida qisman aytib o'tilgan edi. Darhaqiqat, ko'mak-chilar shu xususiyati bilan ham boshqa yordamchi so'zlardan farq qiladi. A.N.Kononov ta'biri bilan aytganda, ko'makchilar ko'p hollarda kelishiklarning dubleti sanaladi. Masalan: *Ukamga oldim – Ukam uchun oldim. Siyohda yozdi – Siyoh bilan yozdi. Telefonda gaplashdi – Telefon orqali gaplashdi. Akamni gapirdi – Akam haqida gapirdi.*

Bog'lovchi va uning shakliy ko'rinishlari. Bog'lovchilar ham ko'makchilar kabi sintaktik aloqa vositasi sanalib, ulardan tobe munosabatni ifodalashdan tashqari teng munosabatni ham hosil qilishi bilan ajralib turadi. Bog'lovchilar gap bo'laklari, qo'shma gapning sodda gapga teng qismlari orasidagi turlicha aloqalarni, grammatik munosabatini ko'rsatadi. Bog'lovchilarning mohiyati, o'zbek adabiy tilidagi bog'lovchilarning turlari, bu turlarga oid so'zlar tilshunosligimizda keng o'rganilgan. Mavjud adabiyotlarda bog'lovchilarning turlari va bu turlarga qaysi so'zlar mansubligi masalasida turlicha nuqtayi nazarlar bor, ya'ni bir ishda bog'lovchi deb berilgan birlik boshqa ishda yuklamalar qatoriga kiritiladi, ko'makchi deb berilgan birlik bog'lovchi deb tan olinadi. Bog'lovchilarga oid so'zlarning aniq belgilanmaslik sababi ularning lisoniy jihatdan o'rganilmagan-ligida bo'lsa kerak.

Bog'lovchilarni ham ko'makchilar singari shakliy jihatdan uch guruh (sof bog'lovchilar, nisbiy bog'lovchilar, qo'shimcha-simon bog'lovchilar) ga ajratib o'rganish lozim. Sof bog'lovchilar guruhiga faqat bog'lovchi vazifasida qo'llaniladigan *va, hamda, yo, yoxud, yoki, ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun, agar, ya'ni* kabi yordamchi so'zlar xos. Qo'shimchasimon bog'-lovchilar guruhiga *-ki (-kim)* va ham bog'lovchi, ham yuklama vazifasida kela oladigan *-u (-yu), -da, -mi* qo'shimchalari mansubdir. *-u (-yu), -da* qo'shimchalarining bog'lovchi vazifa-sini to'la-to'kis bajarishi qator manbalarda qayd etilgan, *-mi* qo'shimchasida ham bog'lovchilik xususiyati borligini *Yomg'ir yog'dimi, hamma joy nam bo'ladi, Karim keldimi, to'polon boshlanadi* tipidagi gaplar tasdiqlaydi. Ushbu gaplarda qo'llan-gan *-mi* qo'shimchasi ta'kid ma'nosini voqelantirgan holda sodda gaplarni bir-biriga bog'lash funksiyasini bajaryapti. Nisbiy bog'lovchilarga mustaqil so'z turkumlaridan o'sib chiqqan, “oraliq uchinchi” tabiatiga (ham mustaqil, ham yordamchi) ega bo'lgan *ba'zan, bir, vaqtida, hali goh, (goho)* kabi so'zlarning takroriy shakli misol bo'ladi. CHunonchi, 1. **Ba'zan** Qoratoyning ishxonasida, **ba'zan** choyxonada tunab yurdi. (Oyb.) 2. **Ikki kundan beri goh** savalab, **goh** shiddat bilan yog'ayotgan yomg'ir hammayoqni ivitib yubordi. (A.Qah.) 3. **Vaqtida** qor yog'adi, **vaqtida** yomg'ir. Bu gaplarda qo'llanilgan *ba'zan, goh (goho), vaqtida* so'zlarining vazifalari bog'lovchilarga juda yaqin.

Salima tez qaytdi. U yangi xabar olib keldi; Brigadada mehnat yaxshi uyushtirilmadi. Natijada hosil kam bo'ldi; Azimboy ko'p zulm o'tkazdi. Oqibatda xalqning sabr kosasi to'ldi gaplaridagi **u,**

natijada, oqibatda so'zlari birinchi gapni ikkinchi gap bilan bog'lab kelmoqda. Demak, *u, natijada, oqibatda* so'zlari ham nisbiy bog'lovchilar sirasiga kiritilsa to'g'ri bo'ladi. Ikkinchi gapning mazmuni birinchi gapsiz aniq emas. Yordamchi so'zlar nafaqat so'zlarni, hatto gaplar va matn qismlarini ham bog'lashga xizmat qiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilidan darslik va qo'llanmalarda bog'lovchilarning vazifa jihatidan turlari quyidagicha belgilan-gan:

I. Teng bog'lovchilar. 1. Biriktiruv bog'lovchilari: *va, -u (-yu), hamda*. 2. Ayiruv bog'lovchilari: *yo, yoki, yoxud, goho, dam... dam, bir... bir, ba'zan... ba'zan*. 3. Zidlov bog'lovchilari: *ammo, lekin, biroq*. II.ergashtiruvchi bog'lovchilar. 1. Aniqlov bog'lovchilari: *ya'ni, -ki (-kim)*. 2. Sabab bog'lovchilari: *chunki, shuning uchun, zeroki*. 3. Shart bog'lovchilari: *agar, agarda, agarchi*. 4. Chog'ishtiruv bog'lovchilari: *go'yo, go'yoki*. Teng bog'lovchilar,ergashtiruvchi bog'lovchilarning ma'no va vazifa tomoni, imlo xususiyatlari formal tilshunoslikdan darslik va qo'llanmalarda atroflicha bayon etilgan.

Bog'lovchi-yuklamalarning mohiyati. Ammo ayrim so'zlarning bog'lovchilik tabiatidan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, bog'lovchilarning miqdori, ularning mohiyati, turlari hanuzgacha aniq belgilanganicha yo'q. Masalan, chog'ishtirish bog'lovchilariga *go'yo, go'yoki* kiritiladi. Ammo bu so'z gap bo'laklari yoki gaplarni bog'lash uchun xizmat emas, balki o'xshatish, qiyoslash ma'noli konstruktsiyalarda shu ma'noni ta'kidlash uchun xizmat qiladi, o'xshatish, qiyoslash ma'nosi esa boshqa vositalar bilan ifodalanadi: *Beda orasi juda issiq, go'yo quyoshning butun olovi beda ichiga yashiringanday.* (Oyb.) *Nay sadosining mayin to'lqinlari tip-tiniq havoda yoyilarkan, go'yo hammayoq jonlangan kabi tuyuldi.* (Oyb.) Ushbu misollarda o'xshatish, qiyoslash *-dek* qo'shimchasi va *kabi* so'zi bilan ifodalanyapti, *go'yo* esa shu ma'noni ta'kidlayapti. Demak, *go'yo* ta'kid yuklamasi hisoblanadi. *Balki* yordamchisi haqida ham shu fikrni aytish mumkin. *Balki* qo'llanishidagi *ba'zi* xususiyatlariga ko'ra, zidlov bog'lovchilaridan farq qiladi. Zidlov bog'lovchilari ko'pincha qo'shma gap qismlarini bog'laydi, *balki* yordamchisi bunday vazifani bajarmaydi: *Havo bulut bo'ldi, lekin (ammo, biroq) yomg'ir yog'madi.* Bu misolda zidlov bog'lovchisi o'rnida *balki* so'zini qo'llab bo'lmaydi. *Balki* so'zi gumon mazmunli gaplarda, zid mazmunli qismlarga ega gaplarda gumon, qarama-qarshilik ma'nolarini ta'kidlash uchun qo'llanadi: *...toping, balki tanishla-ringiz bordir.* (Oyb.) *Chunki biz Azizbek kabilardan xalqningina emas, balki o'zimizni ham qiynatdirmog'damiz.* (A.Qod.) Bu gap menga yoqmas, balki battar jahlimni chiqaradi. O'z-o'zidan anglashiladiki, *balki* sof bog'lovchi bo'lolmaydi, bog'lovchi funksiyasini bajarayotgan yuklamalar sirasidan joy oladi. Qisqasi, bir turdan ikkinchi turga o'tish va bog'lovchi-yuklama, ko'makchi-bog'lovchi kabi oraliq hodisalar hosil qilish yordamchi so'zlar tabiatiga xos xususiyat bo'lib, ularning ichki manba asosida boyishining bir yo'li sanaladi. *Ham... ham* biriktiruv bog'lovchisi ta'kid qo'shimcha ma'no bo'yog'iga ega, *na...na* esa inkor ma'nosini ifodalaydi, *-mi* so'roq - taajjub yuklamasi esa gap tarkibida bog'lash funksiyasini bajaradi. Shuning uchun bular bog'lovchi-yuklamalar hisoblanadi. Chunonchi, 1.*Na so'zlarida ma'no bor, na ishlarida hayo.* (O.) 2.*Bir tovuqqa ham suv kerak, ham don kerak.* (Maq.) 3.*U bir gapni aytdimi, albatta, qiladi.*

Bog'lovchilarning formal-funksional talqini muam-molari. Yuqorida aytilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, o'zbek tili bog'lovchilarining ma'no va xususiyatlari tamomila boshqacha, ularni turkona tahlil qilish, bog'lovchilar bilan bog'liq masalalarni to'g'ri va to'la hal etish bugungi kunda tilshunosligimiz oldida turgan bosh masalalardan biri sanaladi.

Yuklamalarning ma'no va vazifasi. Yordamchi so'zlarning funksional belgisi "bog'lash"dir. Shu belgi asosida ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar so'z va gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi. Ammo bu vazifa bog'lovchi va ko'makchilar uchun o'zgarmas, barqaror sanaladi. Yuklamalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular so'zlarga yoki gaplarga so'roq, ta'kid, kuchaytiruv, ayirish-chegaralash, o'xsha-tish kabi qo'shimcha ma'nolarni beradi va funksional "bog'lash" belgisiga nisbatan beqaror, o'zgaruvchan sanaladi, ya'ni "bog'-lash" belgisi bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin.

Chunonchi, na-na yordamchisi teng bog'lovchilarning bir turi sifatida inkor bog'lovchisi sanalib kelgan. G'.Abdurahmonov esa uni inkor bog'lovchisi deb atash bilan birga, unda yuklamalik xususiyati ham borligini ko'rsatadi. Haqiqatan ham, bu yordamchi ham bog'lovchilik, ham yuklamalik vazifasini bajaradi. Bog'lovchi vazifasida kelganda ayrim teng huquqli bo'lak (komponent)larga inkor ma'nosini berib, ularni bog'laydi: *Na so'zlarida ma'no bor, na ishlarida hayo.* (Oyb.) Bu yordamchi so'z yuklama vazifasini bajarib, mazmunidan inkor anglashilgan gaplar tarkibida keladi va inkor ma'nosini ko'rsatadi: *Raisningerkatoy o'g'li na o'qiydi, na biror joyda ishlaydi.*

Go'yo yordamchisi mazmunidan o'xshatish yoki chog'ishtirish ma'nolari anglashilgan sodda va qo'shma gaplar tarkibida ishtirok etadi. Sodda gaplardagi funksiyasiga ko'ra ko'proq yuklamalarga yaqin turadi: *Tursunoy go'yo qalbi bilan ashulaga jo'r bo'lar edi.* (A.Mux.) *Kampirning yuzida go'yo kulgiga o'xshagan bir narsa aks etdi.* (A.Qah.) *Go'yo yordamchisi qo'shma gaplarda sodda gap qismlarini biriktiruvchi grammatik vositalarning biri sifatida xizmat qiladi, ya'ni qo'shma gapdagi vazifasiga ko'ra sodda gapdagi vazifasidan farqli o'laroq, u faqat yuklamagina emas, balki bog'lovchi-yuklama sanaladi:ertaga nikoh bo'ladi, go'yo men uning xotini.* (Oyb.) *Shunday baqirdiki, go'yo butun xona larzaga kelgandek bo'ldi.* (A.Qah.) *Aytdimi, qiladi, Qo'ydi-da, chiqdi* gaplarida ham *-mi, -da,* qo'shimcha-simon yuklamalarning bog'lovchilik xususiyatini kuzatish mumkin. Demak, yuklamalarning qo'shma gap tarkibiy qismlarini o'zaro bog'lash vazifasi keng uchraydigan hodisa ekan va bu tilshunosligimizda ma'lum darajada o'rganilgan.

Yuklamalarning tuzilish turlari. Ko'pgina leksoid yordamchi so'zlarning affiksoid ko'rinishlari mavjud, bu yuklamalarga ham tegishlidir: *ham, -am /-yam; uchun, -chun; -u, -yu; bilan, -ila, -la* shular jumlasidandir. Yuklamalar shakliy jihatdan uch xil ko'rinishga ega:

1. Qo'shimchasimon yuklamalar (*-mi, -chi, -a, -ya...*).
2. Sof yuklamalar (*xuddi, faqat, axir...*).
3. Nisbiy yuklamalar (*yolg'iz, ba'zan, tanho, bir...*).

Ularning shakliy va vazifaviy turlari. Yuklamalar vazifaviy jihatdan quyidagi ma'no turlariga bo'linadi:

1. So'roq yuklamalari: *-mi, -chi, -a, -ya, nahotki.* Bu yuklamalar turli so'z turkumlariga qo'shib, so'roq ma'nosini bildiradi. Ba'zan so'roq ma'nosidan tashqari taajjublanish, hayratlanish ma'nolarini ham ifodalaydi.

-mi affiks yuklamasi o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi, *-chi, -a, -ya* yuklamalari esa o'zidan oldingi so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: 1. *Kiyganingiz ipakmidi, kimxobmidi, Sevganingiz bizlardan ham ortiqmidi?* 2. *Opang-chi? Sen-chi? Men-a? Meni-ya?* 2. *Nahotki shu gaplarga ishongan bo'lsangiz.*

2. Ayirish-chegaralash yuklamalari: *faqat, faqatgina, -gina (-kina, -gina).*

Bu yuklamalar ayrim narsa va hodisalarni boshqalardan ajratish, harakatni chegaralash uchun qo'llaniladi. *-gina* affiks yuklamasi o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi: *To'yga Sheraligina kelmadi, xolos. O'ktam indamadi, faqat yuragida to'lqinlangan mehr bilan onasiga tikildi. Faqat* yuklamasining o'rnida *yolg'iz* so'zini ham qo'llash mumkin. Sifat so'z turkumiga oid bu so'z nisbiy yuklama hisoblanadi: *Sobir, yolg'iz senga suyandim (Sobir, faqat senga suyandim).*

3. Ta'kid yuklamalari: *-ku, -da, -u, -yu.* Gapda ifodalangan biror voqeani ta'kidlash uchun qo'llaniladi: *Sobir-ku keldi, Mahmud kelmadi-da!*

4. Kuchaytiruv yuklamalari: *axir, hatto, hattoki, -oq (-yoq).*

-oq, (-yoq) affiks yuklamasi o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi. Harakatning birin-ketin tezlik bilan davom qilishini, boshlanish paytini, ta'kidlashni ko'rsatadi: *Gullarni ko'riboq ko'ngli yorishdi. Axir, hatto, hattoki* yuklamalari ham fikrni kuchli ta'kidlash, avvalgi voqeani eslatishni ifodalaydi: *Axir do'stimsan-ku!*

5. O'xshatish-qiyoslash yuklamalari: *xuddi, naq, go'yo, go'yoki*. Bahorda bu bog'lar go'yoki kelindek yasanadi. (CHirildoqlarning mayin musiqasi hamma yoqni to'ldirgan, go'yo kechaning o'zi kuylaydi kabi gaplarda yuklama-bog'lovchi vazifasini bajaradi.)

6. Inkor yuklamasi: *na*. Takror holda ishlatilib inkor ma'nosini ifodalaydi:

Na ko'kning fonari o'chmasdan,

Na yulduz sayr etib ko'chmasdan. (U.)

Yordamchi so'zlar – ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar tilimizni, uning cheksiz imkoniyatlarini yana ham boyroq, ifodalarimizni yana ham aniqroq va go'zalroq qilishning vositalaridandir. Yordamchi so'z turkumlari yuzasidan olib borilgan izlanishlar quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar nutqimizning cheksiz imkoniyatlarini yanada boyroq, ifodalarimizning yanada aniqroq va go'zalroq bo'lishini, jumalarning rang-barangligini ta'minlovchi muhim vositalardandir.

2. Yordamchi so'zlar til tizimida mohiyatan mustaqil so'zlar bilan qo'shimchalar oralig'ida turadi.

3. Yordamchi so'zlar nutq rang-barangligini ta'minlashini birgina misol yordamida ko'rish mumkin:

1) *senday qiz*, 2) *sendek qiz*, 3) *sendayin qiz*, 4) *sening kabi qiz*, 5) *sen singari qiz*, 6) *sening singari qiz*, 7) *senga o'xshash qiz*, 8) *senga o'xshagan qiz*... (Bu birikmalar o'xshash ma'noni ifodalagan bilan ularning har biri juda nozik farqlarga ega).

4. Bog'lovchi-yuklama, ko'makchi-bog'lovchi, ko'makchi-yuklama kabilar muosir, til tizimida ko'rsatilganidek, yordamchi so'z turkumlariga xos bo'lgan "oraliq uchinchi"lardir.

5. Tilimizda nisbiy ko'makchilar, nisbiy bog'lovchilar, nisbiy yuklamalar sirasi mustaqil so'zlarning yordamchilashishi evaziga boyib bormoqda.

6. O'z mohiyati bilan yuklamalar modal so'zlarga yaqin turadi. Shu tufayli bu ikkisi ko'pincha birgalikda tasvirlanadi. Ammo modal so'zlar bilan yuklamalarni tenglashtirib bo'lmaydi. Yuklamalar:

1) yuklamalar rang-barang ma'nolarni ifodalaydi, shulardan ba'zilarigina modal ma'noga yaqin keladi;

2) yuklamalar ko'pincha mustaqil ishlatilmaydi, biror so'zga tirkalib yuradi. Modal so'zlar esa:

1) gap tarkibida gap modalligini kengaytiruvchi, murakkablashtiruvchi vosita sifatida ro'yobga chiqadi. Boshqacha qilib aytganda, [Wpm] gap qurilish qolipining [Rm] qismida mujassamlangan va xilma-xil vositalar bilan ifodalanadigan tasdiq /inkor, taxmin, gumon, shubha, ishonch, shart, qat'iylik, istak, imkoniyat kabi modal ma'nolar gapning boshqa bo'laklari bilan tobe-hokimlik munosabatiga kirishmaydigan modal so'zlar, tasdiq/inkor so'zlar vositasida kengaytiriladi: *Kanizak, aftidan, shuni aytmoqchi edi*...(A.Qah.)

2) mustaqil ravishda yakka o'zi bitta gap bo'lib kela oladi va modal so'z-gaplar deb yuritiladi. Bunday so'z-gaplarning barchasida kesimlik kategoriyasi ma'nosi so'zning lug'aviy ma'nosida mujassamlangan bo'ladi: *Kelasizmi? - Albatta*.

3) yuklamalar morfologiyada yordamchi so'zlar guruhida, modal so'zlar so'z-gaplar doirasida o'rganiladi;

4) boshqa so'z guruhlari kabi modal so'zlar ham, yuklamalar ham o'ziga xos morfologik, sintaktik, ma'noviy belgilarga ega. Modal so'zlar bilan yuklamalarning o'zgarmasligi ularning morfologik belgisiga kiradi. Sintaktik jihatdan esa modal so'zlar ajraluvchilik (ya'ni kirish so'z vazifasida kela oladi), yuklama esa muchalanmaslik (gap bo'lagi bo'la olmaslik) belgisiga ega. Semantik jihatdan modal so'zlar fikrning voqelikka munosabatini ifodalaydi va butun gapga taalluqli bo'ladi. Yuklamalar esa ta'kid, o'xshatish, kuchaytirish kabi qo'shimcha ma'no ifodalaydi. Yuklama ifodalagan ma'no butun gapga bevosita taalluqli bo'lmay, avvalo o'zi tirkalib kelgan bo'lakning ma'nosini bo'rttirishga xizmat qiladi va shu bo'lak orqali butun gapga taalluqli bo'ladi.

Asosiy adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Hozirgi o'zbek tili. Morfemika. Derivatsiya. Morfologiya. II qism. Qarshi-2005.

2. Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek tili. Morfologiya, 1-qism. Mustaqil so'z turkumlari. (Ma'ruza matnlari). Buxoro-2003.
3. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh. va boshqalar. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya.-T.: Yangi asr avlodi. 2001.- 182 b.
4. O'zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. Max.muh. G'.A.Abdurahmonov va boshq. T.: Fan, 1972.-610 b.
5. Zamonaviy o'zbek tili: Morfologiya\ Mualliflar jamoasi. Max. muh. H.G'.Ne'matov va boshqalar. T. Mumtoz so'z, 2008.
6. Sayfullaeva R.R., Mehg'liyev B.R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'qv qo'llanma.-T., Fan va texnologiya,2009. -416.
7. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. -T.: O'qituvchi. 1995.-127 b.
8. Musulmanova N.R. Grammatik shakllarda kategorial, yuondosh va hamroh ma'no (zamon va mayl kategoriyalari misolida) Filol.fan.nomz...diss. -Toshkent, 2007.-116 b.

Yordamchi adabiyotlar

1. Meng'liyev B.R. Morfologik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari: Filol. fan. nomz ... diss. Buxoro. 1995, - 144 b.
2. Nigmatov X.G. Funktsionalnaya morfologiya tyurkoyazchnx pamyatnikov XI-XII vv. -T.: Izd. Fan, 1989.-191 s.
3. Nigmatov X.G. Vkluyuchennoe tretye v morfologicheskoy sisteme tyurkskix yazkov// Sov.tyurkologiya. 1976. -№3. -S. 31-36.
4. Shahobiddinova Sh. Grammatik ma'no talqini haqida: Filol.fan.nomz... .diss. -Samarqand, 1993.-152 b.
5. Bahriddinova B.M. Fe'l lug'aviy shakllari tizimi (tur kategoriyasi) Filol.fan.nomz...diss. - Samarqand, 2002.-146 b.
7. Shukurov O. Harakat tarzi shakllari paradigmasi. Filol. fan. nomz ... diss. Avt. Qarshi. 2005, - 22 b.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Leksemalarning ma'noviy tasnifidagi "ma'noviy nomustaqillik" belgisi tushunchasini izohlang.
2. Tilshunoslikda oraliq uchinchi atamasini nimani anglatadi?
3. Yordamchi so'zlar oraliq uchinchimi?
4. Ko'makchilarning grammatik ma'nolari misollar asosida aniqlang.
5. Bog'lovchilarning grammatik ma'nolari misollar asosida aniqlang.
6. Yuklamalarning grammatik ma'nolari misollar asosida aniqlang.

DAVOMI: ALOHIDA SO'ZLAR TURKUMI

REJA:

1. Modal so'zlar. Modal so'zlarning umumiy grammatik belgisi.
2. Modal so'zlarning ma'no turlari.
3. Undov soz'alr va ularning turlari.
4. Taqlid va uning UGMsi.
5. Taqlidlarning LMTlari.
6. Taqlidlarning tuzilishiga ko'ra turlari.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar: modal so'z, modal ma'no, undov, taqlidlarning lug'aviy ma'no ifodalashi, mimemalar, «ma'noviy bo'shliq» tushunchasi; ravishlarning o'zgarishligi, ma'no turlari, yasalishi, ravishlarda soddalashish, tublashish.

Modal so'zlar

So'zlovchining o'zi bildirgan fikrga qo'shimcha munosabatini ifodalovchi alohida so'zlar guruhi modal so'zlar deb yuritiladi. "Modal" lotincha "modus" so'zidan olingan bo'lib, "o'lchov", "usul" kabi ma'nolarni anglatadi.

Ushbu turkumga kiruvchi so'zlar leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra 2 guruhga bo'linadi:

1. Sof modal so'zlar: *albatta, chamasi, aftidan, tabiiy, mazmuni, ehtimol.*
2. Modal ma'noli so'zlar: *bor, yo'q, kerak, darkor, zarur, lozim, mumkin, iborat.*

Sof modal so'zlarning sofligi ham nisbiy. Ularning hammasi aslida boshqa so'z turkumlaridan o'sib chiqib, alohida bir guruhni hosil qilgan. Modal so'zlar o'sib chiqqan:

1. **Otdan:** ehtimol, chog'i, chamasi, mayli, go'rga//go'r, mazmuni, haqiqatdan, haqiqatda, darhaqiqat, darvoqe, filhaqiqat, aslida, aftidan, xayriyat, vassalom.
2. **Sifatdan:** shubhasiz, shekilli, rost//rosti, to'g'ri//to'g'risi//to'g'rirog'i, so'zsiz, tabiiy//tabiiyki, ma'lumki, muhaqqaq, ochig'i.
3. **Ravishdan:** albatta, rostdan, chindan.
4. **Bog'lovchidan:** balki.
5. **Olmoshdan:** o'z-o'zidan, har qalay.
6. **Fe'ldan:** kel//keling, qo'y//qo'ying//qo'yingki, hoynahoy, demak, dey-lik, olaylik.
7. **Sintaktik birliklardan:** har holda, haytovur, ishqilib, bari bir, nafsilambiriga.

Sof modal so'zlar ifodalaydigan ma'nolariga ko'ra ikki katta guruhga bo'linadi:

1. **Fikrning aniqligini bildiradigan modal so'zlar:** darhaqiqat, darvoqe, haqiqatan // haqiqatdan (ham, rost, to'g'ri//to'g'risi, rostdan, chindan).
2. **Fikrning noaniqligini bildiruvchi modal so'zlar:** balki, ehtimol, chamasi, aftidan, mazmuni.

Sintaktik vazifalari

Sof modal so'zlar gap bo'lagi vazifasida kelmaydi va gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi. Ularning asosiy sintaktik vazifasi kirish bo'lak bo'lib kelishdir. Ular gap bo'laklaridan og'zaki nutqda pauza bilan, yozma nutqda vergul bilan ajratiladi. Faqat balki, shekilli modal so'zlarigina nutq oqimida pauza bilan ajratilmaydi, shuning uchun ularni yozuvda ham vergul bilan ajratmaslik ma'qul. M.: *Bu, shubhasiz, bizning yutug'imiz. Tabiiy, bir kun oldin ekan hafta burun o'radi. Balki bu biz bilmagan yangi elementdir.*

Sof modal so'zlarning ikkinchi sintaktik vazifasi so'z-gap bo'lib kelishdir. M.:

- *Bemorni kasalxonaga yotqizish kerakmi?*
- *Albatta.*
- *Majlis bir soatda tugarmikin?*
- *Ehtimol.*

Modal ma'noli so'zlar gapda kesim, kesimning tarkibiy qismi, sifatlovchi-aniqlovchi bo'lib kela oladi. Ular ichidagi bor, yo'q, kerak so'zlari otlashib, otning sintaktik vazifalarini bajara oladi. M.: *Kitob bor. Daftari yo'q. Qalam kerak. Bugun borishim kerak. Yo'q narsani yo'ndirib bo'lmaydi. Bor maqtansa topilar, yo'q maqtansa chopilar.*

Modal so'zlarda sinonimiya, omonimiya va antonimiya hodisalari

Sinonimlar: chamasi – chog'i – mazmuni; shubhasiz – shaksiz—so'zsiz; o'z-o'zidan – tabiiy; haqiqatda – haqiqatdan – davrhaqiqat; voqean – darvoqe – aytganicha – deganday; ehtimol – balki.

Antonimlar: bor – yo'q; ha – yo'q.

Omonimlar: to'g'ri, rost, tabiiy (sifat) – to'g'ri, rost, tabiiy (modal so'z); albatta, rostdan, chindan (ravish) – albatta, rostdan, chindan (modal so'z).

Modal so'zlarning morfematik tahlili

Modal so'z morfemalarga ajralmaydi. M.: Uning tobi qochganligi aftidan bilinardi (aftidan – ot, aft-i-dan). Aftidan, u asarni o'qimagan (aftidan – modal so'z, aftidan). Bu – shubhasiz haqiqat (shubhasiz – sifat, shubha-siz). SHubhasiz, bu – og'ir masala (shubhasiz – modal so'z, shubhasiz).

Eslatma: Garchand akademik grammatikada inkor qilingan bo'lsa-da, *xullasi kalom, demak, bas, binobarin, qisqasi, umuman; masalan, shuningdek, jumladan, chunonchi; aksincha; avvalo, avvalambor, nihoyat; aytganday, aytmoqchi, zotan; xususan, ayniqsa, asosan; koshki, zora, yaxshiki, xayriyat, shoyad* kabi so'zlarni so'zlovchining qo'shimcha munosabatini ifodalab, kirish bo'lak vazifasini bajaragan o'rnlarda modal so'z deb hisoblash mumkin.

Undov so'zlar

Kishilarning his-hayajonlarini, xitob, haydash-chaqirish ma'nolarini va rasm-odat bilan bog'liq murojaatlarini bildiradigan alohida so'zlar tuvrkumi undov so'zlar deb yuritiladi.

Undovlar semantik jihatdan atash xususiyatiga ega emas, morfologik jihatdan o'zgarmaydi va affiksatsiya yo'li bilan yasalmaydi, sintaktik jihatdan esa gap bo'lagi bo'lib kelolmaydi va gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi. Ularning yana bir grammatik xususiyati shuki, osongina otlashib, otning grammatik ko'rsatkichlarini qabul qilishi va otning sintaktik vazifalarini bajarishi mumkin.

Undovlar faqat *demoq, solmoq, tortmoq, urmoq* kabi fe'llar bilangina birikma hosil qiladi va shunda ham ular bilan birgalikda yaxlit gap bo'lagi bo'lib keladi: *oh demoq, dod solmoq, uf tortmoq, oh urmoq*.

Ma'noga ko'ra turlari

Undovlar ma'nosiga ko'ra 2 katta guruhga bo'linadi:

1. **His-hayajon undovlari:** ie, eh, o, uh, uf, bay-bay, ho, o'h-ho', ehe, e, hay-hay, a-ha, e-ha, ha-ya, o', i, a, o'h, obbo, iya, he, ie-voy, ura, vo, vodarig', esiz, evoh, vah-vah, ajabo.

2. **Haydash-chaqirish undovlari:**

a) odamlarga qaratilgan undovlar: hoy, oy, ay, allo, ey, ma, tss, marsh, qani, jim, tek, fisht;

b) hayvon va parrandalarga qaratilgan undovlar: beh-beh, pish-pish, pisht, tu-tu, gah, kuch-kuch, mah-mah, xo'sh, tak, dirr, ish, xix, chu(h), kisht, hayt, huvt.

Bulardan tashqari, undov so'zlarning yana ikki kichik guruhi bor:

1. Rasm-odat undovlari: assalom, alaykum, salom, assalom, vaalaykum assalom, xayr, xo'sh, xo'p, marhamat, marhabo, rahmat, tashakkur, shukur, qulluq, balli, ofarin, barakalla, qoyil, hormang, bor bo'ling, esonmisiz, omonmisiz, uzr.

2. Ko'rsatish, ta'kid undovlari: *hu, huv, ha, hmm, hov*.

Tuzilishiga ko'ra turlari

1. Sodda: *eh, o, uf, kisht, xayr, uzr, oh, ma, pisht, obbo*.

2. Juft: *o'h-hu, eh-he, eh-ha, voy-bo', voy-dod, e-voh; e-ha-a, voy-voy-ey*.

3. Takroriy: *bay-bay, oh-oh, mah-mah, pisht-pisht; e-e-e, bay-bay-bay, hay-hay-hay*.

Bor bo'ling, assalom alaykum, vaalaykum assalom kabi qo'shma holdagi undov so'zlar bo'lsa-da, ular shu holicha sintaktik birliklardan ko'chib o'tgan.

Sintaktik vazifalari

1. **Kirish so'z:** *Voy, bu o'zimizning Karimku. E, sekinroq gapir.*

2. **Undalma:** *Hoy, qayoqqa ketyapsiz? Ey, nimaga ovora bo'lyapsiz?*

3. **So'z-gap:** *Eh! Hayot bir lahza mening hukmim bilan yursaydi. Ho-o! Buni o'zimga oldim.*

4. **Otlashsa, otning sintaktik vazifalarini bajaradi:** *Ortiqcha oh-voh o'rinsiz. Dod-voydan nima foyda?!*

Taqlid va uning UGMsi. Taqlidlar o'zbek tilida katta bir guruhni tashkil etadi va mustaqil so'zlar sirasidan o'rin olgan. Buning bir nechta ilmiy asoslari bor.

Birinchidan, turkiy tillarda taqlidlar miqdoran ko'p va ma'no jihatdan rang-barang.

Ikkinchidan, ulardagi tovushlar tizmasi ma'lum obyektiv voqelikdan xabar berib turadi.

Uchinchidan, ular gap tarkibida ma'lum bir sintaktik pozitsiya egallaydi.

To'rtinchidan, taqlidlar morfologik jihatdan o'zgaruv-chandir.

Taqlidlar o'zbek tilining muhim ifoda vositasidir. Ularning ifoda tomoni mazmun tomoni bilan tabiiy bog'lanishga ega. Bu quyidagi so'zlar qatorini qiyoslash asosida hosil bo'ladi:

1) *taq-tiq/tuq-tuq/to'q-to'q/taq-taq;*

2) *liq-liq/luq-luq/lo'q-lo'q/laq-laq;*

3) *tirs-tirs/tars-tars/tars-turs;*

Ko'rinadiki, fonetik qiyofasi tor unli va qattiq undoshlardan iborat bo'lgan taqlidlardagi belgi darajasi keng unli va qattiq undoshlardan iborat taqlidlar ifodalagan belgilardan pastdir. Bu taqlidlardagi shakl va mazmunning tabiiy bog'lanishini ko'rsatadi.

Taqlidlar jamiyatning har bir a'zosi tushunadigan turli ma'nolarga ega. Masalan, *taq-tiq/tuq-tuq/to'q-to'q/taq-taq* taqlidlari orqasida nimadir yotgani va ma'lum bir borliq hodisasini ifodalayotgani shu til jamiyatining barcha a'zolari uchun tushunarlidir.

Taqlidlardagi ma'noviy g'ayrioddiylik uni boshqa mustaqil so'z turkumlaridan ajratib turadi. Biroq ma'noviy g'ayrioddiylik faqat taqlidlargagina xos emas. Buni olmoshlarda ham kuzatish mumkin. Chunki ularning ma'nosi faqat matn tarkibidagina anglashilib, shu boisdan «ichi bo'sh» so'zlar sifatida baholanadi. Ammo bu «ma'noviy bo'shlik» olmoshlarni mustaqil so'zlar sifatida qarashga monelik qilaolmagan. Demak, bu nomustaqil so'zlar sifatida qarab kelingan taqlidlarning ham «mustaqillashuvi»ga to'siq bo'la olmasligi kerak.

Taqlidlar morfologik jihatdan o'zgaruvchan bo'lib, bu bilan to'la ma'nodagi mustaqil so'z bo'lgan ravishlardan ham ustun turadi: *odamlarning g'ovur-g'uvuri, eshikning taqir-tuquridan* kabi.

Taqlidlar cheklanmagan muchalanuvchanlikka ega:

Kesim: *Atrof g'ala-g'ovur.*

Ega: *Taqir-tuqur tinmadi.*

Hol: *Shabada g'ir-g'ir esadi.*

To'ldiruvchi: *Odamlarning vag'ir-vug'uridan quloqlar bitgudek.*

Aniqlovchi: *Mahallada duv-duv gap.*

Demak, taqlidlar «borliq hodisalariga taqlidning lisoniy ifodasi» UGMsiga ega.

Ko'rinadiki, o'zbek tilidagi taqlidlar semantik-morfologik-sintaktik jihatdan mustaqil so'z maqomiga ega.

Taqlidlarning LMTlari. Taqlidlarning ayrimlari tovushga taqlidni ifodalasa, ikkinchi bir xili ko'rinish-holatga taqlidni ifodalaydi. Shu boisdan «tovushga taqlid» va «ko'rinishga taqlid» LMTlari farqlanadi.

«**Tovushga taqlid**» LMT. Bu LMT a'zolari kishi, jonivor, narsa va hodisalar paydo qilgan tovushlarga taqlid qilish natijasida paydo bo'ladi. LMT o'z o'rnida ikkiga bo'linadi:

«Fiziologik tovushga taqlid» LMG: *qah-qah, xur-xur, xir-xir, miyov-miyov.*

«Fizik tovushlarga taqlid» LMG: *tap-tup, taqir-tuqur, tipir-tipir.*

II. «Ko'rinishga taqlid» LMT. Tovushga taqlid so'zlar eshitish bilan bog'liq hodisalarni ifodalasa, ko'rinishga taqlid so'zlari ko'rish bilan bog'liq hodisalarni aks ettiradi. Bu LMT ham o'z o'rnida:

«Harakatni ifodalovchi taqlidlar» LMG: *dik-dik, lik-lik, lapang-lapang, ship-ship.*

«Tashqi ko'rinishni ifodalovchi» LMG: *hil-hil, jiq-jiq, mo'lt-mo'lt.*

«YOrug'likni ifodalovchi taqlidlar» LMG: *lip-lip, jimir-jimir, yalt-yult, yilt-yilt.*

Taqlidlarning tuzilishiga ko'ra turlari. O'zbek tilida taqlidlar juft va takroriy ko'rinishlarda bo'ladi.

Juft taqlidlar: *g'arch-g'urch, taq-tuq, vag'ir-vug'ur, g'ing-ping, alang-jalang, apir-shapir.*

Takroriy taqlidlar: *guv-guv, duv-duv, shartta-shartta, cho'lp-cho'lp, shaqa-shaq, guppa-guppa.*

Eslatma. Taqlidlar *etmoq, demoq, qilmoq* fe'llari bilan kelganda qo'shma fe'l vujudga keladi: *guv-guv etmoq, duv-duv qilmoq, cho'lp-cho'lp qilmoq.*

Ma'lumki, so'zlar ma'noviy belgisiga ko'ra uch tipga bo'linadi:

a) mustaqil ma'noli so'zlar (fe'l, ot, sifat, son);

b) bo'sh - ishora ma'noli so'zlar (olmosh);

v) yordamchi ma'noli so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, ko'makchi fe'llar).

AMALIY MASHG'ULOT UCHUN MAVZUVIY REJA:

1-АМАЛИЙ MASHG'ULOTI

(2 soat)

Leksikologiyaning obykti, predmeti va vazifalari.

Reja:

1.1. Leksikologiyaning obykti, predmeti, maqsadi, vazifalari va turlari (0,5 s.)

1. Leksikologiyaning obykti, predmeti, vazifalari.
2. Leksikologiyaning turlari:
 - a) umumiy leksikologiya;
 - b) xususiy leksikologiya (tavsifiv, tarixiy leksikologiyalar);
3. Leksikologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi;
4. Leksikologiyada lug'at boyligining sistema sifatida o'rganilishi

1.2. So'zning leksik birlik sifatidagi mohiyati. (0,5 s.)

1. So'z- tilning eng muhim nominativ birligi.
2. Leksik mazmunli so'zlar (leksemalar).
3. Grammatik va modal mazmunli so'zlar (yordamchi so'zlar, modal so'zlar, taqlidiy so'zlar, undovlar, olmoshlar).
4. Leksemaga berilayotgan ta'rif-tavsiflarning har xilligi. Qarang: Sh. Rahmatullaev, 2006, 72-bet.
5. Leksemaning ifoda va mazmun jihatlari: nomema va semema haqida ma'lumot.
6. Leksemaning ifoda jihati (fonetik qiyofasi so'zga, birikmaga teng shakllari) tashqi forma, mazmun jihatining esa ichki forma ekanligi. Ichki formaning bir yoki bir necha leksik ma'nodan (demak, bir necha sememadan) tarkib topishi.
7. Tashqi va ichki formalar o'rtasidagi aloqada dialektikaning shakl va mazmun birligi qonuniyatining namoyon bo'lishi;
8. Leksemaning so'z birikmasi va gapdan farqli jihatlari.

Tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha-ruscha lug'ati

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Leksikologiya	Lexicology	Лексикология
Obyekt	Object	Объект
Predmet	Object, thing	Предмет
Maqsad	Aim, purpose	Цель
Vazifalar	Functions	Функции

UYGA VAZIFA

I. Q-3 (20-22-betlar)dagi 3-4-mavzular bo'yicha adabiyotlar ustida ishlash, ularni konspektlashtirish.

II. Savolnoma, topshiriqlar va tayanch tushunchalar ustida ishlash. (Qarang: Q-3, 20-22-betlar).

Savol va topshiriqlar

1- mavzu bo'yicha

1. Adabiyotlarni o'qing va konspektlashtiring;
2. Quyidagi savollar va topshiriqlar asosida o'z bilimingizni tekshirib ko'ring:
 - a) Leksikologiya nimani o'rganadi?
 - b) leksika nima?
 - c) leksikologiya fanining maqsad va vazifalari haqida nimalarni bilasiz?
 - d) leksikologiyaning qanday turlari bor? Ularda lug'at boyligining qaysi jihatlari o'rganiladi?
 - e) leksikologiya tilshunoslikning qaysi bo'limlari bilan aloqada bo'ladi? Sabablari?
3. Quyidagi tayanch tushuncha va ularning nomlarini eslab qoling: leksikologiyaning obyekti, lug'aviy birliklar, lisoniy (lingvistik) omillar, umumiy leksikologiya, xususiy leksikologiya, tavsifiy leksikologiya, tarixiy leksikologiya, semasiologiya, onomasiologiya, etimologiya.

2- mavzu bo'yicha

1. Adabiyotlarni o'qing va konspektlashtiring;
2. Quyidagi savollar va topshiriqlar asosida o'z bilimingizni tekshirib ko'ring:
 - a) nima ushun leksema nominativ birlik sanaladi?
 - b) leksik va grammatik mazmunli so'zlar qanday farqlanadi?
 - c) leksemaning ifoda va mazmun jihatlari haqida ma'lumot bering;
 - d) tub va yasama leksemalarning ifoda planlari qanday farqlanadi?
 - e) leksemaning ichki va tashqi formalarini qanday tushunasiz?
 - f) leksemaning ifoda va mazmun jihatlari o'rtasidagi aloqa dialektikaning qaysi kategoriyasiga asoslanadi?
 - g) leksemaning yaxlit bir butun birlik ekanligi nimalarda namoyon bo'ladi?
 - h) leksemaning leksik birlik sifatidagi asosiy belgilarini bilib oling.
3. Quyidagi tayanch tushuncha va ularning nomlarini eslab qoling: leksema, semema, nomema, leksemaning ifoda plani (ifoda jihati), leksemaning mazmun plani (mazmun jihati), leksemaning tashqi formasi, leksemaning ichki formasi, nominativ birlik, leksik so'z, grammatik so'z.

2-АМАЛИЙ MASHG‘ULOT

Leksemaning semantik tarkibi.

Амалий rejasi.

1. Leksemaning mazmun planida ikki hodisaning farqlanishi:
 - a) voqelikni nomlash (nominativ vazifa);
 - b) ma’lum bir ma’noni anglatish (singnifikativ ma’no).
2. Leksik ma’no va uning leksema mazmunidagi asosiy hodisa ekanligi; leksik ma’noning fonetik so‘z, denotativ (referent) va signifikat o‘rtasidagi bog‘lanishdan tarkib topishi.
3. Leksik ma’no va u bildirgan voqelik boshqa-boshqa hodisalar ekanligi.
4. Leksik ma’noning semalari ma’no uzvlari ekanligi.
5. Komponent tahlil (semik tahlil) haqida ma’lumot.
6. Leksik ma’no va semalar o‘rtasidagi umumiylik va xususiylik, butun va bo‘lak munosabatlari.
7. Leksik ma’no (semema) tarkibidagi ideografik (atash, denotativ) va konnotativ (ifoda,baho) semalar.

Tayanch so‘zlarning o‘zbekcha - inglizcha-ruscha lug‘ati

O‘zbekcha	Inglizcha	Ruscha
enotat	Denotatum	Денотат
Denotativ	enotative	Денотативный
Denotativ ma’no	enotations meaning	Денотативное значение
Denotatsiya	Denotation	Денотация
Sema	eme	Сема
Semema	ememe	Семема
Atash semasi	Name seme	Называемая сема
Baho semasi	Appreciate seme	Оценивающая сема
Leksik birlik	Lexical unit	Лексическая единица
Leksikon	Lexicon	Лексикон

Savol va topshiriqlar

1. Leksik ma’no nima? U qanday tarkib topadi?
2. Fonetik so‘z nima?
3. Denotativ, signifikativ ma’nolar qanday farqlanadi?
4. Leksik ma’no va tushuncha, ular o‘rtasidagi aloqa?
5. Quyida keltirilgan tayanch tushuncha va ularning nomlarini izohlang: *leksik ma’no, fonetik so‘z, denotat, referent, signifikat, tushuncha.*

- 1) leksik ma'no (semema) va semalar o'rtasidagi umumiylik va xususiylik, butun va bo'lak munosabatlarini qanday tushunasiz?
- 2) semalar ma'no xususiyatlariga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
- 3) atash (denotativ) va baho (konnotativ, ifoda) semalari qanday farqlanadi?
- 4) ideografik semalarning integral va differensial semalarga bo'linishini tushuntiring.
- 5) **daraxt** va **o'simlik** leksemalarining leksik ma'nolari, sema va sememalarini aniqlang.

Mashq. Quyidagi matn parchalarida qo'llangan terminlarni toping, ularning ifoda va mazmun jihatlarini, qaysi sohaga ixtisoslashganligini tushuntiring.

Bosh, kalla-tananing bir bo'lagi bo'lib, pastki chegarasi odamda pastki jag'ning ostki chetidan boshlanib, yuqoriga ko'tariluvchi tarmog'i bo'ylab so'rg'ichsimon o'simtaning uchidan va undan keyin ensa do'mbog'idan o'tadi. ("Ruscha-o'zbekcha meditsina lug'ati"dan.)

Bosh, shingil. To'pmevalarning bir xili. Masalan, uzum shingili. ("Botanikadan ruscha-o'zbekcha ensiklopedik lug'at"dan.)

Tog'ning ko'rki -tosh bilan, odam ko'rki bosh bilan. (Maqol.)

Yaxshi yigit – davraning boshi. (Maqol.)

UYGA VAZIFA

I. Q-3 (22-23-betlar)dagi .5-.6-mavzular bo'yicha adabiyotlar ustida ishlash, ularni konspektlashtirish.

II. Savolnoma, topshiriqlar va tayanch tushunchalar ustida ishlash. (Qarang: Q-3, 22-23-betlar).

3-АМАЛИЙ MASHG‘ULOTI

Leksik ma’noning semalari

Reja:

1. Leksik ma’no va u bildirgan voqelik boshqa-boshqa hodisalar ekanligi.
2. Leksik ma’noning semalari ma’no uzvlari ekanligi.
3. Komponent tahlil (semik tahlil) haqida ma’lumot.
4. Leksik ma’no va semalar o’rtasidagi umumiylik va xususiylik, butun va bo’lak munosabatlari.
5. Leksik ma’no (semema) tarkibidagi ideografik (atash, denotativ) va konnotativ (ifoda,baho) semalar.

1-ilova Tayanch so’zlarning o’zbekcha - inglizcha-ruscha lug’ati

O’zbekcha	Inglizcha	Ruscha
enotat	Denotatum	Денотат
Denotativ	enotative	Денотативный
Denotativ ma’no	enotations meaning	Денотативное значение
Denotatsiya	Denotation	Денотация
Sema	eme	Сема
Semema	ememe	Семема
Atash semasi	Name seme	Называемая сема
Baho semasi	Appreciate seme	Оценивающая сема
Leksik birlik	Lexical unit	Лексическая единица
Leksikon	Lexicon	Лексикон

Mavzu bo’yicha

1. Leksik ma’no nima? U qanday tarkib topadi?
2. Fonetik so’z nima?
3. Denotativ, signifikativ ma’nolar qanday farqlanadi?
4. Leksik ma’no va tushuncha, ular o’rtasidagi aloqa?
5. Quyida keltirilgan tayanch tushuncha va ularning nomlarini izohlang: *leksik ma’no, fonetik so’z, denotat, referent, signifikat, tushuncha.*

- 1) leksik ma'no (semema) va semalar o'rtasidagi umumiylik va xususiylik, butun va bo'lak munosabatlarini qanday tushunasiz?
- 2) semalar ma'no xususiyatlariga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
- 3) atash (denotativ) va baho (konnotativ, ifoda) semalari qanday farqlanadi?
- 4) ideografik semalarning integral va differensial semalarga bo'linishini tushuntiring.
- 5) odam va uy leksemalarining leksik ma'nolari, sema va sememalarini aniqlang.

- 1) leksik ma'no (semema) va semalar o'rtasidagi umumiylik va xususiylik, butun va bo'lak munosabatlarini qanday tushunasiz?
- 2) semalar ma'no xususiyatlariga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
- 3) atash (denotativ) va baho (konnotativ, ifoda) semalari qanday farqlanadi?
- 4) ideografik semalarning integral va differensial semalarga bo'linishini tushuntiring.

2-mashq. Gaplarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning leksik m'nolarini, ma'no tarkibidagi semalarini aniqlang.

1. *Yulduz ko'zini yumdi. Talay muddat shu tahlit o'tirdi. Jimjitlik. Birov so'z qotmaydi. **Ouloqqa** poyezd **ovoqlarining** temir **izga** tegib chiqargan ovozlorigina eshitilardi. (Nuriddin Ismoilov. Mafiya sardori. 1-kitob, 2008, 81-b.)* 2. *Sen ustimdan kulayapsanmi? **Oizingning** qilgan ishi uchun vijdonim qiynalib o'laman desam, qayerdagi gap bilan boshimni og'ritasan. **Kallang** joyidami o'zi? (Nuriddin Ismoilov. Mafiya sardori. 1-kitob, 2008, 184-b.).* 3. *Endi tushundim. Cho'ntagimdan bitta ming so'mlik chiqargan edim, xiyol **chehrasi** yorishdi.*

- Yana **yo'tal**, humpar! **Jonliroq** yo'tal!

Tag'in to'rtagina "**yo'talgan**" edim, isparavka qo'limga tegdi. (O'tkir Hoshimov. "Ko'kyo'tal"// So'qqabosh bevagina, 2008, 28-b.).

UYGA VAZIFA

I. Q-3 (22-23-betlar)dagi .5-.6-mavzular bo'yicha adabiyotlar ustida ishlash, ularni konspektlashtirish.

II. Savolnoma, topshiriqlar va tayanch tushunchalar ustida ishlash.(Qarang: Q-3, 22-23-betlar).

4-АМАЛИЙ МАШГ‘УЛОТ
(2 soat)

Leksemaning uzual va okkazional ma'nolari

5-АМАЛИЙ MASHG‘ULOT
(2 soat)
Leksik monosemiya va polisemiya.

Амалий rejasi.

Leksik monosemiya va polisemiya.

1. Leksik monosemiya.
2. Leksik monosemiya hodisasining ko‘proq darajada terminlarga, leksemalarning boshlang‘ich ishlatilish davriga xos bo‘lishi.
3. Leksik polisemiya.
4. Leksik polisemiyaning leksemaning semantik strukturasiidagi leksik ma‘nolar orasida mazmuniy bog‘lanish borligiga tayanishi.
5. Leksik polisemiyaning omonimiyadan farqlari.
6. Polisemiya hodisasining leksik ma‘no taraqqiyotiga asoslanishi.
7. Leksik ma‘no taraqqiyotiga olib keluvchi lingvistik (lisoniy) va ekstralingvistik (nolisoniy) omillar: ma‘noning ko‘chishi (metafora, vazifadoshlik, metonimiya, sinekdoxa yollari bilan ma‘no ko‘chishi), ma‘noning kengayishi, ma‘noning torayishi.
8. Leksik ma‘no taraqqiyoti natijalari: miqdor o‘zgarishi va hajm o‘zgarishi.
9. Leksik ma‘nolarning guruhlanishi: hozirgi leksik ma‘nolar va avvalgi leksik ma‘nolar.

Tayanch so‘zlarning o‘zbekcha - inglizcha-ruscha lug‘ati

O‘zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Leksikolizasiya	Lexicalization	Лексикализация
Leksik ma‘no	Lexical meaning	Лексическое значение
Leksik birlik	Lexical unit	Лексическая единица
Leksikon	Lexicon	Лексикон

5-mashq. Quyidagi gaplarda “qorin” va “til” leksemalari qanday ma‘nolarda qo‘llanganligini aniqlang, bosh ma‘nodan o‘sib chiqqan hosila ma‘nolarning yuzaga kelish qonuniyatlarini tushuntiring.

1. **Qorin**-inson va hayvonlarning ovqat hazm qilish a‘zosi.2.Matqovul aka, men non toparmikanman deb **qorin** g‘amida maktab ochganim yo‘q (M. Ismoiliy). 3.Hamisha Qodirovning stolida **qorni** katta grafin suv bilan to‘la turardi. 4.Mening ustimdan ariza yozadiganlar onasining **qornida**, afandim (P. Tursun).5.Devorda **qorni** katta dutor osig‘liq turardi. 6.Buvim esa yostig‘ini ko‘kragiga qo‘yib **til** ostida nos bilan uxlab yotar ekanlar (G‘. G‘ulom). 7.Xotinning bu gapi Bo‘taboyning jon-jonidan o‘tib ketdi, lekin bundagi kuchli mantiq **tilini** bog‘ladi-yu, hech narsa deyolmadi (A. Qahhor). 8. **Til** bilmaslik birinchi haftalarda ularni (Yo‘lchi va rusni) qattiq qiynadi (Oybek). 9. Qo‘mondonlik Ostonaquillar keltirgan “**til**”dan hujum jangining planini tuzish uchun eng kerakli ma‘lumotlarni oldi. (Adham Rahmat).10.Shamol kuchayib, olovning **tili** yana ham uzunlashdi (S. Ahmad).11. U dehqonchilikning **tilini** yaxshi bilardi.

Mavzu bo'yicha Savol va topshiriqlar

- 1) tegishli adabiyotlarni o'qing va konspektlashtiring.
- 2) quyidagi savollarga javob toping:
 - a) leksik monosemiya va polisemiya qanday farqlanadi?
 - b) monosemiya hodisasi qanday lug'aviy birliklarda ko'proq uchraydi?
 - c) polisemiya hodisasining leksik ma'nolar orasidagi mazmuniy bog'lanishga tayanishini qanday tushunasiz?
 - d) leksik ma'no taraqqiyotining qanday turlari bor?
 - e) ma'noning ko'chishi, kengayishi va torayishi qanday farqlanadi?
 - f) leksik ma'no taraqqiyotida yuz beradigan miqdor va sifat o'zgarishlarini qanday tushunasiz?
- 3) leksik ma'noning qanday tiplari bor?
- 4) hozirgi leksik ma'no, uning turlari?
- 5) avvalgi leksik ma'no, uning turlari?
- 6) ixtiyoriy tanlangan matndan bir ma'noli va ko'p ma'noli leksemalarni toping. Ko'p ma'noli leksemalarda yuz bergan ma'no ko'chishining turini aniqlang;
- 7) keltirilgan tayanch tushuncha va terminlarni eslab qoling: *monosemiya, polisemiya, metafora yoli bilan ma'noning ko'chirilishi, vazifadagi o'xshashlik asosida ma'noning ko'chirilishi, metonimiya yoli bilan ma'noning ko'chirilishi, sinekdoxa yoli bilan ma'noning ko'chirilishi.*

6-АМАЛИЙ МАШГ'УЛОТ (2 soat)

Leksik sinonimiya.

Амалий режаси.

Leksik sinonimiya.

1. Leksik sinonimiyada denotativ semalarning bir xil, ifoda semalarining esa har xil bo'lishi, ifoda semalarida darajalanish holatlari.
2. Leksik sinonimlarning turlari:
 - a) ma'no sinonimlari (ideografik sinonimlar);
 - b) uslubiy sinonimlar (stilistik sinonimlar);
 - d) nutqiy sinonimlar.
3. Kontekstual sinonimiya.
4. Absolut sinonimlar yoki leksik dubletlar.
5. Leksemalarning sinonim bo'la olmaydigan holatlari.
6. Sinonimlarning turli leksik qatlamlarga mansub bo'lishi.
7. Sinonimiya va polisemiya.
8. Sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi tavsifi.

6-mashq. Quyidagi gaplardan “makr-hiylaga usta” arxisemali sinonimlarni toping, ular sinonimlarning qaysi turiga mansub bo‘lishi mumkinligini aniqlang.

Mirzakarimboy ilonning yog‘ini yalagan odam: hamma boylar kabi ayyor, mugambir, puxta-pishiqlik (Oybek). Bir ertakda tulki hiylagar odamning qilmishlarini ko‘rib ayyorlikdan voz kechib yiborardi (“Mushtum”). Tavba, bunday ustamonni ko‘rgan emasman (Oybek). Dushmanning makkor va qo‘rqinchli niyatini oynaday ravshan ko‘rsatgan xaritada xo‘rsinib boshini oldi (Oybek). Bunaqa dog‘ulilar ishni boblab yuradi (Said Ahmad). Avvali shuki, hech kimim yo‘q, yolg‘iz boshim degandir shum ukasi, ilonning yog‘ini yegan mo‘ltoni onasi borligini yashirgandir (A.Qahhor). Ha-ha, juda qilvirsan, ilonning yog‘ini yegansan (Yashin). Yana u Mirzakarimboy xonadoniga boshliq bo‘lib kekkaysin,.. boylikning nishabini o‘z tomoniga to‘g‘rilasin!.. U juda shayton xotin (Oybek). Chol soqolini timiskilab: “Ehtiyot bo‘ling, u [Qo‘qonboy] juda tulki odam, kattaroq shikast yetkazmasin”, -dedi (Mirmuhsin). O‘zi ham ish ko‘rgan tullak emasmi, endi bu og‘ir holatdan ustalik bilan chiqib olish yo‘llariga yopishdi (A.Qodiriy). Haydarov esa rahbar kishilarga xos fazilatlaridan tamoman mahrum, qirriq kishi (“Tanish basharalar”). Yerning tagida ilon qimirlasa bilaman! Bilasizmi, o‘sha eski, xirpa Boymat buning ham chorasini allaqachon topib qo‘ygan! (Yashin).

I z o h: Gaplar akad. Azim Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”dan olindi.

1. Sinonimiya nima?
2. Sinonimiya hodisasining so‘z turkumlariga munosabati qanday?
3. Sinonimik qator va dominanta haqida ma’lumot bering.
4. Leksik sinonimlarning qanday turlari bor?
5. Ma’no sinonimlari (ideografik sinonimlar), uslubiy sinonimlar (stilistik sinonimlar) va nutqiy sinonimlar qanday farqlanadi?
6. Qanday holatlarda kontekstual sinonimiya yuz beradi?
7. Absolut sinonimlar yoki leksik dubletlarni qanday tushunasiz ?.
8. Qanday holatlarda leksemalar sinonim bo‘la olmaydi ?.
9. Sinonimlar turli leksik qatlamlarga mansub bo‘ladimi?
10. Sinonimiya va polisemiya o‘rtasida qanday bog‘lanish bor?
11. Sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi tavsifi nimalarga tayanadi?
12. keltirilgan tayanch tushuncha va terminlarni eslab qoling: *sinonimiya, sinonimik qator, dominanta, ma’no sinonimlari, uslubiy (stilistik) sinonimlar, nutqiy sinonimlar, kontekstual sinonimlar.*

Tayanch so‘zlarning o‘zbekcha - inglizcha-ruscha lug‘ati

O‘zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Sinonimik qator	Synonym series	Синонимический ряд
Sinonimiya	synonymy	Синонимия
Sinonimlar	synonyms	Синонимы
Leksik-semantik guruh	Lexical - semantic group	Лексико - семантическая группа
Leksik sinonimiya	Lexical synonymy	Лексическая синонимия
Sinonimik qator	Synonym series	Синонимический ряд
Dominanta	Dominante	Доминанта
Leksikolizasiya	Lexicalization	Лексикализация

Leksik ma'no	Lexical meaning	Лексическое значение
Leksik birlik	Lexical unit	Лексическая единица
Leksikon	Lexicon	Лексикон

**Mavzu bo'yicha
Savol va topshiriqlar**

Yana misollar:

- 1) **kallang joyidami o'zi** -“kontekstual sinonimiya”
(Nuriddin Ismoilov. Mafiya sardori, 1-kitob,2008, 184-b.)
- 2) **ishshaymoq** (baho semasi bilan farqlanuvchi sinonim)
Buni graduonimiyaga misol tariqasida ishlatish ham
mumkin. (Nuriddin Ismoilov. Mafiya sardori, 3-kitob,2008,
95-b.)

VAZIFA

I. Q-3 (26-28-betlar)dagi 10-11-12-13-mavzular
 (“Ishchi dastur”dagi 9-10-11-12-mavzular) bo'yicha
adabiyotlar ustida ishlash, ularni konspektlashtirish.

II. Savolnoma, topshiriqlar va tayanch
tushunchalar ustida ishlash.(Qarang: Q-3, 26-28-
betlar).

7-АМАЛИЙ MASHG‘ULOTI
(2 soat)

Leksik antonimiya

Амалий rejasi.

Mavzuning mazmun mundarijasi:

1. Leksik antonimiya.
2. Antonimik juftlik.
3. Leksik antonimlarning bir so‘z turkumi doirasida yuz berishi.
4. Kontekstual antonimiya.
5. Antonimiya va enantiosemiya.
6. Antonimiya va polisemiya.
7. Antonimlarni belgilashdagi munozarali holatlar.
8. Antonimiyada “mantiqiy markaz prinsipi”.
9. Antonimlarning uslubiy vosita sifatidagi tavsifi.

Tayanch so‘zlarning o‘zbekcha - inglizcha-ruscha lug‘ati

O‘zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Antonimik	Antonymic	Антонимический
Antonimiya	ntonymy	АНТОНИМИЯ
Antonimlar	ntonyms	АНТОНИМЫ
Leksikolizasiya	Lexicalization	Лексикализация
Leksik ma‘no	Lexical meaning	Лексическое значение
Leksik birlik	Lexical unit	Лексическая единица
Leksikon	Lexicon	Лексикон

**Mavzu bo‘yicha
Savol va topshiriqlar**

1. Antonimiya nima? Antonimik juftlik-chi?
2. Antonimiya hodisasining so‘z turkumlariga munosabati qanday?
3. Kontekstual antonimiya haqida ma‘lumot bering.
4. Qanday holatlarda antonimiya hodisasi yuz bermaydi?
5. Antonimiya va enantiosemiya hodisalarini tushuntiring.
6. Antonimiya va polisemiya o‘rtasidagi bog‘lanishni tushuntiring.
7. Antonimiya hodisasi bilan bog‘liq qanday munozarali masalalarni bilasiz?
8. Antonimiya hodisasining mezoni sifatida qaraladigan mantiqiy markaz haqida ma‘lumot bering.
9. Antonimlardan qanday uslubiy vosita sifatida foydalaniladi?

TAYANCH TUSHUNCHALARNI ESLAB QOLING:

Antonimiya, antonimik juftlik, kontekstual antonimiya, enantiosemiya, mantiqiy mqrkaz, omonimiya, leksik omonimiya(omonim omoleksemalar), omoformalar (omoforma omoleksemalar), omograflar, omofonlar, paronimiya, kvaziomonimlar, so‘z variantlari, paronomaziya, giponimiya, giponim,giperonim, graduonimiya, partonimiya.

7-mashq. Quyidagi gaplardan o‘zaro zidlanish munosabatida bo‘lgan so‘zlarni toping, ularni antonimik juftliklarga birlashtiring, bunday juftlikdagi leksemalarning semantik tarkibini aniqlang va uslubiy vosita sifatidagi qo‘llanishini tavsiflang.

1.Uning (Madaminning) o‘pkasi to‘lib, yig‘idan o‘zini zo‘rg‘a tutardi (P.Qodirov. Qora ko‘zlar). 2.Kulgidan o‘zimni zo‘rg‘a tutib qoldim. (“Guldasta”).
3.Olqish olgan omondir, qarg‘ish olgan yomondir (Maqol). 4.Har bir ongli ishchi bizning ulug‘ haqiqatimizning tashviqotchisi bo‘lishi kerak.(Oybek. Nur qidirib).5. Ongsizning gerdayib shovqin solishi- sayoz daryoning shaldirab oqishi (Maqol). 6.Qorovulning anqovligi (merovligi) oqibatida chiqqan yong‘in shofyorning hushyorligi (ziyrakligi) tufayli o‘z vaqtida o‘chirildi.7.Bularning hammasi qo‘shilib, (ovqat) badxo‘r bo‘lib ketmasin deb qo‘rqaman. (U. Ismoilov. Rustam). 8.Bay-bay, biram xushxo‘r taom bo‘pti-da!.. (Mushtum).9.Sevdirgan ham til, bezdirgan ham til (Maqol).10.Yosh kelsa –ishga,Qari kelsa-oshga. (Maqol).11.Yoshning hurmati-qarz, Qarining hurmati-farz.(Maqol).12.Kattaga hurmatda bo‘l, Kichikka izzatda bo‘l/(Maqol).13. Yax‘shi so‘z- jon ozig‘I, Yomon so‘z- bosh qozig‘i. (Maqol).

P.S. Misollar “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati”(Sh. Rahmatullayev, N. Mamatov, R. Shukurov) va “O‘zbek xalq maqollari” to‘p;amidan tanlandi.

P.S. Yana misollar:

1) **dahshat** (enantiosemiya) Nuriddin Ismoilov. Mafiya sardori, 1-kitob,2008, 73-b.)
2.Buning ustiga, chekish, ichkilikka mukkasidan ketish ham Oksananing xulqi naqadar “**go‘zal**”ligini ko‘rsatib turibdi (enantiosemiya) (Nuriddin Ismoilov. Mafiya sardori, 3-kitob,2008, 63-b.)
3.Yo‘q, u **kimsa** emasdi, qop-qora **nusxa** edi. Rangi-ro‘yi **oq**, lekin ichi **qop-qora**.(“kimsa” va “nusxa” – kontekstual antonimiya, “oq” va “qop-qora”- leksik antonimiya). Nuriddin Ismoilov. Mafiya sardori, 3-kitob,2008, 188-b.)

UYGA VAZIFA

I. Q-3 (29-bet)dagi 13-mavzu bo‘yicha adabiyotlar ustida ishlash, ularni konspektlashtirish.

II. Savolnoma, topshiriqlar va tayanch tushunchalar ustida ishlash.(Qarang: Q-3, 29-bet).

8-АМАЛИЙ MASHG'ULOTI

(2 soat)

Leksik omonimiva

Амалий rejasi.

Mavzuning mazmun mundarijasi:

1. Leksik omonimiya haqida ma'lumot.
2. Omonim omoleksemalar.
3. Omoforma omoleksemalar.
4. Omonimlarning yuzaga kelishi.
5. Omonimiya va polisemiya, ularning farqi.
6. Leksik omonimiyaga yondosh hodisalar: omofonlar va omograflar.
7. Omonim va omograflarning uslubiy vosita sifatidagi tavsifi.

Tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha-ruscha lug'ati

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Omograf	Hertograph	Омограф
Omograflar	omographs	Омографы
Omomorfemalar	omomorfemy	Омоморфемы
Omonim, shakldosh so'z	Homonym	ОМОНИМ
Omonimik	Homonymic	ОМОНИМИЧНЫЙ
Omonimiya	Homonymy	ОМОНИМИЯ
Omoformalar	Omoformy	Омоформы
Omofon	Homophon(e)	Омофон
Omofonlar	Homophones	Омофоны
Leksik omonimiya	Lexical omonymy	Лексическая омонимия

Mavzu bo'yicha:

1. Omonimiya nima?
2. Lug'aviy omonimiyaning qanday turlari bor?
3. Leksik omonimiyaning turlari haqida ma'lumot bering.
4. Omonimlar va omoformalar (omonim omoleksemalar va omoforma omoleksemalar) qanday farqlanadi?
5. Omonimlarning so'z turkumlariga munosabati haqida ma'lumot bering.
6. Omonimlar qanday yuzaga keladi?
7. Omonimiya va polisemiya qanday farqlanadi?
8. Omonimlarga yondosh bo'lgan qanday hodisalar bor?
9. Omonim va omoformalarning uslubiy vosita sifatidagi rolo haqida ma'lumot bering.

8-mashq. Keltirilgan tuyuqlardan omonim yoki omoformalarni toping, ularni lisoniy va nutqiy jihatdan tavsiflang, uslubiy vosita sifatidagi rolini tushuntiring.

*1. Tushma qallob to‘riga,
O‘tqizsa ham to‘riga.
Odam qovun emasdir,
Qarab bilsang to‘riga.
(Z. Sharofiddinov.)*

*2. Chun pari-yu hurdir oting, begim,
Sur‘at ichra dev erur oting, begim,
Harxadangikim, ulus andin qochar,
Notavon jonim sari oting, begim.
(A.Navoiy.)*

*3. Kelur sel, ko‘kda goho bo‘lsa chaqmoq,
Zarar qilgay danakni tishda chaqmoq.
Yomondir ikki o‘rtoq o‘rtasida
Urishtirmoq uchun bir-biriga chaqmoq.
(Habibiy.)*

*4. Ba‘zilar bor go‘yo ho‘l o‘tin,
Tutab yotar, ko‘rmaysan o‘tin.
Yangilikka qayishmas sira,
Xoh buyur-u, xoh ming o‘tin.
(Mudarrisov.)*

9-Амалий mashg'uloti

Mavzu : **Paronimiya.**

Амалий rejasi.

9-mavzuning mazmun mundarijasi:

1. Paronimiya haqida ma'lumot.
2. Paronimlarning omonimlar, kvaziomonimlar va so'z variantlaridan farqi.
3. Paronimiya hodisasidagi munozarali masalalar.
4. Paronimlarning uslubiy vosita sifatidagi tavsifi.
5. Paronomaziya haqida ma'lumot.

Tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha-ruscha lug'ati

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Leksikolizasiya	Lexicalization	Лексикализация
Leksik ma'no	Lexical meaning	Лексическое значение
Leksik birlik	Lexical unit	Лексическая единица
Leksikon	Lexicon	Лексикон
Graduonimiya	Graduonymy	Градуонимия
Giponimiya	Hyponymy	Гипонимия
Partonimiya	partonimiy	Партонимия

Mavzu bo'yicha:

1. Qanday hodisa paronimiya sanaladi?
2. Paronimlar va kvaziomonimlar qanday farqlanadi?
3. Paronimlar va omonimlar qanday farqlanadi?
4. Paronimlar va omonimlar qanday farqlanadi?
5. Paronimlar va omofonlar qanday farqlanadi?
6. Paronimlar va so'z variantlari anday farqlanadi?
7. Paronimiyaga oid qanday masalalar munozarali bo'lib qolmoqda?
8. Paronimiya hodisasining nutqqa ta'siri bormi?
9. Paronomaziya nima?

9-mashq. Yozuvchi O‘tkir Hoshimovning “Ko‘kyo‘tal”, “Ma‘lumotnoma” nomli hajviy hikoyalaridan keltirilgan quyidagi matn parchalaridan paronimlarni topib, ularning lisoniy tavsifini va uslubiy vosita sifatidagi rolini tushuntiring.

1. *Ishxonadagi ispiravka beradigan qiz tushga yaqin keldi.*

- *Blanka yo‘q, amaki!*- dedi niyatimni eshitib.-Kompyuter ham ishlamayapti. K tomu je ertaga Dilyaning tug‘ilgan kuni. U menga “Shanel” padarka qilgandi!

Rostini aytsam, hech baloga tushunmadim.

- Armiyaga borganmidingiz?- degan edim, qizning ipdek qoshlari chimirilib, sochiga tegay deb qoldi.

- Nima? – dedi chiyillab.

- Shinel padarka qilgan bo‘lsa, armiyaga borganmisiz, deyman?

- Qanaqa “shinel?!” Shanel! Fransuzkiy duxi! Tushundingizmi, amaki? Bir flakoni ellik dollar turadi.!

Sinf-dosh do‘stimga “yo‘talganim” esimga tushib, o‘rtacharoq “yo‘talgan” edim, kamlik qildi. Dilyaning “shineli”ga qattiq “yo‘talish” kerak ekan. Haytovur isparavka qo‘lga tegdi. Faqat cho‘ntakda shamol g‘irillay boshladi. Yo‘q, bundan keyin “yo‘tal”ni diplomatkami, xo‘jalik sumkasigami solib yurmasam bo‘lmas ekan.

(O‘tkir Hoshimov. “Ko‘kyo‘tal”// So‘qqabosh bevagina, 2008, 28-b.).

2. Nalogovoy inspeksiya degani arining iniga o‘xsharkan. Biri kiradi, biri chiqadi. Biri baqiradi, biri do‘q uradi... Menga kechga yaqin navbat keldi.

-Teplitsani nima qilmoqchisiz?- dedi mallasoch yigit qog‘oz titkilab.

-Shu... ko‘katlar, rezavor...

-Qanaqa “revizor?”

-Revizormas, rezavor. Ko‘kpiyoz, kashnich, ukrop...

-Xren-chi?

Avvaliga hech baloni tushunmadim-u, keyin borib yetdi. Demak, bu o‘rtoq qishga tuzlov qilishni yaxshi ko‘radi. Tuzlov esa xrensiz bo‘lmaydi.

-Ekaman, albatta ekaman!-dedim ishontirib.-Birinchi xren sizniki bo‘ladi. Svejysidan obkeb beraman!

MA'LUMOTNOMA

Odam birinchi farzandi tug'ilganda qanday quvonsa, birinchi kitobi chiqqanda ham shunaqa sevinarkan. Yosh yozuvchi Teshaboy Boltaboyev uchun hikoyalar to'plamining chiqishi bayram bo'lib ketdi. Buni qarangi, kitobga qalam haqi ham yozishibdi. Naqd o'ttiz olti ming so'm! Teshaboy kitobni bir yarim yilda yozgan bo'lsa, qalam haqini olish uchun yarim yil hujjat to'pladi!.. Bugun ham shu masalada "kerakli" idoraga kelib ikki soatga kutdi. Oxiri "imzo chekuvchi" -ning muborak kabinetiga kirish vazifasiga muayassar bo'ldi.

- Ha-a-a-y, ukajon, familiyangiz nima edi?-dedi "imzochi" esnab.
- Boltaboyev, - dedi yozuvchi ensasi qotib.-Qabulingizga o'n yettinchi marta kelishim.
- Ibi! –"imzochi" yelka qisdi. -O'n yettinchi marta kelasizmi, o'ttiz yettinchi martami, menga nima? Men davlatni ishini qilayapman, ukajon! Ha-a-a-y, turar joyingizdan sparapka bormidi?
- Ana, qo'lingizda turibdi.
- ...Buyog'i joyida ekan, ukajon... Qancha pul olishingiz kerak edi o'zi? O'ttiz olti mingmi? Nimaga olayapsiz davlatning shuncha pulini?
- Gonorar.
- Qanaqa general?
- Generalmas, gonorar.
- Nega olayapsiz o'sha ganaralni?
- Yozganim uchun.
- Nechtasini qulatdingiz?
- Nimani qulataman?
- "Nimani" emas, "kimni" deng! Nechta odamni qulatdingiz?
- Nega qulatishim kerak ekan?
- Ibi! Birovning ustidan yozgan odam qulatish uchun yozadimi axir?
- Men ig'vogar emasman! – dedi Boltaboyev yig'lamoqdan beri bo'lib.- Men hikoya yozaman!
- Ibi, shunday demaysizmi, ukajon! Shoirman, shig'ir yozaman, deng!
- Shig'ir emas, hikoya.
- Hav. nima farqi bor? Ishxonangizdan sparapka bormidi?...

10-Амалий mashg'uloti

Mavzu: Giponimiya. Partonimiya. Graduonimiya

Амалий rejasi.

10-mavzuning mazmun mundarijasi:

1. Giponimiya (gipo- giperonimiya) hodisasi haqida ma'lumot.
2. Giponimiya hodisasida torroq ma'nodagi leksemalar bilan kengroq ma'nodagi leksemalar o'rtasidagi tur va jins munosabatlarining ifodalanishi, bunday munosabatlarning umumiylik, xususiylik va alohidalik qonuniyatiga (dialektika kategoriyasiga) tayanishi.
3. Graduonimiyada leksemalarning ma'no guruhlari a'zolarida u yoki bu belgining darajalanish hodisasining ifodalanishi.
4. Partonimiyada leksemalarning ma'no guruhlari a'zolari o'rtasidagi butun-bo'lak munosabatining ifodalanishi.

Tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha-ruscha lug'ati

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Graduonimiya	Graduonymu	Градуонимия
Giponimiya	Hyponymu	Гипонимия
Partonimiya	partonimiy	Партонимия

10-mavzu bo'yicha:

- 1.Giponimiya nima?
- 2.Gipo-giperonimik munosabatlarni qanday tushunasiz?
- 3.Graduonimiya hodisasi haqida ma'lumot bering.
- 4.Partonimiya hodisasini tushuntiring.
- 5.Giponimiya, graduonimiya va partonimiya hodisalarini tadqiq etishning qanday amaliy ahamiyati bor?

11- Амалий mashg'uloti O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti.

Амалий rejasi.

Mavzuning mazmun mundarijasi:

1. O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti, bunday taraqqiyotning Markaziy Osiyodagi turli tarixiy va ijtimoiy- siyosiy jarayonlar bilan bog'liqligi.
2. O'zbek tilining o'z qatlami: umumturkiy va sof o'zbek so'zlari.
3. Umumturkiy leksemalarning fonetik, semantik va morfologik belgilari.
4. Sof o'zbek so'zlarining o'ziga xos jihatlari.
5. O'zbek tilining o'zlashgan qatlami:
 - a) arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlar, ularning o'zlashtirilish tarixi, so'z turkumlariga mansublik darajasi, fonetik, semantik va morfemik tarkibidagi o'ziga xosliklar;
 - b) fors-tojik tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar, ularning o'zlashtirilish tarixi, so'z turkumlariga mansublik darajasi, fonetik, semantik va morfemik tarkibidagi o'ziga xosliklar;
 - c) rus tilidan va u orqali Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar, ularning o'zlashtirilish tarixi, so'z turkumlariga mansublik darajasi, fonetik, semantik va morfologik tarkibidagi o'ziga xosliklar.
6. Mustaqillik yillarida o'zbek tili leksikasida yuz berayotgan jarayonlar

Tayanch soʻzlarning oʻzbekcha - inglizcha-ruscha lugʻati

Oʻzbekcha	Inglizcha	Ruscha
Kalka	Vellum	Калька
Kalkalash	Tracing	Калькирование
Jargon	Jargon	Жаргон
Jargon, argo	Argot	Жаргон, арго
Jonli til	A living language	Живой язык
Kasb-hunar lersikasi	Professional vocabulary	Профессиональная лексика
Varvarizm	Barbarism	Варваризм
Vulgarizm	Vulgarism	Вульгаризм
Dialectizm	Dialectism	Диалектизм

Oʻquv mashgʻulotining maqsadi: 1. Oʻzbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti mavzusining mazmun mundarijasini eslatish, mavzuni mustahkamlash maqsadida soʻrab baholash, mashqlar bajartirish. 2. Oʻzbek tilining oʻz qatlami mavzusining mazmun mundarijasini eslatish, mavzuni mustahkamlash maqsadida soʻrab baholash, mashqlar bajartirish. 3. Oʻzbek tilining oʻzlashgan qatlami mavzusining mazmun mundarijasini eslatish, mavzuni mustahkamlash maqsadida soʻrab baholash, mashqlar bajartirish.

Oʻquv faoliyatining natijasi: 1. Oʻzbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti mavzusining mazmun mundarijasini eslatildi, mavzuni mustahkamlash maqsadida soʻrab baholandi, mashqlar bajartirildi. 2. Oʻzbek tilining oʻz qatlami mavzusining mazmun mundarijasini eslatildi, mavzuni mustahkamlash maqsadida soʻrab baholandi, mashqlar bajartirildi. 3. Oʻzbek tilining oʻzlashgan qatlami mavzusining mazmun mundarijasini eslatildi, mavzuni mustahkamlash maqsadida soʻrab baholandi, mashqlar bajartirildi.

Oʻzbek tilining oʻz qatlami

1. Oʻz qatlam qanday soʻzlardan tarkib topgan?
2. Qanday soʻzlar umumturkiy leksemalar sanaladi? Buning sababi?
3. Umumturkiy leksemalarning fonetik, semantik va grammatik belgi-xususiyatlari haqida maʼlumot bering.
4. Qanday soʻzlar sof oʻzbek tili lugʻaviy birliklari hisoblanadi?
5. Sof oʻzbek soʻzlari qanday yuzaga kelgan? Nima uchun ular oʻz qatlam birliklari sanaladi?
6. Sof oʻzbek soʻzlarining fonetik va morfemik tarkibi haqida maʼlumot bering.

O'zbek tilining o'zlashgan qatlami

1. O'zlashgan qatlam qanday so'zlardan tarkib topgan?
2. Arab tilidan so'z o'zlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablari haqida ma'lumot bering.
3. Arabcha o'zlashmalarning fonetik, semantik va morfemik belgi-xususiyatlarini tushuntiring.
4. Arab tilidan o'zbek tiliga leksemalardan tashqari yana qanday so'zlar va morfemalar o'zlashtirilgan?
5. Arabcha o'zlashmalarning so'z turkumlari bo'yicha taqsimoti qanday?
6. O'zbek tili leksikasining boyishida arab tilidan o'zlashtirilgan so'z va morfemalarning qanday ishtiroki bor?
7. Fors-tojik tillaridan so'z o'zlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablari haqida ma'lumot bering.
8. Fors-tojik tillaridan o'zlashtirilgan so'zlarning so'z turkumlariga munosabati?
9. Fors-tojik tillaridan o'zlashtirilgan so'zlarning fonetik va morfemik tarkibi haqida ma'lumot bering.
10. Fors-tojik tillaridan o'zlashtirilgan so'z yasovchi prefiks va suffikslarning o'zbek tilidagi so'z yasashida tutgan o'rni haqida gapiring.
11. O'zbek tili lug'at boyligidagi sinonimiya hodisasining rivojlanishida fors-tojik tillaridan so'z o'zlashtirishning qanday roli bor?
12. Rus tilidan so'z o'zlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablari haqida gapiring.
13. Ruscha-baynalmilal so'zlarning so'z turkumlariga munosabatini tushuntiring.
14. Ruscha-baynalmilal so'zlarning semantik xususiyatlari hamda fonetik va morfemik tarkibi haqida ma'lumot bering.
15. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zbek tiliga rus tilidan o'zlashgan leksikada qanday o'zgarishlar yuz berdi? Buning sabablari?

TAYANCH TUSHUNCHALARNI ESLAB QOLING:

O'z qatlam, o'zlashgan qatlam, umumturkiy so'zlar, sof o'zbekcha so'zlar, arabcha o'zlashmalar, fors-tojik so'zlari, ruscha-baynalmilal o'zlashmalar.

10-mashq. Matndagi soʻzlarni oʻz va oʻzlashgan qatlam birliklariga, soʻng har bir qatlam soʻzlarini “umumturkiy soʻzlar”, “sof oʻzbek soʻzlari”, “arabcha oʻzlashmalar”, “tojikcha-forscha oʻzlashmalar”, “ruscha-baynalmilal oʻzlashmalar” tarzida guruhlariga ajrating.

Respublika gazetasida gʻalati sarlavhaga koʻzim tushib qoldi. “Oʻzbek ishi” oʻzlekning ishimi?” Shosha-pisha oʻqib chiqim. Maqola shapaloqdekkin edi. Ammo oʻqishim bilan vujudimda olov yonib ketgandek boʻldi. Maqolada “oʻzbek ishi” butun boshli kampaniyaga aylanib ketgani, minglab odamlar qamalgani, hoʻlu-quruq baravar yonayotgani, gunohkorlar qatori begunohlar ham aziyat chekayotgani, bu masalada redaksiyaga minglab xatlar kelayotgani bayon qilingan edi. Hayajondan qoʻlim titrab, qayta oʻqib chiqdim. Xayriyat! Rost gapni aytadiganlar ham bor ekan-ku! Maqola ostiga “Mauzer Gʻaniyev, xatlar va shikoyatlar boʻlimi”, deb yozilgan edi. (Oʻtkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar.)

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda oʻquv jarayonini baxs-munozarali oʻtkazishda qoʻllaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni oʻz fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va oʻz fikrini boshqalarga oʻtkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini oʻrgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qogʻozga oʻz fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F - fikringizni bayon eting

S - fikringiz bayoniga sabab koʻrsating

M – koʻrsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U - fikringizni umumlashtiring

1-guruh

Savol	Qanday soʻzlar sof oʻzbek tili lugʻaviy birliklari hisoblanadi?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab koʻrsating	
(M) Koʻrsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	Sof oʻzbek soʻzlari qanday yuzaga kelgan? Nima uchun ular oʻz qatlam birliklari sanaladi?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab koʻrsating	
(M) Koʻrsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

3-guruh

Savol	Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, oʻzbek tiliga rus tilidan oʻzlashgan leksikada qanday oʻzgarishlar yuz berdi? Buning sabablari?
(F) Fikringizni bayon eting	

(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

UYGA VAZIFA

1. 14-1.15-mavzularni mustaqil ish tarzida bajarish.

2. Q-3 (30-32-betlar)dagi 16-17-mavzular bo'yicha adabiyotlar ustida ishlash, ularni konspektlashtirish.

II. Savolnoma, topshiriqlar va tayanch tushunchalar ustida ishlash. (Qarang: Q-3, 30-32-betlar).

12- Амалий mashg'ulot. So'z o'zlashtirish

Reja:

So'z o'zlashtirish

1. So'z o'zlashtirish, uning ikki yo'li: jonli so'zlashuv orqali va bosma manbalar orqali so'z o'zlashtirish.
2. So'z o'zlashtirish usullari: o'zicha olish va kalkalab olish. kalka usulining turlari:
 - a) grammatik kalka (to'liq va yarim kalka);
 - b) semantik kalka.
3. So'z yoki ma'no o'zlashtirishning chet so'zlarni qo'llashdan farqi.

Tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha-ruscha lug'ati

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Kalka	Vellum	Калька
Kalkalash	Tracing	Калькирование
Jargon	Jargon	Жаргон
Jargon, argo	Argot	Жаргон, арго
Jonli til	A living language	Живой язык
Kasb-hunar lersikasi	Professional vocabulary	Профессиональная лексика
Varvarizm	Barbarism	Варваризм
Vulgarizm	Vulgarism	Вульгаризм
Dialectizm	Dialectism	Диалектизм

13-mavzu bo'yicha: Savol va topshiriqlar

1. So'z o'zlashtirishga olib keladigan qanday omillarni bilasiz?
2. So'z o'zlashtirishning qanday yo'llari va usullari bor?
3. Jonli so'zlashuv orqali va bosma manbalar orqali so'z o'zlashtirish qanday farqlanadi?
4. Leksemalarni o'zicha olish va kalkalab olish haqida ma'lumot bering.
5. Kalkaning qanday turlari bor?
6. To'liq kalka, yarim kalka va semantik kalka haqida ma'lumot bering.

11-mashq. Matndagi so'zlar ichidan o'zlashgan qatlam birliklarini topib, ularning qanday yo'l va usullar bilan o'zlashtirilganligini tushunturing, bunda o'zlashtirilgan (demak, til birligi darajasiga ko'tarilgan) va individual xarakterda bo'lgan (demak, til birligi darajasiga ko'tarilmay, nutqiy hodisa sifatidagina namoyon bo'layotgan) kalkalarni farqlashga harakat qiling.

1. Televizor tomosha qilib o'tirsam, bir fermerni ko'rsatib qoldi. Qashqadaryodamiyey, Surxondaryodaniyey, bittasi sakkizta novvos boqibdi, azamat! Har novvoslarki, fildek keladi! E, qandingni ur, azamat, dedim. O'ylab o'tirib dilimda bir niyat tug'ildi. Men ham "fermerlik" qilsam-chi? To'g'ri, shahar joyda falon gektar yer olaman, deb bo'lmaydi, novvos boqishning ham iloji yo'q." Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga", degandek olti sotixlik hovlida novvos u yoqda tursin, echki ham boqib bo'lmaydi! Yaxshisi, teplitsa quraman: issiqxona! Xudoga shukr, uyim judayam katta emas. Hovli hangillab yotibdi. Xizmatim ham ja unchalik qiyinmas. Qorovulchilik. Bir kun "ismin"ga borsam, ikki kun uydaman. Men ham xususiy fermer bo'lsam, teplitsa qursam, qishda ko'kpiyoz, rediska, kashnich, ukrop degandek. Erta bahorda pamildori, bodring... Qarabsizki, akang qarag'ay pulning tagida qolib ketadi! Yo'q, men unaqa noinsoflardan emasman. Boshqalardan arzonroq sotaman. Xususiy fermamning nomini ham o'ylab qo'ydim: "Insof". Rost-da, insof sari-baraka, degan mashoyixlar!

2. ... Xuddi o‘sha kuni hushyorxonaga tushgani xo‘p ish bo‘lgan ekanda.
Bo‘lmasa, tergovchi “ho‘l ish”ni shilq etib bo‘yniga ilmoqchi edi.

(O‘tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar, 44-b.)

3. Koxoz-ku bo‘laricha bo‘lgan. Nomiga xo‘jalik. Xutorning yarmi huvillab qolgan. Yoshlar “baxt izlab” , o‘zini shaharga urgan. Erkaklar yo‘q hisobi. Borlariyam ko‘zini ishqalab uyg‘onadi-yu qishloq markazidagi do‘konga yo‘l oladi. ...Tushdan keyin do‘konga keladigan “bormatuxa”ga ochirid kutishadi. Nariroqdagi xarrakning qorini sidirib tashlaydilar, tizilib o‘tirib, domino o‘ynashga tushadilar. Yutqazganni “taka” qilib xarrak tagidan o‘tkazadilar. [“Vaqtini o‘ldirish” kerakmi axir?] Na rais insofga keltiradi, na militsiya yo‘lga soladi. [Aslida hammasi – ulfat, hammasi hamshisha!],,,

(O‘tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar, 52-b.)

P.S. Yana misollar:

1) *Muzlatkich < xolodilnik (Nuriddin Ismoilov. Mafiya sardori. 1-kitob,2008,15-b.)*

2) *kuzatuvchi < проводник(Nuriddin Ismoilov. Mafiya sardori. 1-kitob,2008,66-b.)*

3) *Shishadoshiga bir qarab qo‘ydida... («собутельник» so‘zining individual kalkasi) (Nuriddin Ismoilov. Mafiya sardori. 2-kitob,2008,33-b.)*

4) *uqalovchi (“massajist”ning kalksi emasmi?)) (Nuriddin Ismoilov. Mafiya sardori. 3-kitob, 2008, 149-b.)*

13-14- Амалий mashg‘ulot FRAZEOLOGIYA HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT. FRAZEMALARNING SEMANTIK TURLARI

Амалий rejasi.

1. Frazzeologiya
2. Frazzeologik monosemiya va polisemiya.
3. Frazemalarning semantik turlari:
 - a) frazeologik butunliklar;
 - b) frazeologik chatishmalar.
4. Frazemalarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: 1. Frazzeologiya, frazeologik monosemiya va polisemiya haqida chuqur nazariy ma‘lumot berish. 2. Frazemalarning semantik turlari: frazeologik butunliklar va frazeologik chatishmalar haqida chuqur nazariy ma‘lumot berish. 3. Frazemalarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari bilan tanishtirish.

O‘quv faoliyatining natijasi: 1. Frazzeologiya, frazeologik monosemiya va polisemiya haqida chuqur nazariy ma‘lumot berildi. 2. Frazemalarning semantik turlari: frazeologik butunliklar va frazeologik chatishmalar haqida chuqur nazariy ma‘lumot berildi. 3. Frazemalarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari bilan tanishtirildi.

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Frazeologiya	Phraseology	Фразеология
Frazema	Expression	Выражение
Frazeologik birlik	phraseological unit	Фразеологическая единица
Frazeologik monosemiya	Phraseological monosemiy	Фразеологическая моносемия
Frazeologik polisemiya	Phraseological polisemiya	Фразеологическая полисемия

Frazeologiya tilshunoslikning bir bo`limi bo`lib, u tilning lug`at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi.

2- ilova

19-mavzu bo'yicha

1. Frazema nima?
2. Nima uchun frazema ko'chma ma'noli turg'un konstruksiya sanaladi?
3. Frazemaning ifoda planini qanday tushunasiz?
4. Frazemalar erkin birikmalardan va to'g'ri ma'noli turg'un birikmalardan qanday farqlanadi?
5. Frazemaning mazmun plani haqida ma'lumot bering.
6. Frazeologik ma'no nima? U leksik ma'nodan nimasi bilan farqlanadi?
7. Frazemaning semantik tarkibidagi uslubiy baho (stilistik bo'yoq) haqida gapiring.
8. Frazemalardan nutqda qanday maqsadlarda foydalaniladi?
9. Frazemalarning semantik tarkibida turkumlik semalari bo'ladimi?

3- ilova

19.2-mavzu bo'yicha

1. Frazemaning semantik tarkibiga nimalar kiradi?
2. Frazeologik monosemiya va polisemiya hodisalari qanday farqlanadi?
3. Frazemaning qanday semantik turlari bor?
4. Frazeologik butunlik bilan frazeologik chatishma qanday farqlanadi?
5. Polisemantik frazemalarning uslubiy vosita sifatidagi xususiyatlarini qanday tushunasiz?

4- ilova

1-topshiriq: Adabiyotlardan quyidagi savollarga javob toping:

- 1) frazemalarning shakl munosabatini qanday tushunasiz?
- 2) frazeologik omonimiya va omonimlik qanday farqlanadi?
- 3) frazeologik omonimiya va frazeologik sinonimiya o'rtasida qanday farq bor?
- 4) frazeologik sinonimiya va frazeologik variatsiya farqlanadimi, yo'qmi?
- 5) frazeologik antonimiya hodisasi nimaga asoslanadi?

5- ilova

1. Frazemalar tarixan qanday lug'aviy qatlamlarni hosil qilgan?
2. O'z va o'zlashgan qatlam frazemalari qanday farqlanadi?
3. Frazemalarning ishlatilish doirasiga ko'ra guruhlanishini qanday tushunasiz?
2. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan va chegaralangan frazemalar haqida ma'lumot bering.
4. Kasb-hunarga ko'ra chegaralanishning frazemalarga xos emasligini tushuntiring.
5. Zamoniylilik belgisiga ko'ra frazemalar qanday turlarga ajratiladi?
6. Istorizm frazemalar, arxaizm frazemalar va neologizm frazemalar qanday farqlanadi?

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F - fikringizni bayon eting

S - fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U - fikringizni umumlashtiring

1-guruh

Savol	Frazemalarning semantik tarkibida turkumlik semalari bo'ladimi?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	Polisemantik frazemalarning uslubiy vosita sifatidagi xususiyatlarini qanday tushunasiz?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

3-guruh

Savol	Istorizm frazemalar, arxaizm frazemalar va neologizm frazemalar qanday farqlanadi?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Mustaqil ish topshiriqlari:

1- topshiriq: Quyidagi frazemalarning ma'no munosabatiga ko'ra guruhlanishini aniqlang:

Adi- badiga bormoq – “janjanlashuv darajasiga yetmoq”.

Adi- badi aytishmoq- “turli mavzuda yengil- yelpi suhbatlashmoq”.

Adi- badi deyishmoq – “so'z talashmoq”.

San-manga bormoq – “janjallashuv, tortishuv darajasiga yetmoq”.

San-manga yetib bormoq – “janjallashuv, tortishuv darajasiga yetmoq”.

Soyasiga ko'rpacha yozmoq – “izzat-hurmat qilishni me'yordan o'tkazib yubormoq”.

Soyasiga ko'rpacha solmoq – “izzat-hurmat qilishni me'yordan o'tkazib yubormoq”.

So'zi o'tmoq – “aytgani inobatga olinmoq”.

Gapi o'tmoq – “aytgani inobatga olinmoq”.

Gapida turmoq – “ahdini saqlamoq”.

So'zida turmoq – “ahdini saqlamoq”.
 Gapidan qaytmoq – “ahdidan voz kechmoq”.
 So'zidan qaytmoq - “ahdidan voz kechmoq”.
 Turmushga chiqmoq – “oila qurmoq”.
 Erga tegmoq - “oila qurmoq”.
 Turmush qurmoq - “oila qurmoq”.
 Erdan chiqmoq – “ajralishmoq”.

2 – **topshiriq:** Tayanch tushunchalarni eslab qoling: frazeologik omonimiya, frazeologik paronimiya, omofrazemalar, parafrazemalar, frazeologik variatsiya, leksik-frazeologik sinonimlar, leksik-frazeologik omonimlar.

15-16-17- Амалий mashg‘ulotlar:
FRAZEMALARNING SHAKL VA MA'NO
MUNOSABATLARIGA KO'RA TURLARI
FRAZEMALARNING ISHLATISH DOIRASI VA
ZAMONIYLIGI. O'Z VA O'ZLASHGAN
QATLAM FRAZEMALARI.

Tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha-ruscha lug'ati

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Frazeologik sinonimiya	Phraseological synonymiy	Фразеологическая синонимия
Frazeologik antonimiya	Phraseological antonymy	Фразеологическая антонимия
Frazeologik omonimiya	Phraseological homonymy	Фразеологическая омонимия
Frazeologik paronimiya	Phraseological paronymy	Фразеологическая паронимия
Istorizm frazemalar;	Historical Expression	Исторические выражения
Arxaizm frazemalar	Expressions archaic	Архаическое выражение
Neologizm frazemalar	Expressions neologism -	Неологизмовые выражения

REJA

1. Frazemalarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari

2. Frazemalarning ishlatish doirasi va zamoniyligi. o'z va o'zlashgan qatlam frazemalari.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: 1.Frazemalarning semantik turlari: frazeologik butunliklar va frazeologik chatishmalar haqida chuqur nazariy ma'lumot berish. 2. Frazemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari bilan tanishtirish.

O'quv faoliyatining natijasi: 1.Frazemalarning semantik turlari: frazeologik butunliklar va frazeologik chatishmalar haqida chuqur nazariy ma'lumot berildi. 2. Frazemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari bilan tanishtirildi.

Frazemalarning semantik tarkibidagi turkum semalari

Bu semalar frazeologik ma'noga tayanadi. Masalan: *aravani quruq olib qochmoq* (fe'l frazema), *arpasini xom o'rmoq* (fe'l frazema), *ammamning buzog'iday* (sifat frazema), *bag'ri qattiq* (sifat frazema), *bir og'iz* (avish frazema), *bir og'izdan* (ravish frazema), *to'rt ko'z bilan* (ravish frazema), *tomdan tarasha tushganday* (ravish frazema) kabi

Frazemalarning shakl munosabatiga ko'ra turlari

Frazemalarning shakl munosabati asosida frazeologik omonimiya va frazeologik paronimiya yuzaga keladi:

1. Frazeologik omonimiya frazemalarning ifoda planidagi (shakldagi, tuzilishdagi) tenglik hodisasidir.


Q i y o s q i l i n : 1. *jon bermoq* – “*barhayot qilmoq*”:... *Odamzodga jon bergan ham, jonini oladigan ham yaratganning o'zi* (P. T.)

2. *Jon bermoq* - “o'lmoq”, “so'nggi marta nafas chiqarmoq”: *Semiz va hamisha yurak kasalidan qiynalib yurgan xotin arava ustida yulduz to'la osmanga termilib jon berdi.*(Sh. R.) Y a n a : 1. *Ustidan chiqmoq* – “Biror narsa qilinayotganda tepasiga borib qolmoq”: *Qaynanangiz rosa sevar ekan, rais, - dedi Ro'zi polvon hazil aralash, - ovqatning ustidan chiqdingiz* (Sh.R). 2. *Ustidan chiqmoq* - “Bajarmoq”: *Demak, Hakimov telefonda bergan so'zining ustidan chiqibdi* (P. Q.).

Shaklan teng bo'lgan frazemalar tilshunoslikda *omofrazemalar* deb nomlanadi.

Erkin birikma bilan frazema (turg'un birikma) o'rtasidagi shakiliy tenglik hodisasi frazeologik omonimiya emas, *frazeologik omonimlik* sanaladi. Demak, bunday holatlarda “*Omonimiya*” va “*omonimlik*” atamaları o'zaro farqlanadi. Chunonchi: 1) *Ko'z yummoq* – (erkin birikma) – “Ko'zini yumibolmoq” ma'nosida; 2) *Ko'z yummoq* (turg'un birikma, frazema) – “ko'ra bila turib e'tiborsiz qoldirmoq” ma'nosida; 3) *ko'z yummoq* (turg'un birikma, frazema) – “vafot etmoq” ma'nosida. Keltirilgan misollarning birinchi va ikkinchisida erkin va turg'un birikmalar, ikkinchi va uchinchisida esa turg'un birikmalar (frazemalar) o'rtasida shakiliy tenglik, orligini ko'ramiz. Birinchi va ikkinchi misollardagi shakiliy tenglik omonimlik sirasiga, ikkinchi va uchinchi misollardagi shakiliy tenglik esa omonimiya sirasiga kiradi.

2. Frazeologik paronimiya - tarkibidagi biror leksik komponent bilangina farq qiluvchi frazemalar. Bunday leksik komponentlar bir-biriga o'xshash bo'lishi kerak: 1) *Yetti uxlab tushiga kirmaslik* - “mutlaqo o'ylamaslik, kutmaslik”. 2) *Yetti uxlab tushida ham ko'rmaslik* – “hech qachon ko'rmaslik kabi. Bu ikki frazemaning tarkibidagi “*kirmaslik*” va *ko'rmaslik*” so'zlari talaffuzida (ma'nisida emas, albatta) o'xshashlik bor, bunday frazemalar tilshunoslikda parafrazemalar deb nomlanadi [27-142].



Frazemalarning ma'no munosabatlariga ko'ra turlari

Bunday munosabat asosida frazeologik sinonimiya va frazeologik antonimiya hodisalari yuzaga keladi.

1. Frazeologik sinonimiya bir necha frazemaning bitta frazeologik ma'no atrofida birlashishidir. Masalan: 1) *pixini yorgan* – “ayyor”, 2) *ilonning yig'ini yalagan* – “ayyor” kabi. Yana: 1) *yer bilan osmoncha* – “Juda katta farq”, 2) *ot bilan tuyacha* – “Juda katta farq” kabi.

Leksik sinonimiyada bo'lganidek, frazeologik sinonimiyada ham sinonimik qatorlar yuzaga keladi: birinchi misoldagi *pixini yorgan* va *ilonni yog'ini yalagan* frazemalari “ayyor” ma'nosi bilan bitta sinonimik qatorni; ikkinchi misoldagi *yer bilan osmoncha* va *ot bilan tuyacha* frazemalari esa “juda katta farq” ma'nosi bilan bir sinonimik qatorni hosil qilmoqda.

Frazeologik sinonimlarda uslubiy bo'yoq, odatda bo'rtib turadi. Aslida, frazeologik birliklar (frazemalar) xuddi shu maqsadda – voqelikni nomlashda uni o'tkir baholab berish uchun, shu voqelikka ijobiy yoki salbiy ifodalash uchun yaratiladi, shuning uchun ular nutqning ta'sirchan, obrazli bo'lishini ta'minlovchi muhim uslubiy vosita sanaladi. Misollar: 1) *Bunga Botirning achchag'i keldi, buni Bo'ston sezdi.* (S. N.). 2) *Keyingi nasihatimiz gapi qonini qaynatib yubordi.* (S.Ay.).

Frazeologik sinonimiya hodisasi ko'proq har bir tilning o'z frazemalari doirasida uchraydi: *Qlidan quyrug'igacha.* – *Ipidan ignasigacha;* *Quvonchi olamga sig'maydi.* – *Sevinchi ichiga sig'maydi* kabi. Boshqa tildan frazema o'zlashtirish juda passiv bo'lganligidan, o'zlashma iboralarning frazeologik sinonimiya doirasiga tortilishi juda kam uchraydi.

Frazeologik sinonimiya hodisasini *frazeologik variatsiyadan* farqlash kerak; frazeologiksinonimiyada bir necha frazema bir ma'no atrofida birlashadi, demak, bitta sinonimik qatorni hosil qiladi; frazeologik variatsiyada esa bitta frazemaning ichki ko'rinishlari nazarda tutiladi, bunday ko'rinishlar sinonimik qatorni hosil qilmaydi. Masalan: 1) *ko'zini yummoq;* 2) *bandalikni bajo keltirmoq;* 3) *jon bermoq.* Bu uch frazema bitta ma'noni – “vafot etmoq” ni bildiradi, shunga ko'ra bitta sinonimik qatorga birlashadi. *Qo'lini bigiz qilmoq* va *barmog'ini bigiz qilmoq* qo'shimchalari esa ikkita frazema emas: ular bitta frazemaning ikkita ko'rinishi, xolos. Bu frazema tarkibidagi “qo'l va “barmoq” so'zlari o'rtasida sinekdoxa yo'li bilan ma'no ko'chishi (butun va qism munosabati) bor, bu hol “qo'l” so'zi o'rnida “barmoq” so'zining qo'llanishiga yo'l ochgan, ammo bir frazema o'rnida butunlay boshqa frazema yuzaga kelmagan, shunga ko'ra ular bitta frazemaning ichki ko'rinishlari – variatsiyalari sanaladi. Demak, variatsiyalar bir obrazga asoslanadi. Yana misollar: *Kiprik qoqmaslik.* – *Mijja qoqmaslik* (bir frazemaning ikki varianti. Chunki “kiprik” va “mijja” so'zlarida bir obraz mujassam).

Ba'zan leksema bilan frazema bir sinonimik qatorga birlashadi: *qaramoq* (leksema) – *ko'z qirini tashlamoq* (frazema), *xursand* (leksema) – *boshi osmonda* (frazema) kabi. Bular leksik-frazeologik sinonimlardir. Leksik-frazeologik sinonimlar qatorida leksema dominanta sanaladi. Demak, lug'aviy sinonimlar uch xil bo'ladi: 1)leksik sinonimlar (sinonimik qatorida faqat so'zlar birlashadi); 2) frazeologik sinonimlar (sinonimik qatorida faqat frazemalar birlashadi); 3) leksik-frazeologik sinonimlar (sinonimik qatorida so'z va frazemalar birlashadi).

2. Frazeologik antonimiya ikki frazemaning o'zaro zid ma'no ifodalashidir: *oshig'i olchi* va *ishi o'ngidan kelmaslik;* *boshi ko'kka yetmoq* va *fig'oni falakka chiqmoq* kabi.

Antonimiya hodisasi ikki frazema o'rtasidagina emas, leksema bilan frazema o'rtasida ham yuzaga kelishi mumkin: *xursand* (leksema) – *dili siyoh* (frazema), *landavur* (leksema) – *yulduzni benarvon uradigan* (frazema) kabi. Bular lug'aviy antonimlarning leksik-frazeologik turi sanaladi. Demak, lug'aviy birliklar o'zaro zid ma'no anglatishiga ko'ra leksi antonimlar (so'z bilan so'z o'rtasida), frazeologik antonimlar (frazema bilan frazema o'rtasida) va leksik-frazeologik antonimlar (so'z bilan frazema o'rtasida) kabi mikrosistemalarni hosil qilishlari mumkin.

7- ilova

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

- F - fikringizni bayon eting*
S - fikringiz bayoniga sabab ko'rsating
M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring
U - fikringizni umumlashtiring

1-guruh

Savol	Frazemalarning shakl munosabatiga ko'ra qanday turlari mavjud?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	Frazemalarning ma'no munosabatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

UYGA VAZIFA

Frazeologik omonimiya, frazeologik paronimiya, frazeologik sinonimiya va frazeologik antonimiyalarni o'qib konspekt qilish va ularga misollar to'plash.

18-AMALIY MASHG'ULOT: MORFEMIKA. Soz'ning morfem atrkibi haqidagi nazariy qarashlar tahlili.

Reja:

1. **Darsda:** Mavzu yuzasidan 1-, 2-, 3-, 4-, 5- mashqlarni bajarish.
2. **Uyga vazifa:** Mavzuga doir 8-, 9-, 10-, 11- mashqlarni bajarish.
3. **Adabiyot:** Bahriddinova B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Mashqlar to'plami. (Morfemika. Morfonologiya. Derivatsiya. Morfologiya) 2-qism. Qarshi, 2005. O'quv qo'llanma. QDU IK tasdiq. 5-8-betlar.

1-mashq. Berilgan gaplar asosida quyida berilgan topshiriqlarni bajaring.

1. Dunyoni **qizg'anma** mendan, azizim, Sen **ichgan** buloqdan **ichmasman** aslo. (A.Oripov) 2. **Bo'shagan** tog'orani dasturxoniga o'rab **ko'tarayotgan** edim, Fotima kelin qo'ymadi (IEO). 3. Dimoqqa qizigan asfalt hidi **uriladi** (IEO). 4. **O'rtasiga** qor o'yib qo'yilgan katalakdek hovli.(IEO). 5. Ko'z o'ngimda yana o'sha qor bosgan hovli, **muzlagan** perrondan yugurgan onam jonlandi. (IEO) 6. U titrab ketayotgan **barmoqlari** bilan og'zini to'sdi (IEO).

1-topshiriq. Gaplarni kuzatib, ajratilgan so'zlardagi ma'noli va ma'nosiz qismlarni aniqlang.

2-topshiriq. Asos va qo'shimchalarni ajratib, qo'shimchalarni vazifasiga ko'ra guruhlang.

3-topshiriq. Qo'shimchalarni o'zaro qiyoslab, o'xshashlik va farqlarini aniqlang.

2-mashq. So'zlarni ma'noli qismlarga ajrating. Morfemaning boshqa lisoniy birliklar bilan munosabatini yoriting. Affiksial morfemalarni funktsional belgisiga ko'ra guruhlarga ajrating.

Chanqoq, anglamoq, shaxsiyatiga, aqlsizlik, mardikorchi, kelishmovchilik, so'roq, yutug'ini, ko'nglidagi, bilimdonlarimizning, yuragimdan, ulg'aytirgan, og'zaki, yumshoq, o'ynab, uyum, uyim, issiq, tilim, uylanmoq, o'ylanmoq, terim, changi, ranji.

3-mashq. So'zlar tarkibidagi derivatsion morfemalarni farqlang. Mashqlar asosida so'z yasovchi morfemalarning farqlovchi va birlashtiruvchi belgilarini tiklang.

Ixtirochi, gulchi, tashkilotchi, xizmatkor, suratkash, mahsido'z, saharlik, qimmatchilik, og'riq, buyruq, qavariq, chiqim, eslatma, yig'in, cho'kindi, kuyundi, maqtoq, qarsak, jizza, sergap, bebosh, barkamol, sayroqi, zaruriy, bahori, og'zaki, angla, ho'pla, afsuslan, salomlash, ulg'ay, sarg'ay, ko'kar, o'yna, qiyna, o'rnash, birik, changi, tinchi, saharlab, uycha, yigitcha.

4-mashq. Gaplarni ko'chiring. So'zlar tarkibidagi lug'aviy shakl yasovchilarning so'z lug'aviy ma'nosiga qay (aniqlashtirish, muayyanlashtirish, toraytirish va h.) darajada ta'sir etayotganligini aniqlab, qavs ichida yozing. Qaysi turkum so'zlari bilan ishlatilishiga diqqat qiling. Mashqlar asosida lug'aviy shakl hosil qiluvchilarning birlashtiruvchi belgilarini tiklang.

1. Zum o'tmay no'xtadan changallagan kuyi jar bo'yidan kelayotgan odam g'ira-shira ko'rindi. 2. Lazakat xola piyolaning og'zicha keladigan kulchani beshik boshiga qo'ydi. 3. Mening o'g'illarim bekorga o'lib ketadigan bolalar emas. 4. Chiqmagan jondan umid (maqol). 5. Qo'rqaman deb yig'lashimga qaramay meni yolg'iz qoldirdi. 6. Shundoq otang falaj bo'lib yotsa-yu, traktor haydashga balo bormi. 7. Kichkinaligimda tol bargak taqishni yaxshi ko'rardim. 8. Odam esdan og'ishi hech gap emas ekan. 9. Iltijoli termulishini qara. 10. Kechalari yostiq quchoqlab yotish joniga tekkandir. 11. Uydagi sirni ko'chaga olib chiqishning nima keragi bor (O'.H.)

5-mashq. Matnni ko'chiring. Sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalarning gap qurilishidagi roliga e'tibor qiling. So'zlarni bog'lashga, so'zlarga alohida sintaktik vazifa belgilashga va so'zlarni ham bog'lash, ham gap tarkibida ma'lum sintaktik vazifaga xoslaydigan shakllarni ajratib, qavs ichida izohlang.

Hikoyat

Hind dengizida bir savdogar bor edi. U savdo-sotiq ishlarida juda mohir edi. Uning dimog'iga savdo moyasi o'rnashib olib, suvga g'arq bo'lish xayoliga ham kelmasdi. Bir mamlakatda o'n kun turmas, savdosi tugagach, yana suv sari yo'l tutar edi. U dengizni har xil ofatlardan xoli deb o'ylab, yillar shu yanglig' safar qildi. U Makka atrofini suvda necha bor aylanib o'tgan bo'lsa-da, uning yaqiniga yetgach, o'z farzini ado etmay qaytardi. Kishilar unga hajni ham bajarish kerak, deb aytar edilar. Ammo pul hirsini savdogarni u tomon borishga yo'l qo'ymas edi.

Bir kun dengizda bo'ron ko'tarildi. U tushgan kema goh osmonga sapchir, goh pastga tushib ketar edi. Savdogar savdo ishlariga g'arq bo'lganidek uning kemasi ham dengizda g'arq bo'ldi. Dengizda suzish xayoli haj sari yo'l bermadi. Oxir-oqibatda u katta bir baliqqa yem bo'ldi. («Lison-ut tayr»dan)

6-mashq. Berilgan gaplarni ko'chiring. So'zlar tarkibidagi lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchilarning so'zning atash va vazifa semasiga ta'sirini izohlang.

1. Yemas yerga o't bitar, Ichmas yerga suv bitar. 2. Suvni sep singar yerga, So'zni qil sig'ar yerga. 3. Ko'rinmas balo - oyoq ostida. 4. Yotgan ilonning quyruq'ini bosma. 5. Bilimsiz mulladan ustiga yuk ortilgan eshak yaxshi. 6. So'zlay-so'zlay gapchil bo'larsan, ishlay-ishlay epchil bo'larsan. 7. Toma-toma ko'l bo'lur. 8. Oqsoqol tayinlab-tayinlab aytuvdilar (IEO). 9. Loyga belanib ketmon chopgandan ko'ra, tabelchi bo'lsangiz yomonmi!... 10. Bobom saharlab eshak minib kolxozga chiqib ketadi. 11. Kelmoq - ixtiyor bilan, ketmoq - ijozat bilan. 2. Pulni topish oson, uni sarflay bilish qiyin.

7-mashq. So'zlarni ko'chiring. Morfemalarning so'zga qo'shilish tartibini tushuntiring. Sodda va qo'shma (murakkab) morfemalarni ajrating. Birdan ortiq affiksning yaxlitlanish jarayonini izohlang.

1. kitobxonlarimizning, bilimdonlardan, keldingizlarmi, o'qitishmaydi, aytmabmidim, ketmoqchiman, kitobchasiga, sarg'imtirog'ini, o'ntachasini, boryapmiz.

2. chorvachilik, temirchilik, mardikorchilik, oliftagarchilik, zargarchilik, afsuslanmoq, uylanmoq, o'ylanmoq, gulduros, sharros, yigitchasiga, mardlarcha, ulfatchilik, salomlashmoq, arazlashmoq, gazlashtirish, bahslashmoq, oylab, ishlab, saharlab, xayolan, shaklan, lazzatlan.

8-mashq. So'zlarni ko'chiring. Shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli affikslarni ajratib, ma'nolarini namunadagidek izohlang.

Namuna: egik –ik, omonim af. (bit-ik, ot ya.; sin-iq, sifat ya.; zo'r-iq, fe'l ya.)

aqlli –li, sinonim af. (bo-, ser-, ba-, -dor) va h.

boshlang'ich, o'chirg'ich, aybdor, ehtiyotkor, uyushma, terim, tilim, ranji, boyi, tinchi, to'lat, suzma, oqar, kami, uzay, changi, sizensiz, o'quvchimiz, unumli, savala, izla, ko'pchilik, kelayotir, serhosil, baumid.

9-mashq. Gaplarni ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar tarkibida qo'llangan morfemalarning dialektal, poetik, tarixiy, fonetik va individual variantlarini toping.

1. Ming **yillarkim** bulbul kalomi O'zgarmaydi, yaxlit hamisha. Ammo sho'rlik **to'tining** holi O'zgalarga taqlid hamisha. (A.O) 2. **Ko'rgali keldingmu** yor, **kuydirgali keldingmu** yor. (qo'shiqdan) 3. **Jondin** seni ko'p sevamen, ey umri aziz..(A.N.) 4. Kuch **adolatdadur**. (A.T) 5. **Daryodan daryoni** talab **aylagil**. (A.O.) 6. Senga balki ayon, balki noayon Bir hayot **hadisin** aylayin bayon..(A.O.)

10-mashq. Ko'chiring. O'zakka affiks qo'shiluvida yuz bergan fonetik o'zgarishlar ta'sirida o'zak va affiks tarkibidagi sifatiy va shakliy o'zgarishlarni namunadagidek tushuntiring.

Namuna: chanqog'ini, chanqa+q+i+ni sifat yasovchi qo'shilganda tovush almashinuvi, egalik shakli qo'shilganda jarangsizning jaranglilashuvi yuz bergan. O'zgarish o'zak va affiksda kuzatilmoqda.

qiynog'iga, uyim, uyum, qorni, qo'yni, qayroq, yamoqqa, maqtov, gulduros, unga, seni, shahri, burnim, mavqeyi, obro'yi, singlisi, ko'nglim, qishlog'i, qishloqi, angla, o'yna, qiyna, ulg'aymoq, pasaymoq, yashamoq.

11-mashq. Matn tarkibidagi ajratilgan so'zlarni namunadagidek morfem tahlil qiling. Morfema haqidagi tushunchalaringizni xulosalang.

Hikoyat

Xalq orasida bir ishyoqmas, tambal kishi bor edi. Odamlar uning **beg'ayratligidan** hayron qolar edilar. U odamlardan musht, **shapaloq** yoki **teпки** yer, buning evaziga ulardan bir burda non yoki taom olib, kun ko'rardi. Kishilar uni quvib yuborsalar ham hech qaerga ketmay, o'zining yomon qiliqlarini tark etmasdi. U **tortadigan** jafolarga ma'lum bir narx to'g'rilab qo'ygan edi. Kaysi bir kishi uni bir tepsa yoki ursa, u o'sha kishidan buning haqini talab qilib olar, qo'liga tushgan narsani darhol **og'ziga** solar edi.

Kunlardan bir kuni kimdir uning qo'liga bir parcha non berib shunday musht **tushirdiki**, natijada tanbal yer tishlab qoldi. Garchand u shapaloqlar yeb, **qornini** to'yg'azib yurgan bo'lsa-da, bir musht bilan endi qayta **o'rnidan** turmaydigan bo'ldi. («Lison-ut tayr» dan)

Morfem tahlil tartibi va namunasi

1. Ma'noli qismlarga ajratish.

2. O'zak va morfemalarni aniqlash.

3. Morfemalarni funksional semantik xususiyatiga ko'ra turini aniqlash.
4. Morfemalarni tuzilishiga ko'ra, shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, o'zbekcha yoki o'zlashma ekanligini aniqlash.
5. Morfema variantlari.
6. O'zakka morfema qo'shiluvida yuz bergan fonetik o'zgarishlar.
be-g'ayrat-lig-i-dan
g'ayrat –o'zak, be-, -lig, -i, -dan morfemalar
be-sifat yasovchi, -lig ot yasovchi, -i -III shaxs, birlikdagi egalik shakli, -dan –chiqish kelishigi sh.
be-, -lig, -i, -dan – tuzilishiga ko'ra sodda; be- sinonimlari no-, -siz (beumid, noumid, umidsiz),
antonimlari ba/bo-, -li, -dor (beodob-bodob, beaql-aqli, beunum-unumdor); be- fors-tojikcha, -lig, -i, -
dan- o'zbekcha; -i – shakldoshlari: -i1 tinchi – fe'1 yasovchi, -i2 do'zaxi –sifat yasovchi
–lig –fonetik variant, asli –lik, -dan – tan/nan –dialektik variantlari
–lik morfemasida egalik shakli ta'sirida tovush jaranglashuvi yuz bergan.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Affiksial morfemalarning funksional tasnifini bering.
2. Qaysi shakllarga nisbatan shaxsiy baho shakllari deyiladi?
3. Sodda va murakkab morfemalarni tasniflang.
4. Yordamchi leksemalar va morfemalar orasidagi munosabat.
5. Morfema variantlari nima?
6. Morfonologiya haqida ma'lumot bering.
7. Derivatsion morfemalarning zotiy tabiati qanday?
8. Lug'aviy shakl yasovchilarning UGMsi haqida gapiring.
9. Sintaktik shakl yasovchilarning UGMsi to'g'risida so'zlang.
10. Lug'aviy-sintaktik shakl yasovchilarning UGMsini tavsiflang.
11. Morfemalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari deganda nimani tushunasiz?

19-20-amaliy mashg'ulot:

SO'Z YASASH USULLARI HAQIDAGI TA'LIMOTNING TA'LIM BOSHQICHLARIDA O'RGANILISHI

Reja:

- 1. Darsda:** So'z yasalishi mavzusi yuzasidan 1-, 2-, 3- mashqlarni bajarish.
- 2. Uyga vazifa:** Mavzuga doir 4-, 5-, 6- mashqlarni bajarish. 10 ta test tuzib kelish.
- 3. Adabiyot:** Bahridinova B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Mashqlar to'plami. (Morfemika. Morfonologiya. Derivatsiya. Morfologiya) 2-qism. Qarshi, 2005. O'quv qo'llanma. QDU IK tasdiq. 8-11- betlar.

1-mashq. Quyidagi matn asosida berilgan topshiriqlar tizimini bajaring.

USTOZNI QUTLAB

Agar nogahon o'zbek tilshunosligi kafedrasiga yo'lingiz tushsa, albatta, B.Mengliyevni bir guruh shogirdlari davrasida qizg'in munozara ustida uchratasiz.

Universitet jamoasida hali yaxshi tanilib ulgurmagan ustoz haqida, respublikamizning boshqa fan dargohlariga borsak, Qarshidan ekanligimizni bilgan tilshunos **tadqiqotchilarning** «Siz Baxtiyor Rajabovich bilan ishlaysizmi?», «...o'zbek tilshunosligining kelajagi bevosita B.Mengliyev va uning izdoshlarining nomi bilan bog'liq bo'ladi», «..yosh, iste'dodli, kelajagi porloq olim, yetuk inson» degan iliq fikrlarini eshitib, o'zbek tilshunosligi fani rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan B.Mengliyevga bo'lgan hurmat va **ishonchimiz** yanada ortardi.

B.Mengliyev 1965 yilning 20 noyabrida Dehqonobod tumanida tavallud topdi. 1973-83 yillarda tumandagi 42-o'rta maktabda o'qib, uni «Oltin medal» bilan tugatdi. 1983 yilda Termiz davlat pedagogika institutining o'zbek filologiyasi fakultetiga o'qishga kirdi. U 1990 yilda professor J.Omonturdiyev rahbarligida «O'zbek tilidagi qaratuvchili konstruksiyalarning evolyutsiyasi» mavzuidagi diplom ishini muvaffaqiyatli himoya qilib, oliygohni o'zbek tili va adabiyoti **mutaxassisligi** bo'yicha

tamomladi. **Tashabbuskorligi** va tirishqoqligi bilan e'tiborini tortganligi tufayli bevosita universitet rektori akademik N.To'raevning ko'rsatmasi bilan o'zbek tilshunosligi kafedrasiga ishga qoldirildi.

Respublika talabalar olimpiadasidagi muvaffaqiyatlari natijasi o'laroq, taniqli turkiyshunos olim, dongdor tilshunos, Buxoro DU o'zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri professor H.Ne'matovning nazariga tushdi va uning keyingi hayot yo'li bu **qomusiy** bilim sohibi va Buxoro tilshunoslik maktabi bilan bog'landi. U 1991 yilda Buxoro universitetining kunduzgi aspiranturasiga hujjat topshirib, o'qishni boshlagan bo'lsa, 2001 yilda doktorlik dissertatsiyasini yakunlash va muhokamaga qo'yish bilan o'zining bu oliygohdagi bevosita faoliyatini yakunladi. Ustoz 1996 yilda «Morfologik vositalarning ma'naviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari» mavzuidagi nomzodlik, 2002 yilda esa «Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar» mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

B.Mengliyev 2002 yildan buyon O'zbekiston Milliy universitetining o'zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Olim kafedra ilmiy salohiyatini yuksaltirish ishiga o'zining munosib hissasini qo'shmoqda. Uning rahbarligida qator **nomzodlik** dissertatsiyalari himoya qilindi va qilinmoqda.

Yaqin davrgacha o'zbek tilshunosligida hukm surib kelayotgan sukunatni hech kim buzishga jur'at eta olmas, fanda deyarli munozara, bahslashuvlar yo'q edi. Bu fan o'tgan asr so'ngidan milliy til tadqiqi, ona tili ta'limini yangilash talabi bilan **bahsli** maydonga aylandi. O'zbek tilshunosligiga Sh.SHahobiddinova, I.Madrahimov, M.Qurbonova, S.Nazarova, B.Mengliyev kabi tashabbuskor yoshlar kirib kelishdi va yangidan-yangi ilmiy-tadrisiy g'oyalarni ilgari sura boshlashdi. B.Mengliyev ham an'anaviy talqindagi o'zbek tilshunosligini dunyoning rivojlangan tilshunoslik maktablari tajribasi, qolaversa, o'zbek tilining milliy xususiyatlaridan kelib chiqib tadqiq etish, shu bilan bir qatorda, ta'lim sohasida o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalariga jiddiy e'tibor qaratayotgan o'zbek sistem-struktur tilshunosligining **targ'ibotchilaridan** biridir. Shu sababli olimning ilmiy ishlariga berilgan baholar rang-barang va ko'p hollarda ziddiyatli. «B.Mengliyev tomonidan tilshunosligimizdagi mavjud fe'lining funksional shakllarining **o'zgalovchi** kategoriya atamasi bilan nomlanishi va unda kategorial mohiyatni qidirishdan hech qanday naf yo'q» (O'zMU o'zbek tilshunosligi kafedrasining **sobiq** mudiri professor Y.Tojiev). «Men Baxtiyor Mengliyevning dissertatsiyasini o'qib shunday fikrga keldimki, bu original tadqiqotga yozgan taqrizimni A.Oripovning «Hayrat» she'ri bilan boshlamoqchiman» (Buxoro DU professori G'.Zikrillaev). «B.Mengliyev dissertatsion ishida lisoniy tizim yaxlitligi masalasi bo'yicha kelgusida bajariladigan ko'plab ishlar uchun keng yo'l ochib bergan. U kontseptual xarakterga ega» (Akademik G'.Abdurahmonov). Ayniqsa, O'zMU professori Y.Tojievning «O'zbek tili va adabiyoti» jurnalining 2005 yil 6-sonida e'lon qilingan maqolasida B.Mengliyev qarashlari haqidagi fikrlari o'ta bahstalab va har qanday tilshunosni fanimizdagi hali yechimini topmagan, maqola muallifi munosabat bildirgan masalalar haqida o'ylashga, ularga munosabat bildirishga undaydi. **G'ayriodatiy** ilmiy xulosalarni shunday taqdir va baholar kutishi muqarrardir.

B.Mengliyev oliy ta'lim dasturi talablariga mos o'quv qo'llanma va darsliklar yaratishga, yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qish-o'qitish ishlarining **samaradorligini** oshirishga doir qator **ahamiyatli** ishlarni amalga oshirmoqda. Uning «O'zbek tilining struktur sintaksisi» (2003 yil, «Nasaf» nashriyoti, 10 b.t.), «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (2004 yil, «Nasaf» nashriyoti, 12 b.t.), «O'zbek tilining struktural sintaksisi» (2004 yil, O'zMU nashri, 10 b.t., hammualliflikda), «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (2005 yil, O'zMU nashri, 12 b.t., hammualliflikda) o'quv qo'llanmalari oliy filologik ta'limga qo'yilayotgan eng so'nggi talablar darajasida yaratilgan. B.Mengliyevning «Hozirgi o'zbek adabiy tili. Morfologiya» (10 b.t.), «Lingvistik tadqiqot asoslari» (6 b.t.) qo'llanmalari nashrdan chiqish arafasida.

Ustoz B.Mengliyev oliygohning ko'p tirajli «Qarshi universiteti» gazetasi, «Nasaf ziyosi» ilmiy-ma'rifiy jurnali tahrir hay'atining a'zosi. Bir necha yillardan buyon Samarqand davlat universiteti huzuridagi o'zbek filologiyasi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyalari himoyasi uchun **ixtisoslashgan** ilmiy kengash a'zosi.

B.Mengliyev nafaqat iste'dodli olim, qalbi toza vijdonli inson, ardoqli ustoz, mehribon ota, sadoqatli oila posboni, ishonchli do'st, qolaversa, odil va tashabbuskor rahbar. Turmush o'rtog'i fidoiy o'qituvchi, oqila oila bekasi Xosiyat opa bilan ikki farzandni **tarbiyalab** voyaga yetkazmoqda.

Yaqinda hamkasblari, do'stlari va shogirdlari olimning professorlik ilmiy unvoni bilan **taqdirlanganligini** eshitib samimiy qutladilar.

Ustozni ilmiy unvon bilan muborakbod etib, u kishiga avvalo, uzoq va mazmunli umr, mustahkam sog'lik, oilaviy xotirjamlik, ruhiy tetiklik, ilmiy va ijodiy parvozlar, farzandlar va shogirdlar kamolini ko'rib yurishlarini tilab qolamiz.

Ehtirom ila bir guruh shogirdlari
(«Qashqadaryo» gazetasidan)

1-topshiriq. Matnni kuzatib, ajratilgan so'zlardagi ma'noli qismlarni aniqlang. Ularni mustaqil qo'llanadigan va mustaqil qo'llanmaydigan ma'noli qismlarga ajrating. Mustaqil qo'llanmaydigan ma'noli qismlarni yangi lug'aviy ma'no hosil qiluvchi va yangi lug'aviy ma'no hosil qilmaydigan turlarga ajrating.

2-topshiriq. So'z yasovchi morfemalardagi umumiylikni toping

3-topshiriq. So'z yasovchi morfemalardagi farqlarni aniqlang.

4-topshiriq. So'z yasovchi morfemalarni turli belgilari asosida tasniflang.

5-topshiriq. Birliklarning har biriga xos va barchasi uchun umumiy zotiy mohiyatni bayon qiling. Har bir birlikka alohida va barchasi uchun umumiy ta'rif bering.

6-topshiriq. Tavsiflangan birliklarni lug'aviy va sintaktik shakl yasovchilar bilan munosabatlarini aniqlang.

2-mashq. Quyidagi co'zlarni ko'chiring. Yasalish qolipini aniqlang. Qoliplarning shakliy va mazmuniy tomonini tavsiflang. So'z yasash asosi va yasalma o'rtasidagi mazmuniy muvofiqlikka diqqat qiling.

suhbatlashmoq, asabiylashmoq, sensiramoq, kechikmoq, chiniqmoq, boyimoq, kamimoq, ozimoq, ranjimoq, boshqarmoq, suvsamoq, gapirmoq, ko'zikmoq, to'lin, to'kin, sog'in, ichikmoq, sevinmoq, chaqmoq, uyushiq, bog'lama, sifatdosh,

3-mashq. Yasama so'zlarni ko'chiring. Sodda va qo'shma so'z yasash qolipi hosilalarini farqlang. Qo'shma so'zlarning so'z birikmasi, frazeologik birikma, yordamchi so'zli qurilmalardan farqini bayon qiling.

1. Mirkomil aylana stol atrofida uzoq o'tirib qoldi. 2. Sunnatjon ikkita kitob sotib oldi. 3. O'qituvchimiz fursatdan foydalanib kitobini sotib oldi. 4. Ichi qora odamdan yaxshilik kutma. 5. Tibbiy ko'rikdan o'tgach, barcha nomzodlar to'satdan tanlovga ishtirok etishdan bosh tortishdi. 6. Tob tashlab qolgan darvozaning bir tavaqasini ochguncha harsillab ketdim. 7. Mung'ayib o'tirgan Fotima kelin ham handon otib kulib yubordi (IEO). 8. Yosh quyilib kelayotgan ko'zlarimni artib-artib bosma harfda yozilgan xatni o'qidim. 9. Muzlagan qorni g'arch-g'urch bosgancha qadamimizni tezlishtirdik (IEO). 10. Ular orasida jiyagi sitilib ketgan do'ppi kiygan Olimjonni ko'rib qoldim. 11. Omborning qamishlari osilib yotgan shiftini ko'tarib yuborguday kulgi yangradi. 12. Ammam hokandozda tutab turgan isiriq ko'tarib kirdi (IEO).

13. Oqar daryolarga kimdir band bergan,
Hayot kimga zahar, kimga qand bergan.
Ey, g'ofil, sarkash deb kamsitma meni,
G'anim senga emas, menga pand bergan. (A.O.)

4-mashq. Berilgan so'zlarning unumli yoki unumsiz SYQ hosilasi ekanligini aniqlang. Unumsiz qolip hosilalarining qaysi yo'l bilan lisoniylashganligini bayon eting.

bo'g'iz, botqoq, urushqoq, kamsitmoq, izg'imoq, izchil, qisqa, sog'lom, qishloq, kelin, kelishmoq, qopchiq, sevinmoq, ko'rishmoq, so'rashmoq, boqmoq, qarashmoq, o'qituvchi, urishmoq, sotuvchi, o'tirish, kirish, qizilcha, ko'kcha, belanchak, kuyunchak, kelinchak, chaqmoq, kechirmoq, sog'inmoq, surishtirmoq, uyg'otmoq, solishtirmoq, to'ldirmoq, kelishmovchilik, seskanmoq, cho'mich, ichak, qattiq, suyinmoq, ko'chat, erkak, zumda, birga, birda, birdan.

5-mashq. Ot, fe'l, sifat va ravish yasalishining unumli sodda va qo'shma SYQlarini aniqlang. Qoliplarning shakliy va mazmuniy tomoni hosilalarda qanday xususiylashganini aniqlang. Qo'shma so'zlarning imlosi haqida fikringizni bayon qiling.

kishanla, dodla, sizla, hozirla, salomlash, afsuslan, yaltira, o'yna, qiyna, qoray, oqar, gumonsira, yo'liq, kechik, tinchi, abgor qilmoq, ado bo'lmoq, ayyuhannos solmoq, javob bermoq, xalal bermoq, qiron solmoq, tartibga keltirmoq, oh urmoq, tush ko'rmoq, qo'nim topmoq, tomchi, suyunchi, ninachi, obunachi, to'polonchi, lofchi, tajovuzkor, janjalkash, duoxon, mahsido'z, mantipaz, arizaboz, otalik, kekirik, yonilg'i, qo'nim, kechirim, dimlama, bo'g'in, savag'ich, sevinch, g'urrak, g'arg'ara, chuvvos,

sharros, kechuv, toshko'mir, karnaygul, qoraqurt, mingoyoq, qo'ziqorin, sochpopuk, piyozdog', O'rta Chirchiq, kaltakesak, Markaziy Osiyo, Sho'rko'l, ko'ksulton, qoradori, Oltiariq, uchburchak, mingoyoq, iskabtopar, ishlab chiqarish, savacho'p, gavdali, yeyishli, aloqador, nasldor, sergo'sht, beg'ubor, yashovchan, urinchoq, qizg'anchiq, yeyarmon, yig'loqi, so'lg'in, ko'chma, arzirli, jirkanch, imloviy, ichki, dahanaki, badhazm, izchil, terskay, gapdon, qaram, sog'lom, qisqa, devqomat, kafangado, sho'rpehona, sho'rtumshuq, xudobezor, kamgap, kamqon, cho'rtkesar, yebto'ymas, o'zboshimcha, tilyog'lama, o'zbilarmon, qirqyamoq.

6-mashq. Soddalashish, ixtisoslashish va tublashish natijasida leksemalashgan birliklarga barcha so'z turkumlari doirasida misollar keltiring.

Derivatsion tahlil tartibi va namunasi

1. So'z yasash qolipi aniqlanadi.
2. Qolip hosilasining nutqiy, lisoniylashayotgan yoki lisoniylashganligi aniqlanadi.
3. So'z yasovchi morfemalar aniqlanadi.

Bilimdonlik

(fe'l)+(im)=asosdan anglashilgan harakat natijasini atash: bilim, terim, tinim, o'rim, to'plam.; unumli lisoniy qolip, feldan ot yasalmoqda.

(ot)+(don)=asosdan anglashilgan narsaga egalikni bildirish: gapdon, bilimdon,; kam unum lisoniy qolip, otdan sifat yasalmoqda.

(sifat, ravish)+(lik)=asosdan anglashilgan belgi bilan bog'liq holatni atash: mardlik, tezlik, xursandlik; unumli lisoniy qolip, sifatdan ot yasalmoqda.

Bir o'zakdan uch marta so'z yasalgan.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Derivatsiyaning til qurilishi tizimidagi o'rni qanday?
2. So'z yasashda zamonaviylik va tarixiylik nima?
3. So'z yasash qolipi deganda nimani tushunasiz?
4. So'z yasash zanjiri nima?
5. Unumli va unumsiz SYQlari haqida ma'lumot bering.
6. Yasama so'zlarda ixtisoslashish, soddalanish, tublanish jarayonlari xususida to'xtaling.
7. Atamaviy tizimlardagi SYQlari xususida ma'lumot bering.

21-26-mashg'ulot. Fe'l so'z turkumi

Reja:

1. Darsda: 1-topshiriq. Mavzu yuzasidan 1-, 2-, 3-, 4- 9-, 10-, 11-, 12- mashqlarni bajarish.

2-topshiriq. Mikromatn tuzing. Matn bo'yicha quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matndan fe'l nisbatlarini aniqlang.
2. Matndan fe'l mayllarini aniqlang.
3. Matndagi fe'l zamonlarini aniqlang.
4. Matnda ishtirok etgan harakat tarzi shakllarini aniqlang.
5. Matndagi o'timli/o'timsiz fe'llarni aniqlang.
6. Matndagi fel turlari (sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakllari)ni aniqlang.

2. Uyga vazifa: Mavzuga doir 5-, 6-, 7-, 8-, 3-, 14-, 15-, 16-mashqlarni bajarish.

3. Adabiyot: Bahriiddinova B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Mashqlar to'plami. (Morfemika. Morfonologiya. Derivatsiya. Morfologiya) 2-qism. Qarshi, 2005. O'quv qo'llanma. QDU IK tasdiq. 15-17- betlar.

27-28-mashg'ulot. Ot so'z turkumi.

Reja:

1. Darsda: Mavzu yuzasidan 1-, 2-, 3- mashqlarni bajarish.

2. Uyga vazifa: 1-topshiriq. Mavzuga doir 4-, 5-, 6-, 7- mashqlarni bajarish.

2-topshiriq. Berilgan matn bo'yicha quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matndagi ot turkumidagi so'zlarni aniqlang.
2. Aniqlangan so'zlardan otlarning ma'noga ko'ra turini aniqlang.
3. Matndagi otlarni tub yoki yasama ko'rinishlarida tasniflang.

Yozg'uchidan

Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo'ydik, bas, biz har bir yo'sunda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o'xshash dostonchilik, ro'monchilik va hikoyachiliklarda ham yangarishg'a, xalqimizni shu zamonning «Tohir-Zuhra»lari, «Chor darvesh»lari, «Farhod-Shirin» va «Bahromgo'r»lari bilan tanishtirishka o'zimizda majburiyat his etamiz.

Yozmoqqa niyatlanganim ushbu — «O'tkan kunlar», yangi zamon ro'monchilig'i bilan tanishish yo'lida kichkina bir tajriba, yana to'g'risi, bir havasdir. Ma'lumki, har bir ishning ham yangi — ibtidoiy davrida talay kamchiliklar bilan maydong'a chiqishi, ahllarining yetishmaklari ila sekin-sekin tuzalib, takomulga yuz tutishi tabiiy bir holdir. Mana shuning daldasida havasimda jasorat etdim, havaskorlik orqasida kechaturgan qusur va xatolardan cho'chib turmadim.

Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar. Shunga ko'ra mavzu'ni moziydan, yaqin o'tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo'lg'an keyingi «xon zamonlari»dan belguladim.

Abdulla Qodiriy (Julqunboy) (O'tkan kunlar)

3. Adabiyot: Bahridinova B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Mashqlar to'plami. (Morfemika. Morfonologiya. Derivatsiya. Morfologiya) 2-qism. Qarshi, 2005. O'quv qo'llanma. QDU IK tasdiq. 21-24- betlar.

29-mashg'ulot. Sifat so'z turkumi

Reja:

1. Darsda: Mavzu yuzasidan 1-, 2-, 3- mashqlarni bajarish.

2. Uyga vazifa: Mavzuga doir 4-, 5- mashqlarni bajarish.

3. Adabiyot: Bahridinova B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Mashqlar to'plami. (Morfemika. Morfonologiya. Derivatsiya. Morfologiya) 2-qism. Qarshi, 2005. O'quv qo'llanma. QDU IK tasdiq. 24-27- betlar.

30-mashg'ulot. Son so'z turkumi

Reja:

1. Darsda: Mavzu yuzasidan 1-, 2-, 3-, 4- mashqlarni bajarish.

2. Uyga vazifa: Mavzuga doir 5-, 6-, 7-, 8- mashqlarni bajarish.

3. Adabiyot: Bahridinova B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Mashqlar to'plami. (Morfemika. Morfonologiya. Derivatsiya. Morfologiya) 2-qism. Qarshi, 2005. O'quv qo'llanma. QDU IK tasdiq. 27-30- betlar.

31-mashg'ulot. Olmosh so'z turkumi

Reja:

1. Darsda: Mavzu yuzasidan 1-, 2-, 3- mashqlarni bajarish.

2. Uyga vazifa: Mavzuga doir 4-, 5-, 6- mashqlarni bajarish.

3. Adabiyot: Bahridinova B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Mashqlar to'plami. (Morfemika. Morfonologiya. Derivatsiya. Morfologiya) 2-qism. Qarshi, 2005. O'quv qo'llanma. QDU IK tasdiq. 33-35- betlar.

32-mashg'ulot. Ravish so'z turkumi

Reja:

1. Darsda: Mavzu yuzasidan 1-, 2-, 3- mashqlarni bajarish.

2. Uyga vazifa: Mavzuga doir 4-, 5- mashqlarni bajarish.

3. Adabiyot: Bahriiddinova B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Mashqlar to'plami. (Morfemika. Morfonologiya. Derivatsiya. Morfologiya) 2-qism. Qarshi, 2005. O'quv qo'llanma. QDU IK tasdiq. 30-31- betlar.

33-35-mashg'ulotlar:

Reja:

1. Darsda: Mavzu yuzasidan 1-, 2-, 3-, 4-, 5- mashqlarni bajarish.

2. Uyga vazifa: Mavzuga doir 6-, 7-, 8-, 9- mashqlarni bajarish.

3. Adabiyot: Bahriiddinova B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Mashqlar to'plami. (Morfemika. Morfonologiya. Derivatsiya. Morfologiya) 2-qism. Qarshi, 2005. O'quv qo'llanma. QDU IK tasdiq. 43-46- betlar.

2.3. Informatsion-uslubiy ta‘minot **Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar**

1. Rahimov S., Umuqulov B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-qism. –T.: O‘qituvchi, 2003. Darslik. O‘z. R OTV tasdiq.
2. Jamolxonov. N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-qism. –T.: O‘qituvchi, 2005. Darslik. O‘z. R OTV tasdiq.
3. Shoabdurahmonov Sh. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili grammatikasi. 1-qism. -T.: O‘qituvchi, 1980. Darslik. 446 bet. O‘z. R OTV tasdiq.
4. Mengliyev B.R. Hozirgi o‘zbek tili. Morfemika. Derivatsiya. Morfologiya. II qism. Qarshi-2005.
5. Bahriddinova B.M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Mashqlar to‘plami. (Morfemika. Morfonologiya. Derivatsiya. Morfologiya) 2-qism. Qarshi, 2005. O‘quv qo‘llanma. 85 bet. QDU IK tasdiq.
6. Bahriddinova B.M. Hozirgi zamon o‘zbek tili (Qo‘shimchlar tasnifi yuzasidan materiallar) Qarshi, Nasaf n. 2004, 92 b.
7. Mengliyev B.R., Bahriddinova B.M. Hamrayev A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Morfemika. Derivatsiya. Morfologiya. II qism. Qarshi, O‘quv qo‘llanmaning elektron versiyasi. 2005. QDU tasdiq.
8. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh. va boshqalar. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. -T.: Yangi asr avlodi. 2001.- 182 b.

Tavsiya etiladigan yordamchi adabiyotlar

1. Mengliyev B.R. Morfologik vositalarning ma‘noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari: Filol. fan. nomz ... diss. Buxoro. 1995, - 144 b.
2. Musulmonova N. Grammatik shakllarda kategorial, yondosh va hamroh ma‘no (zamon va mayl kategoriyalari misolida): Filol. fan. nomz ... diss. Toshkent. 2007, -112 b.
3. Shukurov O. Harakat tarzi shakllari paradigmasi. Filol. fan. nomz ... diss. Avt. Qarshi. 2005, - 22 b.
4. Bahriddinova B.M. Fe‘l lug‘aviy shakllari tizimi (tur kategoriyasi) Filol.fan.nomz...diss. - Samarqand, 2002.-146 b.
5. Shukurov O. Harakat tarzi shakllarini o‘rgatishda induktiv usulni qo‘llash tajribasidan // Til va adabiyot ta‘limi. 2003. № 5. B. 13-17.

“Ziyo NET” ахборот – таълим тармоғи (www.ziyonet.uz)

Informatsion-texnikaviy vositalar:

Diaproektor, kompyuter, electron doska, mavzular bo‘yicha ko‘rgazmali slaydlar, ilmiy adabiyotlar. Dars jarayonida o‘qitishning texnik vositalari – mavzu yuzasidan multimediya qo‘llanmalari, slaydlar, darslik va qo‘llanmalarning elektron versiyalaridan ham foydalaniladi.

KEYS-STADI

MAVZU: “O‘ZGALOVCHI KATEGORIYAMI?”

O‘quv predmeti: Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Morfologiya). **Mavzu:** O‘zgalovchi kategoriyami?
Keysning asosiy maqsadi: Grammatik kategoriya mezonlarini uqish. **O‘quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:** 1) grammatik kategoriyaga ta’rif bera bilish; 2) grammatik kategoriya ta’rifini sharhlay olish; 3) fe’l funksional shakllarining kategorial xususiyatini idrok qilish; 4) O‘zgalovchining ichki funksional bo‘linishlarining kategoriya emasligini asoslash; 5) ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oldindan talabalar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmoqlari zarur. **Talaba bilishi kerak:** Butun-bo‘lak, grammatik kategoriya va grammatik shakl, substansiya va tajalli. **Talaba amalga oshirishi kerak:** 1) mavzuni mustaqil o‘rganadi; 2) muammoning mohiyatini aniqlashtiradi; 3) g‘oyalarni ilgari suradi; 4) ma’lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi; 5) o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lib, mantiqiy xulosa chiqaradi; 6) o‘quv ma’lumotlar bilan mustaqil ishlaydi; 7) ma’lumotlarni taqqoslaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi. **Talaba ega bo‘lmog‘i kerak:** 1) kommunikativ ko‘nikmalarga; 2) taqdimot ko‘nikmalariga; 3) hamkorlikda ishlash ko‘nikmasiga; 4) muammoli holatlarni tahlil qilish ko‘nikmasiga.

Manbalardan foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati: 1. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: FTM, 2009; 2. “Falsafa” fani bo‘yicha darsliklar.

Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keysning tavsifnomasi: Keysning asosiy manbai kabinetli, lavhali bo‘lib, ilmiy vaziyatlar asosida bayon etilgan. Keysning asosiy obyekti grammatik kategoriya. Bu tashkiliy keys bo‘lib, ma’lumotlar vaziyatlar va savollar asosida tuzilgan. Hajmi o‘rtacha, tizimlashtirilgan, treningga mo‘ljallangan. O‘quv mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko‘ra, keys muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, tahlil qilish va baholashga qaratilgan.

Ushbu keysdan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Tilshunoslikka kirish” kurslarini o‘tishda foydalanish mumkin.

Kirish qismida o‘zbek tilidagi grammatik kategoriyalar haqida ma’lumot beriladi. Ularning mavjud tasnifi keltiriladi.

1-vaziyat kategoriya tushunchasi asosida vujudga keltiriladi. Kategoriya tushunchasi sharhlanadi.

2-vaziyat o‘zgalash hodisasi va vositalari asosida hosil qilinadi. Ular haqida ma’lumot beriladi.

II. AMALIY VAZIYATNI BOSQICHMA – BOSQICH TAHLIL QILISH VA HAL ETISH BO‘YICHA TALABALARGA USLUBIY KO‘RSATMALAR

2.1. Talabalarga yo‘riqnoma

Ish bosqichlari	Maslahatlar va tavsiyanomalar.
1.Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishish	Avvalo keys bilan tanishing. Grammatik kategoriya haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo‘lgan butun axborotni diqqat bilan o‘qib chiqish lozim. O‘qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang.
2.Berilgan vaziyat bilan tanishish	Ma’lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o‘qib chiqing. Siz uchun muhim bo‘lgan satrlarni belgilang. Bir xatboshidan ikkinchi abzatsga o‘tishdan oldin, uni ikki uch marotaba o‘qib mazmuniga kirib boring. Keysdagi muhim fikrlarni belgilang. Grammatik kategoriyalar haqida fikrlang.
3.Muammoli vaziyatni tahlil qilish	Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatingizni jalb qiling. Asosiy muammo: O‘zgalovchi kategoriyami? Quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling: 1) Kategoriyaga

	qanday talablar qo'yiladi? 2) Kategorial shakl nima? 3) Nokategorial shakl nima? Asosiy muammo nimaga qaratilganini aniqlang. Muammoning asosiy mazmunini ajratib oling. Muammoli vaziyatni tahlil qilish – obektning holatini aniqlang, asosiy qirralariga e'tibor qarating, muammoli vaziyatning barcha tomonlarini tahlil qiling. Grammatik kategoriya belgilarini aniqlashga harakat qiling.
4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash	Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarni izlab topish maqsadida quyida taqdim etilgan "Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldirishga kirishing. Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq yechimini toping. Jadvalni to'ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda ilova eting

2.2. "Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldirish

Vaziyatdagi muammolar turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari

2.3. Keys bilan ishlash natijalari yozma shaklda ilova etiladi

Keys – stadi uchun yozma ish talablari: 1. Ish A4 standartdagi varaqning bir tomonida (2-varaqdan oshmagan holda) tezis shaklida yozilishi kerak. 2. Yozma ishni jihozlash tartibi: 1) birinchi betda, o'ng tomonda talaba ismi, sharifi va guruhini yozishi kerak; 2) varaqning markazida keysning mavzusi yoziladi; 3) keyin esa keys bilan ishlash natijalari tezis shaklida yoziladi

Keys bilan ishlash qoidalari: 1. Keysda vaziyat tavsifi va axborot ta'minoti har xil hajmda bo'lishi (bir varaqdan bir necha yuz varaqqacha), tahlil etish uchun taklif etilayotgan vaziyatlar tavsifida detallashtirish darajasi ham turlicha bo'lishi, axborot ko'pligi darajasi ham o'zgarishi mumkin bo'lgan – tahlilga aloqasi bo'lmagan ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin. Amaliy vaziyatni tahlil qilish vaqtida:

1. taklif etilayotgan axborotlarni ko'rib chiqishda adashmang, ular orasida eng zarurini belgilang;
2. vaziyatni tor istiqbolda ko'rib chiqmang: muammo birdaniga kichiklashib yoki umuman g'oyib bo'lishi mumkin;
3. harakatlar rejasini vaziyatning tahlili tugallangan va muammo aniqlangandan so'ng shakllantiring

2.4. Keys bilan ishlash jarayonini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (mustaqil auditoriyada va auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun)

Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Talabalar Ro'yxati	Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot obyekti aniqlangan (mak. 6 b)	Muammoli vaziyatning ke-lib chiqish sa-bablari aniq ko'rsatilgan (mak. 4 b)	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari Aniq ko'rsa-tilgan (mak. 10 b)	Jami mak.20 b

2.5. Auditoriyada bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruhlar Ro'yxati	Guruh faol (mak. 1 b)	Ma'lumotlarni ko'rgazmali taqdim etish (mak. 4 b)	Javoblarni to'liq va aniq berish (mak. 5 b)	Jami mak. 10 b

8-10 ball – a'lo

6- 8 ball – yaxshi

4- 6 ball – qoniqarli

0 -4 ball – qoniqarsiz

2.6. Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishini bajarish uchun zarur bilim va masalalarga ega bo'lishi.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilishi.
3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratish.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi.
6. Muloqotda bo'lish, o'z fikrini erkin namoyon etishlari zarur.

2.7. «T - sxema» texnikasi

<p>1)bu texnologiya murakkab, ko'ptarmoqli, muammoni mavzularni o'rganishga qaratilgan; bunda ularning har biri alohida muhokama etiladi.</p> <p>2)tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishiga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkon yaratadi;</p> <p>3) ma'ruza yakunida qo'llaniladi;</p>	→	T-sxema qonun-qoidalari bilan tanishib chiqadi. Yakka tarkibda yoki juft-juft bo'lib T-sxemani to'ldiradi
		O'z g'oyalarini yozma ravishda o'ng va chap taraflarida yozib chiqadilar. G'oyalar qarama-qarshi bo'lishi mumkin
		Sxemadagi g'oyalar taqqoslanishi va yakka tartibda, juft-juft holda yoki kichik guruhlarda to'ldirilishi mumkin
		Har bir tinglovchi o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkin

2.9.O'quv-uslubiy hujjatlar

Umumiylikni aniqlashga to'siq bo'ladigan holatlar

Grammatik kategoriya – bir umumiy grammatik ma'no ostida birlashuvchi, bir-birini o'zaro taqozo va inkor qiluvchi birdan ortiq shakllar majmui

O'zgalovchi – fe'lni fe'lga bog'lash va unga boshqa so'z turkumlari sifatini berish vazifasini bajaruvchi grammatik kategoriya

Nokategorial shakl – biror grammatik grammatik yaxlitlik (butunlik, kategoriya) tarkibiga kirmaydigan grammatik shakl

Infantalizm – bir ta’limot natijalarini boshqa bir ta’limot tamoyillari asosida o‘lchash va ulardagi ziddiyatlarni tushunib yetmaslik

III.O‘QITUVCHI TOMONIDAN KEYSNI YECHISH VA TAHLIL QILISH VARIANTI

1.Keysdagi asosiy muammo: o‘zgalovchining kategorial xususiyatini anglab yetish. **Muammoli vaziyatni yechish yo‘llari:** 1) keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishish; 2) keys bilan tanishib chiqish, o‘zgalovchi haqida tushuncha hosil qilish uchun mavjud axborotni diqqat bilan o‘qib chiqish; 3) muammoni yechish darajasini aniqlash. **2. Berilgan vaziyat bilan tanishish:** Ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi fe’lni fe’lga yoki otga bog‘lash, unga otga xos sintaktik vazifa yuklash hamda ravish, sifat va otlik xususiyatlarini berish umumiy ma’nosi ostida birlashadi. **3. Muammoli vaziyatning tahlili:**
Ravishdosh: 1. Fe’lni fe’lga bog‘laydi. 2. Fe’lga ravishlik xususiyatini beradi. 3. Hol bo‘lib keladi.
Sifatdosh: 1. Fe’lni otga bog‘laydi. 2. Fe’lga sifatlik xususiyatini beradi. 3. Aniqlovchi bo‘lib keladi.
Harakat nomi: 1. Fe’lga otga xos sintaktik vazifa beradi. 2. Fe’lga otlik xususiyatini beradi. 3. Ot vazifasida keladi.

Mazkur holatda qabul qilinishi mumkin bo‘lgan muammoning barcha yechimlarini topiladi:

Muammoli vaziyat	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari
<p>Ravishdosh:</p> <p>1. Fe’lni fe’lga bog‘laydi.</p> <p>2. Fe’lga ravishlik xususiyatini beradi.</p> <p>3. Hol bo‘lib keladi.</p> <p>Sifatdosh:</p> <p>1. Fe’lni otga bog‘laydi.</p> <p>2. Fe’lga sifatlik xususiyatini beradi.</p> <p>3. Aniqlovchi bo‘lib keladi.</p> <p>Harakat nomi:</p> <p>1. Fe’lga otga xos sintaktik vazifa beradi.</p> <p>2. Fe’lga otlik xususiyatini beradi.</p> <p>3. Ot vazifasida keladi.</p>	<p>Nega u grammatik kategoriya sifatida qaralmagan?</p>	<p>Chunki rus tilshunosligida bunday kategoriya mavjud emas va o‘zgalovchining tarkibi murakkab</p>

4. O‘tkazilgan tahlillar va natijalar

Muammoli vaziyatni tahlil qilish – obyektning holati aniqlangandan so‘ng, muammoning asosiy qirralariga e’tibor qaratib, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qilishga harakat qilamiz. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab olib, “T - sxema” jadvalini to‘ldiramiz.

Kategorial shakl	Nokategorial shakl
<p>Butunlikka mansub bo‘ladi</p> <p>Butunlik ma’nosini juz’iylashtiradi</p> <p>Butunlikning boshqa tarkibiy qismlariga zid turadi va assotsiativ bog‘lanishga ega bo‘ladi</p>	<p>Butunga mansub bo‘lmaydi</p> <p>Butun ma’nosini juz’iylashtirmaydi</p> <p>Butunning boshqa tarkibiy qismlariga zid turmaydi va assotsiativ bog‘lanishga ega bo‘lmaydi</p>

Yakuniy xulosa

Ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi o‘zaro o‘zgalovchi kategoriyasining «fe’lni boshqa so‘zlarga bog‘lash va fe’lga otga xos vazifalarini berish» UGMsini «fe’lni fe’lga bog‘lash» (ravishdosh), «fe’lni otga bog‘lash» (sifatdosh) va «fe’lga ot vazifasini berish» (harakat nomi) tarzida xususiylashtiradi.

Ularning ichki shakllari esa boshqa kategoriyalar ma’nlari asosida farqlanadi va bu tizim (paradigma)lar kategorial ahamiyatga ega emas.

Demak, o‘zbek tilida ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi kategoriyalari emas, balki turli ko‘rinishlarga ega bo‘lgan uch shakldan iborat bitta o‘zgalovchi kategoriyasigina mavjud.

IV. MUAMMOLI VAZIYATLARNI HAL ETISH BO‘YICHA AMALIY MASHG‘ULOTDA O‘QITISH TEXNOLOGIYASI

4.1. Ta’lim texnologiyasining modeli

8- mavzu, 2 soat	Ta’lim oluvchilar soni: 21 kishidan oshmasligi lozim	
Mavzu	Ўзгаловчи категориями?	
Amaliy mashg‘ulot rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Keys mazmuniga kirish. 2. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida “Blits - so‘rov” o‘tkazish. 3. Muammoni va uni yechish vazifalarini aniq ifoda etish. 4. “Keys – stadi”ni guruhlarda yechish. 5. Natijalar taqdimoti va muhokamasini o‘tkazish. 6. Muhokama etilayotgan muammoni “T-sxema” jadvali asosida tahlil etish. 7. Yakuniy xulosa chiqarish. Erishilgan o‘quv natijalariga ko‘ra talabalar faoliyatini baholash 	
<i>Mashg‘ulotning maqsadi: Talabalarni amaliy va nazariy bilimlarni farqlashga o‘rgatish</i>		
<i>Pedagogik vazifalar:</i>		<i>O‘quv faoliyati natijalari:.</i>
<ul style="list-style-type: none"> • keys mazmunini mustaqil o‘rganish uchun asos yaratadi; • talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi; • muammoni ajratib olishga o‘rgatadi, taqqoslashga, tahlil qilishga umumlashtirishga ko‘mak beradi; • muammoni hal etish bo‘yicha aniq harakatlar ketma – ketligini tushuntirib beradi; • muammoli vazifalarni yechishga shart-sharoit yaratadi; • mantiqiy xulosa chiqarishga ko‘mak beradi 		<ul style="list-style-type: none"> • keys mazmuni bilan oldindan tanishib chiqib, yozma tayyorgarlik ko‘radi; • muammoni yechish bo‘yicha aniq vaziyatlarning ketma – ketligini aniqlaydi; • muammoli vazifalarni yechishda nazariy bilimlarini qo‘llaydi; • muammoni aniqlab, uni hal qilishda yechim topadi; • yakuniy mantiqiy xulosalar chiqaradi.
<i>O‘qitish usullari va texnika</i>		“Keys – stadi”, “Blits-so‘rov”, “Muammoli vaziyat” uslubi, “T-sxema”, “Bahs-munozara”
<i>O‘qitish vositalari:</i>		Markerlar, qog‘ozlar, doska, bo‘r
<i>O‘qitish shakllari</i>		Individual va guruhlarda ishlash
<i>O‘qitish shart-sharoiti</i>		Texnik vositalar bilan ta’minlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>		Og‘zaki nazorat, savol-javob, o‘z-o‘zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash

4.2. Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi

<i>Ish jarayonlari</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>O‘qituvchi</i>	<i>Talaba</i>

<i>vaqti</i>		
Tayyorlov bosqichi	Mavzuni, vaziyat mazmunini aniqlaydi, informatsion ta'minotga tayyorgarlik ko'radi, "keys - stadi"ni rasmiylashtiradi, keysni ko'paytirish muammosini hal etadi. Mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rishni, tavsiya etilgan adabiyotlarni o'qib o'rganishni tavsiya etadi	Tinglash
I bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi, vazifalari va o'quv faoliyati natijalarini aytadi, dolzarbligi va ahamiyatiga to'xtalib o'tadi. Nazariy bilimning o'ta muhimligi, u yaratuvchanlik xossasiga ega ekanligi, amaliy bilim bilapn cheklanish ilmiy mushohada qila olmaslikka olib kelishi, tafakkur rivojlanmasligi, tafakkur mahsulining eng qimmat tovar ekanligi haqida xulosa qicharishga undaydi	Tinglash
	1.2. Mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilimlarini faollashtirish maqsadida blits – so'rov o'tkazadi (1-ilova)	Savollarga javob Berish
	1.3. "Keys - stadi" vazifasi va uning jamiyat taraqqiyoti rivojlanishiga asos bo'luvchi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rnini aniqlaydi. Amaliy mashg'ulotning ish tartibi va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi. Keys mazmuni bilan yanada yaqinroq tanishib chiqishlari uchun talabalarga materiallarni tarqatib chiqadi	Tanishish
II bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Keysda bor bo'lgan materiallarni muhokama qilishni tashkillashtiradi, diqqatni keys bilan ishlash qoidalariga, muammoni yechish algoritmiga va vazifani aniqlashtirishga qaratadi	Muhokama qilish
	2.2. Mustaqil ravishda uyda yozib kelingan vaziyat tahlilini o'tkazishni taklif qiladi	Vaziyatni mustaqil ravishda tahlil qilish
	2.3. Talabalarni 3 ta kichik guruhlariga ajratadi. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni "Muammoli vaziyat" uslubidan foydalanilgan holda tarqatadi (2-ilova)	Guruhlariga ajratish, yozib olish, topshiriqlar ustida ishlash
	2.4. Kichik guruhlarda keys bilan yakka tartibda bajarilgan ishlar natijalarini muhokama qilishni tashkillashtiradi. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi, qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi	Faol qatnashish
	2.5. Har bir guruh topshiriqlarni vatman-qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tka-zishda yordam beradi, izoh beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor	Jamoa bo'lib bajarilgan ishning taqdimotini o'tkazish, bahs-munozara yuritish, qo'shimcha qilish, baholash,

	beradi. Topshiriqlarning bajarilishi qay darajada to‘g‘ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi	xulosa chiqarish
	2.6. Talabalarning fikrlarini umumlashtirib bo‘lgach, o‘qituvchi o‘zgalovchining kategorial belgilari aqitda xulosa qiladi (3- ilova)	Tinglash. Guruhlarda berilgan topshiriqni bajarish. Taqdimotini o‘tkazish. Mavzu bo‘yicha yakuniy xulosa chiqarish
	2.6. Talabalarning taqdimotda ko‘rsatilgan fikrlarini umumlashtiradi	Tinglash
III bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Bugungi mavzu dolzarb ekanligiga to‘xtalib o‘tadi. O‘zbek tili dalillari rus tili dalillari asosida baholanib kelganligi, ammo undan farqlanadigan juda ko‘p jihatlari borligi qayd qilinadi. Bunga o‘zgalovchi kategoriya misol qilib beriladi.	Tinglash Aniqlash
	3.2. Tavsiya etilgan muammo yechimlariga izoh beradi. Yana bir bor “Keys - stadi”ning ahamiyatiga atroflicha to‘xtalib o‘tadi	Tinglash

BLITS-SO‘ROV (1-ilova)

<i>№</i>	<i>Savol</i>	<i>Javob</i>
1.	Kategoriya nima?	Bir umumiy grammatik ma’no ostida birlashuvchi, bir-birini taqozo va inkor qiluvchi shakllar tizimi
2.	Kategorial shakl nima?	Kategoriyaga mansub shakl
3.	Nokategorial shakl nima?	Kategoriyaga mansub bo‘lmagan shakl
4.	O‘zgalovchi nega kategoriya deb qaralmagan?	Uning kategorial xususiyatlari aniqlanmagan
5.	Nega substansial tilshunoslik uni alohid kategoriya deb qaramoqda?	O‘zbek tilining ichki qonuniyatlaridan kelib chiqqanligi va umumiylik-xususiylilik dialektikasiga tayanganligi uchun

1 – topshiriq. “Muammoli vaziyat” jadvalini to‘ldiring(2-ilova)

Muammoli vaziyat turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari

2 – topshiriq. “T-sxema” jadvalini to‘ldiring(3-ilova)

O‘zgalovchi qanday kategorial xossalarga ega?	O‘zgalovchi boshqa kategoriyalardan qanday farq qiladi

GLOSSARIY

So'z leksika uchun ham, grammatika uchun ham asosiy va zaruriy birlikdir.

Leksemalarning sintaktik tasnifi. Leksemalarning sintaktik tasnifida, asosan, ularning nutqda boshqa leksemalar bilan bog'lana olish-olmasligi, gap bo'lagi bo'lib kela olish-olmaslik xususiyati o'z aksini topadi.

Fe'l— Harakat holatni nomlash asosida atash mustaqilleksemalari.

Ot – Predmet va predmetlikni nomlash asosida atash mustaqil leksemalari.

Sifat – Belgini nomlash asosida atash mustaqil leksemalari.

Son – Miqdorni nomlash asosida atash mustaqil leksemalari.

Ravish – O'rin-payt, tarz-tusni nomlash asosida atash mustaqil leksemalari.

Taqlid – Tovush yoki ko'rinishga taqlid mustaqil leksemalari

Olmosh – Ishora qiluvchi mustaqil leksemalar

Modal — Munosabatni atash leksemalari.

Undov — His-hayajonni tasvirlash leksemalari.

Tasdiq va inkor so'zlar – Tasdiq-inkor ma'noli leksemalar.

Taklif so'zlar – Taklif ma'noli leksemalar.

Fe'l va uning UGMsi. Fe'llarning umumiy grammatik ma'nosi ish-harakat va holatni jarayon sifatida ifodalashdir.

Fe'ning asosiy LMGlari. LMGda markaz va qurshov leksemalari. Fe'llar anglatgan qator ma'nolariga ko'ra turli mazmuniy guruhlarga bo'linadi. Bunda harakatga xos yaratish, buzish, o'zgartirish, so'zlash, sezish, yo'naltirish, holatga xos ruhiy-psixologik, tafakkur bilan bog'liq fe'llar farqlanadi. Bulardan xarakterlilarini ko'rib o'tamiz.

Harakat fe'llari jonli va jonsiz predmetlarga xos harakatni ifodalaydi. Ular yurish, ta'sir etish, zarb berish kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Qo'l, oyoq, yuz, og'iz, gavda bilan bog'liq harakatlarda harakatlanuvchi obyektlar yaqqol ko'rinish turadi. Oyoq bilan bog'liq harakatni ifodalovchi fe'llar: *yurmoq, kezmok, yo'rg'alamoq, pildiramoq, lapanglamoq, gandraklamoq, do'qong-lamoq, tentiramoq, tepkilamok, tepmoq, toptamoq, deysinmoq, tisarilmoq*; qo'l bilan bog'liq harakatni ifodalovchi fe'llar: *urmoq, solmoq, ushlamoq, silamoq, tirnamoq, shapaloqlamoq, chimchila-moq, uqalamoq, qitiqlamoq, changallamoq, mushtlamoq, chert-moq, hovuchlamoq, chapak chalmoq, paxsa qilmoq*;

YUz, gavda, og'iz, lab, quloq, burun va h.lar bilan bog'liq harakatlar ham mavjud.

Nutq fe'llari insonning gapirish faoliyati bilan bog'liq harakatlarni ifodalaydi. *Gapirmoq, so'zlamoq, aytmoq, demoq, bidirlamoq, to'ng'illamoq, g'o'ldiramoq, vaysamoq, vaqillamoq, javramoq, bobillab berdi, javob bermadi, vag'illab ketdi* kabi.

Nisbat kategoriyasi haqida umumiy tushuncha. Nisbat kategoriyasi harakatning subyekt (bajaruvchi)ga munosabatini ifodalaydi.

Aniq nisbat. Bu nisbatda subyektga munosabat fe'ning lug'aviy ma'nosi orqali ifodalanadi va shakl UGMsi «harakatning ega bilan ifodalangan shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishi yoki bajarilmasligini bildirish»dir.

O'zlik nisbati. O'zlik nisbati asosan *-(i)n*, ba'zan *-(i)l* ko'rsatkichi yordamida o'timli fe'llardan hosil bo'ladi.

Birgalik nisbati. Birgalik nisbat *-(i)sh* affiksi yordamida hosil qilinib, uning UGMsi «harakatni bajarishda bajaruvchining birgalashuvi»dir.

Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi – Bo'lishli-bo'lishsizlik fe'ning asosiy belgilaridan biridir.

Ot va uning UGMsi. *Kim, nima, qae*r so'roqlariga javob bo'lib, mavjudot, narsa, joy, voqea, jarayonni atovchi leksik birliklar ot deyiladi. «Borliq yoki uning parchasini predmet sifatida atash» ot turkumining UGMsidir. Bunda *predmet* tushunchasi mantiqiy emas, balki grammatik mohiyatga ega.

Mantiqan jonsiz va bevosita sezgi a'zolariga ta'sir etuvchi narsalar predmet deyiladi. Gramatikada esa u keng ma'noda tushuniladi, «mav-judlik» mohiyatiga ega deb qaraladi.

Ot so'z turkumi sifatida o'ziga xos morfologik paradigmalariga, so'z yasallish tizimiga, xoslangan sintaktik pozitsiyalariga ega.

Otning UGM parchalanishiga ko'ra turlari. Otlarni ma'no jihatidan turlicha tasnif qilish mumkin. Bu o'rinda otlarning grammatik xususiyatlarini muayyanlashtiruvchi semantik belgilar asosga olinadi

Atoqli va turdosh ot. Atoqli otlar bir xil predmet yoki hodisalarning birini ajratib ko'rsatishga xizmat qiladigan ikkilamchi nomdir.

Sifat va uning UGMsi. Asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiruvchi so'zlar sifat deyiladi: *qizil qalam, oq kabutar, yaxshi gapirmoq.*

Sifat LMGLari. Darslik va qo'llanmalarda sifatning 9 ta LMG ajratiladi:

1.Xususiyat bildiruvchi sifatlar. 2.Holat bildiruvchi sifatlar. 3.Shakl bildiruvchi sifatlar. 4.Rang-tus bildiruvchi sifatlar. 5.Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar. 6.Hid bildiruvchi sifatlar. 7.O'lchov bildiruvchi sifatlar. 8.O'rin bildiruvchi sifatlar. 9.Payt bildiruvchi sifatlar.

Sifatlarning yasallishi. Sifatlar ikki usul bilan yasaladi: *affiksatsiya va kompozitsiya* usuli.

Affiksatsiya usuli. O'zbek tilida sifat yasovchi affiksatsion derivatsion qoliplar anchagina.

Kompozitsiya usuli. Kompozitsiya usuli bilan qo'shma va juft sifatlar hosil bo'ladi.

Sonning grammatik xususiyatlari. Son morfologik va sintaktik xususiyatlarining o'ziga xosligi bilan boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi.

Ravish o'zgaras so'zlar turkumi sifatida. Ravishlar mustaqil ma'noli o'zgaras so'zlardir. Ular belgi, miqdor yoki holatni, o'rin, payt ma'nolarini ifodalaydi va bu jihatidan ot, sifat, sonlarga yaqin turadi.

Taqlid va uning UGMsi. Taqlidlar o'zbek tilida katta bir guruhni tashkil etadi va mustaqil so'zlar sirasidan o'rin olgan. Buning bir nechta ilmiy asoslari bor.

Olmosh mustaqil so'z turkumi sifatida.

“Ishoraviylik” ramzi bilan ataluvchi olmoshlar boshqa leksemalardan ajralib turadi. O'zbek tilshunosligida olmoshlarning doirasi va vazifasi zo'rma-zo'rakilik bilan ancha chegaralanib “ot, sifat, son o'rnida qo'llanuvchi so'zlar” deb o'ta tor tushunilgan.

Kesimlik kategoriyasi. Ma'lumki, kesim gap bo'lagi sifatida dunyodagi barcha tillarning sintaktik sistemasida alohida o'rin tutadi.

Egalik kategoriyasi. Bu kategoriyaning ko'rsatkichlari quyidagilar: *-(i)m, -(i)miz, -(i)ng, -(ing)iz, -(i)si.* Egalik affiksi tarkibida beriluvchi *-lar* shaxs haqida emas, balki egalik qilinayotgan narsa/predmet haqida ma'lumot tashigani uchun, shu narsaning ko'pligiga ishora qilganligi tufayli uni bu kategoriya bilan bog'lab bo'lmaydi.

Kelishik kategoriyasi. Kelishik kategoriyasi (qisq. KK) morfologik kategoriyalar sirasida ustuvor sintaktik tabiati bilan ajralib turadi. U EK bilan birgalikda sintaktik shakllarning so'z birikmasiga xos guruhini tashkil etib, gapga xos kesimlik kategoriyasidan farqlanadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TAJRUB VA QIZILIGI



Ro'yatga olindi
N 5111200 3-14
2017 "18" 08

2017 "24" 08

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi: 5111200 – O'zbek tili va adabiyoti

Toshkent – 2017

Fonema, uning differensial va integral belgilari. Fonologik zidlanishlar, ularning turlari: bir o'lovli, ko'p o'lovli, proporsional, ekvipolent, privativ va gradual (pog'onali) oppozitsiyalar.

Korrelyatsiya bir farqlanish belgisi asosida tarkib topgan ikki va undan ortiq zidlanishlar qatori sifatida. Vokalizm va konsonantizm tizimlarida korrelyatsiya turlari.

Fonema ottenkalari fonemalarning talaffuzdagi real ko'rinishlari ekanligi. Fonema ottenkalari tasnifi: majburiy ottenkalar (kombinator, pozitsion ottenkalar), individual ottenkalar va fakultativ ottenkalar. Ottenka, variant va variatsiya tushunchalari.

Fonema haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlari darsliklarida berilishi.

Hozirgi o'zbek tili vokalizmi va konsonantizmi. Unli va undosh fonemalar tasnifi va tavsifi. Ayrim unli va undosh fonemalar tavsifi. Unli fonemalarning kombinator va pozitsion ottenkalari (allofonlari).

Unli fonemalar tasnifining ta'lim bosqichlari darsliklarida berilishi.

Hozirgi o'zbek tili konsonantizmi. Undosh fonemalar tasnifi: undoshlarning artikulyatsiya o'rni, artikulyatsiya usuli, un paychalari ishtiroki, ovoz va shovqin munosabatiga ko'ra turlari. Undosh fonemalar tavsifi.

Undosh fonemalar tasnifining ta'lim bosqichlari darsliklarida berilishi.

Fonetik o'zgarishlar. Kombinator omillar ta'sirida sodir bo'ladigan o'zgarishlar: assimilyatsiya, akkomodatsiya, ularning turlari. Nazalizatsiya. Pozitsion omillar ta'sirida sodir bo'ladigan o'zgarishlar: reduksiya, ochiq bo'g'indagi unli sifati o'zgarishi, ayrim jarangli undoshlarning so'z oxirida jarangsizlanishi. Turkiy so'zlarning an'anaviy fonetik tuzilishga moslashishi: proteza, epenteza, epiteza.

Fonetik o'zgarishlarning boshqa turlari: tovush tushishi (prokopa, sinkopa, apokopa, eliziya, aferezis, gaplogiya), tovushlarning o'rin almashuvi (metateza), dissimilyatsiya, geminatsiya, degenimatsiya, sinerezis, spirantizatsiya va boshqalar.

Fonetik o'zgarishlarning ta'lim bosqichlari darsliklarida berilishi.

Bo'g'in (sillabema). O'zbek tilida bo'g'in tuzilishi. Bo'g'in tiplari: berkitilgan bo'g'in, berkitilmagan bo'g'in, ochiq bo'g'in, yopiq bo'g'in. Bo'g'inning til va nutqdagi ahamiyati.

Urg'u (akcentuatsiya). Urg'u tiplari. So'z urg'usi, uning fonetik tabiati, tushadigan o'rni va harakat qilish belgisiga ko'ra turlari (dinamik urg'u, erkin urg'u, ko'chadigan urg'u, ko'chmaydigan urg'u). Sintagma urg'usi, ayruv urg'usi (logik urg'u va emfatik urg'u). Urg'uning til va nutqdagi roli.

Intonatsiya (intonema), uning prosodik elementlari: nutq melodikasi, nutq ritmi, temp, nutq intensivligi, nutq tembr, pauza.

Intonatsiya turlari: tugallangan intonatsiya, tugallanmagan intonatsiya, darak intonatsiyasi, so'z intonatsiyasi, undov intonatsiyasi, chaqiruv (undash) intonatsiyasi, samash intonatsiyasi va boshqalar. Intonatsiyaning gap va nutqdagi roli.

Bo'g'in, urg'u, intonatsiyaning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarida nazariy bilim, amaliy ko'nikmalarni hosil qilish, nutqda tildan birliklardan o'rinni va maqsadli foydalanish malakasini shakllantirish hamda ularning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

– hozirgi o'zbek tilining shakllanishi, tarixiy ildizlari, dialektal asosi, adabiy til taraqqiyotini belgilovchi lingvistik va ekstralingvistik omillar haqida *tasavvurga ega bo'lishi*;

– tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik, grammatik sath birliklarining xususiyatlarini, bu sohadagi dolzarb muammolarni *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

– hozirgi o'zbek adabiy tilining sistem-struktur, funksional xususiyatlarini tahlil qila olish, ularning ta'lim bosqichlari darsliklarida qamrab olinishi darajasiga baho bera olish kabi *ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak*.

III. Asosiy qism

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

1-modul. Kirish. Hozirgi o'zbek tilining shakllanishi, dialektal asosi, taraqqiyot omillari. Adabiy til tushunchasi

“Hozirgi o'zbek adabiy tili” fanining o'rganish obekti, maqsadi, vazifalari. Fan tarkibida o'rganiluvchi bo'limlar: 1. “Fonetika va fonologiya”. 2. “Grafika va ortografiya”. 3. “Orfoepiya”. 4. “Leksikologiya va frazeologiya”. 5. “Morfemika”. 6. “So'z yasalishi”. 7. “Morfologiya”. 8. “Sintaksis”.

Hozirgi o'zbek tilining shakllanishi, dialektal asosi, taraqqiyot omillari. Hozirgi o'zbek tili taraqqiyotini belgilovchi lingvistik va ekstralingvistik omillar. “Davlat tili to'g'risida”gi Qonunning hozirgi o'zbek tili mavqeyini mustahkamlashdagi roli.

Adabiy til tushunchasi. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari, moddiy-material asosi, til kommunikatsiyasidagi roli. Adabiy til va sheva munosabati. Adabiy til va nutq usullari aloqasi.

2-modul. “Fonetika va fonologiya”

Fonetikaning tadqiqot maqsadi va usuliga ko'ra turlari: umumiy fonetika, xususiy fonetika (tavsifiy fonetika, tarixiy fonetika), qiyosiy fonetika eksperimental (instrumental) fonetika. Fonetika aspektlari: 1. Fizik-akustik aspekt. 2. Anatomik-fiziologik aspekt. 3. Perseptiv aspekt. 4. Lingvistik-funksional aspekt.

Fonema, uning differensial va integral belgilari. Fonologik zidlanishlar, ularning turlari: bir o'lovli, ko'p o'lovli, proporsional, ekvipolent, privativ va gradual (pog'onali) oppozitsiyalar.

3-modul. Grafika va orfografiya

Grafika haqida ma'lumot. Grafikaning muayyan til birliklari (fonema, aksientema, intonema, leksema, morfemalarni yozuvda ifodalash uchun maxsus shakllantirilgan optik-grafik belgilar tizimi) ekanligi. Grafemaning bilateral (ifoda va mazmun jihatiga ega) belgi sifatidagi tavsifi. Bu belgining mazmun planida til birliklarining kodlashirilishi.

Grafema va fonema o'rtasidagi umumiy va xususiy jihatlar. Grafemalarning tildagi muqobili (kodlashirilgan referenti) va yozuvdagi vazifalariga ko'ra tiplari: fonografema, prosodemografema, logografema, orfografik belgi va signalizatorlar.

Fonografemalar, ularning ifoda plani (harflar miqdori)ga ko'ra turlari: monografilar va poligrafilar. Mazmun plani (kodlashirilgan fonema miqdori)ga ko'ra fonografemalarning turlari: monofonemali va polifonemali (bifonemali) grafemalar.

Prosodemografemalar, ularning tilning ritmik-intonatsion vositalari (urg'u, ohang, melodika, pauzalar)ni yozuvda ifodalash uchun xizmat qiluvchi noharfiy belgilar ekanligi. Prosodemografemalarning turlari (urg'u belgisi, tinish belgilari).

Logografemalar va morfografemalar tilning ma'noli birliklarini (leksema va morfemalarni) ifodalash uchun xizmat qiluvchi optik-grafik belgilar sifatida: raqamlar (arab va rim raqamlari), simvollar.

Orfografik belgi (defits) va **signalizatorlar** (avirish belgisi, yumshatish belgisi, tutuq belgisi, razryadka, kursiv va boshqalar). Amaldagi o'zbek yozuvining grafik tizimi, uning harfiy va noharfiy belgilari.

Orfografiya tilshunoslikning to'g'ri yozish me'yorlarini belgilaydigan sohasi sifatida. Orfografiya va grafika. Grafemalarning kodlashirishga, orfogrammalarning tanlashga asoslanganligi.

Orfografiya tamoyillari: fonetik, fonematik, morfologik, grafik, tarixiy-an'anaviy, ramziy (simvolik, differensial), shakliy-an'anaviy va semantik-ustubiy tamoyillar.

Imlo qoidalar. Amaldagi imlo qoidalar. O'zbek yozuvining shakllanishi haqida tarixiy-xronologik ma'lumot.

Imlo qoidalarining ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

4-modul. Orfoepiya

Orfoepiya haqida ma'lumot. Unli tovushlar orfoepiyasi. Undosh tovushlar orfoepiyasi. O'z qatlama oid so'zlar orfoepiyasi. Boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim so'zlar orfoepiyasi.

Orfoepik me'yorning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

5-modul. Leksikologiya

Leksikologiyaning o'rganish obyekti, predmeti va vazifalari. Leksikologiyaning turlari: umumiy va xususiy leksikologiya. Diaxron va sinxron leksikologiya. Leksikologiyaning semasiologiya, onomasiologiya, etimologiya, frazeologiya, so'z yasalishi sohalari bilan aloqasi.

O'zbek tilining leksik tizimi, uning taraqqiyotida lisoniy va nolisoniy omillar.

Leksema til birligi sifatida. Leksemaning ifoda va mazmun jihatini. Leksik va grammatik ma'nolarni munosabati.

Leksemaning semantik tarkibi. Leksik ma'no va sema tushunchalari. Komponent tahlil haqida ma'lumot.

Komnotativ sema. Emotsional-ekspressiv bo'yodkorlik, ustubiy ma'no. Ideografik sema. Umumiy (integral, musharak), differentsial (farqlovchi) semalar. Tildagi leksik birliklarni tematik, leksik-semantik guruhlarga ajratishda integral semaning ahamiyati.

Leksemaning uzual hamda okkazonal ma'nolari haqida ma'lumot. Okkazonal ma'nolarning yuzaga kelishi.

Bir ma'nolilik (monosemiya) va ko'p ma'nolilik (polisemiya). *Bir ma'nolilik* va *ko'p ma'nolilik* tushunchalari. Ko'p ma'nolilikni yuzaga keltiruvchi omillar: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik usullari.

Leksik ma'no taraqqiyoti. Leksik ma'no taraqqiyotiga turki beruvchi lisoniy va nolisoniy omillar. Leksema lug'aviy ma'nosining hajmiy va miqdoriy o'zgarishi. Leksik ma'no hajmining kengayishi va torayishi. Leksik ma'noning miqdoriy o'zgarishiga sabab bo'luvchi omillar.

Sinonimiya. Sinonimiyaning ko'rinishlari. Leksik sinonimlar, sinonimik qator, dominantana. Leksik sinonimlarning turlari: 1) ideografik sinonimlar; 2) ustubiy sinonimlar; 3) nutqiy sinonimlar; 4) kontekstual sinonimlar; 5) absolyut sinonimlar (leksik dubletlar).

Leksik sinonimlarning paydo bo'lishi. Sinonimiya va polisemiya munosabati. Sinonimlarning ustubiy ahamiyati.

Antonimiya. Lug'aviy antonimiya. Leksik antonimiya va antonimik juftlik. Kontekstual antonimiya. Antonimiya va enantosemiya, antonimiya va polisemiya munosabati. Antonimlarning ustubiy ahamiyati.

Omonimiya. Omonimiyaning ko'rinishlari. Leksik omonimlar. Omonimlarning ahamiyati. Omonimiyaga yondosh hodisalar: 1) omofonlar; 2) omograflar.

O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti. O'zbek tili leksikasida o'z va o'zlashgan qatlamlar. O'z va o'zlashgan qatlarning o'ziga xos xususiyatlari. Tojikcha o'zlashmalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Arabcha o'zlashmalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Ruscha o'zlashmalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

Leksema o'zlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablari. Leksema o'zlashtirish yo'llari: 1) jonli so'zlashuv orqali; 2) bosma manbalar orqali.

Leksema o'zlashtirish usullari: 1) o'zicha olish; 2) kalkalab olish. Kalkaning ko'rinishlari: 1) grammatik kalka (to'liq kalka, yarim kalka); 2) semantik kalka. So'z o'zlashtirishning so'z qo'llashdan farqi.

Leksemalarning ishlatishtirish doirasi: dialektizm, kasb-hunar leksikasi, jargonlar, argonlar, vulgar birliklar. O'zbek tili lug'at tarkibidagi eskirgan va yangi kirib kelgan leksik birliklar. Eski qatlam: istorizm va arxaizm. Yangi qatlam: neologizmlar.

Emotsional-ekspressivlik jihatdan o'zbek tili leksikasi. Nutq ko'rinishlariga ko'ra o'zbek tili lug'aviy birliklari. Nutq ko'rinishlariga ko'ra farqlanuvchi leksikaning ta'lim bosqichlari darsliklarida berilishi.

O'zbek tili leksik birliklarining ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

6-modul. Frazeologiya

Frazeologiyaning o'rganish obyekti. Frazeologik birlik. Frazeologik birliklarning ko'chma ma'noga asoslanishi. Frazeologik birliklarning ifoda va mazmun plani.

Frazeologik monosemiya va polisemiya. Frazeologik birliklarning semantik turlari: frazeologik butunlik va frazeologik chatishmalar.

Frazemalarning shakli va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari. Frazeologik omonimiya, sinonimiya, variatsiya, antonimiya, ularning uslubiy tavsifi. Frazeologik birliklarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

7-modul. Morfemika. So'zning morfem tarkibi

Morfemikaming "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kursining alohida bo'limi ekanligi. Morfema – so'zning eng kichik ma'noli qismi.

So'zning morfem tarkibi, so'zda morfemalar chegarasini aniqlash. So'zning o'zak (asos) va affiks morfe­malardan tarkib topishi. O'zak morfema so'zning leksik ma'nosini bildiradigan asosiy qismi, affiks morfe­maning grammatik ma'no ifodalovchi morfema ekanligi. Affiks morfe­malarda omonimiya, sinonimiya, antonimiya hodisasi.

Morfema haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

So'zning morfem tarkibidagi o'zgarishlar. So'zning morfem tarkibidagi o'zgarishlarga sabab bo'luvchi omillar. Affikslar qo'shish bilan sodir bo'ladigan o'zgarishlar.

Soddalanish hodisasi haqida ma'lumot. Morfologik qayta bo'linish hodisasi. Qo'sh qo'llanish hodisasi (pleonazm).

So'zning morfem tarkibidagi o'zgarishlarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

8-modul. So'z yasalishi

So'z yasalishi tilshunoslikning mustaqil bo'limi sifatida. Hozirgi (sinxron) va tarixiy (diaxron) so'z yasalishi. So'z yasash modellari: umumiy va unumsiz modellar.

So'z yasalish strukturasi. So'z yasalish strukturasi morfem strukturadan hamda morfologik strukturadan farqi. Yasovchi asos va yasovchi affiks, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Yasama leksemaning tuzilishiga ko'ra turlari.

So'z yasalish strukturasi haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

So'z yasash usullari. Fonetik usul, affiksatsiya usuli, leksik-semantik usul, kompozitsiya usuli. So'z yasash usullarining ta'lim bosqichlari darsliklarida berilishi.

So'z turkumlarida so'z yasalishi. Ot, sifat, fe'l, ravish so'z turkumlarida so'z yasalishi. Ravish yasalishi haqidagi nazariy qarashlar.

So'z turkumlarining ko'chishi. So'z turkumlarida transpozitsiya va konversiya hodisasi. Konversiya va uning ko'rinishlari. Mustaqil so'z turkumlari va yordamchi so'z turkumlarida ko'chish hodisasi.

9-modul. Grammatika. Grammatik ma'no, grammatik shakl va grammatik kategoriya

Grammatikaning o'rganish obyekti, tarkibiy qismlari. Grammatikaning tilning grammatik qurilishiga xos qonun-qoidalarni o'rganuvchi soha ekanligi. Grammatik ma'no, grammatik shakl, grammatik kategoriya haqida ma'lumot.

Grammatik ma'no, uning turlari: 1) umumiy kategorial ma'no; 2) so'zning leksik ma'nosiga qo'shimcha tarzidagi maxsus shakllar orqali ifodalanadigan ma'no. Grammatik ma'no va grammatik shakl munosabati. So'zning grammatik ma'nosi haqidagi nazariy qarashlarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

Grammatik kategoriyalar, ularning turlari. Kategoriya hosil qiluvchi shakllar, nokategorial shakllar. Grammatik kategoriya turlarining ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

10-modul. Morfologiya. Mustaqil so'z turkumlari

Morfologiyaning so'zshakli haqidagi grammatik ta'limot ekanligi. So'zning morfologik strukturasi.

So'z turkumlari. So'zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari.

Fe'l so'z turkumi. Fe'llarning so'z turkumi tizimidagi mavqeyi, gapni shakllantirishdagi o'rni. Fe'llarning umumiy grammatik belgisi. Mustaqil va yordamchi fe'llar. Tuslanishi va tuslanishsiz fe'llar.

Fe'lning grammatik kategoriyalari: bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat, mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalari. Fe'llarda o'timli-o'timsizlik.

Fe'lning vazifadosh va modal shakllari. Fe'llarda harakat tarzi shakllari. Fe'llarning otlashuvi. Fe'l so'z turkumi haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

So'zning grammatik shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar.

(pronominallizatsiya). Olmosh so'z turkumi haqidagi nazariy qarashlarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

Ravish so'z turkumi. Ravishlarning umumiy grammatik belgisi. Ravishlarning o'zgaruvchanligi xususiyati. Ravishlarning ma'no va tuzilishiga ko'ra turlari. Ravishlarda daraja kategoriyasi. Ravish so'z turkumi haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

11-modul. Yordamchi so'zlar turkumi

Yordamchi so'zlar. Yordamchi so'zlarning umumiy grammatik belgilari. Yordamchi so'zlarning turlari.

Ko'makchilar haqida ma'lumot. Ko'makchilarning grammatik ma'nosi, vazifasi va turlari. Sof ko'makchilar va vazifadosh ko'makchilar.

Bog'lovchilar haqida ma'lumot. Bog'lovchilarning grammatik ma'nosi, vazifasi va turlari. Teng bog'lovchilar va ergashiruvchi bog'lovchilar.

Yuklama haqida ma'lumot. Yuklamalarning grammatik ma'nosi, vazifasi va turlari. Yordamchi so'zlar haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

12-modul. Alohida so'zlar turkumi

Modal so'zlar. Modal so'zlarning umumiy grammatik belgisi. *Modal so'z* va *kirish so'z* tushunchalari. Modal so'zlarning ma'no turlari. Modal so'zlar haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

Undov so'zlar. Undov so'zlarning umumiy grammatik belgisi. Undov so'zlarning turlari: his-hayajon undovlari, buyruq-xitob undovlari. Undov so'zlar haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

Taqiid so'zlar. Taqiid so'zlarning umumiy grammatik belgisi. Taqiid so'zlarning turlari: tovushga taqiid so'zlar, holatga taqiid so'zlar. Taqiid so'zlar haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

13-modul. Sintaksis. Sintaktik aloqa vositalari va turlari

Sintaksisning o'rganish obyekt. Sintaksisning so'z shakllari va gaplarning o'zaro aloqasi, asosiy sintaktik birliklar: so'z birlikmasi va gap haqidagi ta'limot ekanligi. Sintaktik sathning leksik, morfologik sathlar bilan hamkorligi. Sintaksisning semantika va pragmatika bilan aloqasi. Sintaktik birliklarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

Sintaktik aloqa vositalari: formal vositalar, leksik-grammatik vositalar, pozitsion va intonatsion vosita.

Sintaktik aloqa turlari: tenglanish va tobelanish. Ochiq va yopiq tenglanish. Tobe aloqa. Koordinativ va subordinativ aloqa. Tobe aloqa usullari: moslashuv, boshqaruv va bitishuv. Teng va tobe aloqa, ularni hosil qiluvchi vositalarning ta'lim bosqichlarida darsliklarda berilishi.

Shakliy va mazmuniy sintagmatik munosabat. Mazmuniy sintagmatik munosabat: predikativ munosabat va nopredikativ munosabat. Atributiv, obyektiv va relyativ munosabat. Kopulyativ munosabat. Introduktiv munosabat: vokativ munosabat, modal munosabat. Predikativ munosabatning ifoda shakllari. Birlamchi va ikkilamchi predikativlik. Shakliy sintagmatik munosabatning ifodalaniishi.

14-modul. So'z birlikmasi

So'z birlikmasining semantik-sintaktik strukturasi. So'z birlikmasining so'z valentligiga taylanishi. So'z birlikmasining struktur jihatdan unga o'xshash birliklardan farqi.

So'z birlikmasi va sintagma munosabati. So'z birlikmasi va sintagmaning bir-biriga o'xshash tomonlari va farqi. Sintagmalanish natijasi grammatik, mazmun jihatidan bog'langan hodisa ekanligi.

So'z birlikmasining morfologik tabiatiga ko'ra turlari. So'z birlikmasining o'tli birlikma, fe'li birlikma va ravishli birlikma ko'rinishida kelishi.

So'z birlikmasining tuzilishiga ko'ra turlari: sodd birlikma va murakkab birlikma. So'z birlikmasi haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

15-modul. Gap qurilishi haqidagi sintaktik nazariyalar. Sodd gap

Gap haqidagi ta'limot. *Gapning grammatik markazi* tushunchasi. Gapda predikativlikning ifodalaniishi. Predikativlikning modallik, zamon, shaxs-son, tasdiq-inkor kategoriyalari bilan bog'liqligi.

Gapning grammatik kategoriyalari: grammatik shaxs kategoriyasi, grammatik zamon kategoriyasi, gapning ifoda maqsadi kategoriyasi, modallik kategoriyasi. Modallikning munosabat ifodalovchi grammatik kategoriya ekanligi. Gap zamon va fe'li zamon o'rtasidagi farq. Gapda shaxs-son va tasdiq-inkor ma'nolarining ifodalaniishi.

Gapning intonatsion xususiyatlari. Intonatsiyaning so'z, so'z birlikmasi va gapni farqlovchi fonetik vosita ekanligi.

Gap qurilishi haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

16-modul. Gaplar tasnifi

Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari: darak gap, so'roq gap, buyruq va istak gaplar. Darak, so'roq, buyruq, istak gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi, intonatsion xususiyatlari.

Gaplarning tuzilish jihatdan turlari: sodd va qo'shma gaplar. Sodd va qo'shma gapning umumiy va xususiy jihatlari, ichki turlari. Sodd gaplarning yig'iq va yoyiq turlari.

Gaplarning emotsionallikka ko'ra turlari. Undov gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi, intonatsion xususiyatlari.

Gaplarning tasdiq va inkor ifodalashiga ko'ra turlari. Tasdiq gaplarning semantik-sintaktik strukturasi. Inkor gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi. Inkor ifodalovchi vositalar.

Eganing ishtirokiga ko'ra gap turlari. Egali va egasiz gaplar. Egasiz gaplarning turlari. Egali va egasiz gaplar haqidagi sintaktik nazariyalarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

17-modul. Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar

Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar, ularning turlari. Atov gaplar. So'z-gap. Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar haqidagi sintaktik nazariyalarning ta'lim

ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

bosqichlarida o'rganilishi.

18-modul. Gap bo'laklari. Bosh bo'laklar

Gap bo'laklari haqidagi sintaktik nazariyalar. Gap bo'laklarining leksik-grammatik xususiyatlari. Logik bo'laklar va grammatik bo'laklar. Sintaktik aloqaga kirishadigan va sintaktik aloqaga kirishmaydigan bo'laklar.

Gap bo'laklarining tasnifi. An'anaviy tasnif: bosh va ikkinchi darajali bo'laklar. Gap bo'laklari talqimga turlicha yondashuv.

Kesim. Kesimning gap markazi ekanligi. Mustaqil va nomustaqil kesim turlari. Kesimning morfologik shakllanishiga ko'ra turlari: ot-kesim, fel-kesim. Kesimning tuzilishiga ko'ra turlari: sodda kesim, murakkab kesim. Kesimlik bog'lamas, uning fe'l bo'lmagan so'zlar bilan birga kelib, kesimni shakllantirish, predikativlikni ko'rsatish, modalik, zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ifodalash uchun qo'llanishi. Kesimning ega bilan moslashuvi. Gap markazi haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

Ega. Eganing gapda fikr qaratilgan predmet, shaxs kabilarini anglatishi. Ega va mantiqiy subyekt munosabati. Eganing ifodalanishi. Eganing qo'llanmaslik holatlari. Eganing kesim bilan shaxs va sonda mos bo'lishi. Eganing birkmali (yoyliq) kelishi.

19-modul. Ikkinchi darajali bo'laklar

Ikkinchi darajali bo'laklarning gapdagi mavqeyiga ko'ra tasnifi: aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol.

Aniqlovchi predmetning sifati, xususiyati miqdori yoki qarashligi kabi turlu belgilarini anglatuvchi ikkinchi darajali bo'lak yekanaligi. Aniqlovchining gap qurilishida konstruktiv bo'lak bo'la olmasligi.

Aniqlovchining ifodalanishi, turlari: sifatlovchi-anqiqlovchi, qaratqich anqiqlovchi, izohlovchi. Sifatlovchili birikma qismlarining bitishuv yo'li bilan birikib atributiv munosabatni ko'rsatishi. Qaratqichli birikma qismlarining moslashuv yo'li bilan birikib, atributiv munosabatni ko'rsatishi. Izohlovchi predmetni boshqacha nom bilan atash uchun qo'llanadigan anqiqlovchining alohida turi ekanligi. Izohlovchining turlari, ma'nosi. Anqiqlovchining ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

To'ldiruvchi predmetning obyekt valentligini ifodalaydigan ikkinchi darajali bo'lak ekanligi. To'ldiruvchining hokim bo'lakka kelishik yordamida va ko'makchi bilan bog'lanishi. Mustaqil va nomustaqil to'ldiruvchilar. To'ldiruvchining turlu so'z turkumlari bilan ifodalanishi. To'ldiruvchining vositasiz, vositali turlari. Funktsional va nofunktsional to'ldiruvchilar. To'ldiruvchining ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

Holning kesimga tobe bo'lgan, harakatning bajarilishidagi turli holatlarni bildiradigan ikkinchi darajali bo'lak ekanligi. Holning turli so'z turkumlari bilan ifodalanishi. Holning ma'no turlari: ravish holi, o'rin holi, payt holi, sabab holi, maqsad holi, miqdor-daraja holi. Determinant bo'laklar, ularning gap tarkibidagi qo'llanish xususiyati. Funktsional va nofunktsional hollar. Holning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

Gap bo'laklarining tartibi. Gap bo'laklari tartibi va aktual bo'laklanish. Erkin tartib. Inversiya, uning turli ko'rinishlari. Inversiya haqidagi ta'limotning

20-modul. Uyushiq bo'laklar

Uyushiq bo'laklar haqidagi sintaktik ta'limot. Gapda turli gap bo'laklarining uyushib kelishi. Uyushiq bo'laklarda egalik, kelishik va son ko'rsatkichlarining qo'llanishidagi o'ziga xosliklar. Uyushiq bo'laklarda umumiashtiruvchi birliklar. Uyushiq bo'laklarni birlashtiruvchi yordamchilar. Uyushiq bo'laklarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

21-modul. Ajratilgan bo'laklar

Gapning ajratilgan bo'laklari haqidagi nazariy qarashlar. Ajratilgan bo'lakli gaplarning shakli va mazmuni xususiyatlari. Ikkinchi darajali bo'laklarning ajratilib qo'llanishi. Ajratilgan bo'laklarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

22-modul. To'liq va to'liqsiz gaplar

To'liq va to'liqsiz gaplar haqidagi sintaktik nazariyalar. Sodda gap va uning bo'laklarida sintaktik nomoslik. Shakli va mazmuni nomoslik. To'liqsiz gaplarning qo'llanishida o'ziga xos mazmun va grammatik xususiyatlar. To'liqsiz gaplarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

23-modul. Murakkablashgan sodda gaplar

Murakkablashgan sodda gaplar: shakli va mazmuni murakkablashish. Sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalar: uyushiq bo'laklar, ajratilgan bo'laklar, undalmalar, kirish qurilmalar, yordamchi so'zlar, o'ram (oborotlar), presuppozitsiya. **Undalmalar haqidagi sintaktik nazariyalar.** Undalmalarning sintaktik mohiyati. Undalma vazifasida keladigan so'zlar. Undalmalarning tuzilishiga ko'ra turlari. Undalmalarda umumiashtiruvchi so'zlarning qo'llanishi. Undalmalar haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlari darsliklarida berilishi.

Kirish qurilmalar (kirish so'z, kirish birikma, kiritma gaplar). Kirish qurilmalar: vazifasi, sintaktik tuzilishi, semantikasi. Kirish qurilmalarning ta'lim bosqichlari darsliklarida berilishi.

24-modul. Qo'shma gap haqidagi sintaktik nazariyalar

Qo'shma gaplarning tadqiqi masalasi. Qo'shma gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi haqidagi qarashlar. Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar.

Qo'shma gapning tuzilishiga ko'ra an'anaviy tasnifi: ikki komponentli qo'shma gaplar, ko'p komponentli (murakkab) qo'shma gaplar. Ikki komponentli qo'shma gaplarning an'anaviy tasnifi: bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap. Qo'shma gap haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

25-modul. Bog'langan qo'shma gaplar

Bog'langan qo'shma gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi. Bog'langan qo'shma gap komponentlarining teng bog'lovchilar, shu bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar, *bo'lsa, esa* yordamchilari orqali birikishi. Bog'langan qo'shma

gaplarning turlari. Bog'langan qo'shma gaplarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

26-modul. Ergashgan qo'shma gaplar. Ergashgan qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar

Ergashgan qo'shma gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi. Bosh va ergash gaplarning shakllanishi, funksional-semantik xususiyati, intonatsiyasi. Ergash gapni bosh gapga birlashtiruvchi vositalar: ergashiruvchi bog'lovchilar, havola bo'laklar, ko'makchili qurilmalar, yuklamalar, fe'l shakllari. Ergash gaplar tasnifida semantik va sintaktik omillarning asosga olinishi. Ergashgan qo'shma gaplarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

27-modul. Havola bo'lakli qo'shma gaplar

Havola bo'lakli qo'shma gaplarning turlari. Bir havola bo'lakli va ikki bo'lakli qo'shma gaplarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

28-modul. Ergashgan qo'shma gaplarning turlari

Ergashgan qo'shma gaplarning an'anaviy tasnifi: ega ergash gapli qo'shma gap, kesim ergash gapli qo'shma gap, to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap, aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap, hol ergash gapli qo'shma gaplar va ularning semantik-sintaktik tuzilishi.

Hol ergash gapli qo'shma gaplarning ichki turlari: payt ergash gapli qo'shma gap, ravish ergash gapli qo'shma gap, o'rin ergash gapli qo'shma gap, shart ergash gapli qo'shma gap qo'shma gap, sabab ergash gapli qo'shma gap, natija ergash gapli qo'shma gap, to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap, o'lhov-daraja ergash gapli qo'shma gap, chog'ishirish-o'xshatish ergash gapli qo'shma gap.

Shartlanganlik munosabatli qo'shma gaplar. Ergashgan qo'shma gap turlarining ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

29-modul. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi. Tarkibiy qismlari munosabatiga ko'ra bog'lovchisiz qo'shma gaplarning turlari: bog'langan qo'shma gapga sinonim tur, ergashgan qo'shma gapga sinonim tur. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar punktuatsiyasi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

30-modul. Murakkab qo'shma gaplar

Murakkab qo'shma gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi. Murakkab qo'shma gaplarning uch va undan ortiq qismdan tashkil topishi. Murakkab qo'shma gaplarning komponentlari orasidagi munosabatga ko'ra turlari: tenglanish orqali tuzilgan murakkab qo'shma gaplar, ergashish orqali tuzilgan murakkab qo'shma gaplar (bir necha ergash gapli, bir necha bosh gapli qo'shma gaplar), Tenglanish va ergashish orqali tuzilgan murakkab qo'shma gaplar (aralash qo'shma gaplar).

Tenglanish orqali tuzilgan murakkab qo'shma gaplarda birlashtiruvchi vositalar: teng bog'lovchilar, yuklamalar va tenglanish intonatsiyasining mavjudligi.

Tenglanish va ergashish orqali tuzilgan murakkab qo'shma gap komponentlarini birlashtiruvchi vositalar. Ko'p komponentli qo'shma gap qismlarining uyushishi. Murakkab qo'shma gaplarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

31-modul. O'zga gapli qurilmalar

O'zga gapning turlari: ko'chirma gap, o'zlashtirma gap. Ko'chirma gaplarning tuzilishi: muallif gapi va ko'chirma gap. Ko'chirma gapning so'z, gap yoki bir necha gaplardan tashkil topishi. Muallif gapi tarkibida kesim vazifasida keluvchi nutq fe'llari. Ko'chirma va muallif gaplarning turli tartibda kelishi.

O'zlashtirma gap. O'zlashtirma gap bilan ko'chirma gapning farqi va o'xshash tomonlari. Ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirishda yuz beradigan o'zgarishlar. O'zga gapli qurilmalarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Ma'ruza mashg'ulotlarda o'rganilgan mavzular amaliy mashg'ulotlarda mustahkamlanadi. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar o'zbek adabiy tili haqidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Amaliy mashg'ulotlar rejası va adabiyotlar ro'yxati talabalarga taqdim qilinadi. Rejada ko'rsatilgan masalalarni darslik, o'quv qo'llamga hamda ilmiy adabiyotlarga tayyanib o'rganish tavsiya qilinadi. Talabalar hozirgi o'zbek adabiy tilining ma'lum bo'limlari bo'yicha lingvistik tahlillar o'tkazishadi. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

I qism. Fonetika va fonologiya, grafika va orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, frazeologiya

1. Hozirgi o'zbek adabiy tilining dialektal asosi haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
2. Fonetika aspektlari haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
3. Fonema ottenkalari, ularning turlarini belgilash.
4. Fonemalarning integral va differensial belgilarining ta'lim bosqichlarida o'rganilishi masalasi.
5. Fonologik ziddiyat va uning turlariga doir nazariy qarashlarni umumlashtirish.
6. Hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmi. Unli fonemalarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.
7. Hozirgi o'zbek adabiy tili konsonantizmi. Undosh fonemalarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.
8. Undoshlar tuzimidagi divergensiya va konvergentsiya hodisasi tahlili.
9. Fonetik o'zgarishlarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi masalasi.

10. Grafika. Grafemalarning ifoda va mazmun jihatlariga ko'ra turlarini aniqlash.
11. Amaldagi yozuv grafik tizimidagi grafemalarni tavsiflash.
12. Orfoepiya. Unililar orfoepiyasi muammosining ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.
13. Undoshlar orfoepiyasi. Boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar orfoepiyasi ustida ishlash.
14. Leksikologiya. Leksik birliklar mohiyati haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
15. Leksik birliklarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.
16. Leksemaning semantik tarkibi. Leksemaning uzual va okkazonal ma'nolarini belgilash.
17. Leksik monosemiya, polisemiya va sinonimiyaning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.
18. Leksik antonimiya, omonimiya va paronimiyaga doir nazariy qarashlar tahlili.
19. Giponimiya, gradonimiya, partonimiyaga doir nazariy qarashlar tahlili.
20. O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti. So'z o'zlashtirish qonuniyatlarini belgilash.
21. O'zbek tili leksikasidagi eskirgan va yangi qatlamning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.
22. O'zbek tili leksikasining emotsional-ekspressiv, ustulbiy xoslanish xususiyatlarini haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
23. Frazologik monosemiya va polisemiyaning belgilash.
24. Frazemalarning shakli va ma'no munosabatlariga ko'ra turlarining ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.
25. Frazemalarning ishlatilish doirasi, o'z va o'zlashgan qatlam frazemalarini belgilash.

II qism. Morfemika. So'z yasalishi. Morfologiya.

1. Morfemika. So'zning morfem tarkibi haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
2. O'zak va affiksial morfema haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
3. So'zning morfem tarkibidagi o'zgarishlarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.
4. So'z yasash tarkibiga doir nazariy qarashlar tahlili.
5. So'z yasash usullari haqidagi ta'limning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.
6. Fe'l yasalishi muammosi haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
7. Ot yasalishi muammosiga doir nazariy qarashlar tahlili.
8. Sifat yasalishi muammosiga doir nazariy qarashlarni umumlashtirish.
9. Ravish yasalishi haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
10. So'z turkumlari haqidagi ta'limning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.
11. Fe'l so'z turkumining ta'lim bosqichlarida o'rganilishi masalasi.
12. Mustaqil va yordamchi fe'llar haqidagi nazariy qarashlar tahlili.

13. Fe'lning vazifadosh va modal shakllarini tahlil qilish va umumlashtirish.
14. Fe'lning semantik guruhlariga doir mavjud qarashlar tahlili.
15. Fe'lning daraja kategoriyasi haqidagi qarashlar tahlili.
16. Fe'lning mayl va bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasiga doir nazariy qarashlarni umumlashtirish.
17. Fe'lning shaxs-son kategoriyasi haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
18. Fe'lning zamon kategoriyasiga doir nazariy qarashlarni umumlashtirish.
19. Ot so'z turkumining ta'lim bosqichlarida o'rganilishi masalasi.
20. Oning ma'no turlari haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
21. Oning son va egalik kategoriyasi haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
22. Otlarda kelishik kategoriyasi haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
23. Oning nokategorial shakllari haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
24. Sifat so'z turkumining ta'lim bosqichlarida o'rganilishi masalasi.
25. Sifat darajalari haqidagi ilmiy qarashlarni umumlashtirish.
26. Son so'z turkumining ta'lim bosqichlarida o'rganilishi masalasi.
27. Olmosh so'z turkumining ta'lim bosqichlarida o'rganilishi masalasi.
28. Olmoshning ma'no turlari haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
29. Ravish so'z turkumining ta'lim bosqichlarida o'rganilishi masalasi.
30. Ravishning ma'no turlari haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
31. Mustaqil so'z turkumlarining bir-biriga ko'chirishini aniqlash.
32. Yordamchi so'zlarning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi masalasi.
33. Ko'makchilar haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
34. Bog'lovchi va yuklamalar haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
35. Modal, undov va taqild so'zlar haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.

III qism. Sintaksis. So'z birikmasi va sodda gap sintaksisi

1. Sintaktik munosabat va aloqa turlari haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
2. Tobe aloqa usullari. Moslashuv, boshqaruv, bitishuv usullari haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
3. So'z birikmasi haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
4. So'z birikmasi tasnifi haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
5. So'z birikmasi haqidagi ta'limning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi masalasi.
6. Gapning grammatik belgilari haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
7. Gapning tuzilishiga kora turlari. Sodda gap haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
8. Sodda gap haqidagi ta'limning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.
9. Gap bo'laklari. Gapning bosh bo'laklari haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
10. Egali va egasiz gaplar haqidagi nazariy qarashlar tahlili.

11. Ikkinchi darajali bo'laklar. Aniqlovchi va uning turlari haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
12. To'ldiruvchi va uning turlari haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
13. Hol va uning turlari haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
14. Gap bo'laklari haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi masalasi.
15. Uyushiq bo'laklar haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
16. Uyushiq bo'laklar haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.
17. Gaping ajratilgan bo'laklari haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
18. Ajratilgan bo'laklar haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.
19. To'liq va to'liqsiz gaplar haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
20. To'liq va to'liqsiz gaplar haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi masalasi.
21. Gap bo'laklarining tartibini aniqlash.
22. Murakkablashgan sodda gaplar: shakliy va mazmuniy murakkablashish haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
23. Undalma va kirish qurilmalar haqidagi nazariy qarashlar. Sodda gaplarning undalma va kirishlar bilan murakkablashuvi masalasini tahlil qilish.
24. Undalma va kirish qurilmalar haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi masalasi.

Qo'shma gap sintaksisi

1. Qo'shma gaplar. Qo'shma gaplar haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
2. Bog'langan qo'shma gaplar haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi masalasi.
3. Ergashgan qo'shma gaplarning semantik-sintaktik tuzilishini belgilash. Havola bo'lakli qo'shma gaplar haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
4. Ergashgan qo'shma gaplarning turlari. Ega, kesim, to'ldiruvchi va aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
5. Hol ergash gapli qo'shma gaplar: o'rin, payt, ravish ergash gapli qo'shma gaplar haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
6. O'ichov-daraja, chog'ishtirish-o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplar haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
7. Shart, sabab, maqsad ergash gapli qo'shma gaplar haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
8. Natija va to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar haqidagi nazariy qarashlar tahlili.
9. Ergashgan qo'shma gaplar haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.
10. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
11. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar haqidagi ta'limotning ta'lim

- bosqichlarida o'rganilishi masalasi.
12. Murakkab qo'shma gaplar haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
 13. Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplarning sintaktik tuzilishini belgilash.
 14. Aralash murakkab qo'shma gaplarning sintaktik tuzilishini belgilash.
 15. Murakkab qo'shma gaplar haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.
 16. O'zga gapli qurilmalar haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish.
 17. O'zga gapli qurilmalar haqidagi ta'limotning ta'lim bosqichlarida o'rganilishi.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

- “Hozirgi o'zbek adabiy tili” fani bo'yicha mustaqil tarzda olib boriladigan ishlarining asosiy maqsadi talabning o'qituvchi rahbarligi va nazorati ostida fanga doir bilimlarni mustaqil ravishda egallashi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.
- “Hozirgi o'zbek tili” fanidan mustaqil ishlarni talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllarda tashkil etish tavsiya etiladi:
- fan bo'yicha ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
 - fan bo'yicha amaliy mashg'ulot topshirig'ini mustaqil ravishda bajarish;
 - fan bo'yicha qo'shimcha o'quv adabiyotlari, jumladan, internet tarmog'idagi adabiyotlar bilan tanishish va ular haqida ma'lumotnoma yozish;
 - avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash asosida fanga doir ayrim mavzular yuzasidan lingvistik tahlil o'tkazish;
 - fan bo'yicha egallangan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish;
 - fanga doir ayrim mavzular bo'yicha tarqatma materiallar, nazorat topshiriqlari, ko'rgazmali qurollar ishlab chiqish.
- “Hozirgi o'zbek tili” fanidan mustaqil ishlarni talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllarda tashkil etish tavsiya etiladi:
- fan bo'yicha ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
 - fan bo'yicha amaliy mashg'ulot topshirig'ini mustaqil ravishda bajarish;
 - fan bo'yicha qo'shimcha o'quv adabiyotlari, jumladan, internet tarmog'idagi adabiyotlar bilan tanishish va ular haqida ma'lumotnoma yozish;
 - avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash asosida fanga doir ayrim mavzular yuzasidan lingvistik tahlil o'tkazish;
 - fan bo'yicha ayrim nazariy mavzular bo'yicha referat yozish;

• fanga doir ayrim mavzular bo'yicha tarqatma materiallar, nazorat topshiriqlari, ko'rgazmali qurollar ishlab chiqish.

Uyga berilgan vazifalarni bajarish, yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, Internet tarmoqlaridan foydalanib, ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garaklarda yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib, ilmiy maqola va tezislarni yozish kabilar talabalarining darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

Tavsiya etiladigan mustaqil ta'lim mavzulari

1. Fonologik zidlanishlar.
2. Korrelyatsiya, uning fonologik sistemadagi o'rni.
3. Fonemalarning integral va differensial belgilari.
4. Hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmi.
5. Hozirgi o'zbek adabiy tili konsonantizmi.
6. Grafika – yozuv tizimining yetakchi komponenti. Grafema tiplari.
7. Orfografiya tamoyillari.
8. Leksemaning semantik tarkibi.
9. Leksemaning uzual va okkazonal ma'nolari.
10. Leksik monosemiya va polisemiya. Leksik ma'no taraqqiyoti.
11. Morfologik qayta bo'linish hodisasi.
12. Sifatlarda daraja kategoriyasi.
13. O'zbek tilida hisob so'zlarining qo'llanilishi.
14. Boshqa turkum so'zlarining olmoshga ko'chishi (pronominalizatsiya)
15. Fe'larda grammatik kategoriya.
16. Fe'lning funksional shakllari.
17. O'zbek tilida yordamchi so'zlar.
18. So'z birligmasi va unga yondosh holatlar farqi.
25. Gapning mazmuniy va shakliy xususiyatlari.
26. Gap bo'laklari. Bosh bo'laklar.
27. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari.
28. Gapning uyushgan va ajratilgan bo'laklari.
29. Bog'langan qo'shma gaplar va ularning turlari.
30. Ergashgan qo'shma gaplar va ularning turlari.
31. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar va ularning turlari.
32. Bir necha ergash gapli qo'shma gaplar.
33. Bir necha bosh gapli qo'shma gaplar.
34. Aralash murakkab qo'shma gaplar.

Kurs ishini tashkil etish. “Hozirgi o'zbek adabiy tili” fanidan Kurs ishlari o'zbek tili va adabiyoti mutaxassislarini tayyorlashda talaba o'rganishi zarur bo'lgan asosiy fan sohasiga oid nazariy bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga qaratilgan hamda talabalarining bilim doirasini kengaytirish, nazariyani amaliyotga tatbiq etish, fikrni erkin va mustaqil tarzda bayon eta olish malakasini shakllantiruvchi amaliy ish turi

o'zbek tili va adabiyoti mutaxassislarini tayyorlashda talaba o'rganishi zarur bo'lgan asosiy fan sohasiga oid nazariy bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga qaratilgan hamda talabalarining bilim doirasini kengaytirish, nazariyani amaliyotga tatbiq etish, fikrni erkin va mustaqil tarzda bayon eta olish malakasini shakllantiruvchi amaliy ish turi hisoblanadi.

“Hozirgi o'zbek adabiy tili” fanidan kurs ishlari mavzulari mutaxassislik kafedrasida O'zR DTS va fan bo'yicha tuzilgan namunaviy o'quv dasturi asosida belgilanadi. Fan bo'yicha kurs ishi mavzularini belgilashda talabalarining ushbu fanga oid nazariy bilimlari va ko'nikmalarini hamda fan bo'yicha umumiy qiziqishlarini e'tiborga olish lozim bo'ladi.

“Hozirgi o'zbek adabiy tili” fani yuzasidan belgilangan kurs ishlari yozish va ochiq himoya qilishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

- kurs ishi mavzusining dolzarbligini aniqlash, tadqiq darajasini o'rganish va unga munosabat bildirish;
- kurs ishi mavzusiga oid eng so'nggi ilmiy manbalarni tahlil qilish va unga munosabat bildirish;
- kurs ishi mavzusini yuzasidan mustaqil mushohada yuritish;
- kurs ishi mavzusini yoritishda til hodisalarini o'zaro aloqa-bog'lanishda o'rganishga erishish, o'xshash til hodisalarini o'zaro farqlay olish, ularning struktur jihatlarni ajratishga erishish;
- kurs ishi mavzusini yoritishda masalaga oid daliliy misollarni tanlay olish va ularni to'g'ri tahlil etish asosida ma'lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara bilish;
- kurs ishi mavzusini yoritishda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lay bilish;
- kurs ishi mavzusi yuzasidan umumlashma xulosalar chiqara olish;
- kurs ishi mavzusini ochiq himoya qila bilish.

“Hozirgi o'zbek adabiy tili” fanidan kurs ishlari yozishda ilmiy-nazariy tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan tadqiq usullari tizimidan, shu jumladan, sistem-struktur tilshunoslikning tavsiflash, qiyoslash, zidlash, umumlashtirish, komponent tahlil qilish, til birliklarini modelashtirish, transformatsiyalash kabi eng ilg'or tahlil usullaridan o'rinni foydalanish talab etiladi.

Talabaning kurs ishi rejasida ko'tarilgan nazariy muammoni to'laqonli ochib berishi, umumlashma ilmiy xulosalar chiqarishi tanilgan tadqiq usuliga ham bog'liq. Kurs ishida sistem-struktur tilshunoslikning tavsiflash, qiyoslash, zidlash, bevosita ishtirokchilarga ajratish, transformatsiyalash, modelashtirish kabi eng ilg'or tahlil usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Til hodisalarining bunday tadqiq usullari yordamida tahlil etilishi o'rnatilgan obyektning bevosita kuzatishda berilmagan yashirin xususiyatlarini aniqlash hamda u haqida to'g'ri umumlashma ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Talaba “Hozirgi o'zbek adabiy tili” fanidan yozayotgan kurs ishini o'lim (bob)larida ko'tarilgan masalalar bo'yicha o'z kuzatishlari, tahlillari asosida umumlashma xulosalar chiqarishi va ularni ishda izchil tarzda bayon etishi lozim bo'ladi. Kurs ishida, ayniqsa, bo'lim (bob)larning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi,

bo'lim (bob) bandlarining aloqadorligi, ular o'rtasidagi mantiqiy ketma-ketlikka rioya qilish zarur.

Talaba kurs ishi mavzusida ko'tarilgan muammo yuzasidan to'g'ri nazariy xulosalar chiqarishi uchun mavzuga aloqador barcha ilmiy manbalarni chuqur o'rganishi, ularni qiyosiy tahlil qilishi lozim. Shundan so'ng u umumlashma xulosalar chiqarishi va to'plagan daliliiy misollari asosida rejadagi masalalarni yoritib berishi lozim bo'ladi.

Reja asosida yozilgan kurs ishlarining umumiy tuzilishi o'zaro mantiqan bog'liq quyidagi qismlardan tarkib topishi lozim:

- 1) umumiy tavsif;
- 2) kirish qism;
- 3) mavzu bayoni (asosiy qism);
- 4) umumlashma xulosalar bayoni;
- 5) foydalanilgan adabiyotlar;
- 6) ilova (izohlar, jadval va chizmalar).

Qayd etilgan bu masalalar kurs ishida ketma-ketlikda yoritilsa, fikr izchilligiga putur yetmaydi.

"Hozirgi o'zbek adabiy tili" fani bo'yicha tashkil etiladigan kurs ishlari mutaxassislik kafedralarida belgilangan tartibda himoya qilinadi.

V. VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.
2. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent, 2009.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbanova M., Yunusova M., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. - Toshkent: Universitet, 2006.
5. Hojiyev A.O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasashining nazariy masalalari. -Toshkent: Fan, 2010.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-itiqoz va shaxsiy javobgarlik —har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni. 07.02.2017. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 28-(6722) soni. 2007.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori. - "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 21-aprel.

4. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent, 1995.

5. Jamolxonov H., Sapayev Q. Imlo muammolari. O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2008.

6. Saparmiyozova M., Ahmedova N. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. -Toshkent, 2010.

7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. - Toshkent: Universitet, 2002.

8. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasash tizimi. - Toshkent: Fan, 2007.

Internet saytlari

1. <http://www.gov.uz/> Alisher Navoiy nomidagi TDO-TAU sayti.
2. <http://www.pedagog.uz/> Pedagogika muassasalari portali.
3. [www. Ziyounet. uz](http://www.ziyounet.uz)